

# **JAHON ADABIYOTI FANIDAN MA'RUZALAR MATNI**

Ushbu kitobcha universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti 3-kurs talabalariga mo'ljallangan bo'lib, "Jahon adabiyoti" fanidan ma'ruza matnlarini o'z ichiga olgan.

Ma'ruza matnlari A.Alimuhamedovning "Chet el adabiyoti" (Toshkent, 2007-yil), A.Uzoqov muallifligida chop etilgan "MDH xalqlari adabiyoti" (Toshkent, 2007-yil) da chop etilgan darslik hamda O.Qayumov va Q.Azizovlarning "Chet el adabiyoti tarixi" chop etilgan darslik kitoblaridan va O'zROO'MTVning 2008-yil 23-avgustdagi 263-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy fan dasturi asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchi:** filologiya fanlari doktori  
A.Xolmurodov

**Mas'ul muharrir:** filologiya fanlari nomzodi  
S.Q.Jumayeva

**Taqrizchilar:** dotsent M.Farmonova  
f.f.n. Q.To'xtayeva

Ushbu ma'ruza matnlari NDPI O'zbek filologiyasi fakulteti O'quv -uslubiy kengashi (2010-yil 1-sonli majlis) qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

## **Mavzu: Kirish. Markaziy Osiyo va Qozogiston xalqlari adabiyoti**

### **Reja:**

1. MDH xalqlarining adabiyotining maqsad va vazifalari.
2. Tojik va Turkman adabiyotining yirik vakillari.
3. Qozoq va Qirg'iz, Qoraqalpoq adabiyotining ko'p qirraliligi.

### **Adabiyotlar:**

1. Maxtumquli. Saylanma. T., 2008.
2. A.Rashidov. "Ch.Aytmatovning badiiy olami". T., 2008.
3. A.Uzoqov. "MDH adabiyoti". T., 2008.
4. N.Xisrav. "Safarnoma". T., 2005.
5. Sa'diy. "Bo'ston". T., 2009.

Qadimdan Markaziy Osiyo va Qozog'iston tuprog'ida yashab kelayotgan o'zbek, tojik, turkman, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlari adabiyotni o'z ichiga olgan mazkur guruh iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotidagi umumiylikdan tashqari, jo'g'rofiy yaxlitlikka ega. Markaziy Osiyo va Qozog'iston xalqlari adabiyotining bir necha xususiyati bor. Avvalo, mazkur xalqlar katta manbaga ega bo'lgan va keyinchalik yozma adabiyotning rivojiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir etgan xalq og'zaki ijodiga ega.

Ikkinchidan, o'tmishda va hozir ham nasrdan ko'ra nazm adabiyotda yetakchi mavqe egallagan. Shu sababdan nazm va nasr o'zaro uyqash bo'lib ketgan.

Uchinchidan, bu adabiyotlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va aloqa ko'p yillik tarixga ega. Ulug' fors-tojik adabiyoti namoyondalari Abulqosim Firdavsiy, Umar Xayyom, Hofiz Sheroziy, Sa'diylarning ijodi O'rta Osiyo xalqlarining boyligi sanaladi. Yoxud, ulug' xalqlar adiblari uchun katta ijod maktabidir. Birgina Gulxaniy, Maxmur, Sadridin ayniy, Hamza Hakimzoda Niyoziyalar fors-tojik va o'zbek tillarida baravar qalam tebratishgan.

Sho'ro hukumati o'z tayziqini o'rnatgach, mazkur xalqlarning azaldan shakllanib kelgan an'ana va qadriyatlarga ancha putur yetdi. Mazkur xalqlar adabiyotiga realizm tamoyili va demokratik tendentsiyalar majburlab kiritildi. Aslida sho'roviy realizm va insonparvarlik yolg'on, soxta, ko'zbo'yamachilikdan boshqa narsa emasdi. Sho'ro hukumati bu xalqlar adabiyotiga «shakllangan milliy, mazmunan sotsialistik» tus berdi. Ayni shu mayoq ostida Hamza, Ayniy, Oybek, Mirzo Tursunzoda, Muxtor Avezov, Sobit Muqanov, Berdi Kerboboev kabi ijodkorlar «Qullar», «Qutlug' qon», «Alisher Navoiy», «Abay yo'li», «Dadil qadam», «Bo'ta ko'z» singari asarlarini yozishdi. Yana bir jihatga to'xtalish jioz. Ulug' «og'a»larimiz ijodiga hamohang tarzda asarlar yozish an'ana darajasiga yetdi. Masalan, V.Mayakovskiy zinapoya shaklidagi she'rlariga taqlidan G'afur G'ulom ham «Turksib yo'llarida» she'rini yozgan edi. Undan keyin Hamid Olimjon shu yo'nalishda bir necha she'rlar yozgan.

Sho'ro imperiyasi barham topgach, xamdo'stlik mamlakatlari birin-ketin mustaqillikka erishdi. Ular faqat iqtisodiy-siyosiy jihatdan emas, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham mustaqil bo'ldi. O'z-o'zidan adabiyotda ham yangi yo'nalishlar, g'oya va maslaklar asta-sekin ifodasini topa boshladi.

## TOJIK ADABIYOTI

Tojik adabiyotining tarixi tojik xalqining tarixi kabi boy va qadimiydir. O'zining kelib chiqishi va til xususiyatlari jihatidan tojiklar Eronda yashovchi forslarga vobasta. Shu bois fors-tojik adabiyoti atamasi tez-tez qo'llanadi. Ulug' mutafakkirlar Abulqosim Firdavsiy, Umar Xayyom, Sa'diy She'roziy, Hofiz She'roziy, Abdurahmon Jomiyning ijodiy merosi bani basharga bir xil darajada taalluqlidir. Qadim tojik adabiyotni qardosh xalqlar adabiyoti jumladan, o'zbek adabiyoti bilan bog'lovchi an'analar mavjud. Bu ikki xalq vakillari ikki tilda bemalol gaplashish barobarida ikki tilda ijod ham qiladilar.

Xalq og'zaki ijodi namunalari, «Avesto», «Go'ro'g'li» siklidagi dostonlardan ma'lum bo'ladi-ki, yozma tojik adabiyoti IX asrdan boshlanadi. Shunga qarab tojik adabiyotini quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Qadimgi tojik adabiyoti
2. IX-XV asrlar adabiyoti
3. XVI-XIX asr tojik adabiyoti
4. Sho'rolar davri tojik adabiyoti (1917-1991)
5. Hozirgi zamon tojik adabiyoti

Qadimgi tojik adabiyotining bizgacha yetib kelgan ilk namunalari: «Avesto», «Rustam» to'grisidagi dostonlar, parfiyan tilidagi «Assiriya tarixi», «Zorer haqida» asarlar.

Asrab istilosidan so'ng to IX asr boshigacha davlat tili arab tili edi. Somoniylar davlati paydo bo'lgach esa jonli til-«dari» (forsiy) hisoblanib, yozma adabiyot shakllanadi. Abutoqiyi Abbas ibn Taxon Samarqandiy, Abuhafs Samarqandiy, Xanzol Bog'disiy, Mas'ud Marvoziy, Feruz Mashriqiy, Muhammad ibn Vosif Sag'ziy, Abusolih Gurgoniy, Abbas Marvaziy, Bassom Kurd Xorijiy, Muhammad ibn Muhallidlar mazkur adabiyotning vakillari hisoblanib, ularning ijodida xilq og'zaki ijodining ta'siri kuchli edi. Tojik yozma adabiyotining asoschisi sifatida Abu Abdulloh Ro'dakiy tan olingan.

V-XI asrlarga kelib tojik mumtoz adabiyotida ruboiy (Ibn Sino, Umar Xayyom), g'azal (Unsuriy, Farruxiy, Manuchehriy), qasida janrlari bilan bir qatorda dostonchilik ravnaq topdi. Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma», Asadiyning «Gurshaspnoma», Faxriddin Gurgoniyning «Vis va Romin» dostonlari mazkur janrning yetuk nishonasi edi. «Zol va Rudoba», «Bijan va Manij», «Bahromi Cho'bina», «Temirchi Kova» kabi bin necha dostonlarni o'z ichiga olgan «Shohnoma» asarida turli toifa kishilarining murakkab munosabatlari ifodasini topgan, Rustam va Isfandiyorlarning qahramonona hayoti tasvirlangan.

X-XI asr fors-tojik she'riyatida Nosir Xisrav va Umar Xayyomning alohida o'rni bor. Nosir Xisravning «Xudo bilan aytishuv» qasidasi, «Safarnoma», «Rushnoyinoma» asrlarida mumtoz adabiyotining ana'ana va g'oyalari bir muncha yangilangan bo'lsa, Umar Xayyom ruboiy janrining katta salohiyatga ega ekanini namoyish etdi.

Nazira, tatabbu' janrlarini, XII asrda Sobir Termiziy o'z asarlari bilan boyitgan bo'lsa, ijtimoiy hayotning illatlarini hajv kulgi asosida So'zaniy qalamga oldi.

XIII-XIV asrlar tojik adabiyot ravnaqi uchun alohida mavqega ega. Aytish mumkin-ki, to Abdurahmon Jomiygacha tojik adabiyotini yuksak cho'qqiga olib chiqqan Jaloliddin Rumiy, Xusrav Dehlaviy va Sa'diy Sheroziylar ayni shu davr mahsuli edi. Xusrav Dehlaviy Nizomiy an'anasini davom ettirib, mohiyatan yangi bo'lgan «Xamsa» yozdi. «Bo'ston», «Guliston» asarlari bilan dunyo adabiyotiga hissa qo'shgan Sa'diy Sheroziy g'azalchilikni yuqori pog'onaga ko'tardi. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy «Xamsa»

dostonida ham, «Xazoyin ul-maoniy» kulliyotida ham g'azalda uch kishini tan olishini zikr etgan edi: Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy.

XIII-XIV asrlarda O'rta Osiyo va Eronning shahar hamda qishloqlari mug'ullar istilosida toptaldi. Qonli urushlar va xalqqa qilingan zulm, ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning og'irligi shoir va yozuvchilarning ham ijodiga ta'sir qildi. Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Nosir Buxoriylar fors-tojik adabiyotidagi g'azal va ruboiy janrlarini takomillashtirishga harakat qildi. Ubayd Zakoniy «Risoi ahloq-ul-ashrof», «Yuz nasihat», «Sichqon bilan mushuk» asarlari bilan hajviy satirani rivojlanishiga munosib ulush qo'shdi. XV asrga kelib Samarqand, Buxoro, Hirot kabi shaharlarda adabiy hayot qaytadan jonlandi. Ko'pgina shuaro zullisonayn ijodkor tarzida faoliyat yurita boshlashdi. Ayniqsa, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy o'rtasidagi do'stona munosabatlar mazkur masala bo'yicha namuna bo'la oladi. Fors-tojik adabiyotini Abdurahmon Jomiy o'zining «Haft avrang» va «Bahoriston» asarlari bilan haqli ravishda yuksak cho'qqiga olib chiqqan bo'lsa, Husayn Voiz Koshifiy o'zining «Kalila va Dimna» (qayta ishlaydi). «Anvori Suhayliy», Davlatshoh Samarqandiy, «tazkirat-ul shuaro» asarlari bilan mavjud ana'analarini takomillashtirdi. XV-XVI asrlarda fors-tojik adabiyotini Zayniddin Vosifiy «Bedoe-ul vaqoe», Binoiy, Hiloliy, Abdurrahmon mushfiqiy «Taqsimi meros» asarlari bilan takomillashtirilgan bo'lsa, XVII asrda asli hunarmand bo'lgan Mulham Buxoriy, Fitrat Zardo'zi Samarqandiy, Sayido Nasafiylar alohida salohiyatga ega bo'ladilar. Ayniqsa, Sayido Nasafiylar hayvonlar timsolida ijtimoiy hayotni real tasvirlashga intildi. Masal janrida yaratilgan «Hayvonotnoma» asarining tili sodda, vazni o'ynoqi, mazmunan tushanarli. Sher va chumoli, navvoy va musavvir siymolarida shoir tazod, tarse', jonlantirish, mubolag'a san'atlaridan unumli foydalanadi. XVIII-XIX asrlar tojik she'riyatida Mirzo Qodir Bedil ijodining ahamiyati katta. Uning she'rlarida tasavvufiy g'oyalar barobarida zamonaning mavjud hayoti, odamlar orasidagi har xil munosabatlar ishonarli tarzda ifodasini topgan. Ayni shu davrga kelib qariyb shakllanib bo'lgan tojik adabiyotida g'azal, ruboiy, qit'a, masnaviy, qasida, dostton, nasriy memuarlar- tamsiliy asarlar, tazkira kabi ko'plab janrlarda ijod etildi. Tojik ma'rifatparvarlik adabiyotini yalovbardori-Ahmad Donish, Xuddi Mirzo Fatali Oxundov, Abay Qo'nonboev, Furqat, Zavqiy kabi ziyo tarqatishga bel bog'lagan Ahmad Donish xalqni g'aflatdan uyg'otib, atrofga teranroq nigoh bilan qarishga, ilm olishga undaydi. Keyinchalik uning g'oyalarini Savdo, Shohin, Vozeh, Hayrat, Asiriy, Sadridin Ayniy davom ettirishdi.

Sho'ro davrida tojik adabiyotining yetakchi janri she'riyat bo'ldi. Sadridin Ayniy, Po'lat Sulaymoniy, Majid Rahimiy, Lohutiylar turli ijtimoiy masalalarni kuylashga harakat qildilar. «Buxoro jallodlari», «Odina», «Qullar» asarlari bilan Sadridin Ayniy tojik nasrchiligini boshladi, desak muboag'a bo'lmaydi. Maksim Gorkiy, Mayakovskiy, Sadridin ayniy, Lohutiylarning adabiy maktabida tarbiya olgan M.Tursunzoda, A.Dehotiy, H.Yusufiy, M.Mirshakar, R.Jalil, J.Ikromiy, S.Ulug'zoda, F.Niyoziy, B. Rahimzoda kabi iste'dodli qalamkashlar adabiyot maydoniga kirib keldi.

Fashizmga qarshi kurash yillarida Sadridin Ayniy «Temur Malik», Lohutiy «Tayanch g'alabasi», «Mardiston dostoni», Tursunzoda «Vatan o'g'li», Mirshakar «Baxt kaliti», Niyoziy «Vafo», «Ulug'zoda «O'tda», Ikromiy «Nodiraning uyi» asrlarini yozdi.

1950-yillardan so'ng tojik adabiyoti yangi ovozlarda bilan boyidi. Shukhiy, mirzo, Ansoriy, Farhat, F.Muhammadiev, B.Ortiqov singshari o'nlab shoir, dramaturg, yozuvchilar ustozlar an'anasini davom ettirishdi. Bundan tashqari, Sayfi Saroyi, Qutb, Alisher Navoiy, Hamza, Asqad Muxtor, Sharof Rashidov, Abdulla Qahhor, Oybek kabi

o'zbek mutafakkir, adiblarining asarlari tojik tiliga o'girildi. Shu barobarda o'zbek kitobxonlari Lohutiyning «Yevropa safari», «Baxt parisi», Mirzo Tursunzodaning «Hasan aravakash», «Hindiston qissasi», R.Jalilning «Po'lod va Gulru», Jallol Ikromiyning «Olov qizi», Sotim Ulug'zodaning «Yoshligimiz tongi» asarlaridan bahramand bo'lishdi.

### **ABU ABDULLOH RO'DAKIY (858-941)**

Abu Abdulloh Ro'dakiy fors-tojik adabiyotining asoschilaridan bo'lib, Somoniylar podsholigi zamonida Buxoroda tug'ilgan. Zamonasining mashhur tarixchi, faylasuf, olimlaridan muntazam tahsil olgan. Abdullohni saroyga chaqirishadi. Ro'dakiy yozgan asarlarning oz miqdori bixzgacha yetib kelgan. Unda shoir haqiqiy hayotni tasvirlashga harakat qiladi. Ayniqsa, «Qarilikdan shikoyat», «May onasi» qasidalar va o'nlab o'ynoqi, ravon, sermazmun g'azallari kishini o'ziga maftun etadi. Shoir ijodini ilmiy o'rgangan olimlar uning «Kalila va Dimna» ni nazmga aylantirganini qayd etadilar. Somoniylar saroyidagi muhitga o'rganolmay qolgan Ro'dakiy o'zi tug'ilgan Panjrudak qishlog'iga qaytadi. 941-yilda o'sha yerda vafot etdi. 1957-yili dunyo bo'yicha Ro'dakiyning 1100 yilligi keng nishonlandi. 1963-yilda Tojikiston hukumati eng yaxshi badiiy asar uchun Ro'dakiy nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etdi.

«Qarilikdan shikoyat» asari shoir Ro'dakiyning hasbi holi tarzida qabul qilinadi. O'zbek tiliga G'afur G'ulom juda sodda, ravon tarjima qilgan. Shoir qarilik holatini tishining to'kilishi, sochining oqarishi, qaddining xam bo'lishi tarzida tasvirlaydi:

Tishim bari to'kilib ketdi, durri g'alton ketdi,  
Ularni tish dema, balki charog'i tabon edi.  
Oqish kumush edi-yu, xuddi duru marjon edi,  
Buloqning qatrasini yoinki tongda cho'lpon edi.

Dunyoning bevafoqligini uqtirgan shoir yoshlik kezlarini eslaydi. Shod-xurram yurgani-yu gajak-gajak qora sochini, atlas kabi yuzining tiniqligi-yu bir ko'p kanizaklar unga oshiqligini zavq bilan qalamga oladi:

Sen, ey yuzi to'lin oydek go'zal, ne bilgaysan?  
Besh olti kuni nari holim nechog'li shodon edi?  
Ko'pincha sen gajaging birla menga maqtanasan?  
Gajak-gajak qaro sochim misoli chavgon edi.  
Yuzim tekisligi atlas kabi zamon o'tdi,  
Mening sochim u zamonda qaro-yu qatron edi.

Ro'dakiy yoshligidagi ijodiy shijoatini tasvirlarkan, she'riy tilining burroligini alohida uqtiradi. O'shanda u o'zining eng boy inson deb biladi:

Dilim xazinasi o'z gavhari-la limmo-lim,  
Qayonga xatki yozibman she'r muhr unvon edi.  
Ko'rib turibsan o'zing Ro'dakiyni, oy yuzlim,  
Ko'rolmading uni, attangki, u boy inson edi.

Shoir o'zining yigitlarning yigiti, she'rlari olamga manzur, devon tuzgan Xuroson shuarosi deb bilib, mazkur yuksalishning ulug' manbai Somoniyligiga alohida urg'u beradi:

Butun she'rlari manzuru tinglamish olam,  
Butun she'rlari o'z-o'zigacha devon edi.  
Uning she'rlarini tinglagan jahon o'tdi,

Kechib zamonaki, ul shoiri Xuroson edi.  
To`yin-to`kin, bu ulug`lik sabablarini so`rasang,  
Bu ne'matu bu ulug` manbai oliy Somon edi.

Asar oxirida shoir xulosalaydi: avvalo, umr o`tdi, tishlar to`kilib, sochlar oqardi, qarilik o`z haqqini oldi. Yoshlikdagi qiziqishu, quvonchlar o`tdi-yu, ketdi. Ikkinchidan, biz yashagan yoshlik damlari va quvonchlarining vaqti zamon o`tdi, ya'ni endi Somoniylar davlatining zamon emas:

Zamona aynadi, men ham tamoman o`zgardim,  
Asomni qo`lga ber endi, u boshqa davron edi.

Xullas, Ro`dakiy sazkur asarida tug`ilishidan to qarilikkacha bo`lgan davrini real tasvirlashga intiladi.

Ro`dakiy qit'alarida ko`tarilgan mavzu ijtimoiylikdan odamiy munosabatlarga o`tadi, ya'ni zamonadan noliyotgan shoir birdan samimiy ishqqa o`tadi.

Zamona menga juda qimmat nasihat etdi,  
Agar bilsang, zamon to`la nasihat erur.

Dedi: o`zdan balandroqni ko`rib g`am yema,  
Ko`p kishi bor, sen bo`lishni orzu qilur.

Uning fikricha, ishq mayidan bir tomchi Nil daryosiga tushsa, hidi nahangni mast qiladi. Agar sahroda chanqagan kiyik bir qatra ichsa, o`zini arslonday tutib, sherni nazariga ilmaydi. Ishqqa muftalo oshiqqa har qanday to`siq pisand emas:

Bu maydan bir tomchi Nil ichra tushsa,  
Hamisha mast qilur hidi nahangni.  
Kiyik bir qatrasin sahroda ichsa,  
Arslondek ko`ziga ilmas palangni .

Ro`dakiyning «Jahonning shodligi yig`ilsa bugun...» matla'i bilan boshlanadigan masnaviysini Muinzoda go`zal tarzda tarjima qitlganki, kattadan kichik barchasi yod olgan:

Jahonni shodligi yig`ilsa butun,  
Do`stlar diydoridan bo`lolmas ustun.  
Har qancha bo`lsa ham olamda achchiq,  
Achchiqroqdir dono do`stdan ayriliq.  
Odamdan yuqori turarkan olam,  
Bilim oshirmoqqa muhtojdir odam.  
Aqli kishilar har qaysi tilda,  
Har qanday zamonda, har qaysi xilda.  
Bilimlarni to`plab, hurmat etdilar,  
Toshlarga naqsh etib, bitib ketdilar:  
Odamlar qalbining chirog`i bilim,  
Yomondan saqlanish yarog`i bilim.  
Agar menga birov dushmanlik qilsa,  
Doimo do`stlikni ko`zlayman unga,  
Muloyimlik bilan so`zlayman unga.

## SA'DIY SHEROZIY (1189-1292)

Musharafiddin ibni Muslihiddin Abdulloh Sa'diy haqidagi ma'lumotlar turli tazkirada turlicha keltiriladi. Shu bois ko'pgina olimlar uning hayoti va ijodi to'g'risida fikr bildirganda shoir asarlaridagi qaydlarga suyanishadi. U 1189 yilda Sherozda amaldor oilasida tug'ilgan. Otasi Sa'd binni Zangiy qo'lida ishlagan. Bu haqda sa'diy «Guliston»ida yozadi:

Man on goh sari tohvar doshtam,  
Ki sar dar kanori padar doshtam.

Sa'diyning oilaviy ahvoli haqida to'liq ma'lumot yo'q. Ammo fors hokimi Shamsiddin Tozigo'yiga murojaat qilganidan yaqqol ko'rinadiki, Sa'diyning oilasi og'ir ahvolda yashagan:

Z-ahvoli barodaram ba tahqiq,  
Donam, ti turo xabar naboshad.  
Az g'oyati fikr doimo o'ro,  
Shalvor ba poy dar naboshad.

Sherozda siyosiy ahvol notinch bo'lgani uchun Sa'diy Bag'dodga yo'l oladi va u yerda Nizomiya madrasasida tahsil oladi. Ilk ustoz Abdulfaraj Abdurahmon ibni Javziy (1186-1257) edi. Eng muhimi tasavvuf ta'limotining asoslarini o'rganish niyatida Sa'diy 30 yil safar qilib, Arab, Eron, Turk va Rum mamlakatlarida bo'ladi. Sa'diyning mazkur yurtlardagi sayru sayohatlarining batafsil bayoni yo'q. Ammo undagi tafsilotlar «Bo'ston» va «Guliston» da aks ettirilgan. 1257-yili 68 yoshida bo'lgan Sa'diy dunyo bo'ylab sayohatini tugatib, Shayx Abu Abdulloh ibni Hafif xonaqohida go'shanishinlik qila boshladi. Zamonasining ulug' murshidi Shamsiddin Juvayniy uni o'z xonaqohiga chorladi. Ammo sa'diy pirning taklifini qabul qilmadi. 1292-yili shoir 103 yoshida vafot etadi.

Mumtoz adabiyotning barcha janrlarida ijod qilgan Sa'diy Sherozga qaytgach parokanda she'rlarini jamlab, 1257-yilda «Bo'ston», 1258-yilda «Guliston», to'rt devondan iborat kulliyotini yozdi. Bu devonlar:

1. «Tabiyot»
2. «Badoe'»
3. «Xavotim»
4. «G'azaliyoti qadim»

Sa'diyshunos olimlar shoirning qalamiga mansub asarlarni quyidagicha tartib beradilar: «Bo'ston», «Guliston», «Qasoid», «Tarjebband», «Devoni Tabiyot», «Devoni badoe'», «Devoni xavotim», «G'azaliyoti qadim», «Qit'alar, ruboiylar va fardlar», «Chor risola» (maktublar va javoblar), «Sohibnoma».

Kalom falsafasini rivojlantirib, uni mumtoz adabiyotiga olib kirgan shoir Sa'diydir. U olam va odamni yo'qdan bor qilgan Tangri Taoloning qodiru tanholigini tan olib, insonning oliy xilqatiga iymon keltiradi. Bir she'rida yozadi:

Ba umrash vuchud az adam naqsh bast,  
Ki donad chuz o' kardan az nest hast.  
Digar rah ba katmi adam darbarad,  
V-az on cho ba sahroi mahshar barad.

Sa'diy-so'fiy shoir. U tasavvufdagi aqidlarni mutassil o'rganib, uni «Bo'ston», va «Guliston» tarkibidagi hikoyat va she'rlarda singdira oladi. Ayniqsa, nafs, nafsni tiyish, kibr, manmanlik kabi so'fiylarga illat bo'lgan xususiyatlarni tahlil etarkan Sa'diy shunday



xulosa qiladi: so'fiy uchun yeyish, ichish muhim emas. Eng keraklisi-ko'ngildan Ollohga sig'inish, odamlar orasida yashab ularga foyda keltirish, nafsini tiyish, riyodan saqlanish:

Na chandon bixo'r k –az dahonat baroyad,  
Na chandon ki az za'f chonat baroyad.

Adolatli shoh masalasini Sa'diy ilk bor badiiy tarzda ifodalagan. Uningcha, davlat adolatli podshoh bilan rivojlanadi. adolat va ma'rifat shohning asosiy tamoyili bo'lishi kerak. Keyinchalik shu g'oya Alisher Navoiyning «Xamsa» sida, to'g'rirog'i, «Sa'diy Iskandariy» da go'zal tarzda ifodasini topdi. Sa'diy yozadi:

Vagarna roin (cho'pon) xalq ast, zahri morash bod,  
Har on chy mexo'rad az chiz'yai musulmonist.

«Gulsiton» da shunday hikoyat bor. Bir kuni Sulton yo'ldan o'tib ketayotsa, bir darvesh yo'l ustida o'tirardi. Darvesh podshoh (Sulton) ga salom bermadi. Sulton ranjib dedi: «Bu xirqapo'shlar hayvonga o'xshaydi, odamgarchilikdan asr ham yo'q». Vazir darveshning oldiga kelib dedi: «Ey gumroh javonmard, zaminning podshosi sening oldingdan o'tayapti-yu, sen nega yugurib borib uning xizmatini qilmading, hurmatini joyiga qo'yading?». Hech kimdan tama' qilmaydigan darvesh javob ayladi: «Sultonga yetkazingki, odamlardan umidvorlik qilmasin, mulkiga ko'p oshufta bo'lmasin. Odamlar mulkka emas, mulk odamlarga xizmat qiladi».

Podshoh posboni darvesh ast,  
Garchi romish ba farri davlati ast,  
Go'sfand az baroi cho'pon nest,  
Balki cho'pon baroi xidmati o'st.

(Romish-rohat-farog'at; Farr-sha'nu shavkat)

pandu hikmat-xalqning yillar davomida aqliy zakovati. Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston»idagi pand-nasihati, ma'izalar mavzu jihatdan turlicha: ilmu hunar o'rganish, jasorat, qahramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, sabr-qanoat, hallollik, poklik.

Ilm olish har bir kishiga farz. Ammo unga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Sa'diy yozadi: «Du kas ranchi behuda burdand va sa'yi befoyda kardand: Yake on ky mol ando'xtu naxo'rd va digare ilm omo'xtu amal nakard». Fikrini davomida shoir uqtiradiki, ilm olish dahru dunyodan voz kechish, uzlat qilish emas, aksincha, dunyoni o'rganish. Ilmning asosi- takror va mubohisa, uning husni-sabr, andisha hamda odob, ilmga illat-manmanlik, kibr, riyokorlik, tama'. «Guliston» da Sa'diy tasavvufining asosiy tamoyili sanalgan qanoatga alohida bob keltiradi. Uningcha, qanoat insonga ma'naviy kuch beradi:

Qanoat tavongar kunad mardro,  
Xabar deh harisi chahongardro.

Sabr qilgan odam o'z murodiga yetadi. Lekin bu dunyoning ishlari shunchalar g'aliz, tushunarsizki, uni yo qanot, yo tuproq to'ldiradi.

Guft: Chashmi tangi dunyodorro,  
Yo qanot pur kunad, yo xoki go'r.

Aruzning mutaqoribi musammani maqsur (faulun, faulun, faulun, faul) vaznida yozilgan «Bo'ston» quyidagicha tartiblangan:

Kitobning yozilish sabablari  
Kirish va ilova haqida  
Kitobxonga murojaat  
O'nta bob

Boblar quyidagicha: adl, ehson, ishq, tavoze', rizo, qanoat, tarbiyat, shukur, tavba, munojot. «Bo`ston» asari yagona syujet va kompozitsiyaga ega emas. Boblar alohida-alohida xulosa va hikoyatga ega bo`lib, muayyan bir g`oyaga xizmat qiladi. «Guliston» Sa'diyning ikkinchi asari bo`lib, hijriy 656 (mitl. Avvalgi 1258) yilda yozilgan. U debochadan tashqari sakkiz bobni o`z ichiga oladi: podshohlar, darveshlar ahloqi, qanoat fazilati, xomushlik qoidalari, ishq va yigitlik, qarilik va zaiflik, tarbiya ta'siri, suhbat odobi . shoirning o`zi qayd etganidek, «Guliston» ning asosi pand-nasihat

Murodi mo nasihat budu guftem,

Havolat bo xudo kardemu raftem.

«Guliston» da ham yagona syujet yo`q. Har birp bobga alohida hikoyat keltiriladi. Asarning badiiy qimmatini ta'minlovchi asosiy omil nazm va nasr vobasta etilgan. Ifodalarning jonli, ishonchli bo`lishi uchun Sa'diy hajv, tazod, tarse', mubolag`a va boshqa badiiy san'atlardan foydalangan. Sa'diy adabiy merosining asosiy qismini nazm tashkil qiladi. Masnaviy, ruboiy, qit'a, fard, g`azal, tarje'band kabi janrlarda ijod qilgan Sa'diy g`azalchilikda Firdavsiy va Anvariyni alohida hurmat bilan tilga oladi.

Dar she'r se tan payambaronand,

Harchand ki lonabiya ba'dy.

Avsafu qasidavu g`azalro:

Firdavsi-yu Anvari-yu Sa'diy.

(lonabiya ba'dy-Nabidli boshqa tug`ilmaydi; Avsaf-vasf)

Chor devonga kirgan asarlarning asosiy qismini 632 g`azal tashkil qiladi. G`azallarning asosiy mavzusi-ishq. Mumtoz adabiyotda tasnif etilganidek, ishq haqiqiyni xuddi Sanoiy, Attor, Jaloliddin Rumiy kabi Sa'diy go`zal tarzda kuylaydi:

Suxan berun mago`y az ishq, Sa'dy,

Suxan ishq astu digar qilu qol ast.

Yana bir o`rinda ma'shuqani shunday chizadi:

Mah ast on yo malak yo odamizod?

Tuy yo oftobi olamafro`z?

She'riy satrlarni tazod, tashbeh, istiora, mubolag`a, tajnis, mullama'-shiru shakar kabi san'atlar bilan ziynatlagan Sa'diy mahorat borasida Hofiz Sheroziyga ustoz bo`ladi.

1. Tazod san'ati:

Baloi ishq tu bar man chunon asar kardast,

Ki pandi olimu chohil namekunad asaram.

2. Mubolag`a san'ati:

Gar g`ussai ro`zg`or go`yam

Bas qissai beshumor go`yam.

Yak umri hazor soya boyad,

To man yake az hazor go`yam.

3. Talmeh san'ati:

Man avval ro`z donistam, ki bo Shirin daraftodam,

Ki chun Farhod boyad shust dast az choni Shirinam.

4. Mullama' san'ati:

Ey sho`hrai shahru fitnai xayl,

Fi manzariq annahoru vallayl.

(arabcha tarjima: ruyi tu safed astu zulfat siyoh)

5. O`xshatish san'ati:

Garchi tu amiri mo asirem,  
V-ar chi tu buzurgu mo haqirem.  
Garchi tu g`aniyu mo faqirem,  
Dildorii do`ston savob ast.

### **AMIR XUSRAV DEHLAVIY (1253-1325)**

Xusrav Dehlaviy Keshda yashagan Hazorai Lochin turk qavmidan bo`lgan. To mug`ullar istilosigacha ular Poimurg va Keshda tirikchilik o`tkazgan. Mug`ullar bostirib kimgach mazkur qavm Hindistonga ko`chib boradi va uning otasi Sayfiddin Mahmud Dehlidagi bir Sultonning qo`lida xizmat qiladi. Otasi 1261-yilda (hijar 651) Hindistonda mug`ullarga qarshi kurashda halok bo`ladi. Maktab va madrasa tahsilini olgach u 1273-yili Sulton Mamluk xizmatiga o`tadi. Keyinchalik Dehlida G`iyosiddin Balban, 1281-yili G`iyosiddin Muhammad Sulton uni xizmatiga oladi. 1286-yili u Patyoliyga onasi va ukasini oldiga qaytadi. Amir Xusrav Dehlaviy tasavvuf ilmini o`rganib, darveshlikni ixtiyor qildi va Shayx Nizomiddin Dehlaviyga murid tushdi. 1299-yilda uning boshiga musibat tushdi, ya'ni onasi va ukasi vafot etdi. Bu g`amni u «Layli va Majnun» asarida ham tilga oladi. Tarixiy manbalarda keltiradiki, Amir Xusraviyning yetti farzandi bo`lgan:

1. Mastura
2. Ma'sud
3. Xizr
4. Rukniddin
5. Afifa
6. Ayniddin Muborak
7. Malik Ahmad

Dehlaviy merosini quyidagilar tashkil qiladi: «Chor devon»

«Tuhfat-us-sig`ar» (yoshlik ayyomi, 1272)

«Vasat ul-hayot» (o`rta yosh, 1286)

«G`urrat ul - kamol» (kamolot davri, 1302)

«Baqiyat-ul-naqiya» (qarilik, pirlilik 1314)

Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa»siga javoban «Panj ganj» ini yozadi:

«Matla'-ul-anvar», «Maxzan-ul-asror» ga javob tarzida bitilgan

«Shirinu Xusrav»-«Xusravu Shirin»

«Majnun Layli»- «Layliu Majnun»

«Hasht behisht»- «Haft paykar»

«Oynai Iskandariy»-«Iskandarnoma»

Tarixiy mavzularda quyidagi asarlarni yozgan:

«Duvalroi va Xizrxon»

«Qiron-us-sa'dayn»

«No`h sipehr»

«Tug`luqnoma»

«Ruh ul-oshiqin»

«Mantiq ul-ushshoq»

«Xazoin ul-futuh»

Xusrav Dehlaviy maktablarini yig`ib, «E'chozi Xusraviyni» tuzgan bo`lsa, insholarini «Inshoi Amir Xusraviy» sarlavhasi bilan tartib berdi. Amir Xusraviy yozgan «Xamsa»ning besh dostonini to`liq tahlil etishning iloji yo`qligi bois «Matla'-ul-

anvar»dagi boblarning mavzularini ko`rib chiqamiz. Mazkur asarni shoir ikki hafta ichida yozgan. U 3310 baytdan iborat bo`lib, musallasi maqsur vaznida yozilgan avvalgi maqolat baland darajada va martabaga ega inson haqida. Muso payg`ambar to`g`risidagi hikoyat fikrlarning isboti yang`lig` ko`zga tashlanadi:

Charx turo bahri sharaf soxta,  
Tu tani xud degi alaf soxta.  
Dil, ki zi pasty so`i bolo shitoft,  
Har chy furo` did, hamma hech yoft.

Ikkinchi aqola ilm fazilati va johillik xususida bo`lsa, uchinchi qalb, ruh va shuurga ma'naviy ta'sir etuvchi suxan, to`rtinchi Ollohning yagonaligi hamda musulmonchilikning 5 asosi, beshinchi pokiza ahloq, oltinchi so`fiylik va tarkidunyochilik, yettinchi nafs pokiziligi, sakkizinchi ishq martabasi, to`qqizinchi do`stlik, o`ninchisi ota-ona va farzand hamda xesh taborlarning munosabati, o`n birinchi javonmardlik, saxovat, xusumat, o`n ikkinchi islom g`oziy-lari-podshohlari, o`n uchinchi- mamlakat hukmdorlari, o`n to`rtinchi-diyonat, o`n beshinchi-shaxsning adabi, o`n oltinchi-insonning surat va siyrati, o`n yettinchi umrning uch fasli-yoshlik, yigitlik, qarilik, o`n sakkizinchi vahdat ul-vujud, o`n to`qqizinchi dunyoi dundan shikoyat, yigirmanchisi farzandga nasihat xususidadir. Ayni shu «Matla' ul-anvor» ni yozayotganda shoir yetmish yoshda bo`lib, asarni qizi Masturaga nasihat bilan xotimalaydi.

Ey ruhu tu chashmu charog`i dilam,  
Xubtarin meva zi bog`i dilam  
Garchi ki ixvoni tu nek axtarand,  
Ne zi tu dar didai man behtarand.  
(Ihvon-barodaron-birodarlar)

Xusravning mazkur nasihatlarini faqat qizi Masturaga tegishli deb tushunish xato bo`lardi. U barcha farzandlarga taalluqli. Har qanday farzand uchun qanoat, sabr-toqat, munosib ahloq bezak sanaladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Xusrav Dehlaviy so`z san'atkori, shoir, nosir, olim, tarixchi. Garchi Hindistonda yashagan bo`lsa-da, XIII-XIV asr fors-tojik adabiyotining yetuk vakili sifatida ko`pgina janrlarda ijod qildi. xamsachilik ana'anasini davom ettirib, besh mustaqil dostonidan iborat «Panj ganj» ni tartib berdi.

### **HOFIZ SHEROZIY (1320-1389)**

Sharqningetuk vakili, shoir, mutafakkir Hofizning tarjimai holi haqida to`liq ma'lumot yo`q. Ba'zi she'riy baytlarda shoir o`z tarjimai holi haqida gapiradi, xolos. Shamsiddin Muhammad Hofiz Musallo mahallasida (Sheroz shahri) savdogar oilasida tug`ilgan. Uning avlodi savdogar-tijjorlarga mansubligi uchun «Xoja» taxallusi berilgan. Shoirning bobosi asli Isfahonlik bo`lib, Sherozda hunarmandchilik va savdo-sotiq qilardi. Shoir oilasida uch o`g`il bo`lgan. Hofiz Sheroziy kattasi edi. Otasi vafot etgach Hofizning oilaviy ahvoli qiyinlashadi. 1882-yilda Bombeyda nashr etilgan Hofiz kulliyotida uqtiriladiki, Hofiz tirikchilik vajidan nonaoyxonada ishlagan. U bir qism topgan puliga onasi va o`zini boqqan, bir qismini madrasaga sarflagan, yana bir ulushini beva-bechoralarga tarqatgan. Keyinchalik ilmni mukammalroq o`rgangach, madrasda mudarrislik qila boshladi. Asta-sekin Hofizning obro`yi osha boshladi. Forsu Iroq, Ozarbayjonu Eron, Hindiston, Movorounnahru Xuroson shoir ash'aorlaridan bahramand bo`la boshladilar. Bir baytida Hofiz yozadi:

Ba she'ri Hofizi Sheroz mexonandu meraqsand,  
Siyahchashmoni kashmiriyu turkoni Samarqandy.

Hofiz Sheroziyning adabiy merosi unchalik katta emas, bor-yo'g'i bir devon kulliyot. O'zi devon tuzishga rag'bat ko'rsatmagan bo'lsa-da, jamoatchilik uning she'rlarini jamlab, hijriy 827, melodiy 1423-yilda tartib berishgan. Mazkur kulliyotga 4 qasida, 495 g'azal, 34 qit'a, 2 masnaviy, 41 ruboiy jamlangan. She'rlarning asosi g'azal. Unda jamiyatning turli qatlami, hayot tarzi, dunyoqarashi o'z ifodasini topgan. Shoir yozadi:

Ustodi g'azal Sa'dist peshi hama kas, ammo,  
Dorad suxani Hofiz tarzi suxani Xochu.

Shoir ijodini shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin: avvalo-davrayi javoni-yoshlik, yigitlik to qirq yoshigacha. Ayni shu davrda zahmat va qiyinchilik, ilm tahsili, mayxo'rlik, aysh-ishratu ulfatnamozlik paytlari:

Mo aybi kas ba rindivu masty namekunem,  
La'li buton xush astu man xushg'uvor ham.

Hofiz yozadiki, yigitlikda mayu sharob, zebo majlislar yarashadi, qarilikda toatu ibodat. Ammo hamma vaqt inson qilgan ishdan xulosa chiqarib, gunohlari uchun tovba qilishi kerak:

Gar mayfurush Hochati rindon ravo kunad,  
Ezid gunah bubaxshadu avfi xato kunad.

Hofizning ishq va so'fiylik to'g'risidagi fikrlari, ayniqsa so'fiylarning tabaqalanishi alohida diqqatga molik. U haq kishilarni uch tabaqaga bo'ladi:

1. Zohidlar-karomat va ilohiy ilmdan bexabar, faqatgina dunyodar tarki invizo qilgan xudojo'ylar, ya'ni ibodlar.

2. So'fiylar-hamma ishni xudodan bilib, zuhdu-taqvo bilan band muddaiyonlar. Ularni «malomatiylar» deb ham atashadi. Shoir yozadi:

Vafo kunemu malomat kashemu xush boshem,  
Ki dar tariqati mo kofirist ranchidan.

Ammo Hofiz zohidlikning qotib qolgan aqoidlarga qarshi bo'lsa-da, dinsiz emas.

Man na on rindam, ki taroi shohidu sog'ar kunam,  
Mo'htasib donad, ki man in korho kamtar kunam.

3. Haq oshiq-lari-odamlar orasida yashab, toat-ibodatni unutmagan holda halol, pokiza tirikchilik o'tkazadiganlar

Visoli o'zi umri chovidon beh,  
Xudovando, maro on deh, ki on beh!

Hofiz lirikasidagi eng muhim tushuncha – may. G'azallarda u quyidagi ma'noni anglatadi:

Ijtimoiy hayotga nafratni ifodalash vositasi:  
Soqiyo barxezu dar deh chomro,  
Xok bar sar kun g'ami ayyomro.

2. Odamlarni ogohlikka chaqiruvchi qurol:

Bar mehri charxu ishvai u e'tibor nest,  
Ey voh bar kase, ki shud emin zi makri vay.

3. May Hofizning «men» ini ifodalovchi asosiy omil. Masalan, ba'zi bir aqidaparastlar musiqa va nag'mani insoniyatga makruh deb bilishadi:

Zohid sharobi kavsaru Hofiz piyola xost,

To dar miyona xostai kirdigor chist?  
Hofiz tu to ba kay g`ami molu jahon xo`ry,  
Bisyor g`am maxo`r, ki chahon nest poydor.

Ma'naviy va lafziy san'atkorlar Hofiz g`azallarida o`zining go`zal ifodasini topgan.

Tashbeh:

Subhi davlat medamad, ki chomi hamchun oftob,  
Fursate z on beh kucho boshad, bideh chomi sharob!

Tajohuli orifona:

Bog`i maro chy hochati sarvu sanavbar ast?  
Shamshodi soyaparvari man az ky kamtar ast?

Tazod:

Zi podshohu gado forigam, bihamdulloh,  
Gadoi hoki dar do`st podshohi man ast.

Talmeh:

Man az on husni ro`zafzun, ki Yusuf dosht, donistam,  
Ki ishq az pardai ismat burun orad Zulayxoro.

Laffu nashr:

Faryod, ki az shash chihatam roh bubastand,  
On xolu xatu zulfu ruhu orazu qomat.

Hofiz Sheroziy ijodiyoti nafaqat fors-tojik adabiyoti namoyandalari bilkim jahon adabiyoti vakillari uchun ulug` manba sanaladi. Agar Hazrati Navoiy Hofiz she'rlariga tatabbu' bitib, o`z shogirdlik mehrini ifodalagan bo`lsa, nemis klassigi Iogan Volfgang Gyote «G`arb va sharq» asarini Hofizdan o`rganib, Hofizona usulda bitdi.

### **ABDURAHMON JOMIY (1414-1492)**

XV asr fors- tojik adabiyotining rivoji uchun eng muhim davr bo`ldi. Temuriylar saltanatining takomili, temuriyzoda hukmdorlarning fan va san'atga homiyligi misli ko`rilmagan darajadagi yutuqlarga olib keldi. Hirot, Xuroson, Movorounnahr, Shom, Samarqad ulkan madaniyat va ma'rifat maskaniga aylandi. Tasviriy san'atda Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Qosimali, Muhammad Muzahhib, Muhammad Naqqosh, Shoh Muzaffar, naqqoshligu hattotlikda Amir Ali Tabreziy, Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Ali Xandon, Mir Ali Qilqalam, Darvesh Muhammad Buxoriy, Udiy, Hoja Yusuf, Darvesh Ahmad G`ijjak nom chiqargan bo`lsa adabiyo muhitda bir qator adibu ulumolar qalam tebratishdi. Shoir Ashraf- Shohruh Mirzo zamonida Hirtida yashagan. Nizomiyning «Maxzan ul asror» iga javob tarzda «Minjoh ul -afror», «Haft paykar»iga «Haft avrang», «Layli va Majnunga» «Riyoz ul-oshiqin», «Xusravu Shirin» ga «Ishqnoma» asarlarini yozgan. Beshinchi asarni ham bitgani haqida ma'lumot bor, xolos. Ali Osiy «Layli va Majnunga» javob tariqasida «Xayol va visol», Faseh Rumiy «Xamsa», Xoja Imomiddin Lohuriy «Layli va Majnun», Amir Shayxim Suhayliy «Layli va Majnun», Abdullo Hotifiy «Xamsa», Kotibi Turshezi Nishopuriy «Gulshani abrora», «Nazir va Manzur», Kotibiy «Synoma», Mavlono Orifiy «Go`yu Chavgon», Mavlono Muhammad Ahlii Sheroziy «Sha'mu parvona», «Sehri xalal» asarlarini yozgan. Shu bilan birga Qosim Anvar, Jamoliddin Hamzai Azuriy, Og`a Malik Shohiy, Sirojiddin Bisoti Samarqandiy, Burunduqi Buxoriy kabi shoirlar g`azal janrini baland mavqega yetkazishdi. Ayni shu davrda yashagan Husayn Voiz Koshifiyning «Anvori Suhayliy» asarini, Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» tazkirasini ta'kidlash joiz.

Abdurahmon Jomiy hijriy 817-yilning 23 sha'boni melodiy 1414-yilning 8-noyabrda Jom shahrida tug'ilgan. Otasi Ahmad ibni Muhammad Dashtiy o'z zamonasining yetuk ziyolilaridan edi. Uning avlodi Isfahondan Jomga ko'chib o'tadi. Otasi bilan Hirotga kelgan Jomiy Nizomiya madrasasida Junayd Usuliydan ilk saboqni oladi. Keyinchalik zamonasining ulug' mudarrisleri Mavlono Xojali Samarqandiy, Sayid Sharif Jurjoiy, Shahobiddin Muhammad Jojarmiy, Sa'diddin Taftazoniylardan saboq oladi, so'xatlaridan bahramand bo'ladi.

Jomiy Naqshbandiya tariqatining buzurg murshidlaridan. Uning tariqatdagi ilk ustozlari Sa'diddin Qoshg'ariy, ikkinchisi Xoja Ahrori Valiy edi. Hayot davomida Jomiy yetti marta safar qilgan:

Avvalo Jomdan Hirotga; ikkinchisi, Shohruh Mirzo zamonida ilm olish maqsadida Samarqandga; uchinchisi, Samarqanddan Hirtga; to'rtinchisi, Xoja Ahrorni kutib olish maqsadida Hirot dan Marvga; beshinchisi, 1466-yilda Xoja Ahrori Valiy suhbatlariga yetishish uchun samarqandga; oltinchisi, Samarqandga. Ayni shu safar chog'ida Toshkand atrofida 1469-1470 yillarda Xoja Ahror bilan uchrashadi. yettinchisi, 1471-yilda Hirt dan Hijozga, Makkaga. Safar chog'ida Jomiy, Nishopur, Sabzavor, Bastom, Domgon, Simnon, Qazvin, Jomiy Hirotga qaytib, umrining oxirigacha shu joyni manzil qiladi. U 1492-yil 25-noyabrda (hijriy 898, 17 muharram) Hirot da vafot etadi. Ulug' murshidning o'limi Navoiy kabi shaogirdlarga juda og'ir edi. Hazrat Alisher ustoziga bag'ishlab, «Xamsat ul-mutahayyirin» asarini yozgan edi.

Jomiy adabiy merosini quyidagilar tashkil etadi:

1. «Haft avrang» (haft sitora, haft taxt)
  - «Foteh-ush-shabob» (1479)
  - «Vasat ul-aql» (1480)
  - «Xotimat ul-hayot» (1491)
  - «Silsilat-uz-zahob» (1485)
  - «Tuhfat ul-ahror» (1481)
  - «Solomon va Absol» (1485)
  - «Suhbat ul -abror»(1481)
  - «Yusuf va Zulayho» (1483)
  - «Layli va Majnun» (1484)
  - «Xiradnomai Iskandariy» (1484)
2. «Bahoriston»
3. «Nafahot ul-uns»
4. «Risolai muammoi kabir»
5. «Risolai mutavassit»
6. «Risolai tarihi xojagon»
7. «Manoqibi xoja Abdulloi Ansory»
8. «Risolai qofiya»
9. «Favoidi Ziyoiya fi sharhi qofiya»
10. «Sarfi forsii manzum va mansur»
11. «Risolai Aro`z»
12. «Risolai musiqy»
13. «Munshaot»
14. «Risolai tarihi» so`fiyon»
15. «Ash'at – ul-lamaot»

16. «Sharhi ruboiyot»
17. «Sharhi bayte chand az masnaviy Mavlavy»
18. «Risolai taqiqi mazhai so`fy va mutakallim va hakim»
19. «Tarchutai arabayni hadis»

olimlarning fikricha, Jomiyning barcha asarlari 96 nafarni tashkil etadi. Uning tasavvuf tariqatiga mansubligi g`azallarida ham o`z ifodasini topgan. Shu barobarida asarlar qat-qatida xalq og`zaki ijodining namunlari sindirilgan. Jomiy g`azalchilikda Xayyom va Hofiz yo`lidan borsa, qit'anavislikda Ibn Yamin, dostonchilikda Sa'diyni ustoz deb biladi. Masalan, «Bahoriston» da boblarni tartib berish, hikoyatlarni joylashtirishda «Guliston» an'anasidan foydalanadi.

## **XIX-XX ASR TOJIK ADABIYOTI**

Bu davr adabiyotiga baho berish har tomonlama mantiq bilan ish yuritishni talab qiladi. Avvalo, 1860-yillardan boshlab Rusiya imperiyasi yurtimizni bosib oldi. O`z-o`zidan barcha narsalar shu buyuk davlat ravnaqiga sarflandi. Xalqning hayotiga, ma'naviy dunyosiga batamom o`zga xalqning urf-odati-yu udumlari zo`rlab kiritildi. Ziyoli qatlami mazkur holatdan chiqishning birdan-bir yo`li deb ma'rifatni tushunishadi. Shu bois ma'rifatparvarlar bir bayroqostida birlashib, ijod qilishdi. Afsuski, mazkur ma'rifatparvarlarning ijodi faqatgina istilochilar nuqtai nazaridan tahlil etildi.

### **AHMAD DONISH (1827-1897)**

Ahmad Mahdum ibn Nosir Donish (Ahmad Kalla) 1827-yilda Buxoroda tug`ilgan. Buxorodagi madrasada ilmini charxlagach, ijtimoiy-falsafiy fanlarni mustaqil ravishda o`zlashtirdi. Sharq mumtoz adabiyotining namoyandalari-Hofiz, Sa'diy, Ubaydiy, Umar Xayyom, Alisher Navoiyning asarlarini chuqur o`rgangan Ahmad Buxoro amiri saroyida munajjimlik vazifasida ishlay boshladi. Asta-sekin Ahmad rus tilini o`rganib, o`z obro`yini saroyda yanada mustahkamladi. Buxoro amirining elchilari qatorida 1857, 1869, 1874-yillarda Peterburgga boradi. O`shanda u ruslarning ijtimoiy hayoti, mamlakatni idora qilish usullari, rus yozuvchi va shoirlarining ijodi bilan yaqindan tanishadi. Buxoroga qaytgach o`zining ko`rgan-bilganlarini qog`ozga tushirgan Ahmal Donish davlatni idora qilishning usullarini tartibga solib, amirga tavsiya qiladi.

Ahmad o`zining demokratik va ma'rifatparvarlik qarashlarini «Navodir ul-vaqoe», «Buxoro mang`it amirlarining tarixi» nomli tarixiy-biografik asarlarida real tarzda ifodalashga harakat qilgan.

«Abdulqodirbekning elchiligi hamda Rusiyaning to`y bazmlarida ko`rilgan ajoyibotlar haqida» asarida shoir Peterburgdagi to`y tasviri bahonasida real hayotni tasvirlaydi. Avvaliga shaharning go`zal kentlar sirasiga kirishi, Peterburgdagi shoh saroyining go`zal tarzda bezatilganini tasvirlaydi:

Peterburg shahri senga poytaxt,  
Aning chun anga yordur ikki baxt.  
Eram bog`i bu shahardek bo`lmagay,  
Buni ko`rgan kishi ani suymagay.

To`y bazmi o`tkaziladigan saroy olti qavat, har vaqtda odamlar qat-qat, udi naylar, dutori tanburlar ovozi tinmaydi, devorlarda ipak gilamlar, oltin qandillar osilgan.

Quloqqa kirar udi naylar uni,  
Dutori, setolar cholur tanburi.



Qurilmish edi bu bino olti qat,  
Hama ust-ust erdi, qatma-qat.  
Qandillar oltin osilmish edi,  
Ipakdan gilamlar solinmish edi.

To`yga tashrif buyurganlar juft-juft bo`lib kelishgan. Ayollari nozik, ulardan xushbo`y hid taraladi, tanlari xuddi to`lin oydek, bellari ingichka.

Turar anda minglarcha hur qizlari,  
Bo`yinga taqishgan asl durlari.  
Ko`ringay libos ostidan tanlari,  
Etar yuz qadamdan alar hidlari.  
Bosh uzra solmish mush'abid to`ri,  
Etak gulga to`lmish, beli kokili.  
Beli qil kabi ko`p ingichka edi,  
So`z shakkaru, lablari bol edi.

Bir qaraganda tasvirda hech qanday mutanosiblik yo`q. Ammo shoir o`z maqsadini parda ichiga o`rab, «Kosa tagida nim kosa» qabilida ifodalaydi, ya'ni o`sha vaqtda Peterburg ayollari o`zlariga zeb berib, oppoq, badannamo kiyimlar kiyishganini bir muncha tanqid qiladi. Chunki shoir ma'naviyati uchun badanni ko`rsatish, yarim yalang`och yurish nomaqbul sanalgan.

Ahmad Donishning «Rusiyaga qilingan yana bir safar haqida» asari haqqoniylik real tasvirlash jihatidan alohida tahlilga loyiq. Voqea muallif tilidan bayon qilinadi. Tasvirlanishicha, Amirning xos elchilari Said Abdulfattoh to`ra Abdulqosimbey bilan birga Ahmad Buxorodan Rusiyaga yo`l oladi. U yerda qabul qilingan qoidaga binoan elchilarga shaharning diqqatga sazovor joylari, zavod va fabrikalar, maktab va kutubxonalar, xazina va qo`riqxonalar ko`rsatiladi. Shoirning eng avvalo diqqatini tortgan joy har bir shahardagi bazmxona-kechki kafelardir. Xuddi oldingi asarida tanqid qilinganidek bazmxonalardagi holatlar real tasvirlanadi:

«Rusiyadagi har bir shaharda bazmxona bo`lib, ularda har kech soat 12 gacha turli o`yinlar bo`lib turadi. Nag`ma-navolar qilgan, raqsi samoga tushgan parichehra xotinlar sochlari sunbuldek sochilib, bzleri qizil guldek ochilgan sarv qomat qizlar tomoshabinlarning ko`zlariga jilva berib, ko`ngillariga rohat yetkazib, majlisni qizdiradilar. Bulardan tashqari bu bazmxonalarda turli xil sho`bada nayrang o`yinlari (illyuziya) ham o`tkaziladi. O`yinxonalariga hohlagan kishilar kirib, o`z hollariga yarasha belgilangan joylarda o`tiradilar. O`yin tarqaganda tomoshabinlar o`tirgan o`rinlariga qarab haqini to`lab chiqadilar».

Tasvirlar davomida shoir turli jabha mutaxassislariga o`xshab fikr yuritadi. Muzeyni tasvirlaganda etnograf, uyning ichki va tashqi ko`rinishlarini tavsif etganda arxitektor, musiqa va qo`shiqlarni tasvirlaganda musiqashunos, ayollarning kiyimlari to`g`risidagi fikrlar ifodasida modeler-dizayn, sahna ko`rinishlari tahlilida teatrshunos, shahar rastalarining o`ziga xosligini tahlil etishda yuqori maqeli muhandis sifatida gavdalanadi. U biron-bir detalni esdan chiqarmaydi, mayda-chuydasigacha chizib beradi. Ayniqsa ayollar kiyimlari to`g`risidagi fikrlarga nazar solsak:

«Bu mamlakat xotinlarining liboslari bellarigacha tor bo`lib, beldan pasti esa kengdir. Etaklari shunday kengki, uning kengligidan o`zlari uyga kirsalar, etaklari hali dahlizda qolur edi.. beliga ipakdan to`qilgan belbog`lar bog`langan bo`lib, undan yangi oyga o`xshash ikki shohcha chiqarilgan. Belbog`ni qattiqroq tortib bog`lasalar, u

shohchalar bel atrofidagi ipak kiyimlarni ko'targanligidan ko'pirma bo'lib ko'rinadi. Uning ustidan qizil, qora, ko'k to'rlarni boshlariga, yelkalariga yopadilar. Yana boshlariga yangi uzilgan guldek bir dasta yasama gul qilib, uni qosh chetlaridan kelishtirib bog'laydilar. Xurmu donasi uzunligida bo'lgan gavhar ko'zli oltin sirg'a taqadilar: qorong'u kechalarda uning shu'lasini tushib, yarqirab yonib turadi. Mahbubalarning quloq uchlari nihoyatda tiniq bo'lganligidan, undagi qonning qizilligi va uning harakati sirtidan ko'rinib turar edi. Shunday zeb-ziynatli nozaninlar o'rinlaridan turganlarida aql dimog' tokchasidan uchib chiqishiga intiladi. Ajabo, bu qanday nafis va ulug' qudratki, inson tog'ining bulog'idan chiqqan bir qatra paoid suvdan bunday ajoyib gullar bu qora tuproq ustida ochilmishdir!»

Xlas, Ahmad Donish o'z davrining ma'rifatparvari sifatida odamlarni ilm olish va dunyoning siru-sinoatini anglashga undaydi. Shu barobarida o'z yurtining istiqloli uchun ilm olish, o'zini o'stirishi kerak degan fikrda qat'iy turadi. Bu g'oya o'sha vaqtdagi barcha ma'rifatparvarlarga xos edi.

## **XX ASR TOJIK ADABIYOTI**

Murakkabli va ko'p qatlamligi bilan XX asr tojik adabiyoti namoyandalari sermahsul ijod qildilar desak mubolag'a bo'lmaydi. Sadriddin Ayniy, Mirzo Tursunzoda, Abdullays Lohutiy, Misaid Mirshakar kabi adibu shoirlar garchand sho'ro davrini kuylagan bo'lsa-da asarlarining qat-qatida yashirin ma'nolar ham mavjud.

### **SADRIDDIN AYNIY (1878-1954)**

XX asr tojik va o'zbek adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri Sadriddin Ayniydir. U o'zining «Doxunda», «Qullar» romanlari, «Odina», «Etim», «Sudxo'ning o'limi» singari qissalari to'rt qismdan iborat «Esdaliklar» asarlari orqali yangi xildagi, zamonaviy tojik adabiyotiga asos soldi, shuningdek, qardosh o'zbek madaniyati, adabiyoti va san'ati taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu sababi Ayniy ijodi ikki xalq uchun ham qadrlidir. U XX asrdagi o'zgarishlarning shohidi sifatida milliy ozodlik harakatini ham, Oktyabr to'ntarishining fojeali oqibatlarini ham ko'rdi.

Sadriddin Ayniy 1878-yil 15-aprelda Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi Sokter qishlog'ida tug'ilgan. O'n yil davomida Mir Arab, Olimjon Badalbek, Hoji Zohid, Ko'kaldosh madrasalarida tahsil oldi. Firdavsiy, Jomiy, Ro'dakiy, Navoiy kabi buyuk so'z san'atkorlarining asarlarini qunt bilan o'qidi. Uning ilk she'ri 1895-yilda «Guli surx» sarlavhasi bilan dunyo yuzini ko'rdi. O'sha vaqtdagi siyosiy ahvolga to'g'ri baho berishda Sadridin Ayniyga ma'rifatparvar shoir Ahmad Donishning «Navodir ul-vaqoe», Xoja Marog'iyning «Ibrohimbekning sayohati» asarlari katta dasturilamal bo'ldi. Sadridin Ayniyning asrimiz boshlaridagi faoliyati xalqni ilm-ma'rifatli qilishga bag'ishlangandir. U Buxoroda yangi usuldagi maktab ochib, «Yoshlar tarbiyasi» nomli darsligini tuzdi. Adibning «Odina» (1924), «Qulbobo yoki ikki ozod» (1928) qissalari, «Doxunda» (1930), «Qullar» (1934) romanlari uning nomini jahonga tanitdi. Keyinchalik «Etim», «Sudxo'ning o'limi» qissalari, «Esdaliklar» asar tojik va o'zbek adabiyotining sezilarli yutuqlaridan biriga aylandi.

Sadriddin Ayniy Tojikiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, O'zRFA faxriy a'zoi etib saylangan. Uning «Tojik adabiyotidan namunalar», «Firdavsiy va uning «Shohnoma»mi», «Kamol Xo'jandiy», «Shayxurrais Abu Ali ibn Sino», «Ustod Ro'dakiy», «Alisher Navoiy», «Mirza Abdulqodir Bedil» singari ilmiy tadqiqotlari hanuz

o`z ahamiyatining yo`qotgani yo`q. Ayniy Tojikiston Fanlar akademiyasining birinchi Prezidenti sifatida qardosh xalqi ilmi, madaniyati rivojiga samarali hissa qo`shdi. U Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho`lpon, Oybek, G`afur G`ulom, Hamid Olimjon kabi o`zbek san'atkorlari, tala tilshunos va adabiyotshunoslari bilan samarali ijodiy hamkorlik qildi. ayniyning deyarli barcha asarlari o`zbek va chet tillarga nashr etilgan. O`zbek tilida adibning 8 jildlik mukammal asarlari to`plami nashr etildi. U 1954-yil 16-iyulda Dushanbeda vafot etdi. Uning xotirasi xalq orasida abadiylashtirildi.

### **MIRZO TURSUNZODA (1911-1977)**

Tojik adabiyotining atoqli arbobi, shoir va dramaturg Mirzo Tursunzoda Shahrinav rayondagi Qoratog` qishlog`ida duradgor oilasida tug`ilgan. Dastlab qishloq maktabida, so`ngra Dushanbe va Toshkent shaharlarida o`qib, oliy ma'lumotli bo`ldi. Uning ilk ijodi 1929-1930 yillarda boshlangan. Sekin-asta o`nlab she'riy to`plamlarini nashr etgan shoir «Xazon va bahor» (1937), «Vatan o`g`li» (1942), «Hasan aravakash» (1960), «Jonginam» (1961) kabi dostonlarni bitdi. Mavzu va ifoda nazaridan shoir she'rlarining tematikasi nihoyatda keng. U yaratgan qahramon bir qarashda halol, pokiza inson, bir tasvirda zulmkor, yana bir talqinida mustamlakachilikka qarshi bosh ko`targan xalqning suyiklisi. Bir so`z bilan aytganda, shoir qahramoni zamona bilan hamnafas qadam tashlaydi. U «Vose qo`zg`oloni» (1939), «Tohir va Zuhra» (1944), «Kelin» (1947) kabi librettolarni yozib, dramaturgiyaning rivojlanishiga birmuncha ijobiy ta'sir qildi.

Yigirma yil davomida Tojikiston yozuvchilar uyushmasi raisi bo`lib ishlagan Mirzo «Hindiston qissasi», «Hasan aravakash», asarlari uchun Davlat mukofotiga sazovor bo`ldi. Mirzo Tursunodaning she'rlari o`zbek tiliga tarjima qilingan.

«Ozod Sharqdan men» asari 1950 yilda yozilgan. Sho`ro davrining eng ashaddiy vaqtida bitilgan mazkur asar tahlili ikki tomonlama ahamiyat kasb etadi. Birinchi mutolaadan shunday fikr kelib chiqadiki, Mirzo Tursunzoda ozod Sharq va tutqun Sharqning ijobiy hamda salbiy jihatlarini tasvirleydi. Tutqun Sharq vakilining holi parishon, nigohlari so`lg`in, xayoli beqaror, unga xayol surish odat, qora zindonda azob chekadi. Ozod Sharqlikning boshi baland, g`olib, osmonda qushday uchadi, saodat doim unga yor.

Do`stim, nega holing buncha parishon,  
So`zlaring, aytilmay qoldimi pinhon?  
(Nega, nega so`lg`in nigoh tashlaysan),  
Nega, hasad bilan qaraysan ba'zan,  
Tug`ilgan o`lkangda, shahringda zotan,  
Menga o`xshashlarni ko`rmaganmisan?  
Chuqur qarashingdan qanday ma'no bor,  
Ne uchun xayoling buncha beqaror,  
Ne uchun men g`olib va boshim baland?  
Nega sen bechora qayg`ularga band,  
Ne uchun menga yor doim saodat,  
Senga faqat xayol surishdir odat.  
Nega men uchaman qushday osmonda?  
Sen azob chekasan qora zindonda?

Ayni shu satrlarni teskarisiga aylantirsangiz, muddao ravshanlashadi, ya'ni ozod Sharqning dardi chichida, garchand o`ziga saodatni yor bilsa, aslida uning xayoli

parishonu rangi za'faron. Yashash uchun majbur mavjud tuzumni maqtashgan. Mana bu satrlarga e'tibor bersangiz maqsad yanada oydinlashadi:

Sen ham ulug` Sharqning haqiqiy o`g`li,  
Qadim el farzandi ekaning to`g`ri!  
Sening o`kangda ham har sahar yuvosh,  
Ufqdan jilmayib chiqadi quyosh.  
Sening o`lkangda ham bahor kuladi,  
Tabiat jamoli nurga to`ladi.  
U bahor quyoshi sochsa-da ziyo,  
Umidlar daraxti ko`karmas aslo.  
Undan mehnat ahli ko`rmaydi rohat.  
Zolimlar cho`ntagi to`ladi faqat,  
Bu xilda yashashlik sen uchun odat,  
Kelgindilar esa topadi rohat.

Darhaqiqat, millat o`zligidan, millat merosu an'ana-urf-odatlaridan mahrum etilgach, uning boshida nur sochgan quyosh qalbidagi muzni erita olmaydi, umidlar daraxtini ko`kartirmaydi. «Kelgindi» lar uchun bu rohat. Shoir qarshilantirish usulidan foydalanib, yana o`zining «ozod» yurtini, farovon hayotini maqtaydi:

Mening diyorumda o`zgacha bahor,  
Bahorki, er-ayol yashar baxtiyor.  
Tabiat yashnab, gul ochilishidan.  
Ko`katdan turli hid sochilishidan.  
Daryo, soylar to`lib mavjlanishidan,  
Qushlarning sayrashi avj olishidan,  
Go`zalroq bahor bor - mehnat bahori.  
Elim qozongan shon-shavkat bahori.

Ikki Sharqlik kishining siymosi sho`ro davrida jabrdiyda va jabr zulm qiluvchi tarzida talqin etilgan. Aslida shoirning dardi, maqsadi o`zga. U do`st niqobini kiyib, terisini shilgan, vahshiy, ochko`z, tekinxo`r, doimo uning don-dunini yig`adigan «do`sti»ni tasvirlaydi. Shu boim «Nyu-Yorklik», «Londonlik» zolim deya murojaat etadi:

Do`st niqobin kiyib, bosib yeringni,  
Shilib oladilar qotgan teringni.  
Tunu kun vahshiydan ochko`z tekinxo`r,  
Nyu-Yorklik, Londonlik zolimlar mudom.  
Xalqingga qiladi ajalni «in'om»,  
Shu sabab ko`zingda tinmaydi yoshing,  
Baland ko`tarilmas g`am boshgan boshing.

«Sho`ro Sharqining» yutuqlari ko`p, ya'ni xalqlar bir-biriga mehribon, bir Vatanda, bir ulug` oilada, xavf-xatar yo`q, insonning qadri baland, bu yurtida har narsa muqaddas, go`zal, qand kabi shirin. «Kosa tagida nim kosa» qabilidagi fikrlarda zikr etilganlarning teskarisi ifodasini topadi. Ayni shu Moskvaning g`amxo`rligi bois azaldan bir-biriga mehribon, quda-anda bo`lib kelgan xalqlar alohida jumhuriyat niqobi ostida ajratildi, bir oila deb yashash garchi targ`ib etilsa ham bir millatning manfaati, qarashlari, o`yu-fikri yuqori mavqeni egalladi. Shu saba shoir «Shunday farq qiladi ikki Sharqimiz!», deb alohida urg`u beradi.

«Osiyo ovozi» asari lirik janrning eng go`zal namunasi bo`lish barobarida Mirzo Tursunzodaning saohiyati baland shoirligidan dalolat. Birinchidan, unda Sharq mumtoz adabiyotining azaliy an'anasi o`z ifodasini topgan. Ikkinchidan, Sharqning azaliy, qo`hna va abadiy o`tmishi ta'sirchan ifodalangan. Uchinchidan, shiru, shakar, uslubi asarning mavqeini ko`targan. To`rtinchidan, fors-tojik adabiyoti, qolaversa, dunyo adabiyotining go`zal shoirlari Sa'diy, Hofizlarning uslubiy o`ziga xosligi aks ettirilgan. Asarning nomlanishi- «Osiyo ovozi» da ham ayricha ma'no bor. «Osiyo ovozi»- Osiyoning azaliy, qo`hna tarixi, buguni asardan-asrga sayqal topadigan tarixiy merosi, qadriyatlar.

Osiyo gapirar, tinglang ovozin!  
Jo`shqin daryo mavjin, hayqiriq sozin!  
Osiyo uyg`ondi, uxlamas uyg`oq,  
Bo`ldi rostlik, do`stlik u bilan o`rtoq.

Shoirning fikricha, Osiyo hamma vaqt uyg`oq, jo`shqin daryoga o`xshaydi. U hech vaqt uxlagan emas. Shu bois unga qorong`i kecha, hayqiriqli to`lqin ta'sir qilmaydi. Uyg`oqlikka ishonsang Hofizning baytlarini esaga ol:

Hofiz she`rin eslang-Sharq faryodin,  
Chekkan nolasin, ohu dodin:  
«Shabi toriku bimi mavju girdobe chunin hoil  
Kujo donad holi mo sabukboroni sohilho».

(Tarjima: Tun qorong`u, to`lqin xavfi, girdob to`sig`i ko`z oldimizda, qirg`oqdagi yuki yengil kishilar bizning ahvolimizni qayoqdan bilsinlar).

Osiyoni o`zining onasiday bilgan Mirzo Tursunzoda uni hech bir mamlakatga mengzita olmaydi. Sabab u tengsiz, ta`rifga zor emas. Uning obod bog`i, mevali daraxtlari bor. Bu bog`ni hech kim g`orat qilolmaydi. Asar oxirida shoir lirik chekinish qilib, o`zining go`zal qishlog`iga nazar tashlaydi:

Shu onda qishlog`im yodimga tushdi,  
Zilol suv, irmog`im yodimga tushdi.  
Yuksalgan tog`lari tushdi yodimga,  
Qaynar buloqlari tushdi yodimga.  
Suvi kiyikdan ham chaqqonroq yurar,  
Tunda unda yulduz ko`rinib turar.

Garchand muallif asarida Moskvani ham kiritgan bo`lsa-da, o`zining baxtli yashayotganini satrlarga singdirsa-da, mohiyat mazmunida erksevarlarning irodasini hech narsa yenga olmaydi, Osiyo xalqlari shubhasiz mustaqillikka erishadi, degan g`oya mavjud:

Lekin irodani hech kim bukolmas,  
Erksevarlar yo`lini hech kim to`solmas.  
Erk! Deb yangramoqda Osiyo sasi,  
Qayna, ey Osiyo xalqin nafasi!

## **TURKMAN ADABIYOTI**

Turkman xalqi O`rta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan turkiy tilda so`zlashuvchi xalqlardan biridir. Ochig`ini tan olish kerakki, turkman xalqi o`z milliy sofligini milliy adabiyoti va madaniyatini saqlab qolgan. Turkman xalq og`zaki ijodi miloddan avvalgi asrlardan to hozirgacha mazkur xalqning hayotidan ma'lumot beruvchi asosiy manbadir. Xalq og`zaki ijodida ertak, ashula, qo`shiq va doston janrlari keng

tarqalgan. Xalq dostonlarining bir qismi Sharq klassik adabiyoti asarlari va diniy kitoblar («Layli va Majnun», «Yusuf va Zulayho»), mazmunini qamrab olgan bo'lsa, bir qismi uchun ertak va rivoyatlarning syujetlari asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. («Shabnam va G'arib», «Zuhro va Tohir», «Asli va Karam»).

«Go'ro'g'li» siklidagi dostonlar alohida o'rin tutadi. Unda hikoya qilinishicha, qadim zamonlarda Chambil mamlakatining hokimi Jig'alibek qarigan chog'ida hokimiyatni o'zining sevimli o'g'li Adibekka topshiradi. Adibekning xotini farzand ko'rishni oldidan vafot etadi. Tez ora adibek ham dunyodan o'tadi. Ko'p o'tma bir cho'pon Adibekning otasi Jig'alibekka podadagi echkildan biri kunda qabristonga borib, u yerda nimanigdir bolasini emizib qaytishini xabar qildi. Tekshirib ko'rsalar, echki Adibekning xotini qabridagi bir o'g'il bolani emizib kelarkan. Go'rda tug'ilgan bu bolaga birovlar Ravshan, boshqalar Go'ro'g'li deb nom qo'ydilar. Yoshlikdan bu bola sog'lom, sho'x bo'lib o'sadi. Oradan bir qancha vaqt o'tib, u bobosi bilan Xunxor nomli podsho saroyida yashab yurgan paytlarida Jig'alibekka yaxshi toy tanlashni buyuradi. Jig'alibek ko'rimsizgina, nimjon toyni tanlaydi. Jahli chiqqan podsho Jig'alibekning ikki ko'zini o'yib oladi. Bobosi tanlagan G'irotni parvarishlab, Go'ro'g'li yurtiga qaytadi. tez orada amakasining o'rniga hokim bo'ladi. Xalq dostonlarida Go'ro'g'li hamma vaqt adolatli, dono hukmdor tarzida tasvirlanadi. U ko'p yurishlarda, janglarda mardlik, qahramonlik ko'rsatadi. «Go'ro'g'li» dostonlari qisman sha'riy, qisman nasriy usulda yaratilgan.

Yozma adabiyot XI-XII asrlarda dastlab Ahmad Yassaviy va Ali singari shoirlarning ijodi ta'sirida turkiy (chig'atoy) tilida yuzaga keldi. XIV asrda turkman yozma adabiyotining yirik vakillari Burhoniddin Sivosiy va Imoniddin Nasimiylar yashab ijod etdilar. Agar Sivosiy birinchi bo'lib aruz vazinini she'riyatga olib kirgan bo'lsa, Nasimiy o'zining tasavvufiy she'rlari bilan haqiqatni aytishga harakat qildi. turkman adabiyotining dastlabki bosqichlarida nasihatgo'ylik motivi yetakchilik qilardi. Keyinchalik Ozodiy, Maxtumquli, Mullo Napas kabi shoirlar mavzuni dvom ettirishdi.

XVIII-XIX asrlar turkman adabiyotining eng taraqqiy etgan davri hisoblanadi. Bu davrning mashhur vakili Nurmuhammad G'arib Andalib Alisher Navoiyning ana'analarini saqlagan holda «Layli va Majnun» dostonini yozadi. Nasr bilan nazmni vobasta etgan mazkur doston shoir vafotidan so'ng og'izdan-og'izga ko'chib, xalq orasida keng tarqaldi. Andalibning zamondoshi Mamatsayid Ozodiy «Va'zi Ozodiy» asraida turkman va fors-tojik tillarida ajoyib asarlar yaratgan bo'lsa, Maxtumquli o'zining bir-biridan go'zal she'rlari biln turkman adabiyotini yuqori cho'qqiga olib chiqdi. Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida tahsil olgan Maxtumquli Sharq mumtoz adabiyotining yozishmalarini chuqur o'rganib, turkman poeziyasini shaklan va mazmunan yangi pog'onaga olib chiqdi. G'azal, ruboiy, qit'a kabi janrlarda yozilgan asarlarda bir-biridan teran mavzular ko'tarildi. O'sha vaqtdayoq turkman xalqining ozodligini kuylashga intilgan Maxtumquli «Chaqiriq» she'rini yozgan edi. XVIII asr boshlarida yashab ijod etgan Saidiy va Zeliliy Maxtumquli an'analarining davomchisi edilar. Mulla Napas o'z asarlarida turkmanlarning tarqoq qabilalarini birlashib, ozodlik kurashiga o'tlanishini baralla kuylaydi. «Gelmisham» dostonida bu g'oya oshiq Nepes va uning ma'shuqasi misolida o'z ifodasini topgan bo'lsa, «Zuhro va Tohir» da turkman xalqining an'anasi, urf-odatlarini, o'ziga xosligi yorqin tasvirlangan. Ammo bu asrlarga yondashuv, ularning talqini Sho'ro davrida batamom o'zgacha edi. Ko'pgina adabiyotlarda yozilgan eiki, mazkur qahramonlar eski urf-odat va zo'ravonlikning qurboni bo'lgan edilar. Boboxonga o'xshagan qonxo'r podsholar sevgi

uchun kurashgan sevishtanlarning o`z holiga qo`ymaydi. Bu xildagi talqin zamonasozlikdan boshqa narsa emasligini bugungi hayot shiddati yaqqol ko`rsatadi.

Oktyabr to`ntarishidan so`ng ijodini davom ettirgan Misikin Qilich, Bayram, Shoir, Ko`rmullo, Mullo Murt, Durdi Qilich kabi shoir zamonaga qarshi chiqq olmay barcha kuylagan mavzularda asarlar yozishdi. Ko`rmulloning «Bolshevik», Durdi Qilichning «Zolimlar», «Kambag`allar», Mullo Murtning «Turkmaniston uchun azizsan», «Ozodlik», Alamishevning «Sona», «Qizlar dunyosi», Berdi Kerboboyevning «Odatning qurboni» singari asarlar shu davr mahsulotidir.

Anton Chexov, Lev Tolstoy an'analarini davom ettirgan O.Durdiyev, N.Sarixonovlar «Orzu», «Oq uy», «Shirin», «Kuyov», «Boyning g`azabi», «Shukur baxshi» kabi asarlarini yozib, turkman adabiyotidagi yangi qirralarni namoyon etdi.

Vatan urushi yillarida turkman xalqining front va front ortidagi hayotni tasvirlovchi Berdi Keboboyevning «Dadil qadam», romani, K.Burunovning «Keymir ko`r», T.Esanovanning «Shammat», O.Kavshutovning «Juma», A.Karlievning «Oyna» asarlari yaratildi. Ammo sof sho`ro hukumatining soxta vatanparvarligi ifodalangan, an'anaviy qahramonlik asarlari ham yozildi. Ular sirasiga B.Kerboboevning «Aylar», Ya.Nasirlining «Leytenantning o`g`li», Sh.Kekirovning «Ivan tog`a», O.Kavshutovning «Kopegdog` yonbag`irlarida», Beki Saytoqovning «O`g`ilning sovg`asi» asarlari mansubdir.

## MAXTUMQULI

Turkman mumtoz adabiyotining yirik vakili, o`z asrlari bilan mumtoz janrlarni adabiyotga to`la-to`kis olib kirgan shoir Maxtumqulidir. U Sharq mumtoz adabiyotining yirik vakillari Sa`diy, Hofiz, Umar Xayyom, Alisher Navoiylarning asarlarigi mutolaa qildi. bundan tashqari, turkman xalq og`zaki ijodini ham izchil o`rgandi. Aynan shu ikki jihat u yaratgan asarlarda ifodasini topgan. Ko`pchilik Maxtumqulining ahloq-odob, nasihat tarzidagi she`rlarini yoddan bilishadi. She`rning uslubi ravon, so`zlari tushunarli.

Har ahmoqqa aytma dardu so`zingni,  
Hasrat o`ti jisming yoqqancha bo`lmas.  
G`ussa bilan dona-dona ko`zingdan,  
Achchiq yoshlarini to`kkancha bo`lmas.

Qanoatli odam ta'madan xoli. Birovga rangini sarg`aytirmaydmi, nomardga do`st tutinmaydi.

Qanoatda, izzatda tut o`zingni,  
Ta'ma qili sarg`aytirma yuzingni.  
Xar nomardga hayf aylama so`zingni,  
So`zingning binosin yiqqancha bo`lmas.  
Mag`rur bo`lib kezma umring guliga,  
Duch bo`larsan bir kun xazon yeliga.  
Yuz yil yashab tushsang ajal quliga,  
Chapingdan o`nginga boqqancha bo`lmas.

Ko`mir –qora, ko`ngli egri odam ko`mirday qora. Ko`mirga qancha izzat-ikrom qilsang ham qo`lingga tegdmi qoraytiradi. Qo`lingni banogoh yuzing va peshonangga surtsang hamma joyingga qo`ora surtiladi.

Ko`ngli qora bilan bo`lmanglar ulfat,  
Yuqar undan turli-tuman kasofat.  
Ko`mirga har necha aylasang izzat,

Manglayga qorasi yuqqancha bo`lmas.  
Maxtumquli hargiz topmadi omon,  
Yomon tilning zahri tig`lardan yomon.  
Yomon til yonida zahr ko`p ilon,-  
Chaqa-da, bir chivin chaqqancha bo`lmas.

Maxtumqulining «Bo`larsan», «Bormi?», «Boshladi», «Eltngni» kabi asarlarini o`qib, shoir faqat pand-nasihat bilan cheklanadi degan fikrga kelish yaramaydi. Ayni shu pand-nasihat mohiyatida ijtimoiy hayotning barcha muammolari ishq, muhabbat, Vatanga sadoqat jamlangan.

Baland tog`lar, buyuklikda gerdayma,  
Xumchada suv bo`lgan zardek bo`larsan.  
Teran daryo, haybatingga kekkayma,  
Vaqting yetsa, qurib yerdek bo`larsan.

Bu dunyo foniy. Foniylar olamdagi barcha narsalar o`tkinchi. Hayvonot naboat, ulkan daryo-yu hududsiz tog`lar bir kun kelib yemiriladi. Shunday ekan odamzot ham tirikchiligiga gerdayib, manmanlik qilmasligi shart.

Tog`larning arsloni, bobir, falangi,  
Oxir teng bo`lar fil, pashsha jangi.  
Jayhur daryosi-yu, Nilning nahangi,  
Quloqdan urilgan xardek bo`larsan.  
Yaxshi bedov mingan, xub go`zal quchgan,  
Birga eltgan bormi boqiga ko`chgan.  
Haqiqiy nomarddir imonchiz kechgan,  
Imon bilan borsang nodek bo`larsan.

Luqmoni Hakimdek dono, Rustamdek devlarni qiyqiratadigan Iskandardek yer yuzini olsang ham oxir-oqibat tuproqqa qaytasan, tuproq bo`lasan.

Luqmondek har ishning chorasini bilsang,  
Rustamdek davrlarga farmonlar bersang.  
Iskandardek yerning yuzini olsang,  
Yakson bo`lib, baribir yerdek bo`larsan.

«Bormi?» she'ri garchand barmoq vaznida yozilgan bo`lsa-da, so`zlarni tushunarli ifodalash jihatidan u Mashrabning g`azallarini eslatadi. Shoir ritorik so`roq berish asnosida maqsad-mohiyatni teranroq ifodalashga harakat qiladi.

Jahongashta devonalar,  
Men kabi hech yongan bormi?  
Ishq qurboni, parvonalar,  
U olovdan qongan bormi?  
Bodi sabo kelar bo`ldi,  
Har joyda bir qolar bo`ldi.  
Qiyonazar solar bo`ldi,  
Adolatli sulton bormi?

Maxtumqulining «Boshladi», «Eltngni» she'rlarida ham tilni asrash, halol mehnat qadriga yetish, aql bilan dunyoni anglash, nafsni tiyib, harom narsalardan or qilish kabi mavzular yanada boyitildi.

Kel ko`ngil, men senga o`git berayin:  
Yiroq qilma ko`rar ko`zing-elingni.



Qimmatni ketkizma, o`rnida so`zla,  
Ravo ko`rma har nokasga tilingni.

Shoir milatning fojeasini oldindan ko`ra boshladi. Sho`rolar yurtni bosib olgach biz uchun milliy qadriyat darajasiga ko`tarilgan an'ana, urf-odat hamda o`ziga xosliklarimizdan judo eta boshladi. Shoir mazkur she'rida odamlarni hushyor bo`lishga dav'at etadi.

Ko`mildi daryolar, yiqildi tog`lar,  
Etimlar ko`z yoshin to`ka boshladi.  
Yaramas farzandi haromxo`r beklar,  
Yurtni bir yonidan yiqqa boshladi.

Xullas, Maxtumqulining bir-biridan teran, go`zal, o`ynoqi she'rlari hamisha odamlarga ezgulik bag`ishlab, yaxshi, xayrli ishlarni qilishga dav'at etib keladi.

### **BERDI KERBOBOEV (1894)**

Turkman adabiyotining yirik namoyandalaridan biri. Berdi Kerboboev Tjei tumaniga qarashli Revkizarom qishlog`ida mehnatkash oilasida tug`ilgan. Dastlabki tahsilni madrasada olgan Berdi keyinchalik yangi usuldagi maktabda savodxonligini mustahkamladi. Sho`ro davrida u «Qizlar dunyosi» (1927), «Odatning qurboni» (1930), «Amudaryo» (1937), «Aylar» (1943), «Turkmaniston» (1948) she'riy to`plamlarini, 1940-1947-yillarda «Dadil qadam» tarixiy romani, 1949-yilda «Oysulton» povestini, 1941-1945-yillar orasida «Maxtumquli», «Vatan o`g`li», «Qurbondurdi», «Abadan» peslarini yozdi. Turkmaniston neftchilari hayotiga bag`ishlab yozilgan «Nebitdog`» romani Berdi Kerboboevga katta shuhrat keltirdi.

Adib o`zining yaxshi tarjimon ekanligini ham isbotladi. U Maksim Gorkiyning «Ona», Lev Tolstoyning «Hojimurod», M.Sholoxovning «Ochilgan qo`riq», A.Griboedovning «Aqlilik balosi», Pushkinning «Yevgeniy Onegin» asarlarini me'yoriga yetkazib turkman tiliga o`girdi. Berdi Kerboboev Turkmaniston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi bo`lishi barobarida uzoq yil Yozuvchilar uyushmasining raisi bo`lib ishladi. O`zbek kitobxonlari adibning «Dadil qadam», «Nebitdog`» romanlari, «Oysulton» povestlarini o`zbek tilida o`qishga muyassar bo`lishdi.

### **QOZOQ ADABIYOTI**

Qozoq xalqining ko`p yillik tarixi va milliy madaniyati Savdo hunarmandchilik markazlari, hosildor ekin maydonlari barobarida milliy madaniyat namunalari XIII asrda mug`ul bosqinchilari tomonidan yakson qilindi. Ko`chmanchi tarqoq chorvadorlar, XVI asrlarda tashkil topgan kattajuz, o`rtajuz, kichikjuz deb atalgan urug` uyushmalari 1723-yilda mamlakatga yopirilib kelgan jungorlar (qolmiqlar) hujumiga bardosh berolmadi. Bu Rossiya imperiyasining osongina qozoq xalqini bosib olishiga imkon yaratdi.

Qozoq yozma adabiyoti ancha kech shakllandi. XIX asrgacha qozoqlarda adabiyot, asosan, xalq og`zaki ijodiyoti shaklida rivojlandi.. xalq ijodidagi qo`shiq, ertak va dostonlar turli mavzularni qamrab olgan. Ayniqsa, qahramonlik dostonlari salmoqli o`rin tutadi. «Qo`blandi botir», «Qambar botir», «Ertag`in» shular sirasiga mansub. Qozoq folklorida «Qizjibek», «Qo`zi ko`rpeshe» va Bayan suluv», «Suluv shash» ishqiy-lirik dostonlari juda mashhur bo`lib, kattadan-kichik barchasi uni yodlashga harakat qilgan.

XVIII-XIX asrlarda og`izdan-og`izga ko`chib yurgan dostonlarni kuylovchi xalq oqinlari, jirovlar yetishib chiqdi. Buxor jirov, Nisanboy, Do`sxo`ja, Maxambet Utemisov,

Xoliboy Mamabetovlarni ko'rsatish mumkin. O'zining ijrochilik mahorati bilan shuhrat qozongan oqinlardan biri Jambul Jabayev Jambul tog' etagida kambag'al oilasida tug'ilgan. Ustozi Suyumboy tarbiyasini olgan oqin «Kambag'alning sho'ri», «Shaltaboyga», «Mirzobek volostining boshlig'iga», «Qodirboyning iti» kabi asarlarda xalqning hayotini real tasvirlashga intildi.

Sho'ro adabiyoti rivojining ilk davrida qozoq yozuvchilaridan I. Kubeyev, S. Turayg'irov, S. Donentaev, I. Shonsugurov, S. Sayfullinlar ijod qilgan bo'lsa, ikkinchi davrida Muxtor Avezov, Sobit Muqanov, G'abit Musrepov, G'abidin Mustafin, Toir Jarokov, Abdulla Tojiboev, G'ali O'rmonovlar samarali ijod etishdi.

Qozoq romanchiligi I. Kubeyev, M. Avezov, S. Muqanov, G'. Musrenov, G'. Mustafinlarlar ijodi bilan chambarchas bog'liq. Sobit Muqanov «Temir tas», «Bo'tako'z», «Hayot maktabi», «Polvon cho'loq», Muxtor Avezov «Enlik-Kebek», «Qora ko'z», «Xon qene», «Abay», «Chegarada», «Yalang'och qilich», «Olma bog'ida», «Izlar», «Yelkama-yelka», «Burgutli ovchi», G'abiden Mustafin «Hayot yoki Mamot», «Shig'an an Bersiev», «Millioner», «Qozoq soldati», «Uyg'ongan o'lka», S. Sayfullin «Qizil burgutlar» asarlari bilan yangi pog'ona ko'tarildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Albatta, bu asarlarning talqin va tahlilida tavofut bor.

Qozoq va o'zbek adabiyotlari orasidagi aloqa va hamkorlik uzoq tarixga ega. Alpomish va Go'ro'g'li, Qo'blandi Botir va Ertag'in, mullo Nasriddin bilan Aldar Ko'sadan tortib Alisher Navoiy va Abaygacha do'stlik rishtalari mustahkamlangan. O'zbek kitobxonlari uchun Muxtor Avezovning to'rt jildlik «Abay», G'. Mustafinning «Qarag'anda», «Chig'anoq», Jambul Jabaevning she'riy to'plamlari, S. Bkgalining «Ona mehri» hikoyalar to'plami nashr etildi. Shu barobarida o'zbek yozuvchilaridan Hamza, Oybek, Asqad Muxtor, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Ibrohim Rahim, shoirlardan Uyg'un, Ramz Bobojon, Mirtemir, Shuhrat, Zulfiyalarning asarlari qozoq tilida chop etildi.

### **ABAY QO'NONBOEV (1845-1904)**

Qozoq adabiyotining asoschilaridan biri shoir va ma'rifatparvar Abay (Ibrohim) Qo'nonboev Semipalatinsk uezdiga qarashli Chingiztov romanida chorvador oilasida tug'ilgan. Dastlabki ta'limni madrasada olgach, yangi usuldagi maktabda tahsilni davom ettirdi. U Sharqning buyuk vakillari-Firdavsiy, Nizomiy, Sa'diy, Hofiz asarlarini chuqur o'rganib, Ovrupo adabiyotini talil etishga kirishdi. A. Pushkin, L. Tolstoy, M. Saltikov-Shchedrin ijodini tadqiq etish bahonasida Sharq va G'arb adabiyotining bog'liq jihatlarini mukammal o'rgandi. U yoshlik chog'ida she'r yozish bilan birga o'lan aytish bo'yicha nom qozondi. Ma'rifatparvar shoir asarlari tarqoq qozoq xalqini birlashishga chaqirib, ilm o'rganish, ma'rifat olish yuksalish va ozod bo'lishning eng ma'qul yo'li ekanini uqtiradi. Abay qozoqlarning birinchi kompozitori edi. U o'z she'rlariga xalqona usulda musiqa bitib, kuylardi. Qozoq xalqiga rus adabiyotining eng zo'r asarlarini tarjima qilib yetkazgan ham Abay edi.

Shoirning «O'larn» lari tarjima qilinib maktab darsliklari va o'quv qo'llanmalarga ham kiritilgan.

Qozog'im, sho'rlik yurtim, vayron yurtim!  
Qorong'uda yo'l topolmay, hayron yurtim!  
Yomon bilan yaxshini farq qilolmay,  
Og'zida ham qon, ham moy, sarson yurtim.  
Biy bo'ldi qiyqim boylar bosh-boshiga,

Dog` soldi, zahar soldi yurt oshiga.  
Qo`rqaman hassasi yo`q ko`r singari,  
Elim unar buzuqlar aldashiga.  
Gadoy sho`rlik yuradi poda boqib,  
O`tini yo`q isinsa olov yoqib.  
Xotin urchuq yigirar, yung savalab,  
Chakman to`qir sovuqda yelka qoqib.  
Soyaday ham o`rni yo`q boy uyida,  
Sarqiga ham ilinmas shu kuyida.  
Lekin uzoq keta olmas, chorasi yo`q,  
Yo rabbiy, har kim kulsin o`z to`yida.  
To`g`ri so`zlik o`lanim, o`zing ko`rkam!  
Mayli, tatimasa ham so`yla bardam.  
Bu yurt so`z oshig`imas, mol oshig`i,  
Roziman, mindan biri tushunsa ham.  
Ammo aql chaqirilmagan mehmon emish,  
Aqli borga bunday umr zindon emish.  
Kechiring, nodonlarga tegib o`tsam,  
Bu elda to`g`ri aytgan yomon emish.

Abay «Nasihatlar» ning o`ttiz birinchi so`zida shunday yozadi: «Kishi eshitgan narsasini unutmash uchun to`rtta shart bor: avvalo, zehni bo`lmoq kerak; ikkinchidan, bir narsani ko`rganda yo eshitgan-unga chin yurakdan ixlos qo`yib, fahm-farosat bilan uqib olmoqlik lozim; uchinchidan, eshitganlarini ichida bir necha marta takrorlab ko`ngliga jo qilmoq kerak; to`rtinchidan, ko`ngliga boshqa narsalarni mutlaqo keltirmaslik kerak».

### **O`LJAS SULAYMON (1936 YILDA TUG`ILGAN)**

Zamonaviy qozoq adabiyotining yetuk vakili O`ljas Sulaymon 1936-yil 18-mayda Olma Ota shahrida tug`ilgan. Uning otasi harbiy xizmatchi edi. O`rta ta`limni rus maktabida olgan O`ljas Qozog`iston Davlat Universitetining geologiya fakultetiga o`qishga kirdi. Badiiy ijodga bo`lgan qiziqish uni 1961 yil Maksim Gorkiy nomidagi adabiyot institutiga yetakladi. 1962-1971-yillar orasida u «Qozog`im» studiyasi bosh muharriri, «Prostor» jurnali bo`lim mudiri, 1972-yildan boshlab Qozog`iston Yozuvchilar uyushmasi kotibi, Qozog`istonning Italiyadagi elchisi sifatida faoliyat ko`rsatdi. O`ljas Sulaymon qozoq xalqiga xos milliy xususiyatlarni, urf-odatlarini, shonli va og`riqli nuqtalarni yaxshi biladi. Shu bois uning asrida qozoq xalqining milliy ruhi teran ifodalanadi.. 1961-yilda shoirning ilk asari- «Arg`umoqlar» chop etildi. Shundan so`ng «Quyoshli tunlar», «Ajoyib tun», «Sharofatli vaqtlar», «Maymun yili», «Loy kitob», «Olovning ko`chishi», «Yumaloq yulduz», «Az i Ya» kabi o`nlab she`riy, nasriy, ilmiy kitoblari nashrdan chiqdi.

O`ljas Sulaymonning badiiy asarlarida qozoqning o`ziga xos turmush tarzi, o`y-fikrlari, his-tuyg`ulari aks ettirilsa, ilmiy asarlarida turkiy xalqlarning dunyo madaniyati taraqqiyotidagi ulkan o`rni tarixiy dalillar asnosida ko`rsatilgan.

«Az i ya» asari Yevropaparastlar aytganiday, turkiylar yovvoyi va madaniyatsiz qavm emas, balki dunyoning eng qadimiy millatlaridan biri ekanini isbotladi.

O`ljas Sulaymonning «Qoyilmisan, insonga zamin» deb nomlangan dostoni inson imkoniyatlari va irodasi haqida bitilgan madhiya yanglig` dunyoga yangradi. Unda

koinotni zabt etgan va jahon taqdirida yangi bosqichni boshlab bergan odamzot to`g`risidagi mushohadalar g`oyat ta`sirchan ifodalangan.

Shoir she'riyatidagi qahramon g`ururli, o`z qadrini biladigan, ayni vaqtda o`zgalarning ham hurmatini joyiga qo`yadigan shaxsdir.

Ular fe'li keng, tanti, falsafiy mushohadalarga moyil, chapani va jo`mard kishilar sifatida yorqin bo`yoqlar, kuchli she'riy timsollar vositasida jozibador tasvirlangan.

Arg`umoq (Azim Suyun tarjiması)

Yilqisi bilan mashhur,

Qadim qipchoq yerida.

Oqib boradi uyub,

Kuygan o`tlar selida.

Tomirimda qaynar qon,

Tulporidan saylab ber.

Eldiray misli bo`ron,

Ostin-ustun bo`lsin yer.

Ellar alanga olsin,

Arg`umoqning qonida.

Qiyog, alaflar qolsin,

Tuyoqlar to`zonida.

Yashash, kurash nimadir,

Bilib qo`ysin arg`umoq.

Jasorat bizda taqdir,

Guldirab ketsin so`qmoq.

## QIRG`IZ ADABIYOTI

Tyan –shan vodiysi va tog`larida joylashgan qirg`iz o`lkasi bir tomondan Qozog`iston, O`zbekiston, Tojikiston, ikkinchi tomondan Xitoy xalq Respublikasi bilan chegaradosh. Qirg`izlar haqidagi eng qadimgi yozma adabiyotlar miloddan ilgari XII asrga oid manbalarda uchraydi. O`tmishda asosan chorvachilik bilan shug`ullangan bu xalq VIII asrda arablar VII asrda qoraxitoylar, XVI asrda mug`ul, XVIII asrda rus-bosqinchilarining azob-uqubatlarini tortgan. Qirg`izlarning ota-bobolari qadimdan O`rta Osiyo, Tyan-shan, yettisuda yashagan xunn, sak va skif qabilalari bilan yaqin aloqada bo`lib, ularning madaniyati, dini va urf-odati ta`sirida uni kechirishgan. «Buyuk ipak yo`li» qirg`iz xalqining madaniyati, ilm-fanini bir pog`ona ko`tardi. Sekin-asta savdo-sotiq bahonasida fors va Yunon madaniyatining eng sara jihatlari o`zlashtirib olindi. Qirg`iz xalq og`zaki ijodidi «Ko`rman yek», «Ertobildi», «Ertushtuk», «Jonil Mirzo» kabi qahramonlar orasida «manas» ning o`ziga xos o`rni bor. Doston qirg`iz xalqining ko`p asrlik hayoti va bosqinchilarga qarshi qahramonona kurashini she'riy usulda aks ettiruvchi asardir. Dostonning hajmi besh yuz ming baytni tashkil etadi. «manas» da qirg`iz xalqining urug`-aymoqchilik munosabatlari afsona, ertak, ashula va qo`shiqlar asnosida yorqin tasvirlangan.

«Manas» dostoni uch qismdan iborat. Birinchi qismda xalq qahramoni Manas, ikkinchi qismida Manasning o`g`li Semetey, uchinchi qismda Manasning nabirasi Seytekning hayoti, sarguzashti, qahramonliklari tasvirlangan.

«Manas» eposining syujeti murakkab. U juda ko`p dostonlarni o`z ichiga oladi. Ularda do`stlik, vatanparvarlik va qahramonlik g`oyalari olg`a surilgan. Manasning qalsoq

xoni yuborgan Alvasti Kojart alp, Kuchku, Joloy kabi pahlavonlar ustidan g'alaba qozonishi, Farg'ona vodiysida Bobodehqon bilan uchrashib, undan dehqonchilikni o'rganishi, turli o'lkalardan kelgan Adjiboy, Chumak, Sergak va Almambet kabi bahodirlar bilan do'stlashuvi, nihoyat, xalqni afg'on va qalmoq xonlari zulmidan qutqazib qolishi kitobxon ko'z o'ngida ajoyib inson, xalq qahramoni vaa vafodor do'st sifatida gavdalantiradi.

«Manas» ning Semetey va Seytek hayotiga bag'ishlangan qismlarida ikki avlod qahramonlarining janglaridan ko'ra ularning oilaviy hayoti voqealari batafsil tasvirlangan. Qirg'iz folklorida «Manas» eposini kuylovchi ijrochilar alohida e'tiborda bo'lgan. Ammo bizgacha yetib kelgan dostonning variantlari har xil mazmun va badiiylikka ega. Masalan, mashhur manaschi Sayoqboy Qaralaeov og'zidan yozib olingan variatda Manas va uning safdoshlari ko'proq xalq va vatan uchun xizmat qiladigan qahramon sifatida talqin etilsa, Sag'inboy O'razbekov ijrosidagi varianti manasni ko'proq xon qo'shinlarini bosib oluvchi sarkarda siymosida ko'ramiz. Yana bir jihatni esdan chiqarmaslik kerakki, turli tarixiy davrlarda hukmron doiralar «manas» eposidan o'z manfaatlari uchun foydalanishgan.

XIX asr o'rtalarida xalq oqinligi qirg'iz adabiyotining rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, To'g'aloq Mo'ldaning ijodi fikrimiz isboti bo'la oladi. U avval qirg'iz manapi (boyi), keyin rus kulagi qo'lida martalaik qildi. qiyinchilik, azob-uqubatga qaramay u qozoq klassigi Abay va tatar shoiri Abdulla To'qayning asarlari mutolaasi ta'sirida oqin darajasiga ko'tarildi. Dastlabki davrlarda u ertak-masal syujetlari ta'sirida «Jonboqti», «Kemchentoy», «Eshak va bulbul» masal va hajviy dostonlarni yaratdi. To'g'aloq Mo'lda mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy hodisalarni sezgirlik biln kuzatib, uni mojaziy obrazlarga ko'chiradi.

Qirg'iz xalq oqini To'xtagul Sotilg'anovning hayoti darbadarlikda kechgan. Shu bois u hayotni o'zicha talqin qiladi. Uning fikricha, mehnat insonga quvonch bag'ishlaydi, do'stlik ob-havoday zarur, sevgi hayot bulog'i. Xaq oqini o'zining otashin chiqishlari bilan rus bosqinchilarini noqulay ahvolga solib qo'ydi. 1898 yilda To'xtagulni Andijon qo'zg'olonida qatnashgan deb Sibirga surgun qilishdi. yetti yillik surgun mashaqqatlarini ko'rgan oqin chuqur ijtimoiy mazmundagi asarlar yoza boshladi. «Besh qobon» she'rida u «qobon» nomi bilan tanilgan beshta amaldorni tanqid qiladi:

Etim-esir, holsizni,  
Savalading, besh to'ng'iz.  
Odam o'rnida yo'qsulni,  
Sanamading, besh to'ng'iz.  
Eb-ichishdan boshqani,  
Tan olmading, besh to'ng'iz.  
Jahling chiqsa, quturib,  
Uy –joyimni talarsiz.  
Qonxo'rliging avj olsa,  
O'ldirib, qonim yalarsiz.  
Tirnog'i zahar besh qobon,  
Yalinmayman hech qachon.  
Mayli, o'ldir, dunyoga,  
Qaytib kelmas chiqsa jon.

Surgundan qaytgach siyosiy xarakterdagi «Alvido xalqim», «Xayr ona», «Surgunda», «Tog` burguti», «Salom, mehribon xalqim», «Sog`inish», «Uch xo`ja», «Mungli qushcha» asarlari dunyo yuzini ko`rdi.

20-30-yillarda u yoki bu darajada qirg`iz adabiyotiga K.Bayalinov, M.Takaboev, K.Jontoshev, T.Sidiqboyev, A.Osmonov, T.Umetaliyev, J.Turusbekov, M.Eliboyev, S.Shimeyev, N.Boytemirov, K.Akeyev, S.Eraliyev, I.Uzoqboyev, K.Malikov, S.Jusuyev, R.Shukurbekovlar adabiyot takomiliga ayri-ayri ta'sir ko`rsatishdi.

Zamonaviy qirg`iz adabiyotining asoschisi so`zsiz- Chingiz Aytmatov. Uning «Oq yomg`ir», «Raqiblar», «Qizil olma», «Jamila», «Birinchi muallim», «Sarvqomat dilbarim», «Bo`tako`z», «Yuzma-yuz», «Samon yo`li», «Baydamtol sohillarida» asarlari o`zbek kitobxonlari tomonidan sevib mutoalaa qilinadi.

### TO`XTAG`UL SOTILG`ANOV (1864-1933)

Qirg`iz xalqining ulug` oqini va bastakori To`xtag`ul Sotilg`an o`g`li 1864-yilda tug`ilgan. Yoshligidan qubiz chertib, xalq qo`shiq va dostonlarini aytib yurgan To`xtag`ul sekin – asta original asarlar yaratib, kuylashga kirishdi. «Qizlarga», «Alimxon», «Eshon xalfa», «Qashshoq» kabi asarlarida ijtimoiy hayotning muammolarini keskin tanqid ostiga oldi. Rus istilochilari omonidan Sibirga surgun qilindi. Olti yildan so`ng Krugo-Bayqol temir yo`l qurilishiga yuboriladi. 1910-yilda u yurtiga qaytgach yana qamoqqa olinadi. Shunda yurtdoshlari uni kafillikka olishadi. O`z boshidan kechirgan azob-uqubatlarni shoir «Tutqunning jiri», «Quvg`indi», «Eshmabet bilan uchrashuv» asarlarida ishonarli tarzda tasvirlaydi. To`xtag`ul Sotilg` 1933-yilda vafot etadi. O`zbek kitobxonlari shoirning «Sog`inib keldim» she'riy to`plamidan 1964-yilda bahramand bo`lishdi.

Yetim-yesir, holsizni,  
Savalading, besh to`ng`iz.  
Odam o`rnida yo`qsulni,  
Sanamading, besh to`ng`iz.  
Yeb-ichishdan boshqani,  
Tan olmading, besh to`ng`iz.

Bu satrlar shoirning «Besh qobon» asaridan bo`lib, unda Ahmad, Diqon, Otaxon, Risqulibek kabi boylar tanqidi bahonasida yurtning qonini ichayotgan istilochilarning asl basharasi tasvirlangan.

O`nta otga tushurding,  
O`razali qarini.  
Yurt haqin yeb o`tkazding,  
Umringning yarmini.  
Ko`rolmading kambag`al,  
Yaxshi ot minganin.  
Ahmad, Diqon, Otaxon,  
Go`rkovliging bul sening.  
Tentiratding sen, talab,  
Bo`ramboyning Sarisin,  
Kunda yulding ayblab,  
Yurt topganin barisin.

## CHINGIZ AYTMATOV

Qirg'iz adabiyotini yangi pog'onaga olib chiqqan yozuvchi, jamota arbobi Chingiz Aytmatov 1928-yilda Sheker qishlog'ida tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgach, qishloq xo'jaligi institutining zootexnika fakultetida o'qiydi. Uning 1952-yilda kichik-kichik hikoya va povest, ocherklar yozishdan boshlangan.

«Yuzma-yuz», (1957), «Jamila» (1958), «Birinci muallim» (1960), «Sarvqomat dilbarim» «1961», «Bo'tako'z», «Somon yo'li («Momo yer»)» (1963) asarlari o'sha vaqt nasrida olamshumul o'nglanish edi. Sho'ro davrida adib o'zining «Tog'lar va dashtlar qissasi» asari uchun davlatning eng oliy mukofotiga sazovor bo'lgan edi. Chingiz Aytmatov 1979-1980-yillar orasida «Asrga tatigulik kun», «Qiyomat» asarlarini kitobxonlarga taqdim etib, unda o'zining og'ir kechgan bolalik yillarini jo'eta oldi. Ma'lumki, adibning otasi To'raqul Aytmatov o'z vaqtida sho'ro hukumatining turli idoraladida mas'ul lavozimlarda ishlagan. Qatag'onning 30-yillarida uni qamoqqa olishadi va yo'q qilishadi. Odamlarni, hayotni g'oyat yaxshi bilgan va chin yurakdan sevgan adib o'z asrlarida kishilar uchun juda aziz, juda zarur bo'lgan tuyg'ularni, holatlarini, mavzularni qalamga oladi. Adib asarlarida oddiy mehnat kishilari-ishchilar, chorvadorlar, dengizchilar, ziyolilarning obrazlarini chizadi. Lekin jamiyat faqat shulardangina iborat emas. Atrofimizda oddiy temiryo'lchi bilan birga tekinxo'rlar, o'z mehnati bilan kun kechiradigan dehqon, yuk tashuvchi, kosib, sut sog'uvchi, paxtakor, oshpaz, nonvoy bilan yonma-yon kasb-korining tayini bo'lmagan fosiq, aroqxo'r, tovlamachi, firibgar, muttahamlar ham yetarlicha topiladi. Bundan ko'z yumib bo'lmaydi. Ularning o'z nuqtai nazari, a'mollari, o'z e'tiqodlari, o'z manfaatlari bor. U qanday din, mazhab, siyosiy ijtimoiy guruh yoki partiyalarga mansubligidan qat'iy nazar, shafqatli va shafqatsiz diyonatli va diyonatsiz, insofli va insofsiz, oliyanob va qabih, samimiy va manfur odamlarni ko'radi.

«Asrga tatigulik kun» romanida voqealar asosan Sario'zak cho'lida, Bo'ronli temir yo'l bekatida bo'lib o'tadi. Gap butun ongli hayotini bekatda oddiy temiryo'lchi bo'lib yashagan Kazangapni vafotidan so'ng dafn etish taraddudlari tasviri bilan boshlanib, romanning nihoyasida sarosim musibat bilan tugaydi.

«Qiyomat» da Akbara bilan Toshchaynar romanining deyarli barcha syujet chiziqlarini bir-biriga bog'langan asosiy qoplovchi syujet-vosita bo'lsa, «Asrga tatigulik kun» da Qoranor mazkur vazifani bajaradi.

Shirali, favqulodda o'ziga xos maroqli va jozibador usul-uslub: o'tmish manzaralari, xalq donishmandligi, hikmatlar bilan omuxta qilingan real voqelik lavhalari, o'zicha olganda aqlni lol qilishdan yiroq bo'lgan odmi-jo'n turmush tarzining tafsilotlari bilan «to'ldirilgan», «bezatilgan», «tasdiqlangan» rivoyatlar muallifining hikoya qilish samimiyatini ta'minlaydi. Romanda har xil tiplar, turli-tuman xarakterlar yaratilgan. Kazangap-oqil, Edigey-sobit, Nayman ona- buyuk jabrdiyda, Oyzoda-mushtipar, Sobitjon-vaysaqi, leytenant Tansiqboev-g'irt to'pori. Har bir personajning o'z xulq-atvori, o'z e'tiqodi va falsafasi, o'z manfaati va ichki dunyosi tabiiy ishonarli tarzda ochib berilgan. «Qiyomat» romanida Akbara bilan Toshchaynar, Iisus Xristos, Avdiy Kallistratov, Guram Jo'xadze, Bo'ston O'rkunchiev, Bolgariya xor kapellasi bilan bog'liq voqea va manzaralarning har biri alohida roman, qissa va hikoyalarga arzigulik syujet bo'la oladi.

Chingiz Aytmatovning ijodi-yangicha tafakkur tarzining samarasi o'laroq, o'ziga nisbatan ongli munosabat, idrok, saviya va yuksak madaniyat sohibi bo'lishni talab etadi. Uning asarlariga eskicha andoza yo sxema bilan yondashib bo'lmaydi.

Chingiz aytmatov o'zbek xalqiga juda ko'ngli yaqin yozuvchi. U qo'li qadoq xalqimizning taqdir va qismatiga munosabatdosh, uning baxtiga sarafroz, tashvishlariga teng sherik, musibatiga qayg'udosh. O'zini o'zbekka o'zbekning o'z farzandiday yaqin oladi.

### **QORAQLPOQ ADABIYOTI**

Yarim ko'chmanchilik bilan kun kechirgan qoraqalpoq xalqi murakkab taraqqiyot yo'lini boshdan kechirdi. Qoraqalpoq xalqining o'ziga xos juda boy og'zaki ijodi bor. O'z.R.FA Qoraqalpog'iston ilmiy-tekshirish instituti fondida «Qirq qiz», «Alpomish», «Yer qo'shay», «Mast podsho», «Shahriyor», «Oshiq G'arib», «Yusuf va Zulayho», «Oshiq Hamro», «Tohir va Zuhro», «Yusuf va Ahmad» dostonlarining variantlari saqlanadi.

Qozoq xoni Abdulxayrga qarshi kurashda qoraqalpoqlar mag'lubiyatga uchrab, to'rt tomonga tarqaldi. Bir qismi Toshkent atrofiga-Chirchiq bo'ylariga, bir qismi Farg'ona va Samarqand, yana bir qismi Qizilqum orqali Xorazmga-Orol dengizining janubiy janubiy sohillariga borib o'rnashadi. Xalq shoirlari Jiyan Jirav, Kunxo'ja, Berdaq, Qulmurod, Gulmurodlar real hayotni tasvirlashga harakat qilishgan. Kunxo'janing «O'roqchilar», «Tuya ekansan», Hojiniyozning «Bo'z o'tov», Berdaqning «Shajara», «Ernazar biy», «Oydo'st biy», «Ahmoq podsho» asarlari fikrimiz dalilidir.

20-30-yillarda qoraqalpoq ijodkorlari «Erkin qoraqalpoq» gazetasi atrofida jamlanishdi. Adabiyotga kirib kelgan X.Axmetov, A.Matyoqubov, A.Utepov, J.Oymurzaev, A.Begimov, A.Musayev, A.Dabilov, S.Nurembetov singari yozuvchilar yangi g'oya va fikrlarni surishdi. Ammo mazkur yozuvchilar mavjud tuzum doirasini yorib chiqisha olmadi. Ba'zi birlari harakat ham qilmadi. 1940-1950-yillar mobaynida J.Oymurzayev «Mening do'stlarim», «Erboy botir», D.Nazirbergenov «Ikki qahramon», «Dushmani yengamiz», A.Utepov «Saidmurod dangasa», S.Xo'janioyozov «Bizning qahramon», A.Begimov «Baliqchining qizi», X.Saitov «Mashaqqatli baxt», «So'nggi hujum» asarlarini yozgan bo'lsa, N.Dovqoraev «Qoraqalpoq adabiyoti tarixi ocherki» darsligini nashrdan chiqardi. Bir-biriga qondosh, jondosh bo'lgan o'zbek va qoraqalpoq xalqlari adabiyoti ko'p yillik tarixiy bog'lanishga ega. O'zbek yozuvchilaridan Oybek, G'ofur G'ulom, Abdulla Qahhor, Uyg'un, Sharof Rashidovlarning asarlari qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan.

### **BERDAQ (1827-1900)**

Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq Muynoq tumanida baliqchi oilasida tug'ilgan. Yoshligida ota-onasi vafot etgach, shoir ovulma-ovul yurib tirikchilik qiladi. Dastlabki tahsilni ovulidagi maktabda keyinchalik madrasada davom ettiradi. Berdaqning ijodi 18-19 yoshlarida do'mbira chertib she'r aytishidan boshlangan. 25 yoshida ichte'dodli shoir sifatida xalq orasida tanildi. Berdaq xalqning ahvolini yaxshi tushunardi. Uning «Xalq uchun» she'rida mavjud hayot hech bir bo'yoqsiz tasvirlangan. Shoirning «Shajara», «Xorazm», «Amongeldi», «Aydosbiy», «Ahmoq podsho» asarlarida ilk bor jafokash, munis ayollar siymosi chizilgan. O'zbek kitobxonlari 1961- yilda Berdaqning she'rlar to'plamidan bahramand bo'lishdi.

Yigit bo'lsang arslon kabi tug'ilgan,  
Hamisha sen xizmat etgil xalq uchun.  
Yigit bo'lsang arslon kabi tug'ilgan,  
O'zim deyman, g'amxo'rlik qil xalq uchun.



Shoirning nazdida, yigit kishi el yurti uchun xizmat qilsa, murodiga yetadi. Dushmanning dodini bersa, Vatanni himoya qilsa, ulus undan minnatdor bo`ladi.

Etarsan murodga, gar xizmat etsang,  
Eling yo`llaganda har qayon ketsang.  
Har qachon dushmanning boshiga yetsang,  
Kuch ayamay, xizmat ayla xalq uchun.

Bilim insonni yuqori cho`qqilarga olib chiqadi. Agar yigit bilimdon bo`lsa, ustiga ustak hunar egasi bo`lsa, xalqqa undan katta foyda keladi.

Yigit degan yaxshi bilimdon bo`lur,  
Bilim, hunar yigit uchun shon bo`lur.  
Aqlsizlar ishi ko`p yomon bo`lur,  
Ahmoqlar hech xizmat etmas xalq uchun.

Berdaq o`zining og`ir ahvolda yashagani, yoshligida ovulma-ovul yurib og`ir mehnat qilganini satlarda jo etgan.

Bo`lmadi hech yerda manzil-makonim,  
Zahru zaqqum bo`ldi ichgan-eganim.  
Aytmas-da bo`lmadi mening deganim,  
Kuyganlikdan jon qiynalur xalq uchun.

Ammo shoir barcha qiyinchiliklarni xalq, el-ulus farovonligi yo`lidagi qiynalish deb qabul qiladi. Og`ir kunlar o`tib, yaxshi, farovon, ozod kunlar kelishiga ishonadi:

Shoir edim, ko`zim ko`rganin yozdim,  
Ko`nglimning bilganim, sezganim yozdim.  
Zamon jafosidan sarg`aydim, ozdim,  
Kelurmi deb yaxshi kunlar xalq uchun.

«Yoz kelurmi» asari Berdaqning siyosiy qarashlarini to`liq aks ettirgan. Unda istilochilar tomonidan ezilgan qoraqalpoq xalqining ko`ksiga qachon istiqloq, ozodlik, quyoshi tegarkin degan ilinj yotibdi.

Dovul turdi, tuman yurdi,  
Fuqaroga yoz kelurmi?  
Qo`shnimning qamishin surdi,  
Fuqaroga yoz kelurmi?

Qish va yoz faslining qarama-qarshi qo`yish asnosida shoir aytmoqchiki, istilochilarning hatti-harakati qishga, fuqaroga ozodlik kelishi yozga mengzatiladi.

Jon achitar qora sovuq,  
Yoz kelmasdan bo`ldi yovuq.  
Umr bo`yi shunday xo`rlik,  
Fuqaroga yoz kelurmi?

Qishning qahri shunchalik qattiq keldiki, bechora fuqarolarningn ichishga yovg`oni, yurishga ot ulovi, yotishga to`shak-to`shi qolmadi.

Yovg`onim yo`q, ichay desam,  
Ot-ulov yo`q, tushay desam.  
To`shagim yo`q, to`shay desam,  
Sho`rlik elga yoz kelurmi?

Shoirning ozodlik haqidagi ilinjlari u yoki bu darajada boshqa asarlarida o`z ifodasini topgan. Umr bo`yi haq va haqiqat deb kurashgan shoir ishonadiki, yashnab, yayrab yoz fasli keladi.

Haq qayda, haqiqat qayda?  
Shunday azob hamma joyda.  
To`qlaridan yo`q, qittak foyda,  
Yashnab, yayrab yoz kelurmi?

### **JO`LMURZA OYMURZAEV (1910 yilda tug`ilgan)**

Qoraqalpoq adabiyotining yetuk vakili Jo`lmurza Oymurzaev Chimboyda kambag`al oilasida tug`ilgan. Yangi usuldagi maktabni tugatgach, To`rtko`ldagi pedagogika texnikumida tahsil oladi. Bir necha yil o`qituvchilik qiladi. Keyinchalik gazeta va jurnal tahririyatlari, Qoraqalpog`iston Davlat nashriyotida ishlagan. Adib ijodini 1927-yildan boshladi. 1935-1936-yillar orasida Moskvada shoirning ikkita to`plami chop etildi. 1938-yilda to`plamlarga qo`shimcha ravishda «Kurash», «Biz kurashda yengdik» dostonlari nashrdan chiqdi. Dramaturg sifatida bir qator pesalar yozib ulgurgan adibning «Oygulobod», «Amu qirg`oqlari», «Berdaq» asarlari bir necha yil Qoraqalpog`iston Davlat teatri repertuaridan tushmadi.

J.Oymurzaev kichik hikoya, ocherk va feletonlar yozish barobarida «Qameqboy ishi» nomli romanini ham qalamdan chiqardi. Unda qoraqalpoq mehnatkashlarining hayoti o`z aksini topgan. Qoraqalpoq adabiyoti va san'atini rivojlantirishga qo`shgan hissasi uchun Jo`lmurza Oymurzaevga O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san'at arbobi unvoni berildi.

«Cho`pon sibizg`asi» da shoir qoraqalpoq cho`llarida tunu-kun xizmat qilib charchamaydigan Cho`pon siymosini quyidagicha chizadi:

Yangi ko`m-ko`k yaylovda, Amu bo`yida,  
Sibizg`a chalmoqda bir keksa cho`pon.  
Biri-o`n bo`ladi bahor oyida,  
Har kuni uyg`onar tug`masdan cho`lpon,  
Jahonni qamraydi nur toshgan ko`zi.  
Ko`ngli kunday yorug`-qirda to`y-to`ylab,  
Bir tepa ustiga otilarkan o`zi,  
Xayollari ketar Amuni bo`ylab.

Shoir ishonadiki, qoraqalpoq xalqining o`tmishi, qadriyat u osori-atiqalari abadiy. Millatning ertangi kuni porloq. Bu g`oyani u «Oydin yo`l» asarida go`zal tarzda tasvirlaydi:

Ertangi kun shunday porloq, shunday keng,  
Eri cheksiz, suvi beman, davlat mo`l.  
Derlar: bu xalq bekor qurmabdi ekan-  
Ertangi kun uchun yorug`, oydin yo`l.

Jo`lmurza Amudaryo farzandi. U to`lqinlanib, ko`pirib oquvchi Amuni maqtash asnosida butun qoraqalpoq xalqiga chuqur ta'zim qilganday bo`ladi.

Ey erkin, dilrabo, qadrdon Amu,-  
Jonajon o`lkamning boyligi husni.  
Bag`ringda xushchaqchaq, farovon hayot,  
G`urur bilan tilga olinur isming.

Albatta, shoir ijodi namunalari ichida sho`ro davlatini maqtab yozilgan asarlar ham anchagina. Bunga tabiiy hol deb qarashimiz kerak. Maqsadimiz shoir asarlarini yangicha nuqtai nazardan tahlil etishdir.

### **Mavzu: Kavkaz va kavkazorti xalqlari adabiyoti**

#### **Reja:**

1. Nizomiy Ganjaviy “Xamsa” asarining yuzaga kelishi.
2. S.Vurg`un “Absheron” romanining tahlili.
3. Shota Rustaveli “Yo`lbars terisini yopingan pahlavon” dostonida aks ettirilgan davr.
4. Rasul Gamzatov “Yuksak yulduzlar” she`rlar to`plamining tahlili.

#### **Adabiyotlar:**

1. A.Uzoqov. “MDH adabiyoti”. T., 2008.
2. N.Dumbadze “Abadiyot qonuni”. T.: 2009.
3. R.Hamzatov. “Mening dog`istonim”. T.: 1997.
4. Sh.Rustaveli “Yo`lbars terisini yopingan pahlavon”. T., 1996.

Bu guruhga Kavkaz va kavkazortida yashovchi o`n beshga yaqin xalqlarning adabiyoti kiradi. Ulardan ozarbayjon, arman va gruzin adabiyotlari ko`p asrlik tarixga ega bo`lsa, abxaz, lezgin, kabardin, osetin, qumiq, lak, darg`in kabi xalqlarning yozma adabiyoti nisbatan birmuncha keyin shakllangan. Shunga qaramay, bu adabiyotlar o`rtasida ularning bir-biriga bog`lovchi qadimiy an`analar mavjud. Ozarbayjon hamda qumiq adabiyotlari bilan o`zbek adabiyoti o`rtasida, lak va osetin adabiyotlari bilan tojik adabiyoti o`rtasida ancha mushtarak, o`xshash xususiyatlar bor. Chunki, ular bir tizimdagi qardosh milliy tillarda so`zlashib, Sharq mumtoz adabiyotining qadimiy, boy xazinasidan bahra olganlar. Nizomiy-Ganjaviyning «Xamsa»siga kirgan dostonlar, Shota Rustavelining «Yo`lbars terisini yopingan pahlavon» eposi, Mxitar Gay, Vardan Gayketsi masallari g`oyaviy-badiiy jihatidan yetuk asarlar sifatida o`sha zamondayoq alohida e`tirof etilgan edi.

Turli davrlarda Kavkaz va Kavkazorti xalqlari adabiyotida Voqif, Vidodiy, Sayat Nova, David Guramishvili, S.Orbeliani, X.Abovyan, M.Oxundov, G.Arstavi, G.Sandukyan, I.Chavchavadze, E.Ninashvili, A. Sobir, J. Mamatqulizoda, A.Akopyan, A. Sulukidze, Sada, Rasul Gamzatov, M. Dishekov, Ladiko, Xusin Gashokov, A.Shortanov, A.Nishonov, Dmitriy Gulik, Ivan Tarba, Ivan Papaskirilar barakali ijod qilishdi.

### **OZARBAYJON ADABIYOTI**

Ozarbayjon xalqi eng qadimiy madaniyat tarixi va boy adabiyotga ega bo`lgan turkiyzabon xalqdir. Turli-tuman adabiy janrlarda yaratilgan ishqiy-qahramonlik dostonlari, ertaklari, marosim va muhabbat qo`shiqlari, xalq latifalari hamda maqollaridan iborat asarlari turli tarixiy davrda yaratilib, og`izdan og`izga ko`chib yurgan. Bular sirasiga «Kitobi dada Ko`rqut», «Ko`r o`g`li» eposlari, «Oshiq G`arib», «Shoh Ismoil», «Asli va karam» dostonlari, Melik-Mamed va Kal Ahmad sarguzashtlaridan hikoya qiluvchi ertaklar, insoniy muhabbatni olqishlovchi to`rtlik-bayotlar mansubdir.

«Kitobi dada Ko`rqut» eposi taxminan VII-VIII asrlarda ona tilida ijod etilgan yirik badiiy asar bo`lib, uning 12 qissasida o`g`uz-turkiy qabilalarining ozodlik uchun olib borgan kurashi o`z ifodasini topgan. Ozarbayjonda VII-VIII asrlarda arab tili, IX asrdan boshlab esa fors tili rasmiy davlat tili hisoblangani uchun Ismoil Yassor, Ahmad Tabriziy, Bahmanyor alii Bokuyi, Xatib Tabriziy, Xoqoniy, Shervoniy, Nizomiy Ganjaviy, Muhammad Fuzuliy asarlarini mazkur tilda bitishgan. Hattoki, Mirzo Fatali Oxundov ushbu an`anani davom ettirgan.

Sho`ro tuzumi davrida turli ijtimoiy-siyosiy har xillikka qaramay O. Sayrivelli, A.Jamil, Z.Xalil. N.Rafiybeyli, N.Saidzoda, K.Qosimzoda, A.Boboyev, G.Imomberdiyev, S.Rahimov, M.Huseyn, M.Ibrohimov, A.Valiyev, A.Azizbekovlar ijod qilgan. Ozarbayjon romanchiligida Mirza Ibrohimovning «Shunday kun keladi», Manaf Ibrohimovning «Yer osti sirlari», Iso Huseynovning «Tong yulduzi», dramaturgiyasida J.Jabramning «O`tkelini», «Olmos», Samad Vurg`unning «Voqif», S.Rustamning «Qochoq Nabi», I.Efendiyevning «Yorqin yo`l», «Shifobaxsh suvlar» asarlari katta shuhratga ega bo`ldi.

O`zbek adabiyotining rivojlanishiga qardosh ozarlarning ijobiy ta`siri bor. Qariyb barcha ozarbayjon adabiyotining namoyandalari asarlari o`zbek tilida chop ettirilgan. Adabiyotlar orasidagi munosabatlar davlatlarimiz orasidagi har tomonlama aloqalar bilan mustahkamlangan.

### **NIZOMIDDIN GANJAVIY (1141-1202)**

Buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkirios Yusuf o`g`li Nizomiy Ganja shahrida hunarmand oilasida tug`ilgan. Fors va arab tillarini chuqur o`rgangan Nizomiy astronomiya, matematika, falsafa, tibbiyot ilmini mukammal egallaydi. O`ttiz ming baytdan tashkil topgan «Xamsa» bilan shoir hamsanavichlik an`anasiga asos soldi. Nizomiy so`fiy-shoir edi. U shervoniy shahzodalarning saroyidan ko`ra o`zining kamtarona kulbasini afzal bilgan. Ammo «Xamsa» ga kirgan «Mahzon ul-asror», «Xusrav va Shirin», «Layli va Majnun», «Haft paykar paykar», «Iskandarnoma» dostonlarini podsholarning topshirig`i bilan yozgan. Shoirning dostonlaridan ilhomlanib Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va Xusrav Dehlaviylar beshlik yozigdi. «Maxzan ul-asror» da shoir yozadi:

Oqil agar so`z bila so`zni topar,  
Orif o`shal so`zda o`zuni topar.  
Ulki bilur so`z guhari qiymatin,  
So`zda topar so`zlaguvchining otin.  
Ahli nazar shevasini so`z bilur,  
Nuri basar mevasini ko`z bilur.  
So`z ko`zidur ulki ko`rar qolni.  
So`zda ko`z-u, so`zlaguvchida nazar,  
Yo`q esa so`z kezlaguvchida xabar.  
Zohiru botin xabari so`zdadur,  
Har naki bor o`zgada yo`q, o`zgadur.  
Ul kishikim, topmadi, so`z ganjini,  
Qilmadi habou hadar o`z ranjini.  
Kimki nazar manzaridan yumdi ko`z,  
Qo`ydi meros o`zdin g`ayri so`z.

### MIRZO FATALI OXUNDOV (1812-1878)

Ozarbayjon ma'rifatparvarlari orasida dramaturg va mutafakkir Mirzo Fatali Oxundovning alohida o'rni bor. Yoshligida eski maktabda savodini chiqarib, bir necha tilni mukammal egallagan Mirzo Fatali Tiflis shahridagi rus-tatar bilim yurtida o'qiydi. Ulug' rus shoiri Pushkinning ijodi bo'lajak ma'rifatparvarni o'ziga rom aylaydi. Uning «Pushkin vafotiga» asari shu oshuftalik nishonasidir.

Mirzoning fikricha, ozarbayjon xalqining ayanchli ahvolda yashashiga asosiy sabab xalqning savodsizligi. Shuning uchun u zo'r berib ma'rifat tarqatish, kambag'allar bolasini o'qitish, savodxon qilishga intildi. Arab alifbosini lotin yozuviga qayta tuzib chiqdi. Hayotning illatlarini Mirzo komediyalar mag'ziga singdirishga harakat qildi. «Mullo Ibrohim xalil Kimyogar» (1850), «Xasis kishining sarguzashtlari» (1852), «Tabiatshunos Muse Jordan» (1850) komediyalari ozarbayjon adabiyotida mazkur janrni rivojlanishiga asos bo'ldi. Mirzo Fatali xalq og'zaki ijodining o'lmas sarchashmalarini «Aldangan yulduzlar» povestiga singdirgan bo'lsa, V. Belinskiy, N. Chernishevskiy, N. Dobrolyubovlar falsafasini maktub shaklida yozilgan. «Hind shahzodasi Kamol ud-Davlaning Eron shahzodasi Jalol ud-avlaga yozgan uch maktubi va undan olgan javobi» asarida davom ettiradi. Mirzo jamiyatdagi tengsizlik, jaholat, xasislik, farosatsizlik va nodonlikni 1855-yilda yozilgan «Tabrizlik huquq himoyachilari», «Lenkoran xonligining vaziri» komediyalarida real tasvirlay olgan.

Mirzo Fatali Oxundovning «Pushkin vafotiga» asari ulug' shoir Maqsud Shayxzoda va Zohid Obidov tomonidan o'zbekchalashtirilgan. Ammo tarjimalar orasida Shayxzodaning o'girmasi asliga yaqin, original matnning mohiyatini saqlab qolgan. Asarda shoir ko'ngli bilan suhbatlashadi. G'amgin, xomush ko'nglining aytar so'zi, dardi bor.

Ko'ngil menga javob berdi: «Ey yolg'izlik sirdoshim,  
 Qo'yg'in meni o'z holimga! O'z kulfatim-o'z boshim!»  
 Lekin menga aniq bo'ldi: zamona bevaforidir,  
 Oqibati puch ekandir, ishi jabru jafodur.  
 Ko'ngilning tilidan shoir Pushkin siymosini go'zal tarzda chizadi:  
 Nahotki, sen eshitmabsan, ey dunyodan bexabar,  
 Pushkin nomli u zotni, shoirlarga bosh rahbar?!  
 U Pushkinki, uning so'zga oro berish san'atin,  
 Har burchakda yuzlab sado olqishlardi kuni tun.  
 U Pushkinki, qalamining ostida oq qog'ozi,  
 Misralarning siyohidan qoraymoqqa shod rozi.  
 Lomonosov jilo berdi she'riyatning uyiga,  
 Pushkin esa o'sha uyga bo'lib qoldi chin ega.  
 Garchi kirib fath ayladi Derjavin so'z diyarin,  
 Pushkin oldi o'sha mulkka sultonlik ixtiyorin.  
 Ma'rifatning sharobidan Karamzin jom to'latdi,  
 Bu lim to'lgan may kosasin Pushkin chib bo'shatdi.  
 Nikolayning dong'i ketsa Chinga, Tataristonga,  
 Pushkinning chin fazilati mashhur bo'ldi jahonga.

Mirzo Fatali Oxundovning fikricha, ajal yeli uning ruh chirog'ini o'chirdi, bu guliston sahnasida keksa bog'bon teshasi bilan niholni kesib tashladi. Ma'nolar xazinasini ketgach esa bu falak ilonxonaga aylandi. yerda gul emas xor-tikan o'sdi.

Buyurdilar: yuzi qora bulutdan do`l to`kildi,  
Uning hayot daraxtidan mevalar mo`l to`kildi.  
Uning nihol qomatini bu guliston sahnidan,  
Keksa bog`bon kesib oldi tesha bilan daf`atan.  
Ta`b bulbulin sayratuvchi g`uncha qalbi chirigan,  
Endi qarang, bu tuproqdan bosh chiqardi xor-tikan.

### ALIAKBAR SOBIR (1862-1911)

Ozarbayjon ma`rifatparvarlari orasida istiqloliy g`oyalarni aytib chiqqan shoir Aliakbar Sobir 1862-yilda Shamaxada savdogar oilasida tug`ilgan. Avval eski maktabda, keyinchalik ma`rifatparvar Saidazim Shirvoniy ochgan maktabda tahsil oladi. Umri davomida Aliakbar Eron va O`rta Osiyo shaharlarini kezib chiqqan. El-ulusning farzandlarini yangi usulda o`qitish uchun maktab ochgan shoir o`qituvchilik qiladi. So`ngra Ozarbayjonda chop etiladigan gazeta va jurnallarda ishlay boshladi. Avval boshda shoir publitsistik maqolalar yozgan bo`lsa asta-sekin Jalil Mamadqulizoda tomonidan ta`sis etilgan «Mullo Nasriddin» hajviy jurnalida yumoristik chiqishlar qila boshladi. 1905-yilda yozgan «Baynalmilal», «Qayg`urma» singari o`tkir siyosiy she`rlarida Aliakbar turli millatlarni do`st va inoq, birodar bo`lib yashash va farovon, ozod yuot uchun kurashish maslaida birlashishga dav`at etadi.

Asrimiz hohish etarkan ittifoqu ittihad,  
Jumlamiz bo`lsak inoq-shul ezgu niyat-la murod.  
Ne uchun yo`qdir inoqlik, nega el kulmaydi shod?  
Bu vatan avlodida zohir bo`lib bo`g`zi inod.  
Tushdi armon va musulmonlar aro fisqu fasod,  
Yo`qmi bir sohibi davlat, yo`qmi bir ahli savod?  
Ey suxanvarlar, bu kunlar bir hidoyat vaqtidir,  
Ulfat-u do`stlikka chorlovchi xitobat vaqtidir.

She`rda mazkur ikki qator qayta-qayta takrorlandi. Sabab shoir aytmoqchi bo`lgan fikriga yana ko`proq urg`u beradi. Uningcha xusumatlarni yo`q qilib, sulh tuzish, zulmat va falokatlarni oldini olib, xalqqa xizmat qilish vaqti yetdi. Buning uchun birlashish darkor.

Qo`zg`al, ey sen hamshahar xalqingga xizmat vaqtidir,  
Chorai sulh axtarib, daf`i xusumat vaqtidir.  
Elga haqqin bildirib, da`fi falokat vaqtidir.  
Kun kabi yog`du sohib, poymoli zulmat vaqtidir,  
Tozalab yurtning marazdin ayni himmat vaqtidir,  
Sobiro, baynalmilal marshiga navbat vaqtidir.

Sharq og`zaki va yozma adabiyotida pand-nasihath shaklida mashhur bo`lgan mavzularni Aliakbar qisqa she`riy hikoyalar tarzida tasvirlaydi. «Tabib bilan bemor» da nafsiga bandi kishini keskin tanqidga olsa, «Keksa bog`bon» da odamlarga yaxshilik qilish, o`zidan yaxshi nom qoldirish azaliy qadriyat ekanini isbotlaydi.

Chol dedi:-otalar qoldirgan meros,  
Qadrlab mevasin yeyishimiz rost.  
Ekaylik biz kabi yeganlar uchun,  
Bizni eslab rahmat deganlar uchun.

«Savdogar va o'g'il» hikoyatida Sharqning azaliy falsafasi – ota va o'g'il munosabatlari, ahloqiy tarbiya nizomlari go'zal tarzda ifodalangan. Tasvirlanishicha, qo'li egri, nafsiga bandi savdogar o'g'li bilan birga do'konda ishlardi. Otasining qing'ir ishlarini ko'rib katta bo'lgan o'g'il otasi yo'g'ida do'konning pulidan o'g'irlaydi. Otasi bilib qolib o'g'lini uradi. Shunda shoir o'z xulosasini qariya tilidan keltiradi.

Nima eksang-olasan shuni,  
Hunaringga o'rgatding buni.  
Tarbiyaga farzand muhtojdir,  
Ota ishi unga bir tojdir.  
Hox yaxshi, hoh yomon ishlar,  
Bari sendan, bil o'rganishar!  
Sen halolmi-farzanding halol,  
Sendan ko'rib o'sar shu nihol.

### **SAMAD VURG'UN (1906-1956) VA MEHDI HUSAYN (1909-1965)**

Ozarbayjon xalqining zabardast shoiri, dramaturgi va jamoat arbobi Samad Yusuf o'g'li Velikov Qazax tumaniga qarashli Salaxli qishlog'ida tug'ilgan. O'quvchilar seminariyasida tahsil olgach, bir necha yil muallimlik qildi. Moskvada ma'lumot olgan. Ijodini she'r yozishdan boshlagan Samad tez orada «Shoirning qasami», «Fonar», «Ko'ngil daftari», «She'rlar», «Tong qo'shig'i» kabi to'plamlarni chop ettirdi. Turli mavzulardagi «Yigirma oltilar», «O'lim kursisi», «Kolxo'zchi xotin Basti haqida qissa», «Toliston», «mutan», «Zanjining orzulari» dostonlari, «Dunyo xotirasi» siyosiy she'rlar to'plami, «Voqif», «Xonlar», «Farhod va Shirin» pessalari Samad Vurg'unning mustahkam o'rnini belgilab berdi. Shoir «Voqif», «Farhod va Shirin» pessalari uchun ikki marta Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. U 1956-yilda Bokuda vafot etgan. Samad Vurg'un ijodini talqin etish nihoyatda murakkab. Sabab – u bir tarafdin sho'roni barcha shoirlar singari osmon qadar maqtaydi. Ikkinchi tarafdin u nihoyatda dilbar shoir. «Ona haykali» asarini tahlil etgan mazkur fikr o'z isbotini topadi.

O'ylab boq: toshlardan, bo'z qoyalardan,  
Surat yaratadi bir haykaltarosh.  
Go'yo nafas olar tirik bir inson,  
Yashaydi yuz minglab asrga sirdosh.  
Yashaydi san'atkor, yashaydi san'at-  
Nasldan-nasllarga beradi salom.  
Oh, ona tabiat, ona tabiat!  
Eng buyuk avloding insondir mudom.

Mehdi Husayn Ali o'g'li 1909-yilda Qazax tumaniga qarashli Shixli qishlog'ida o'qituvchi oilasida tug'ilgan. Uning yoshlik yillari Gruziyaning shahar va qishloqlarida o'tgan. Oliy ma'lumotni olgach, 1947-1949-yillarda Moskva kinomatografiya institutining rejissyorlik bo'limida tahsil olgan. U «Komissar» (1942), «Tarlon» (1940), «Fantaziya», «Qardoshlik oilasida» kabi o'nlab hikoyalar, «Sahar», «Uyg'onish», «Qora qoyalar», «Absheron» romani, «Jovonsher», «Intizor», «Nizomiy», «Alanga» kabi dramalarini yozib, ozarbayjon xalqining hayotidagi muhim bosqichlarni keng ko'lamda aks ettira olgan.

«Uyg'onish» romanida u ozar dehqonlarining uyg'onish jarayonini tasvirlasa, «Sahar» da Oktabr to'ntarishida halok bo'lgan 26 nafar bokulik o'g'lonlarning fojiasini

aks ettiradi. Agar «Tarlon» povesti dehqonlar hayoti haqida hikoya qilsa, «Absheron» romanida ishchilar hayoti mukammal tasvir etilgan. Ayni shu asar davlat mukofotiga sazovor bo`lgan edi.

### **ARMAN ADABIYOTI**

Arman xalqi qadimiy boy madaniyat va adabiyotga ega. Ertak, qo`shiq, terma, epik doston va afsona, maqol va hikmatli so`zlarni o`z ichiga olgan arman xalq og`zaki ijodi yozma adabiyot uchun asos manba sanaladi. Turli davrlarda ijod etilgan Artashes va Snetik, Tigran va Ajdaak, Arshak va Shapux, Tarush va Mush, Mokaz Mirzolar to`g`risidagi dostonlarning katta tarixiy hamda ma`naviy ahamiyati bor. VIII-X asrlarda arab bosqinchilariga qarshi kurashgan arman xalqining hayotini qahramonlik dostoni «Sosunlik Davud», o`z ichiga singdirgan. Arman xalq og`zaki ijodi namunalaridan- XIX-XX asrning taraqqiyparvarlari X.Abovan, P.Proshyan, G.Agayan, A.Isaakyan, O.Tumanyanlar o`z asarlarida keng ko`lamda foydalanishgan.

V asrga kelib armanlarning mustaqil davlat bo`lib birlashishiga intilishlari kuchaygan bir vaqtda adabiy hayotning birmuncha jonlanishi arman tilida yozma adabiyotning paydo bo`lishiga ehtiyoj tug`dirdi.

VI asrda (393) mashhur ma`rifatparvar olim-episkop Mesrop Mashtoq tomonidan arman yozuvining ixtiro qilinishi original va tarjima adabiyotining jadal tarzda rivojlanishiga turtki bo`ldi.

VII-IX asrlarda arab istilochilari zulmida armanlar ezilgan va 886 yildagina ozod bo`lgan bo`lsa, XI asr o`rtalarida Vizantiya bu xalqni mustamlakasiga aylantirdi. XII asrda Gruziyaning ko`magi bilan armanlar Vizantiya va saljuqiylar bosqinidan ozod bo`lishdi. Mustaqil armanga Kilikiya rodsholigi o`rnatildi. XII asrga kelib «grabar» deb ataluvchi qadimgi arman tili o`lik tilga aylana borib, shoirlar o`z asarlarini «O`rta arman tili» deb yuritiladigan tilda yoza boshladilar. XIV asrda Kilikiya davlati yiqitilib, Eron va Turkiya hukmdorlari tarafidan armaniston tuprog`idagi xalq talandi. Ammo armanlar o`z ona tilining sofligi va milliy adabiyotining ravnaqi uchun kurashni izchillik bilan davom ettirdi. Bu sohada Ovanes Tulkurantsi (XIV) Mkrkich Nagosh (XIV), Grigor Axtaramtsi (XVI), Naapeg Kuchak (XVI), Nagash Ovnagan (XVIII), Bagdasar Dpir, Sayat Nova singari shoir va adiblarning xizmati katta. XIX asr boshlarida Sharqiy Armanistonni Rossiya bosib oldi. Uch tarafdin ezilgan arman xalqining ohu-nolalarini arman adabiyotining asoschilaridan biri Xachatur Abovyan o`zining «Armaniya yaralardi» asarida tasvirlagan. G`afur G`ulom, Uyg`un, Sharof Rashidov, Zulfiya singari yozuchilarning asarlari chop etildi. O`zbek kitobxonlari O.Tumanyanning «Anush», Ye.Charentsning «Charentsdan salom», N.Zaryanning «Atsavan», G`Sevuntsning «Tehron» epopeyasi, Kaputikyanning she`riy to`plamidan bahramand bo`lishdi. Shu barobarida «Farhod va Shirin» ni Mikael Koryun arman tiliga, «Sosunlik Dovud» eposini Maqsud Shayoxzoda va G`afur G`ulom o`zbek tiliga tarjima qildilar. Hozirda Armaniston milliy markazi to`laqonli faoliyat yuritib, ikki mustaqil davlatning hamkorligini mustahkamlashga harakat qilyapti.

### **OVANES TUMANYAN (1869-1923)**

Arman adabiyotining yirik namoyandasi, shoir, nosir va dramaturg Ovanes Lori tumaniga qarashli Dsex qishlog`ida ruhoniylar oilasida tug`ilgan. Avval Jalologli qishlog`ida Tegrin Davtyan maktabida, so`ng Tiflis shahridagi arman diniy seminariyasida tahsil oldi. 1890-yillarda «Murch» («Bolg`a») va «Axbyur» («Buloq») jurnallarida ishladi. Tumanyanning «Mushuk va it», «Maro», «Quyosh va oy», «Lorilik Sako» singari doston, she`r va masallari xalq og`zaki ijodi asarlariga xos motivlar bilan sug`orilgandir.



Tiflisdagi adabiy muhit Ovanesning ijodiy faoliyatiga kuchli ta'sir qildi. Bu yerda u atoqli arman yozuvchilaridan Raffi, Shervonzoda, Sundukyan bilan yaqindan tanishadi. Bu tanishuv natijasi o'laroq jahon adabiyoti namoyandalari Pushkin, Bayron, Shekspir asarlaridan arman tiliga tarjimalar qildi. O'zi ham «Artavaed 2», «Shoh Ovanes», «Timkaberd qal'asining zabt etilishi», «Parvona», «Sosunlik Dovud», «Anush» kabi dostonlarini yozdi. Aniq haqiqatni tan olish kerakki, Ovanes Tumanyan Oktyabr to'ntarishini salbiy qabul qildi. Shuning uchun uni ikki marta qamoqqa olishdi. 1908-1909-yillarda uni Peterburg qamoqxonasiga jo'natishdi. Shoirning she'rlarida norozilik ohanglari yaqqol ko'zga tashlanadi. «Qo'shchi qo'shig'i» da u xudodan madad istab, nochorlikdan norozi bo'lsa,

Gadoy keldi so`rab sadaqa,  
Hammasiga pul kerakdir, pull!  
Ozgina yer, yo`q sariq chaqa,  
Gangitmoqda nochorlik nuqul.

«Xudoga nido» asarida u Yaratgandan ham, bandasidan norozi bo'ladi. Satrlar mutolaasidan sezish mumkinki, nochorlik, yo'qchilik Ovanesning jonidan o'tgan.

Agar o`zing bor bo`lsang, xudo,  
Yaratmagan bo`lsang olamni.  
Ko`z yoshini, mash`um qullikni,  
Umlarning egovi g`ammi.

Shoir Yaratganga ochiqdan-ochiq murojaat qiladiki, manfur jamiyatdagi nopoklarni, zulmkorlarni yo`q qil!

Shularni daf qilolmaysanmi,  
Bo`lsa senda chindan iqtidor.  
Yo fursati kelmadimikin,  
Bo`lsang o`zing buyuk ijodkor!

«Armanning qayg`usi» asarida shoir tubsiz va cheksiz dengizday bepoyon xalqning dardini satrlarda joylaydi.

Armanning qayg`usi tubsiz va cheksiz,  
Xuddi dengiz kabi bepoyon.  
Loyqa to`lqinlanib turgan shu dengiz,  
Qahrda men hasratda hamon.  
Na u qirg`oq topar, na dengiz tubin,  
O`zidan ham hattoki bezor.  
Armonga bu jahon tordir bus-butun,  
Jon qiynalur nochor, beqaror.

Arman qayg`usi-ozodlik, hurlik. Millatning rivoji, takomili, farzandlar kamoloti birgina so`z ozodlik, istiqloq bilan bog`liq.

Ko`rkam dalalarning maftuniman azaldan,  
Qalbmida zo`r mehning bor chaqaloqlik mahaldan.  
Ammo har gal tikilsam g`amga to`ladi yurak,  
Jafokash aziz elim, zunob bo`ladi yurak.  
Quvg`inga duchor bo`lgan farzandlaring behisob,  
Vayrona qishloqlaring, shaharlaring ham xarob:  
O, afsus o`lkam,  
Ko`p ma'yus o`lkam!

Millatni dushman poymol etgan, gullar soʻlgan, qishlogʻu shaharlarda yigʻi-sigʻi, nola, qoʻshiq va kuylar hasrati toʻla,, zolimlarning nohaq soʻzlaridan quloqlr kar, koʻz yoshlar buloq misoli oqadi. Oʻlkaning bagʻri qon! Ammo millat batamom oʻlgani yoʻq, jondan sevuvchi farzandlar oʻlkani uygʻotishi kerak. Shu bois shoir xalqqa qarata «Uygʻon muqaddas oʻlka» deya murojaat qiladi. U ishonadiki, komil tong otadi, quyosh chiqadi:

Ishonchimiz komildir, payt kelib tong otadi,  
Uyquda sogʻlom yurak qachongacha yotadi?  
Ishonchimiz komildir, koʻtarganda bosh quyosh,  
Keksa Araratdagi har bir giyoh, har bir tosh.  
Nurni xurram qarshilar hayotdan mamnun boʻlib,  
Shoiring yangi qoʻshiq yaratar zavqqa toʻlib.  
Saqlama sukut,  
Istiqbolli yurt!

### **EGISHE CHARENTS (1897-1937)**

Zabardast arman shoiri yegishe Sogomonyam Charents Kars shahrida savdogar oilasida tugʻilgan. Mahalliy rus ginaziyasida tahsil olgach, 1915-yilda ixtiyoriy ravishda Birinchi jahon urushida qatnashgan. Dashnoqlarga qarshi kurashda Bronepoezdning siyosiy komissari boʻlgan. Ijodining ilk bosqichida «Gʻamgin qizning uch qoʻshigʻi», «Moviy osmondagi Vatan», «Kamalak» toʻplamini nashr etdi. Bu sheʼrlarda Aleksandr Blokning taʼsiri kuchli edi. Arman adabiyotida Mayakovskiyning zinapoya shaklidagi sheʼrlarini olib kirgan yegishedir. Charents-hajv ustasi. U «Kavkaz-tomosh», «Nairi mamlakat» komediyalarida mavjud hayotning illatlarini real tasvirlashga harakat qilgan. Horijga qilgan safar tassurotlari asosida u «Istanbul», «Parij komunarlar devori», «Venetsiya elegiyasi» asarlarini yaratadi.

Egishe Charents 40 yoshida 1937-yilda vafot etgan. 1962-yilda oʻzbek tilida shoirning «Charentsdan salom» sheʼriy toʻplami chop etildi.

### **NAIRI ZARYAN (1901-1957)**

Nairi Zaryan (Ayastan yegiazaryan) Turkiyada Gʻarbiy Armanistonning Van viloyatidagi qishlogʻida kambagʻal dehqon oilasida tugʻilgan. Arman qirgʻini vaqtida ota-onasidan ajralgan Nairi qochoqlarga qoʻshilib, Rossiyaga keladi. 1923-yilda u yerevan Davlat universitetiga oʻqishga kiradi. Tahsildan soʻng Davlat muzeyida, keyinchalik gazeta va jurnallarda ishlagan. Ijodini 1921-yildan boshlagan shoir qisqa fursat ichida «Moviy kanallar oʻlkasi», «Qalʼa», «Jangovar qilich», «Asrlar, quloq osing» singari sheʼriy toʻplamlari, «Ranush», «Xitoy ayoli», «Tatev choʻqqisi», «Rushan choʻqqisi», «Mangulik raqsi», «Vatan ovozi» kabi dostonlarni yozib, nashrdan chiqardi. Qishloq xoʻjaligida ishlovchi dehqonlarning yashash darajasi Nairining «Atsavan» romanida aksini topdi.

Nairi Zaryan «Qasos» (1942), «Kuyduruvchi maska», «Goʻzal Ara» (1946), «Buloq boshida» (1948) singari sahna asarlarini yaratib, arman xalqining uzoq oʻtmishi, hayotini teranroq tasvirlashga harakat qilgan. A.Pushkin, V.Mayakovskiy, Bagritskiy, Yanka, Kupala, Samad Vurgʻun asarlarini arman tiliga original tarzda tarjima qilgan ham Nairidir.

## GRUZIN ADABIYOTI

Miloddan avvalgi ming yillikda paydo bo'lgan gruzin adabiyoti boy tarixiy manbaga ega. Gruzinlarda yozuv qadimdan mavjud. XI asrgacha ular xutsuri (cherkov yozuvi) deb ataladigan XI asrdan boshlab mxedruli (fuqaro yozuvi) nomli yozuvlar bilan ish yuritganlar. Gruzin yozma adabiyoti quyidagicha davrlashtiriladi:

1. Qadigi gruzin adabiyoti
  - a) Ilk davri-V-XI asrlar
  - b) O`rta davri- XI-XIII asrlar
  - v) So`nggi davri – XIII-XVIII asrlar
2. XIX asrdan XX asrgacha
3. Hozirgi zamon adabiyoti

Gruzin xalq og`zaki ijodi qo`shiq, afsona, ertak, qahramonlik dostonlari, ballada, maqol va topishmoqlarga juda boy. Qadimgi Yunon tarixchisi Ksenofontning yozishicha, gruzinlarda miloddan oldingi IV asrlardayoq askarlar qo`shiqlarni xor shaklida ijro etganlar. Gruzinlarda Prometeyning muqobili Amirani bo'lgan va u haqda dostonlar yaratilgan. Gruzin yozma adabiyoti o`zining ilk bosqichida XI asrgacha ko`proq diniy-cherkov xarakterida bo`lib, gruzin qabilalarining ijtimoiy mohiyati bilan bog`liq edi. Sharq va G`arbdan hujum qilib kelgan bosqinchilarga qarshi kurashini uyushtiruvchi yagona kuch cherkov edi. Diniy-cherkov adabiyotining ilk namunalari tarjima asarlari edi. Sekin-asta diniy tashviqotlarga xizmat qiluvchi original sarlar yaratildi. V asrda yozilgan Yakov Surtavelining «Jabrdiyda Shushaniki», XI asr boshlarida yaratilgan «Jabrdiyda yevstafiya Mtsxeteli», VIII asrda yaratilgan «Jabrdiyda Abl Tbileli», «Nina Kappadokiyskayaning hayoti», IX asrda bitilgan «Grigoriy Xandztelining hayoti» asarlari fikrimiz dalilidir. Gruziya davlati Bunyodkor Dovud (XI), Georgiy (XII) va Tamara (XII asr) hukmronligi, davrida har tomonlama rivojlandi. Diniy-cherkov adabiyoti barobarida dunyoviy adabiyot takomil topdi. Qadimgi Yunon faylasuflari va fors-tojik adabiyoti namoyandalarining asarlari gruzin tiliga tarjima qilindi.

Uyg`onish davri, ya`ni XVI-XVIII asrlarda Gruziyada Shota Rustavelining adabiy merosi uchun kursh kuchaydi. Ijtimoiy ongning ilg`or vakillari Rustavelining o`z bayroqlari deb e`lon qilib, uni o`rganishga chaqirsalar, cherkov-din ahllari, aksincha, uni «kofir»likda aybladilar. Bundan tashqari, o`sha davr adabiy hayotida Sharq (fors) she`riyatida ta`siridan qutilish va xalqchil milliy gruzin adabiyoti uchun kurash ham qizg`in edi. Shoh Gaymuraz I fors adabiyoti ta`sirini o`z ijodida namoyish qilib, «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Bulbul va gul», «Sham va parvona» dostonlarini gruzin tilida qayta ishlagan bo`lsa, shoir Archil milliy adabiyot yo`nalishini targ`ib etishga kirishgan edi. Archil o`z fikrlarini «Taymurad va Rustavelining bahsi» didaktik dostoni orqali isbotlashga harakat qildi.

XVII-XVIII asrlarda Gruziya she`riyatida oshug`lik oqimi ta`siri kuchli bo`ldi. Sayat Nova mazkur she`riyat vakili edi. U dehqon oilasida tug`ilgan. Yoshligidan o`zi to`qigan she`rlarni o`zi kuyga solib, ozarbayjon, arman va gruzin tillarida ijro etardi. Sayat bir necha vaqt Irakliy II saroyida shoir va sozanda bo`lib ishladi. Saroy ahlining fisqu-fasodiga uchrab 765 yilda podsho dargohidan quviladi. Bu hodisa shoir hayotini tubdan o`zgartirdi. She`rlarida ijtimoiy hayotdan nolish, uzlatga chekinish, dunyodan voz kechish g`oyalari tarannus etildi. U dunyodan voz kechib monaxlik hayotini tanlaydi. XIX asrning birinchi yarmida Gruziyaning Mitiuleti, Kaxeti, Imereti, Guriya o`lkalarida ommaviy dehqonlar qo`zg`aloni bo`ldi. Zamonaning ma`rifatparvarlari A.Chavchavadze,

G.Orbeliani, N.Baratashvili, V.V.Orbeliani, G.Oristavi, S.Dadashvililar o'z asarlarida mavjud holatlarni chizishga harkat qilganlar. Gruziyaning bir butun milliy davlatga birlashuvi o'tgan XIX asrning 60-70- yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda ilg'or ziyolilar guruhi- «teorgda-leuli»chilar, ya'ni Terek daryosini kechib o'tib, Peterburgda ta'lim olib qaytgan yoshlar guruhi adabiyotga qadam qo'ydi. Ular qatorida Chavchavadze, Niko Nikoladze, Akakiy Sereteli, Georgiy Seretelilar bor edi. XIX asrning 70-80-yillarida gruzin adabiyotiga «xalq orasida qarab yurish» g'oyasi keng targ'ib etila boshlandi. Bu yo'lda N. Lomouri, ye. Gabashvili, S.Mgalobishvili, I. Datiashvililar jonbozlik qilishdi.

Gruzin adabiyotining o'ziga xosligi shundaki, 1921-yil 25-fevralda mamlakatda rasman sho'roviy hukumat o'rnatildi. Ammo bir-biridan farqli ravishda, zarur bo'lganda bir-birini inkor qiladigan «Akademik guruh», «Zangori shoxchilar», «Lefchifuturistlar» kabi adabiy oqimlar faoliyat yuritaverdi. O'z-o'zidan mazkur oqimdagi shoir va yozuvchilarning fieru o'yi, dunyoqarashi, tafakkuri asarlari turlicha edi. Bu gruzin adabiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qildi.

Gruziya xalqining tarixiy o'tmishi adabiyotda yaratilajak asarlar uchun manba bo'lib qoldi. K.Gamsaxurdka «Bunyodkor Dovud», A.Beliashvili «Besiki», S.Shanshiashvili «Krianisli qahramonlari», L.Gotua «Irakliy II», G.Shatberishvili «O'ylar cho'qqisi» asarlarini yaratishdi. O'zbek kitobxonlari gruzin adiblarining asarlarini G'afur G'ulom, Uyg'un, Mirtemir, Mimuhsin, Ramz Bobojonlar tarjimasida o'qish baxtiga muyassar bo'lishgan.

### **SHOTA RUSTAVELI (XII ASR)**

O'rta sar Gruzin adabiyotining buyuk namoyandasi Shota Rustavelining hayoti va ijodi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Faqat bizgacha yetib kelgan «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon» nomli asarining kirishida yozilishicha, bu kitobni shoir Gruziya malikalaridan Tamaraga bag'ishlangan. Shu asosda shoirning XII asrda yashab ijod qilganini aniqlash mumkin. «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon» dostoni O'rta asr Sharq adabiyotlarida yaratilgan ko'p asarlardan o'zining teran ifodasi bilan ajralib turadi. Shota Rustavelining birinchi xizmati shundaki, O'rta srda monarxiya davlatini adolatga chaqiradi. Ikkinchisi, Vatanni boskinchilardan ozod qilish g'oyasiga urg'u beradi. Uchinchisi, turli millatlarni yagona g'oya atrofida birlashishga chaqiradi. Doston-qahramonlari- Taniel, Aftandil, Faridun mardlik va jasurlik timsoli sifatida gavdalansa, Neston-Darajon singari oqila va mard ayollar bokiralik timsolidir. Ayollarning jamiyadagi mavqeyiga shoir yana-da ko'proq urg'u beradi. Mazkur doston 1937-yilda nishonlangan Shota Rustavelining 750 yillik yubeleyi munosai bilan juda ko'p tillarga tarjima qilindi. Shoir dostonning debochasida asar yozilishi haqida quyidagi satrlarni bitgan edi:

Tanielning motamiga ko'taraylik biz fig'on,  
Bunday dardga duchor bo'ldi na gadoyu na sulton.  
Men-ku ismim Rustaveli, iztiroblar ko'rdim men,  
U qadimiy ertaklarni inju kabi terdim men.

Asarni ulug' gruzin shoirlariga ta'zim bilan tugatgan Shota ularning ruhi poklarini yana bir qadar yodga oladi:

Amironga qasidasin bag'ishladi Xoneli,  
Abdulmasih shijoatin ulug'ladi Shovteli.  
Dilagertni ko'p tarannum qilgandi Tmogveli,  
Tanielni yig'lab-yig'lab kuyladi Rustaveli.

### ILYA CHAVCHAVADZE (1837-1907)

Gruzin klassik adabiyotining yirik vakilia Chavchavadze Kaxetiyaning Kvareli qishlog`ida knyaz oilasida tug`ilgan. Avval Tbilisidagi pansionda, keyin gimnaziyada tahsil oldi. So`ngra Peterburg universitetining huquq fakultetida o`qidi. Gruziyaga qaytib kelgach u otasidan qolgan yerlarning asosiy qismini dehqonlarga bo`lib beradi va 1874-yilda Tbilisiga ishga jo`naydi. Tbilisida xususiy maktab ochib bolalarga tahsil bergana ma`rifatparvar inson sifatida gazeta va jurnallarni nashr ettiradi, teatrlarning rivojiga ko`maklashadi. Gruziya ziyolilaridan tashkil topgan «Pirveli dasi» («Birinchii guruh») madaniy o`chog`ining boshidaa turardi. Talabalik yillaridayoq «Kvareli tog`larida» she`ri bilan mashhur bo`lgana tez orada mashhur shoir, dramaturg sifatida shuhrat qozondi. Adolatsizlikka qarshi kurashni yoqlagan shoir ketma-ket «Qochoq Koko», «Tilanchining hikoyasi» asarlarini chop ettirdi. Vatanparvar shoir 1907-yilda podsho josuslari tomonidan o`ldirilgan.a Chavchavadze – ozodlik kuychisi. U yurtining ozod bo`lishi, millatning ravnaq topishini eng oliy baxt deb biladi:

Dunyo yo`llarida men ham yo`lovchi,  
Xalqqa o`g`il qildi meni osmon.  
Tangriga do`st bo`lsam, buning bor vaji:  
Boshlay insonlarni erkinlik tomon.

Yo`lovchiday o`zini tasavvur qilgan shoir insonlarni erkinlik tomon boshlashga harakat qiladi:

Toinki, bu xalqning tashvishi, g`ami-  
Menga o`z qayg`umdan og`ir tuyilsin.  
Toki, gruzinlar dardi, alami-  
Erigan ma`danday ruhga quyilsin.

Shoirning she`rlari ixcham, ortiqcha mubolag`asiz. Eng muhimi, shoir aytmoqchi bo`lgan g`oya yaqqol ufurib turadi.

Chakalazor ohista:

«Yasha!» deya shovqinlar.  
Hamda myus tol navda,  
Armon bilan qon yig`lar.  
Gul-lolalar ochilgan,  
Tog` sirti-yu qir chaman.  
Sen ham qachon, ey Vatan,  
Chaman bo`lib gullaysan?

### DOG`ISTON ADABIYOTI

Kavkaz va Kavkazorti xalqlari adabiyoti rivojiga nazar soladigan bo`lsak azaldan qo`hna an`analarga ega bo`lgan xalqlar barobarida nisbatan keyinroq shakllangan. Dog`iston adabiyotiga ko`zimiz tushadi. Klassik adabiyot namoyandalari va zamonning ilg`or fikrli kishilarining ilmiy-badiiy merosini chuqur o`rgangan mazkur adabiyot nrmoyandalari ham qisqa fursat ichida o`z so`zlarini ayta olishdi. O`zbek kitobxonlari Sulaymon stalskiy, Rasul Gamzatovlarning asarlarini zo`r ishtiyoq bilan mutolaa qilishadi. Dog`iston xalq shoiri Sulaymon Gasanbekov Stalskiy Kasuomkent tumaniga qarashli Ashaga-Stal ovulida 1869-yilda tug`ilgan. Yoshligida ota-onasidan yetim qolgan Sulaymon batraqlik qilishga majbur bo`ladi. Xalq qo`shiqlarini og`zaki yodlab olgan.

Stalskiy savodsiz bo'lsa-da, o'zi og'zaki she'r va qo'shiqlar to'qiy boshladi. Rus yozuvchisi Maksim Gorkiy uni «XX asr Gomeri» deb atagan edi. 1900-1919-yillar orasida uning ijtimoiy-siyosiy mavzusidagi «Bulbul», «Oqsoqol», «Mullalar», «Qozilar», «Samovar», «Rossiya» asrlari mashhur bo'ldi. O'sha davr farzandi sifatida Sulaymon Oktyabr to'ntarishiga katta umid bog'ladi. Bir qator yaratgan asarlarida sho'roviy hukumatni maqtab, yeru ko'kka olib chiqib qo'ydi. Ammo asl mohiyatni anglay boshlagach hatti-harakatini zamonaga emas ko'ngliga moslay boshladi. «Dushman do'st bo'lolmaydi», «Bizning kuch», «Yil fasllari», «Vatan haqida o'ylar» dostonlarida mazkur noroziliklar u yo bu darajada ifodasini topgan. Sulaymon stalskiy 1937 yida 66 yoshida vafot etadi.

### RASUL GAMZATOV

Dog'iston shoiri Rasul Gamzatovich Gamzatov Dog'istonning Xunzax tumaniga qarashli Sada qishlog'ida xalq shoiri Gamzat Sadasa oildasida 1923-yilda tug'ilgan. Dastlabki ta'limni maktabda olgach, ma'lumotni Dog'istonda oladi. Bir necha muddat o'qituvchilik qiladi. 1945-1950-yillarda Moskvada Maskim Gorkiy nomidagi adabiyot institutida tahsil oladi. Oilaviy muhitda shoir bo'lib tarbiyalangan Rasul ilk ijodini 1937-yildan boshlagan. Qisqa fursat ichida u kitobxonlarga «Haroratli ishq va kuydiruvchi g'azab», «Mening Vatanim», «Bizning tog'lar», «Akam qissasi», «Dog'iston bahori», «Tug'ilgan yilim», «Qalbim tog'larda» singari o'nlab she'riy to'plamlarni, «Tog' qizi», «Otam bilan suhbat» dostonlarini taqdim etdi. Shoir «Tug'ilgan yilim» she'rlar to'plami uchun 1952-yilda Davlat mukofotiga, «Yuksak yulduzlar» to'plami uchun Sho'ro davlatining eng oliy mukofotiga sazovor bo'lgan. Iste'dodli tarjimon sifatida Rasul Gamzatov Pushkin, Lermontov, Mayakovskiy, Tixonov asarlarini avar tiligi tarjima qilgan. U katta jamoat arbobi va yosh adiblarni tarbiyalash yetishtiruvchi murabbiy sifatida ham Kavkaz xalqlari adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Shoirning «Yuksak yulduzlar» she'riy to'plamini M. Boboyev 1964-yilda tarjima qilib, o'zbek kitobxonlariga taqdim etgan.

Rusul Gamzatov-hayotga, yashashga tashna shoir. U insonlarning ko'nglidagi kechmishlarini qog'ozga tushirarkan barcha odamzotga go'zal hayot, farovon turmush tilaydi.

Bu dunyodan bir kun ketaman,  
Tashnaligim qonmay, g'ashlikdan.  
Toki bu yer aylanar ekan,  
Yashar inson shu tashnalikda.

Rusul Gamzatov-o'zbek kitobxonlariga yaqin dilbar shoir. Uning ko'ngil ipidan tizilgan satrlarda Sharqona hayotning go'zal jozibasi ifodalangan. Ayniqsa, shoirning mushtipar onalar haqidagi she'rlari qo'lma-qo'l bo'lib ketgan, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Dil o'rtanur, dilimda g'ash bor,  
Boshboshdoqlik qilgandir asir.  
Durustgina senga e'tibor-  
Qilolmadim, bu emasdir sir.  
Hayot bu dam bo'lib girdobday,  
Olib ketur komiga solib.  
Dil siqilur yana paydar-pay,  
Onam meni unutdimmi deb.

Sen bo`lsangchi, qilmasdan ta`na,  
Ko`z tashlaysan xavotirlanib.  
Xo`rsinib goh, bildirmay ona,  
Artasan ko`z yoshing o`rtanib.

Shoirning «Do`stlik haqida qissa», «Xanjardagi yozuvlar» asarlari voqeabandligi, ixchamligi, soddaligi bilan kitobxonlar qalbidan joy olgan.

### **Mavzu: Sharqiy Slavyan va Moldavan xalqlari adabiyoti**

#### **Reja:**

1. Sharqiy Slavyan va boshqa xalqlar adabiyotining yuzaga kelishi.
2. Taras Shevchenko, Lesya Ukrainka va Maksim Rilskiy ijodi.
3. Belarus adabiyoti taraqqiyot davrlari. Yakub Kolas. Petrus Brovka ijodi.
4. Moldavan adabiyoti. Emilian Bukov. Andrey Lupan ijodi.
5. Musa Jalil "Maobit daftari" to`plamidagi she`rlarni tahlil qilish.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.A.Uzoqov. "MDH adabiyoti". T., 2008.
- 2.Lesya Ukrainka. Tanlangan asarlar. T., 1992.
- 3.Yakub Kolas. Zaminovozi. She`rlar. T., 1993.
- 4.Taras Shevchenko. O`ylarim, siz mening o`ylarim. T., 1992.

Sharqiy Slavyanlar Yevropa va Osiyo qit'alarida yashovchi slavyan xalqlarining to`rtidan bir qismini tashkil etib, mazkur guruhga kiruvchi rus, ukrain, belorus xalqlarining har biri o`ziga xos, shu barobarida o`zaro juda o`xshash tarixiy taraqqiyot yo`liga, adabiyot va madaniyat tarixiga ega. Bu xalqlarning ota-bobolari, avlod-ajdodlari IX asrdayoq davlat bo`lib uyushgan Kiyev Rusida yashaganlar. Shuning uchun Kiyev Rusidagi xalq og`zaki ijodi va yozma adabiyot ruslarining ham, ukrain va beloruslarning ham adabiy merosi sanaladi. XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida markazlashgan Rus davlati yuzaga keldi. Mamlakatda feodal munosabatlar rivoji barobarida rus ukrain va beloruslar xalq bo`lib shakllandilar. XVI asrda mazkur xalqlarda kitob nashr ettirish yo`lga qo`yildi, ukrain va belorusda munozaraviy adabiyot to`la shakllandi. Hattoki, belorus adabiyoti litva xalqining tili va yozuviga ijobiy ta`sir ko`rsatdi.

### **UKRAIN ADABIYOTI**

XI-XII asrlardayoq juda boy og`zaki ijod asarlariga va yozma yodgorliklarga ega bo`lgan qadimgi rus adabiyoti ukraina adabiyotiga kuchli ta`sir ko`rsatdi. Ukrain shoirlari T.Shevchenko, I.Franko, S.Rudamskiy, P.Mirniy, M.Rilskiy, N.Zabilalarning xususan, «Igor jangnomasiga» qiziqishlari kuchli edi. Ular bu yodgorliklarni ukrain tiliga tarjima qilganlar. Ukrain adabiyoti tarixi XIV-XV asrlarda ukrain xalqining Sharqiy slavyanlardan ajralib chiqib, shakllanish davridan boshlanadi. Xalq ratgan qo`shiq, ertak, дума (katta hajmdagi epik va liroepik), latifa va rivoyatlarda ommaning asrlar davomidagi orzu-umidlari, bosqinchilarga qarshi olib borgan kurashlari o`z aksini topgan. «Tutqunlar», «Ivan Boguslovets», «Xmelnitskiy ta Barabash» dumalari shular jumlasidandir. Ukrain

xalqining XIV-XV asrlarda boshlagan milliy tili va madaniyatini yuzaga keltirishdagi urinishlari polyak shlyaxtalari qarshiligiga uchradi. Natijada XVI-XVIII asrlarda munozaraviy adabiyot (polemicheskaya literatura) paydo bo'lib, Ivan Vishinskiy, Mixail Andrelalar ushbu yo'nalishda ijod qilishdi. Munozaraviy adabiyot bilan hamohang tarzda maktab adabiyoti (shkolnaya literatura) ham shakllandi. Ukrain xalqining 1648-1654-yillarda polyak panlariga qarshi olib borgan kurashi Ukrainaning Rossiya bilan birlashuviga olib keldi. E.Slavinetskiy, S.Polotskiy, F.Prokopovich kabi ukrain shoirlari Moskvaga qo'chib ketishdi. Ukrain adabiyotining XVIII asr ikkinchi yarmidagi ulkan arboblardan biri Grigoriy Skovoroda edi. O'z zamonasining o'qimishli faylasufi bo'lgan Grigoriy maktab adabiyotiga qarshi chiqib, masal janrini ukrain adabiyotiga olib kirdi. Uning «Xarkov masali» asari 30 ta masalni o'z ichiga olib, xalqning manfaatlarini himoya qildi. undan keyin bu janrni I.Kotlyarevskiy, G.Kvitka-Osnovyanenkolar davom ettirishdi. I.Kotlyarevskiyning «Natalka-Poltavka» asari yangi ukrain dramaturgiyasini boshlab bergan ilk qaldirg'och edi. XIX asrning birinchi yangi ukrain adabiyotining shakllanishida yangi davr bo'ldi. Taras Grigorevich Shevchenkning ijodi adabiyotining yorqin sahifalarini tashkil qiladi. N.Dobrolyubov ta'biri bilan aytganda, «Shevchenko suyak-suyagi bilan xalq shoiri edi».

XIX asrning 50-60-yillarida ukrain adabiyoti ravnaqiga Marko Vovchok alohida hissa qo'shdi. «Xalq hikoyalari», «Rus xalqi hayotidan hikoyalar», «Uch taqdir» asarlarida u o'zining ijodiy salohiyatini ko'rsata oldi. Sekin asta-adabiyot olamiga kirib kelgan Ivan Franko «Cho'qqilar va tubanliklar», «Vesnyanka», «Quyosh qizitmoqda», «So'lg'in yaproqlar», «Pan hazillari», «Ivan Vishenskiy», «Muso», «Ko'mirchi», «Lesixin oilasi», «Borislav», «Ikki do'st», «Rusalka», «O'zi aybdor», «O'g'irlangan baxt», «O'qituvchi», Mixail Kotsyubinskiy «Fata Morgana», «Kulgi», «Yo'lda», «Otlar aybdor emas», «Persona Grata», Lesya Ukrainka «qanotli qo'shiqlar», «Orzu va xayollar», «Aks-sado», «Robet Bryus», «Qadimgi ertak» asarlarini chop etishdi.

XX asrning 20-yillaridan to 50-yillarigacha A.Golovko, Ivan Le, Yu.Smolich, A.Kopilenko, Yu.Yanovskiy, O.Vishnya, A.Shiyan, L.Smilyanskiy, N.Ribak, V.Kucher, S.Tudor, Ya.Golan, P.Kozlanyuk, A.Desyak, O.Gonchar, I.Muratov, M.Stelmaxlar turli mavzularda ijod etib, ijtimoiy hayotni realroq tasvirlashga harakat qiladilar.

Ukraina dramaturgiyasi «Diktatura», «Eskadra halokati», «Bogdan Xmelnitskiy», «Platon Krechet», «Svichka to'yi», «Front», «Makar Dubrava», «Ukraina cho'llarida», «Tongdagi muhabbat», «Abadiy birga», «Faust va o'lim» asarlari bilan eng yuqori pog'onaga chiqdi. Mazkur asarlarning ko'pchiligi boshqa tillarga tarjima ham qilingan. O'zbek-ukrain adabiy aloqalari ham baquvvat ildizlarga ega. Ukrain adiblarining ko'pgina asarlarini G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Zulfiya o'zbekchaga o'g'irgan bo'lsa, o'zbek adiblarining asarlaridan qardoshlar bahramand bo'lishgan.

### **TARAS SHEVCHENKO (1814-1861)**

Ukrain demokratik adabiyotining asoschisi Taras Grigorevich Shevchenko 1814-yilda dehqon oilasida tug'ilgan. Ota-onasidan yetim qolgan Taras 23 yoshgacha bir pomeschi qo'lida cho'ponlik qiladi. Uni 1838-yilda taraqqiyparvar rus rassom va yozuvchilaridan Brilllov, Venetsianov, Jukovskiylar 2500 so'm evaziga sotib olib ozod qiladilar. So'ngra Tarasni Peterburgga rassomchilik akademiyasiga o'qishga yuborishadi. 1840-yilda u o'zining ilk asari- «Qo'bizchi»ni nashr ettirdi. 1847-yilda podsho Nikolay I uni qamoqqa oladi, so'ngra surgun qiladi. She'r yozish va rasm chizish huquqidan mahrum



etiladi. 1857-yilda tutqunlikdan qutulgan Tarasning sog`ligi og`irlashadi. 1861-yilda 47 yoshida vafot etadi. O`zining «Vasiyat», «Tush», «O`ylarim Siz, mening o`ylarim», «Katerina», «Krepostnoy xotin», «Boyqush», «Gaymadanlar», «nazar Stodol», «Muzikant», «Rassom», «Kapitan qizi» asarlarida xalqning ozodlik harakatini tasvirlaydi. 1840-yilda chop etilgan «Qo`bizchi» she'riy to`plamida xalqning ayanchli ahvoli va qayg`usini, «Katerina» dostonida polyak panlarining ahloqiy tubanligini, «Gaydamanlar» da panlarga qarshi ko`tarilgan qo`zg`alon, «Uch yil» to`plamida xalqni ozodlikka kurashga chorlagach, «Kazemat», «Xizmatkor xotin», «varnak» asarlarida o`zining surgundagi hayotini tasvirlaydi.

«O`ylarim Siz, mening o`ylarim» she'rida yozadi:

O`ylarim Siz, mening o`ylarim,  
Mendir ado, siz kuydirasiz.  
Nega qog`oz betiga tushib,  
Ko`z oldimda g`amgin turasiz.  
O`ylarim Siz, mening o`ylarim,  
Nega sizni shamol chang kabi,  
To`zitmadi cho`llarga yozib?  
Nega hasrat o`z bolasiday,  
O`ldirmadi, tagiga bosib-  
Uyqusirab, sizni o`ylarim?

Shoirning «Vasiyat» she'ri xuddi oxirgi so`z tarzida yangrasa-da unda bepoyon ukraina diyori, zangori Dneprning mavjlanib oqishi go`zal tarzda chiziladi:

O`lsam mening jasadim,  
Ukrainaga ko`milsin:  
Qabrim u keng dalaning,  
Eng o`rtasida bo`lsin.  
Poyoni yo`q ona yer,  
Va zangori Dnepr.  
Ko`rinib tursin menga,  
Vig`illab oqqan daryo,  
Bilinib tursin menga!

### **LESYA UKRAINKA (1871-1913)**

Larisa Petrovna Kosach ziyoli dvoryan oilasida tug`ilgan. Uning bilim olishi uchun barcha shart-sharoit mavjud edi. Ustiga-ustak ota-onasi ham o`qimishli odamlar edi. Larisaning siyosiy dunyoqarashini to`g`ri shakllantirishda S.Merjenskiyning xizmati katta bo`ldi. Ijodini publitsistik maqolalar yozishdan boshlagan Lesya Ukrainka ketma-ket «Qo`shiqlar qanotida», «O`ylar va orzular», «Aks sadolar» noili she'riy to`plamlarini chop ettirib xalqning ozodligini kuyladi.

Tun borliqni qamragan butun,  
Alam chekar kim bo`lsa bedor!  
Uxlaganlar qanday baxtiyor!  
Ko`zlarimga kelmaydi uyqu.

«Kuylarim» she'rida shoira o`zi yaratgan kuyiga murojaat qiladiki, nega u janglarda dushmanlarga qarshi yonuvchi po`lat emas, keskir shamshir emas. Aslida u so`zi va sozini jangga tayyorlayapti.

Ey mening kurashga tayyor kuylarim,  
Biz halok bo`lmasmiz behuda hech bir.  
Balki siz notanish jasur do`stlarim,  
Qo`lida bo`larsiz dushmanga shamshir.

«Marvarid yoshlar», «Tush», «Marvarid gul» she'rlarida shoira insonning eng pokiza tuyg`ularini tasvirlashga intilsa, «Umid» asarida qalbidagi o`tinchini, armonini kuylashga harakat qilgan. Shoira uchun Vatan sog`inchi, Vatan tuprog`ida so`nggi so`z aytish eng oliy saodatdir.

Baxtim qaro ekan, toleim nigun,  
Yolg`iz umid bilan yashayman bugun:  
Umid-bir ko`rsam Ukrainamni,  
Diyorim-munisim, jonim onamni.  
Zangor Dneprga bir boqar bo`lsam,  
Armonim yo`q edi so`ng mayli, o`lsam.

Lesya Ukrainka «Shotland qiroli Roberts Bryus», «Qadimiy naql», «Asir», «Yana bir so`z», «Kata-kombada», «Bo`shliqda», «Masha taronasi» kabi doston va sahna asrlarida Ukrainaning boy tarixini hamda o`sha zamonning muhim siyosiy masalalarini ko`tarib chiqadi.

Uzoq davom etgan kasallikdan so`ng Lesya Ukrainka 1913 yil Suramida vafot etadi.

### **MAKSIM RILSKIY (1895-1964)**

Atoqli Ukrain shoiri va davlat arbobi Maksim Faddeyevich Rilskiy. Kiyev shahrida ziyoli oilasida tug`ilgan. Dastlabki ta'limni olgach Kiyev Davlat universitetida o`qiydi. O`z ijodini 1910-yilda chop ettirilgan «Oq otlarda» she'riy to`plami bilan boshlagan shoir she'rlarida «San'at uchun san'at» nazariyasining ta'siri yaqqol seziladi. «Qo`shiq» she'rida yozadi:

Parvoz et, to`rg`ay parvoz,  
O`lkam bag`rida yayrab.  
Insonni et sarafroz,  
Qo`shiq aytib-sho`x sayrab.

Vatanga muhabbat, uni ulug`lash, xalqlar orasidagi munosabatlarni yaxshilash g`oyalari bilan sug`orilgan «Yoz», «Ukraina», «Marina», «Dunyo tongi», «Yorqin qurol» asarlari uchun Maksim Rilskiy Davlat mukofotiga sazovor bo`lgan.

Qancha ko`z yosh to`kding katta maydonda,  
Qalin o`rmonlarda to`kding qancha qon.  
Iztirob, g`am chekding erksizlik onda,  
Va o`lib tirilding qayta, onajon!

XX asrning 50-yillarida shoir bir-biridan teran «Ko`priklar», «Birodarlik», «Bizning kuch», «Uch yuz yil», «Xalq irodasi» she'riy to`plamlarini chop ettirdi. «Gullar va uzum» she'riy kitobi uchun shoir hukumatning eng oliy mukofotini ham olgan.

Maksim Relskiy mohir tarjimon ham sanaladi. U «Yevgeniy Onegin», «Yo`lbars terisini yopingan pahlavon», «Pan Tadeush» asarlarini ukrain tiliga o`girib, kitobxonlarga hdyta etdi.

### **BELORUS ADABIYOTI**

Belorus xalqi ko'p asrlar davomida san'at-adabiyot sohasida juda boy va xilma-xil adabiy-madaniy merosga egadir. Juda ko'p belorus ertaklari, afsona va rivoyatlari, lirik va tarixiy qo'shiqlari, maqol va hikmatli so'zlarida mehnatkash xalqning hayoti, uning orzu-umidlari uz aksini topgan. Belorus adabiyotining ibtidosi Kiyev Rusining madaniyati, yozma adabiyoti va xalq xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. XI-XII asrlarda Kiyev Rusida yaratilgan asarlarning bir qismi Belorusiya tuprog'ida yaratilgan. XIII-XIV asrlarda Belorusiya tuprog'i Buyuk Litva knyazligiga qo'shilgan bo'lsa-da, litvaliklarning o'z yozuvi bo'lmagani uchun knyazlikda davlat tili belorus tili hisoblanardi, qonunlar, yilnomalar shu tilda yozilardi. Ayni shu tilda boshqa tillardan tarjimalar ko'paydi. XVI asrda «Litva statusi» yaratilib, uch marta nashr ettirildi. XVI asrda Litva knyazligi mustaqilligini yo'qotib, Polshaga qo'shildi. O'z-o'zidan panlarning jabr-zulmi kuchaydi. O'z davrining olimi Georgiy Skorina tarjimonlik va nashrlik faoliyatini avj oldirib, mavjud holatni tasvirlashga harakat qilgan. Belorus adabiyotining XVI asr oxiri XVII asr boshlarida yashagan yirik vakillari Vasiliy Tyapinskiy, Stefan Zizaniy, Afanasiy Filippovich, Simon Budniy, Montiy Karpovich, Simeon Polotskiylar xalq manfaatlarini yoqlab, katolik zug'umiga qarshi kurashni dav'at qildilar. 1697-yilda Polsha seymi belorus tilida kitob nashr etish, sud, maktab va muassasalarda ish yuritishni man etdi. XIX asrning 20-30-yillarida beloruslar Rossiya bilan birlashgach, adabiy tilda jonlanish sezila boshlandi. Mualliflarni noma'lum bo'lgan «Yeneidaning akasi», «Parnasdagi Taras» asarlari ayni shu davr mahsulidir. Dunin Martsinkovich liberal-dvoryan adabiyoti namoyandasi bo'lib, mazkur davrda «Qishloqi qil» libretto, «Gapon» dostoni, «Seyllar», «Cho'milish» she'riy hikoyalari, «Pan shlyaxtasi», «Sovchilik» pessalarini yozgan edi. 1863-yili dehqonlar qo'zg'aloni barobarida tug'ilgan publitsistik xalqchil shoir Franshin Bogushevichni yetkazib berdi. Keyinchalik Bogushevich ortidan uning ishlarini Yanka Luchina, Adam Gurinovichlar, Yanka Kupala, Yakub Kolas, Aloiza Tyotka kabilar davom ettirishdi. Eng muhimi, bu adiblar klassik adabiyotning estetik printsiplariga amal qilganlar. Yanka Kupala Vataniga sadoqat ramzida «Igor jangnomasi» belorus tiliga tarjima qilgan bo'lsa, Yakub Kolas «Yangi yer», «Simon muzikant» dostonlarini tugalladi.

XX asrning 20-yillarida adabiyot maydoniga K.Krapiva, K.Chorniy, A.Zaritskiy, M.Linkov, shoirlardan A.Aleksandrovich, P.Glebka, P.Brovka, M.Xvedorovich o'zlarining g'oyaviy sog'lom, badiiy jihatdan baquvvat asarlari bilan kirib keldilar. Ya.Movra, A.Yakimovichlar belorus bolalar adabiyoti taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdilar. Dramaturgiyada V.Garbatsevich, ye.Romanovich, I.Gurtsiy, A.Zaritskiy, M.Gromshen singari iste'dod egalari qalam tebratganlar. 1939-yilda G'arbiy Belorusiyaning Belorusiya davlatiga qo'shilishi bilan adabiyot olamiga Maksim tank, F.Pestrak, M.Mashara, A.Kuleshov, P.Panchenko, E.Ognetsvet, A.Staxovich, V.Kravchenko kabi yozuvchi va shoirlar kirib keldi.

O'zbek-belorus adabiy hamkorligi kundan-kun yangi mohiyat kasb etib borayapti. Belorus yozuvchilarining asarlari Mirtemir, Mirmuhsin, Mamarasul Boboyev, G'afur G'ulom, Zulfiya tarjimasida o'zbek kitobxonlariga yetkazilgan bo'lsa, Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni, Oybekning «Navoiy», Abdulla Qahhorning «Sinchalak», Sharof Rashidovning «Bo'rondan kuchli» asarlari Belorus adiblari tomonidan o'girilgan. E.Ognetsvet «Salom O'zbekiston» she'rida o'zbek xalqiga bo'lgan muhabbatini quyidagicha tasvirlaydi:

Menga atlas ko'ylak sovg'a qilibsana,  
Shig'illashi menga shunday tuyuldi:

Shahringda, Zulfiya, o`ynoqlab oqqan,  
Sho`x Salor sharpasi kelganday bo`ldi.

1966-yil may oyida O`zbekistonda o`tkaziladigan belorus adabiyoti va san'ati haftaligi bahonasida Yanka Kupala, Yakub Kolas, Kondrat Krapiva, miqola Avramchish, Anton Balevich, Nina Taras kabi shoirlarning she'riy to`plamlari o`zbek tilida chop ettirilgan.

### **YAKUB KOLAS (1882-1956)**

Konstantin Mixaylovich Mitskevich-Yakub Kolas Baranovich viloyati, Stolbtsevskiy tumanida o`rmonchi oilasida tug`ilgan. O`qituvchilar seminariyasida tahsil olgach, bir necha yil o`qituvchilik qildi. Ijodini 1906-yildan boshlagan Yakub 1910-yilda «Qayg`u qo`shiqdari» to`plamini nashr ettirdi. Mazkur to`plamdan joy olgan she'rlarda mamlakatning istiqboli, uning motamsaro holatiga ko`proq urg`u berilgan.

Dala hamda qadrdon o`rmon,  
Achchiq qayg`u zo`r hasrat ichra,  
Motamsaro sizni ko`rurman.

«Yangi yer», «Simon muzikant», «Hayot kengligida», «Urushga urush», «O`ch olamiz», «Yer sadosi», «O`rmonda sud», «Qasos» asarlarida Yakub Kolas mamlakatda yuz berayotgan o`zgarishlarni tasvirlashga harakat qilgan. 1949-yilda shoir o`zining «Baliqchining xatasi» asari uchun Davlat mukofotiga sazovor bo`lgan bo`lsa, o`zining samarali ijodi uchun «Belorusiya xalq shoiri» faxriy unvoniga sazovor bo`lgan. Yakub Kolas o`zbek ijodkorlari bilan yaqindan munosabatda bo`lgan. Bir necha marta O`zbekistonga mehmon bo`lgan. «O`zbekistonga», «Salor» she'rlarida shoir mehrini yaqqol tuyasiz.

Payt yetdi, jo`naysiz bu chog`,  
O`zbek yeri, azizsan muncha!  
Juda og`ir qardoshga aytmoq:  
Xayr endi, xayr ko`rguncha!  
Xotiramda shahar va bog`lar-  
Kutib olgan yam-yashil libos.  
Ariqchalar, limmo-lim Salo,  
Qator teraklarga viqor xos.

### **PETRUS BROVKA**

Petr Ustinovich Brovka Putilkoviche qishlog`ida 1905-yilda tug`ilgan. Boshlang`ich tahsilni olgach, Belorusiya Davlat universitetida ta`lim olgan. Ijodini 1926-yildan boshlagan shoir «1914», «Katerina» asarlarida zahmatkash belorus ayolining siymosini yarata olgan. «Yurak onti» da yozadi:

Juda minnatdorman men qora nondan,  
Muzday chashmalarning zilol suvidan.  
Yashil o`rmondan,  
Ko`m-ko`k osmondan.  
Dala ariqlarin tiniq suvidan.

Urush davrida Brovka gazetada ishlab turib, «Belorus», «Belorus jangchilariga», «Kaktus Kalinovskiy» asarlarini yozdi. Unda Vatan himoyasilari, ularning sadoqati, jasorati ulug`lanadi. Shoir o`zining «Kunlar o`tib boradi» she'rlar to`plami uchun 1926-yilda Davlat mukofoti laureati bo`lgan. 1957-yilda «Daryolar tutashganda» romanini

tugatish barobarida T.Shevchenko, V.Mayakovskiy, P.Tichina, A.Tvardovskiy singari rus va ukrain shoirlarining asarlarini belorus tiliga o'giradi. O'zining tinmay qilgan say'-harakati bois Petrus Brovka belorussiya Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, xalq shoiri unvoniga sazovor bo'lgan.

«Uy» she'rida Petrus Brovka shoir bilan chashma orasidagi munozarani tasvirlab, buloq tilidan shoirga to'g'rirog'i, o'ziga quyidagicha nasihat beradi:

Xalqning muhabbatini,  
Qozonmoqchi bo'lsang sen.  
Mening tniqligimga,  
Hayron bo'lmagin, o'rtoq.  
Men yer sizib o'tganday,  
Xalq qalbidan sizib o't.  
Xalq dilidan o'tib,  
So'ng o'zingga didil boq!

### MOLDAVAN ADABIYOTI

Moldaviya va Ruminiya hududida yashab kelayotgan moldavan xalqining qadimiy milliy adabiyoti mavjud. Mazkur xalqning tili va adabiyotiga milodiy II-III asrlarda Yunon tili va adabiyotining ta'siri kuchli bo'ldi. 1918-1940-yillar orasida Moldaviya Rumin boyarlari zulmi ostida qolib ketdi. Valaxlar va moldavanlar yaratgan mavsum-marosim qo'shiqlari, ertaklari bilan slavyan xalqlari folklor motiv va syujetlarining o'xshashligi bu xalqlarning uzoq zamonlardan o'zaro yaqin iqtisodiy-madaniy aloqada bo'lganini tasdiqlaydi. Xalq yaratgan qo'shiq va ertaklarda Fet-Frumos vaana-Kosnyazyana singari tadbirkor, dono, jismonan baquvvat qahramonlar obrazi yaratilgan bo'lsa, hikmatli so'z va maqollarda xalqning qadimiy hayot tajribasi va falsafasi o'z aksini topgan. Cho'ponlar hayotiga bag'ishlangan «Mioritsa», qasoskor gayduklarning mardligini tasvirlovchi «Pahlavon Gruya Grozovan», «Gurya va Novak», «Donchila», «Bujor», «Kordyanu» haqidagi balladalar xalq orasida juda mashhurdir. XII-XIII asrlarda moldavan yerlari Kiyev-Volinskiy knyazligi ixtiyoriga o'tdi. XIV asrlarda Valaxiya va Moldvaiya mustaqil knyazini tashkil topadi. Ayni shu davrda moldavan-valax adabiyotiga asos solinib, «Avliyo va jafokash Ioan Noviy» diniy asari yaratildi. Asar muallifi Grigoriy Samlok, Mitropolit Varlaam, Dasifeylar cherkov adabiyotining namoyandalari edilar. XVII Dunay bo'yi knyazlarida gullagan o'rta asr adabiyoti Ureke, Miron Kostin, Nekulche kabi yilnomachilardan tashqari, Nikolay Milesku Spafariy, Dmitriy Kntimerga o'xshash donishmand yozuvchilarni ham yetishtirdi. 1812-yilda Bessarabiya Rossiya tarkibiga qo'shilgach, moldavan adiblari va ziyolilari G.Derjavin, I.Krilov, A.Pushkin, M.Lermontov asarlaridan bahramand bo'lishdi. Hattoki, A. Pushkin Bessarabiyada uch yil yashagan. Shuning natijasi o'laroq, maktablarda ona tili o'qitila boshlandi. Ilk teatr namoyishlari o'tkazildi, «Rumin bolarisi» gazetasi nashr etila boshlandi. 1840-1860-yillarda hozirgi zamon moldavan adabiy tili va adabiyotini yaratish kurash avj oldi. Bunda V.Aleksandr, K.Negrutsi, A.Russolarning say'-harakati bejiz qolmadi. Birgina Vasile Aleksandri avval Yassida, keyinchalik Parijda tib, matematika va huquq fanlarini o'rganishi barobarida adabiyot bilan shug'ullandi. 1848-yildagi to'ntarishda qatnashib yutqizgach, G'arbiy Yevropa mamlakatlarini kezib chiqadi. «Moldaviya bilan xayrlashuv», «Ruminiyaning uyg'onishi», «Gayduk qo'shig'i», «Qaldirg'och qissasi», «Sibir yo'lida», «Bir tilla pul tarixi», «Sinzyana va Pepelya», «Ovidiy», «Blanduziy chashmasi» asarlarida

Vasile xalqning ozodlikka bo'lgan intilishlarni tasvirlashga harakat qilgan va xalq vakillarining siymosini yaratishga intilgan.

XX asrning 60-yillarigacha moldavan adabiyotida D.Milev, M.Andreksu, T.Malay, I.Kann, I.Lebedev, Ye.Bukov, N.Kostenko, B.Istru, P.Kruchenyuk, F.Ponomar, L.Barskiy, A.Lutan, Grigoriy Adam, A.Gujel, V.Roshka, Yu.Barjanskiy, A.Busuyok, I.Krutsular barakali ijod qilishdi. Shu davrda yaratilgan «Poritse bobo», «Tongda», «Oltmish ikki yarim», «Sayohatchilar», «Yurtimiz», «Ikki maktub», «Kurash», «G'alaba», «Ikki dunyo», «O'rmon qizi», «Tomulesa qudug'i yonida», «Posbon», «Nildan Bonngacha», «Poxorona qo'shig'i», «Karpatda bahor», «Ozodlik haykali», «Ruet shahri» kabi asarlarda ijtimoiy hayotning turli masalalari o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, «Yevgeniy Onegin», «Lik chavandoz», «Poltava», «Lo'lilar» kabi o'nlab asarlar Moldavan tiliga o'girildi.

Moldavan dramaturgiyasi rivojida Ye.Bukovning «Qaynoq Dunay», I.Drutsening «Kasa Marg», L.Barskiyning «Kuyov», L.Koryanunning «Mening baxtim», «Muhabbat soyasi» asarlarida alohida o'rni bo'lsa, hikoyachilikda ziddiyatli holatlar ko'paydi. Sho'ro davlatini madh etuvchi hikoyalar barobarida xalqning real hayotini tasvirlovchi asarlar ham yozdi. I.Drutsening «Odamlarni sog'inib», «Yuzma-yuz», «Bizning xonadonda» asarlari fikrimiz dalili bo'la oladi.

### EMILIAN BUKOV

Moldavan adabiyotining yirik arboblardan yemilian Nesterovich Bukov Bessarabiyaning janubidagi Yangi Kiliya shahrida 1909-yilda Bog'bon oilasida tug'ilgan. Kishinyovdagi litseyda o'qigach, Buxarest universitetining falsafa fakultetida tahsil olgan. Taraqqiyparvar rumin jurnallari bilan hamkorlik qilib, o'z maqolalarida V. Mayakovskiy ijodini targ'ib etgan. Xalqning kelajagiga ishonch g'oyasi shoirning «Unumli mehnat», «Quyosh so'zi», «Xitoy» to'plamlariga kirgan she'rlarida o'z ifodasini topgan. Moldavan xalqini ozod ko'rish-shoirning maqsadi. U «Zanjining duosi» she'rida bu g'oyani go'zal tarzda tasvirlaydi asar qora zanjining Oллоhga iltijosi bilan boshlanadi. Tasvirlanishicha, zanjining yakkayu yagona Zayresjon ismli qizi oq tanli janobning tayog'i ostid vafot etadi.

Iltifoting tutmagil darig',  
Ey xudoyim, mendek qulingga.  
Men g'ing demay, iltijo qilib,  
Boshim eggan edim yo'lingga.  
Mening xo'jam-oq tanli janob,  
Oppoq kun-u, oq bulutday oq.  
Shunday ekan, axir nega u-  
Sen tangrining sevgan bandasi-  
Bo'ldi mening yagona qizim-  
Zayresjonning shum kushandasi?!  
Uning qamchisidan Zayresjon,  
Shakarqamish niholsimon.  
Shart kesilib tag-tugi bilan,  
Ko'z o'ngimda jon berdi-ku jon!

Zanji barcha kulfatlarni Xudodan ko'radi, shakkoklik qilib jamiyatdagi nafratini ham unga bildiradi.

Zulm tig'i yetdi suyakka,  
Noilojdan yondim, hayqirdim,

Gunohkorman, osiy bandangman.

Zanjining eng so`nggi jang-imtixoniga dav'ati aslida shoirning so`zi, armoni, o`tinchidir.

Dav'at etgum zanji avlodin,  
Eng so`nggi jang, zo`r imtihonga!  
Bayroq qilib qutlug` qonimiz,  
Ko`rsataman jumla jahonga!

Emilian Bukov birin-ketin «Mening Moldovam», «Dnestrda bahor», «Mening Vatanim», «She'rlar» she'riy to`plami, «Reut shahri» she'riy romani, «Tug`yonli Dunay» dramalarini yozdi. Shoirning asarlari ko`p tillarga tarjima qilingan.

### ANDREY LUPAN

Moldavan adabiyotining yirik arboblardan biri Andrey Lupan Rezin tumaniga qarashli Mixuleni qishlog`ida 1912-yilda tug`ilgan. Bessarabiyada ozodlik o`rnatilgach, u qishloq xo`jalik institutida tahsil oladi. Urush yillarida avval u temiryo`lchilar batalonida, keyin Penza va Kuybishev shaharlaridagi harbiy ob'ektlarida, Kuznetssk metallurgiya zavodida ishlagan.

Andrey Lupan shoir va dramaturg sifatida mashhur. Ijodini 1932-yildan boshlagan shoir tez fursat ichida «She'rlar», «Unitilmas kun», «Mamnuniyat qo`shiqlari», «Qahqaha va gunoh» to`plamlarini nashr etdi.

Ko`hna tarix qonuni,  
Azaldan ayon.  
Doim umid ketidan,  
Intilar inson.  
Barcha so`zu ijodlar,  
Hikmatlar aro.  
Har kim o`zga keragin,  
Izlar doimo.

Moldovan dostonchiligini «Unitilgan qishloq», «Yuzma-yuz», «Yangi kuz» asarlari bilan boyitgan Andrey Lupan o`z kitobxonlariga A.Pushkin, N.Nekrasov, V.Mayakovkiy asarlarini tarjima qilib berdi. O`zbek kitobxonlari esa shoir asarlarini Erkin Vohidov tarjimasida mutolaa qilishga muvaffaq bo`lishgan.

### **Mavzu: Rus adabiyotining taraqqiyot davrlari.**

#### **Reja:**

1. Qadimgi rus solnomalari.
2. Pushkin Rus realistik adabiyoti asoschisi.
3. L.Tolstoyning epik asarlari.
4. Dostoyevskiy, M.Sholoxovning qirralari.

#### **Adabiyotlar:**

1. A.Uzoqov. «MDH adabiyoti». T., 2008.
2. Kedrina z.s. Iz jivogo istochnika. M., 1990.
3. A.S.Pushkin. «Yevgeniy Onegin», M., 1991.

4. S.Mirzayeva va boshqalar. "MDH adabiyoti". T., 2006.
5. H.Homidov. "Shohnoma"ning shuhrati, T., "O`zbekiston", 1991.
6. Aytmatov Ch. Erta qaytgan turnalar. T., "Sharq", 2005.
7. Dumbadze N. Abadiyat qonuni. T., "Sharq", 2006.

Rus adabiyoti tarixi qariyb X asrlik davrni o`z ichiga qamrab oladi. Slovyanlar qadim-qadim zamonlarda Dunay daryosi bo`ylarida yashashgan. Davrlar o`tishi bilan ular turli tomonlarga tarqashgan va yashayotgan joylarga qarab ular turli guruh, qabila, millatlarga bo`linib ketishgan.

Shunday qilib slovyanlar uchta guruhga bo`linishgan:

1. G`arbiy slovyanlar: polyak, chex, slovak va boshqalar.
2. Janubiy: bolgarlar, xorvatlar, serblar, makedonlar, bosniyaliklar va boshqalar.
3. Sharqiy slovyanlar: ruslar, beloruslar, ukrainlar.

Ilk rus davlati "Kiyev Rusi" eramizning taxminan X asrlarida vujudga kelgan. Knyaz Oleg xristian dinini rasmiy ravishda qabul qilishi bilan ruslarda yozma adabiyot ham shakllana boshlagan. Qadimgi rus adabiyoti VII asrlik davrni o`z ichiga qamrab oladi:

1. Kiyev Rusi adabiyoti (X-XIII asrlar).
2. Shimoliy-Sharqiy Rusi (Novgorod) davri (XIII-XV asrlar).
3. Moskva Rusi davri (XVI-XVII asrlar).

Aynan XVII asrga kelib, turli tillardagi maktablarga asos solindi. O`qish uchun turli xil bukvarlar, ko`rgazmali o`quv qurollari yaratildi. 1687-yilda Moskva shahrida Slavyan-Grek-Lotin Akademiyasi ochildi.

Petr I taxtga o`tirgandan so`ng Rus ma`naviy ijtimoiy, siyosiy, harbiy hayotida katta o`zgarishlar yuz beradi. Bu madaniyat va adabiyotning rivojlanishiga katta turtki berdi. Moskva, Peterburg shaharlarida bosmaxonalar qurildi. Gazetalar chop etiladi. Teatr ochilib, turli xil pesalar qo`yila boshlandi. Buning oqibatida rus adabiyotiga G`arbiy Yevropa adabiyotidan klasitsizm oqimi kirib keldi. Lokk, Montaske, Labryuyer, Audison, Lessagi, Moler kabi adiblarning asarlari rus tiliga tarjima qilinadi.

Aynan shu davrlarda Antiox Kantemir, Vasiliy Trediayaovskiy, Mixail Lomonosov, A.P.Sumorokov kabi taniqli shoir va adiblar yetishib chiqishdi.

### **Mixail Vasilevich Lomonosov (1711-1805)**

Moskvadagi slavyan-grek-lotin akademiyasini bitirib, Peterburg universitetiga o`qishga boradi. 1736-yili uni bir qancha a`lochi studentlar bilan birgalikda Germaniyaga jo`natishadi. U yerda Lomonosov tabiatshunoslik, injineriya, filosofiya, filologiya kabi fanlarni chuqur o`rganadi. Shu bilan birgalikda bir qancha Yevropa tillarini o`rganadi. 1741-yilda u Rossiyaga qaytadi va Fanlar Akademiyasida ishlaydi. 1745-yilda Akademik degan nomga munosib deb topishadi. Uning yuksak xizmatlari shundan iboratki, u hozirgi rus adabiy tilini qaysi tomonlari bilan eski slovyan tilidan ajralib turishini ko`rsatib berdi va til haqidagi nazariyasini yaratdi. Lomonosov sillabo-tonik sistemasining to`g`riligini isbotlab berdi, majmua va darslik nazariyasining rivojlanishida o`zining katta xizmatlarini qo`shdi.

Lomonosov o`z ijodida asosan odalar yozdi. U haqda Pushkin shunday degan edi: "Tarixchi, diktir, mexanik, ximik, minerolog, rassom va shoir. U hayotda hamma narsani boshidan kechirib, tatib ko`rdi va mazmunini tushuntira oldi".



### **Aleksandr Sergeyevich Pushkin (1799-1837)**

Rus adabiyotining dahosi, hozirgi zamon rus adabiy tilining asoschisi A.S.Pushkin 1799-yil 6-iyun kuni Moskva shahrida dvoryan oilasida tug'ildi. Otasi Lvovich Sergey zamonasining ilg'or kishilaridan edi. O'z uyida fransuz va rus yozuvchilarining kitoblaridan kutubxonasi bor edi. Uning ukasi, ya'ni A.S.Pushkinning amakisi Vasiliy Lvovich Pushkin shoir bo'lib, karamzinchilar oqimida ijod qilardi. Aleksandr 12 yoshigacha uyida o'qidi, keyin uni 1811-yil sarskoye Selo shaharchasida yangi ochilgan litseyga o'qishga berishadi. Bu litsey davlatning yuqori ishlari bo'yicha chinovniklar yetkazib berardi. Litseyda u o'ziga Delvig, Pushin, Kyuxelbeker va shunga o'xshash do'stlar orttirdiki, ular bir umrga qadrdon bo'lib qolishdi. 1817-yilda litseyini bitirgan Pushkin Tashqi ishlar Kollegiyasida ish boshladi. Bu yerda u 1820-yilgacha ishladi. Shu yerda u A.S.Griboyedov bilan tanishdi.

1820-yil 9-mayida Pushkin shaxsan Aleksandr I buyrug'iga asosan general Inzov qo'l ostiga xizmatga yuborishadi. Shu yilning yoz oylarida Inzov ruxsati bilan Rayevskiy oilasi bilan sayohatga boradi. U Shimoliy Kavkaz, Qrimda bo'lib, Simferopol va Odessa orqali Kishinyovga qaytadi.

Kishinyovda u Pestel, Davidov, Yakushkin singari dekabristlar bilan tanishadi. Bu yerda uning birinchi "janubiy" poemasi "Kavkaz asiri" yuzaga keladi (1822). 1823- yilda ikkinchi poemasi "Bog'chasaroy fontani", 1823-yilda esa o'zining "Yevgeniy Onegin" she'riy romanini boshlaydi. 1824-26-yillarda yana surgun qilinadi.

Bu safar Pskov gubernyasiga qarashli Mixaylovskoye qishlog'iga yuborishadi. Shaharda yurib o'rgangan Pushkin qishloqda judayam zerikadi. U ko'pincha bo'sh vaqtlarini Osipova xonimning xonadonida o'takazardi. 1825-yil dekabr qo'zg'oloni va uning mag'lubiyatidan juda ham afsuslanadi. 1826-yil 8-sentabrda u podsho Nikolay I bilan uchrashadi. Bu yerda, ya'ni shoh qabulida u ochiqdan-ochiq podshoning savoliga "men dekabristlar tomonida bo'lardim" deydi.

1829-yil u Kavkaz bo'ylab sayohatga chiqadi. Uning asl maqsadi surgun qilingan dekabrist o'rtoqlari bilan uchrashish edi. 1830-yilda u Moskvaning eng go'zallaridan bo'lmish N.Goncharovaga uylanadi. Lekin oradan 4 yil o'tar-o'tmas har xil gaplar, uning oriyatiga tegadigan ig'volar ko'payadi. Uning N.Goncharova bilan oralari bir muncha sovuqlashadi. Oxiri borib bu gaplar uni Gollandiya elchisi Gekkernning saqlab olgan o'g'li – Dantesni duelga chaqirishga majbur qiladi. Duel payti og'ir yaralangan Pushkin 1837-yil 27-yanvar kuni 38 yoshida vafot etadi.

Pushkin ikki buyuk jahonshumul voqealar ta'siri ostida o'sib, ma'naviy ulg'aydi: Vatan urushi va dekabristlar qo'zg'oloni.

U litseyda o'qib yurgan paytlarida Derjavin, Batyushkov, Jukivskiylarga o'xshab yozishni istar va shularning asarlariga taqlid qilib o'z asarlarini yaratardi. Uning asarlari yuqorida aytib o'tilgan shoirlarnikiga ko'ra barkamol yaratildi.

Uning litseyda o'qib yurgan paytlaridayoq "Shoir do'stinga" (1814), "Mening do'stlarimga vasiyatim" (1815), "Mening epitadiyam" (1815), "Mening Aristorximga" (1815), "Hijron", "Ayriliq" nomli she'rlari odamlarning diqqat e'tiborini o'ziga tortgan edi.

Pushkin janubga surgun qilingan paytlarida litseyda o'qib yurgan chog'larida boshlab qo'yilgan "Ruslan va Lyudmila" poemasi yozib tugatdi.

## **“Yevgeniy Onegin”**

Asarlarining ichida millionlar qalbini zabt etgani shu she'riy romanidir.

Bu asarda Pushkin yosh zamondoshlarining umumlashma obrazini yaratdi. Asar bilan tanishar ekanmiz, dinamik kuchlanish hukmidagi Ye.Onegin obrazining ichki ziddiyatlarini tushunib borgan holda, uning harakter elementlarini, tabiati, umuman jamiyat uchun keragi yo`qligini ko`ramiz.

V.Belinskiy “Yevgeniy Onegin” romanini “rus hayotining ensiklopediyasi” deb ataydi. Haqiqatdan ham Pushkinning bu asarida xilma-xil cheksiz muammolar ko`tarilgan. Romanda oddiy kunlik muammolarga to`la qishloq dvoryanlarining zerikarli va poytaht aslzodalarining mazmunsiz hayoti aks ettirilgan.

“Yevgeniy Onegin” romanining syujet asosi bo`lib muhabbat mavzusi xizmat qiladi.

Roman markaziy qahramonlari Tatyana Larina va Yevgeniy Onegin atrofidagi odamlardan ma`nan boyligi, zamondoshlaridan ancha ilgari ketganliklari bilan ancha yuqori turishadi.

Yevgeniy Onegin – ziddiyatli, murakkab obraz. U atrofidagilardan, eskirgan urf-odatlardan (sarqitlardan), jamiyatdan nafratlanadi, ularga qarshi kurashadi. Lekin shuni aytib o`tish kerakki, o`zidagi ana shunday sarqitlarning ustidan g`alaba qozonolmaydi, chunki uning o`zi tartibsiz turmush tarzi bilan yashaydi va shu muammolar ustida jiddiy shug`ullanmaydi.

Onegin – bu oliy tabaqaning, muhitning, jamiyatning mevasidir. Uning obrazidagi energiyani, hissiyotga to`la qalbini, bo`yinsunmasligini, apatiyani, ichki go`zalligini, harakatsiz orzu-intilish tuyg`usini tushinishi uchun rus adabiyotshunoslari ham ko`p izlanishlari kerak bo`ladi.

### **Belkin qissalari**

Rus klassik realistik prozasining boshlanishi shu asarlardan boshlanadi. Bu qissalar – o`zgarib turuvchi, dinamik kuchlanish hukmidagi voqealardir.

Syujetlar qandaydir boshqa shaxslar tomonidan hikoya qilinishi asarga stilistik maneralarning murakkab to`qimasini baxshida etadi. Adabiyotda qo`shimcha muallif yelimplash yangilik emas, bunday usulni Valter Skott asarlarida ham uchratish mumkin.

Bu usul bilan Pushkin oddiy odamlarni gapirishga majbur etadi.

“Belkin qissalari” asari beshta mukammal hikoyalardan iborat:

- a) “Bo`ron”
- b) “Qishloqi oyimqiz”
- v) “Stansiya nazoratchisi”
- g) “Tobutsoz”
- d) “O`q»

Hamma hikoyalarni to`plab beruvchi qandaydir Ivan Petrovich Belkin bizga yetkazadi.

### **Mixail Yurevich Lermontov (1814-1841)**

Rus adabiyotining eng ulkan va eng ko`rkam vakillaridan biri M.Yu.Lermontov o`z zamonasining razilliklaridan zerikkan, ezgulikka zoriqqan, shiddatkor va isyonkor shoirlaridan edi.

M.Yu.Lermontov yashagan davr sharoiti o`ta mashaqqatli va qarama-qarshiliklarga to`la edi. Lermontovning zimmasiga rus adabiyotini yanada rivojlantirish, Pushkin an`analarini davom ettirishdek g`oyat murakkab va mas`ul vazifa tushdi va bu vazifani u qisqagina umri davomida katta shijoat bilan ado etdi.

M.Yu.Lermontov 1814-yil Moskvaning Krasnye Vorota mintaqasida dunyoga keldi. U 2 yoshga to'lganda onasidan judo bo'ldi. 1828-yilgacha Penza guberniyasining Tarxani qo'rg'onida buvisining tarbiyasida bo'ldi.

1828-yilda Moskvaga keladi va MU pansionatiga o'qishga kiradi. 1830-yil 16 yoshida MUning filologiya fakultetiga o'qishga kiradi. Bu yerda u Belinskiy, Ogarev, Gersenlar bilan birgalikda o'qishadi, lekin oradan 2 yil o'tgach o'qishni tashlab Peterburg harbiy bilim yurtiga o'qishga kiradi.

Uning nomini bashariyatga tanitgan, barcha xalqlar dilida mangu yashaydigan qilgan omil – uning she'riyatidir.

U adabiyotga bir olam ijod mahsulini berdi.

Butun dunyoni hamon hayratga solayotgan va millionlar dilini zabt etayotgan sermazmun va insoniy hissiyotlarga boy lirik she'rlari, aslo o'lmas va so'nmas dramalari: "Lo'lilar", "Ispanlar", "G'alati odam", "Maskarad", "Ikki og'a-ini".

Poemalari: "Boyarin Orsha", "Shoh Ivan Vasilevich, navjuvon yasovul va azamat savdogar Kalashnikov haqida qissa", "Qochqin", "Msiri", "Demon", "Ismoilbey", "Xoji Abrek", "Cherkaslar".

Romanlari: "Vadim", "Zamonamiz qahramoni".

Bularning barchasi bitmas-tuganmas adabiy xazinani tashkil etadilar.

### **"Zamonamiz qahramoni"**

Roman beshta qissalardan iborat: "Bela", "Maksim Maksimich", "Knyajna Meri", "Taman", "Fatalist".

Asar qissalarining joylashishi muallif-hikoyachi bilan emas, balkim qahramon bilan bog'liq. Muallif yo'lda ketayotib, Maksim Maksimich bilan uchrashadi va muallifga Bela va Pechorin haqida gapirib beradi.

Avtorning qo'liga M.Maksimich orqali Pechorinning kundaligi kelib tushadi. O'quvchi asarning boshidayoq qahramonning o'limi haqida o'qiydi. Asardagi voqealar liniyasi esa quyidagicha boshlanadi. Peterburgdan Kavkazga ketayotib Pechorin Tamanda to'xtab o'tadi. Bu yerda harbiy ekspeditsiyada qatnashgandan so'ng Patigorskga, keyin Kislovodskga boradi va o'sha shaharlarda yashaydi. SHu orada u Grishitskiy bilan urushib qoladi va Grishitskiyni duelda o'ldirib qo'yadi. SHu qilmishi uchun uni Maksim Maksimich boshchilik qilayotgan qal'aga jo'natishadi.

Qal'ada xizmat qilib yurgan chog'ida u 2 haftaga kazaklar yashaydigan stanitsaga keladi va Vulich bilan uchrashadi.

M.Maksimich 5 yil birga xizmat qilib, istefoga chiqadi, bir qancha vaqt Peterburgda yashab Eronga sayohatga keta turib yo'l ustida Vladi – Kavkazda M. Maksimich bilan uchrashadi. Erondan qayta turib yo'lda halok bo'ladi.

Lermontovga ana shunday o'zgarib turuvchanlik asarga baxshida etishi Pechorin shaxsiyatini yanada murakkablashtiradi va romantik xususiyat kasb etadi.

Asar markazida – Pechorin turadi. Pechorinni esa Bela, Maksim Maksimich singari atrof-muhit va jamiyat unchalik ta'sir o'tkazmagan oddiy va tabiiy shaxslar o'rab turadi. Pechorin ulardan aslzoda nasabi, tarbiyasi va shaxsiy ulug'vorligi bilan yuqori turadi. Vaqti-vaqti bilan Pechorin ularga yaqinlashadi, lekin ba'zida ularga nisbatan qattiqqo'llik ham qiladi.

Asarda biz Pechorinni tushungan, shunga o'xshash ikkita obrazni ko'ramiz. Bular: doktor Verner bilan Vera.

Pechorin – bu Lermontovning adabiyotdagi o'zining ikkinchi “men” degan shaxsiyatidir. Lermontov rus adabiyotida Pushkin asos solgan «ortiqcha odamlar» tipini mazkur obraz orqali yanada rivojlantirdi.

### **Nikolay Vasilevich Gogol**

N.V.Gogol 1809-yilda Poltava guberniyasining Mirgorod uyezdiga qarashli Soroginski qishlog'ida tug'ildi. U avval Poltava bilim yurtida, keyinchalik oliy bilimlar gimnaziyasida o'qiydi (Nejin shahrida). Litseyda o'qib yurgan paytlarida Teatrni yoqtirib qoladi va litsey teatrida ko'p rollar ijro etadi. U o'zining g'ayritabiiy sinchkovligi bilan o'rtoqlarini hayratda qoldirar edi. Gogol 1829-yil o'zining birinchi “Gans Kyuxelgarten” nomli asarini yaratdi. Lekin tez orada o'ziga yoqmagani uchun yondirib tashlaydi. 1829-yil iyul oyida chet elga sayohatga keladi. Chet eldan u to'g'ri Peterburgga qaytib keladi va do'stlari yordamida PU da tarix fanidan dars bera boshlaydi. Uning ko'p maqolalari gazetalarda bosilib chiqqa boshlaydi: “Umumiy tarixdan dars berish usuli”, “Malorossiyaning ahvoriga nigoh” kabilar shular jumlasidandir. 1831-yili u A.S.Pushkin bilan Pletnev xonadonida tanishdi. Bu yerda Pushkin bilan suhbatda Gogol zamonaviy rus adabiyotining ahvoli haqida, uning asosiy tendensiyalari haqida o'zining tanqidiy mulohazalarini bayon etadi. Pushkin Gogolning badiiy iste'dodini, tanqidiy nuqtai nazarini yuqori baholaydi.

Pushkin Gogolni o'zi muharrirlik qilayotgan “Zamondosh” jurnaliga taklif etadi. Gogol tez orada shu jurnalda “1834-1835-yillar adabiyotidagi harakat haqida” maqolasini bosib chiqaradi. Pushkin unga rus adabiyoti tarixi bo'yicha ish boshlashni maslahat beradi va “Revizor” komediyasining syujetini suhbatlaridan birida aytib beradi. Gogol tez orada dunyoga mashhur “Revizor” komediyasini yaratdi. 1836- yilning 19-aprelida Peterburgdagi Aleksandr teatrida komediyaning premerasi bo'lib o'tadi.

Gogol premerada spektaklning oxirigacha o'tirmay ketib qoladi. Ketib qolishining sababi, uning komediyasida Nikolay imperiyasining hamma burchaklaridagi ahvolni o'tkir satira bilan fosh etilishi butun Peterburg, adabiyot ixlosmandlari uchun katta bir adabiy kashfiyot edi.

Oradan hech qancha vaqt o'tmay u chet elga (Italiyaga) ketadi. Pushkinning o'limini u juda chuqur qayg'u bilan kutib oladi.

Gogol 1840-1842-yillarda Rimda “O'lik jonlar” poemasini yozib tugatdi va bir nusxasini V.Belinskiyga jo'natdi. Belinskiy o'z navbatida o'qib chiqib, asarning bosilib chiqishiga ruxsat olib (senzuradan), jurnaliga bosmaga topshirdi.

1847-yilda uning “Do'stlar bilan yozishmalarning asosiy joylari” asari bosilib chiqdi. Bu asarni o'qib chiqqan Belinskiy unga o'zining “Xat”ini yozdi. Belinskiy o'z xatida Gogol asarini taxlil qilib, uni qattiq tanqid qilgan edi.

Gogol Quddus shahriga aynan shu yili diniy ziyoratga boradi. 1852-yilda esa Rossiyaga qaytib keladi: Moskva, Peterburg, Odessa shaharlari yashaydi. Hayotining oxirgi yillarida uning ruhiyati qandaydir g'ayritabiiy kasallikning alomatlari uchray boshlaydi. Shunday bir ruhiy krizislar paytida u o'zining “O'lik jonlar” poemasining II tomini yondirib yuboradi.

Gogol 1852-yil 21-fevralda vafot etadi.

Gogol adabiyotga o'zining bir qancha hikoyalari, qissalari to'plami bilan kirib keldi. Uning “Sorochin yarmarkasi”, “May kechasi yoki suvga cho'kayotgan ayol”, “Dahshatli

qasos”, “Dikanka qishlog`i yaqinida o`tkazilgan kechalar” nomli asarlari adabiyot ixlosmandlariga mashhurdir.

### **“Dikanka qishlog`i yaqinidagi o`tkazilgan kechalar” to`plami**

Bu to`plamga sakkizta qissa kirgan. Bu Ukraina, ukrain folklori bilan bog`liq qissalarni adolat va adolatsizlik o`rtasidagi qarama-qarshiliklarni tasvirlovchi kartina deb baholasa bo`ladi. Gogol bu asarlarida o`zining diqqatini XVIII asr erkin ukrain kazaklari hayotiga qaratadi. Qissalar Rudiga Panko ismli shaxs tomonidan hikoya qilinadi. Qissalarda u o`zining orzusini, odamlar tabiatidagi insoniy tuyg`ularni go`zalligini ko`rsatishga harakat qiladi. Ana shu inson tabiatidagi fazilatlarini yorqinroq yoritish uchun fantastik mavjudotlar obrazlaridan ham foydalanadi. Shu sabab bo`lsa kerak, Gogol o`z qissalarida qator milliy xarakterlar galereyasini yarata olgan.

Fantastika, folklor, satira va boshqa janrlarning uyg`unligi uning boshqa asarlarida ham uchraydi.

1835-yil Gogol o`zining “Nevskiy prospekt”, “Portret”, “Mirgorod” to`plamlarini yaratdi.

Gogol “Taras Bulba” nomli tarixiy qissasida qahramonlarni, ularning xarakterini o`zining zamonasiga qarama-qarshi qo`yadi.

“Taras Bulba” asarida u birinchi bor xalqning quvvati, qudrati, ma`naviy boyligi, yuqori ahloqiy prinsiplari haqida yozadi.

Gogol birinchi bo`lib rus adabiyotida xalqning, jamiyatning fojiali tomonlarini real, tanqidiy tasvirlarda ko`rsatib bera olgan.

1835-yilda u yana “Peterburg qissalari” turkumi ostida beshta qissa yaratdi.

“Shinel”, “Burun”, “Ruhiy xasta kishining xatlari”, “Nevskiy prospekti”, “Portret”. Bu qissalarining mazmuni, qahramonlari va uslubi har xil bo`lgani bilan ularni ichki birlik bog`lab turadi. Bu qissalarda Peterburg shahrining ulug`vor obrazini ko`rsatadi. Gogol bu asarlarda Pushkin traditsiyalarini davom ettirib poytaxtning ichki va tashqi holatini qiyoslaydi. Peterburg shahrining sotsial portretini, ya`ni oddiy kichik odamlarning og`ir hayotini chizib beradi.

### **“O`lik jonlar”**

Gogol bu asarini poema deb nomlaydi, chunki bu asarda lirik va epik tur xususiyatlari uchraydi. Muallif har bir sahifada uchraydi va o`zining fikrlarini, bo`lib o`tayotgan voqealarga munosabatini bildirib boradi.

Asarning bosh qahramoni Chichikov-rus adabiyotida mavjud bo`lgan qahramonlarning yangi tipi. Bu obraz Rossiyadagi endigina paydo bo`layotgan burjuaziyaning yangi vakilidir. Uning maqsadi jamiyatning ahvolidan o`zining kuchi, aqli va uddaburonligi bilan katta pul topishdir. Chichikov asardagi satirik ravishda chizilgan pomesniklardan o`zining mantiqiy dunyoqarashi bilan dahshatlidir.

Chichikov – bu yirtqich, u hech qanday ahloqiy kodeks yoki prinsiplarga amal qilmaydi, har qanday sotqinlikka tayyor shaxs. Asardagi boshqa pomesniklar tabiatiga xos xususiyatlar uning psixologiyasida ham mujassamlashgan:

Shuning uchun ham Gogol Chichikov obraziga butun boshli XI bobni bag`ishlaydi.

Gogol bu asarida mayda dvoryanlarning oddiy hayotini emas, balki krepostnoy huquqlari yemirilayotgan bir davrdagi Rossiya ijtimoiy hayotining og`ir ahvolini ko`rsatib bergan.

U oldindan dvoryanlar o`rniga burjuaziya kelayotganini ko`ra oldi. Asarda asosan ahamiyat berish kerak bo`lgan joy – bu kapitan Kopeykin haqidagi hikoyadir.

Asarda muallif rus xalqining potensial imkoniyatlariga optimistik ruhda qaraydi va vaqtlar keladi xalq o`z imkoniyatlaridan to`g`ri foydalanadi deb tushunadi. Gogol o`z asarini “O, Rus, qayoqqa qarab ketyapsan?” degan ramziy savol-chaqiriq bilan tugallaydi.

### **Lev Nikolayevich Tolstoy (1828-1910)**

A.N.Tolstoy kelib chiqishi yuqori tabaqalar aslzodalardan edi. Agar kelib chiqishiga chuqurroq ahamiyat berilsa, Tolstoy Pushkin va knyaz Trubetskoylar bilan qarindoshligi bor. U 1828-yilda Tula guberniyasining Yasnaya Polyana qishlog`ida tug`ilgan. 2 yoshida onasi, 9 yoshida otasi qazo qiladi. U avval katta ammasining, keyinchalik, Qozon shahrida yashovchi kichik ammasinikida tarbiyalanadi. 16 yoshida Qozon universitetining falsafa fakulteti turk-arab tillari bo`limiga o`qishga kiradi, lekin o`quv yilining oxirida uni darslarga kam qatnashganligi uchun imtihonlarga kiritishmaydi. Tolstoy shu universitetning huquq fakultetiga o`qishini ko`chiradi, baribir oradan ikki yil o`tgach o`qishni tashlab ketadi. (1850-yildan to o`limigacha kundalik tutadi) 1847-yilda ota-onasidan qolgan mulkni ukasi bilan bo`lishib olishadi. 1200 desyatn yer bilan 330 dehqon va Yasnaya Polyana qishlog`i L.Tolstoyga tegadi. 1852 yilda harbiy xizmatga yollanadi va shu yilning iyul oyida uning “Bolalik” povesti “Sovremennik” jurnalida bosilib chiqadi. 1854-55-yillarda Tolstoy Sevastopol himoyasida jang qiladi. Qrim urushida Rossiyaning yengilishi, Sevastopolni turklar bosib olganidan keyin u zahiraga bo`shaydi.

1855-yilda u Nekrasov, Turgenev, Chernishevskiy, Goncharovlar kabi yozuvchi, shoirlar bilan tanishadi. Ular bilan tanishgandan so`ng, avvalida Tolstoy liberallarning fikrini ma`qullab turdi, lekin tez orada o`zining pozitsiyasini mustahkamlab oldi. Uning fikricha, Rossiyani yanada rivojlantirish uchun xalqni ma`naviy qayta tarbiyalash kerak. Har qanday shaxs o`zi ustida ishlashi zarur edi. 1862-yilda L.N.Tolstoy o`zidan 16 yosh kichik bo`lgan Sonya Andreyevna Berisga uylanadi. 1863-yildan boshlab, “Urush va Tinchlik” romani ustida ishlashni boshlaydi. 1869-yili Tolstoy o`zining mazkur roman-epopeyasini yozib tugatadi.

70-80-yillar o`rtasida u ancha adabiyotdan biroz yiroqlashib ketadi. 80-90- yillar boshida u adabiyotga, ijodga qaytadi va o`zining “Ivan Ilichning o`limi”, “Kreyser sonatasi”, “Tirilish” kabi asarlarini yaratdi.

1910-yilning 28-oktabrida uyidan ketadi. Yo`lda u pnevmoniya bilan kasallanib qoladi va Astaxova temiryo`l stansiyasida olamdan o`tadi.

### **“Urush va Tinchlik” roman-epopeyasi**

L.Tolstoy bu asarni yozishdan oldin dekabristlar va dekabrizm haqida yozmoqchi edi. Uni tarixiy shaxs tipi qiziqtirardi. Buning 2 tomoni bor edi.

- a) dekabrizmga bevosita 1812-yil Vatan urushining aloqadorligi;
- b) 60-yillar revolyutsiya harakatining natijasizligi sabablari.

L.Tolstoy asarni yaratish jarayonida F.L.Glinkaning “Borodino jangi ocherklar”, D.Davidovning “1812-yil partizanlik harakati haqida xotiralar”, A. Terning “Imperiya va konsullik tarixi” va shular kabi tarixiy va hujjatli adabiyotlar bilan tanishadi. Shuningdek, Borodino maydoniga boradi. Bu yerda u qaysi tomondan fransuzlar kelgan, qayerda Bagration fleshlari turgan, qayerda Rayevskiyning batareyasi joylashgan edi, qayerda qattiq qonli janglar bo`lgan hamma-hammasini tasavvur qilib ko`radi.

Roman-epopeyada 550 dan ortiq obrazlar mavjud bo`lib, shulardan 200 ga yaqini tarixiy shaxslar va 20 dan ziyod katta janglar kartinasi chizib berilgan.

Asar boshidagi jamiyatda yashayotgan odamlarning hammasi Yevropada bo`layotgan voqealarga, Napoleoning armiyasiga o`z tabaqasidan turib baho berishadi. Lekin shu bilan birga aksariyat aslzodalar Napoleon Rossiyaga qanday xavf solishi mumkinligi haqida ham o`ylashmaydi. Ba`zilar esa tushunishmaydi ham. Buni faqat Andrey Bolnonskiy yaxshi tushunadi.

Romanning asosiy qahramonlari:

a) A. Bolkonskiy – sangvinik, qiziqqon, egotsetrik harakterga ega

b) Per Bezuxov-flegmatik, tuyg`ularga asoslangan, yuragining amriga bo`ysinuvchi aslzoda.

Ikkovi ham oshiq qalbli, sog`lom fikrlovchi, hayotda o`z o`rinlarini izlovchi insonlar. Ularning ikkovini ham birinchi knyaz Andreyga nikohlangan, lekin taqdirning yolg`onchiligi oqibatida Perga turmushga chiqqan Natasha Rostova bog`lab turadi.

Asarning eng maftunkor obrazlaridan biri bu Natasha Rostovadir. Uning bitta tashqi ko`rinishigina emas, balkim ichki dunyosining go`zalligi ham, uning atrofdagilarga bo`lgan munosabatining bolalarcha samimiyligi, pokizaligi bevosita o`quvchida ham unga nisbatan muhabbat uyg`otadi.

A.Bolkonskiy fikricha, har qanday haqiqiy rus kishisi armiya saflarida, harbiy xizmatda, ona vatan himoyasi haqida bosh qotirmog`i lozim.

### **Fedor Mixaylovich Dostoyevskiy**

F.M.Dostoyevskiy 1821-yil Moskvada vrach oilasida tug`ildi. Ular juda boy bo`lmasa ham, uylarida xizmatkorlari, izvoshchisi bo`lar edi. Onasining aka-ukalari Moskvadagi boy odamlardan edi. Oilada u faqat akasi Mixail bilan ruhan yaqin edilar. otasi, onasi va boshqalar uni unchalik tushunmas edilar. Fedor akasi Mixail bilan Moskvaning eng yaxshi pansionlaridan birida o`qishadi. 1832-43 yillarda Peterburgdagi Oliy Injenerlar bilim yurtida o`qiydi. 1847-yilda Petrashevskiy revolyutsion to`garagiga qatnay boshlaydi. Lekin ko`p o`tmay 1849-yilda hibsga olinadi, Petropavlovsk qal`asiga qamaladi.

1849-yil 22-dekabrda uni podsho qatl etishga hukm etiladi. Lekin hukm 4 yillik katorga bilan almashtiriladi va Sibirga Omsk turmasiga jo`natiladi.

1850-54-yillarda katorgada, 1854-57-yillarda Semipalatinsk dagi 7-Sibir batalonida oddiy soldat bo`lib xizmat qiladi. 1857-yilda uning hamma fuqarolik va dvoryanlik huquqlarini qaytarib berishadi. 1859-yilda M.D.Isayevaga uylanadi, lekin baxtli bo`lolmaydi.

1861-yilda uning “Haqoratganlar va tahqirlanganlar” romani dunyoga keldi. 1862-yilda Dostoyevskiy chet elga safarga chiqadi: Fransiya, Germaniya, Avstriya, Italiyaga boradi.

1866-1888-yillar davomida birin-ketin “Jinoyat va jazo”, “O`smir”, “Telba”, “Aka-uka Karamazovlar” va boshqa katta-katta romanlari yuzaga keldi. Dostoyevskiy 1872-yildan 1881-yilgacha “Grajdanin” jurnaliga redaktorlik qiladi.

1881 yilda vafot etadi, uni Peterburg shahridagi Aleksandr Nevskiy lavrasining Tixvin qabristoniga qo`yishadi.

Dostoyevskiy murakkab va ziddiyatli buyuk yozuvchidir. U hayotni yaxshi tushunadigan, ma`naviy va moddiy johillikni yuzaga keltiradigan yolg`onu

ikkiyuzlamachilikning, vijdonsizlikning basharasini ochib tashlaydigan shaxs sifatida adabiyotga kirib keldi. U hamisha o'z asarlarida shaxs va uning barkamolligi haqida bo'lgan savollarni o'rtaga tashlaydi va yechishga harakat qiladi.

Dostoyevskiy qahramonlari boshqalarga o'xshamaydi. Uning qahramonlari kambag'allik, jabr-sitam, isyon haqida kam gapirishadi. Ularni boshqa muammolar o'ziga jalb etishgan. Dostoyevskiy ikki xil mavzuni bir-biriga qarshi qo'yardi: hukm yuritayotgan muhitga qarshi turishi kerak bo'lgan shaxs huquqi va shu shaxsning shu muhitga tobeligi.

Shu ikki tushuncha *huquq* va *tobelik*ni bir-biridan ajratib bo'larmikin?

Dostoyevskiy inson qalbidagi eng nozik, eng chuqur, har qanday odamni ham hayajonlantiradigan fikrlarini, tuyg'ularini quyuq ranglar bilan tasvirlaydiki, asarlari bilan birinchi bor tanishgan kitobxon ularni osonlikcha xazm eta olmaydi.

Dostoyevskiyning yana bir asosiy tomonlaridan biri zamonaviy o'zgarishlarning shaxsning o'zligini tanishda, ma'naviy qashshoqlanishda va shu shaxsning oilaga, jamiyatga, siyosatga, iqtisodiyotga ta'sirini yanada bo'rttirib ko'rsatishga intilishidir.

### **“Jinoyat va jazo”**

Romanni tahlil qilish, sharhlash oson, negaki voqealar ko'z oldimizda voqealar rivojlanib, ko'lami kengayib boradi.

Romanning asosi bo'lib Radion Raskolnikovning “ishi” xizmat qiladi. Romanda Raskolnikovning jinoyati va jazosi haqida mukammal gapiriladi, bu psixologik jarayonlar shunday tasvirlanadiki, inson benihoya, uning kallasida pishgan jinoyatdan oldinroq uning jazosi haqida o'ylaydi, lekin baribir undagi (Raskolnikov) *kuchli shaxs* haqidagi fikr uni jinoyatga undaydi.

Romanda personajlar o'rtasidagi aloqa shunday uzviylashadiki, natijada romanning syujeti murakkablashib, muammolari chuqurlashib boradi.

Romandagi ikki asosiy qahramon: Radion Raskolnikov va Sonya Marmeladovalar bir-birining ichki dunyosini yoritish uchun kerak bo'lgan obrazlardir.

Dostoyevskiy birinchi, roman boshida syujetni tor olgan edi: qandaydir student o'zining sudxo'r kampirni o'ldirib, boyligini o'zlashtirib, onasi, singlisi va o'zining qarzini to'lab, chet elga ketib, u yerda tinchgina yashash haqidagi fikrini yoritmoqchi bo'ldi, lekin Raskolnikovga yondosh obraz qilib Sonyani kiritgandan keyin uning orqasidan bir qancha obrazlar kirib keldi – bular katta bir shaharning kambag'al odamlari edi. Ya'ni jamiyatning eng quyi tabaqasining vakillari. Bu obrazlar romanning hamma muammolarini, Raskolnikovning amalga oshirilmagan g'oyalari haqida yorqin va aniq tushunchalar berishadi.

“Jinoyat va jazo” romanida ijtimoiy, psixologik, falsafiy muammolar bir-biriga qo'shilgan, aralashgan holda sintez qilingan.

### **“Telba”**

“Telba” romanida jamiyat qahramonning ustidan hukm chiqarmaydi, balkim qahramon jamiyat ustidan hukm chiqaradi. Romanning markazida qahramonning ishi emas, qahramonni ham o'z domiga tortayotgan hayot va uning ikir-chikirlaridir. Qahramon hech qachon o'zini yuqori olishga harakat qilmaydi, lekin u atrofidagilardan o'zining bilimi, ichki dunyosi va shuningdek oqilligi bilan yuqori turadi. Asarda oldinda aniqlab qo'yilgan voqealarning oxiri yo'q.



Мышkin o'zining mehribonligiga bu hayot oqimida joy topolmay, yana kelgan joyiga qaytib ketadi (Shveysariya kasalxonasida davolanar edi).

Мышkin – bu ilohiy muhabbatning majmuidir. Bunday muhabbatni oddiy odamlar tushunmaydilar, chunki u judayam buyuk va yuksakdir.

Muallif qahramonni zamonaviy muhokamalarga olib kiradi, lekin knyaz Мышkin o'z g'oyasiga teskari g'oyalarga butunlay befarq bo'lib chiqadi. Мышkin Rossiyadagi hayotga, umuman mantiqqa tushuna olmaydi. Yaxshilik qilmoqchi bo'ladi, natijasi yomonlikka aylanadi. Romanning asosiy mazmuni shundan iboratki, reforma paytida jamiyatdagi ziddiyatlarning kuchayishi, odamlar o'rtasida mehr-muhabbatning orzuga aylanishidir. Romanni mayda syujetik holatlarga qarab emas, balki umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda baholash kerak. romanda ko'tarilgan asosiy muammo – inson o'z ustida ishlab, rivojlanib bormog'i lozim. Bu abadiy, hamma avlodlar oldidagi muammo bo'lib, tarixning asosiy mazmuni bo'lib qoladi.

### **Mavzu: Kirish. Yunon adabiyotining ibtidoiy davri**

Reja:

1. Antik adabiyotning eng qadimgi namunalari
2. Gomerning «Iliada» dostonida aks ettirilgan voqealar
3. Asarda ishtirok etuvchi obrazlar talqini
4. Gomer dostonlarining jahonshumul ahamiyati

### **ADABIYOTLAR**

1. N.Komilov. Tafakkur karvonlari. T., 1997.
2. F.Boynazarov. Jahon adabiyoti. T., 2006.
3. Sh.Normatova. Jahon adabiyoti. T., 2008.
4. A.Alimammedov. Antik adabiyot tarixi. T., 2007.

Yunon xalqi o'rtasida keng tarqalgan rivoyatlarda Orfeydan tashqari yana bir qancha shoirlar: Muze, Evmolp, Tamir, Olen va boshqalar tilga olinadi.

Barcha xalqlarning tarixida bo'lgani kabi, Yunon adabiyoti ham muqarrar, og'zaki xalq ijodi zaminida maydonga kelgan. Tarix saxifalarida Yunon folkloridan juda kam namunalar saqlanib qolgan bo'lsa ham, shularga asosan eski zamonlarda, ibtidoiy qabilachilik davrlarda Yunon xalkining anchagina boy va rango – rang og'zaki adabiyoti – ertaklari, maqollari, matallari, topishmoqlari, qo'shiqlari bo'lganligini aniqlash mumkin.

Yunon mifologiyasining ming – ming yillik tarixi bor. Shu uzoq muddat davomida ijtimoiy ongning o'sishi bilan miflar ham o'zgardi, yangidan – yangi mazmun kasb etdi. Yunon kishisi ibtidoiy qabilachilik sharoitlarda yashar ekan, tevarak - atrofdagi tabiiy xodisalarning hammasini jonli his qilib, shularga sig'inadi, ulardan madad tilaydi, yovuz kuchlarni moyil qilish uchun qurbonlar tuhfa qiladi. Xullas, tabiat xodisalari qarshisida ibtidoiy insonning butun hayoti qurquv va taxlikada o'tgan. Keyin – keyin qabilachilik tizimining yemirila borishi va harbiy aristokrat tabaqalarning kuchayishi natijasida tobora qashshoqlanib ketayotgan quyi tabaqaning ahvoli yana og'irlashadi: ilgarigi vahimalar ustiga boylarning zulmi kelib qo'shiladi. Bu holat

qadimgi insonning diniy e'tiqodlarini ham tamomila o'zgartirib yuboradi. Endi uning tasavvuri yer yuzining hukmronlari qabilada butunlay odam qiyofasida bo'lgan falak hukmronlari - Olimp ma'budalarni yaratadi. Yangi ma'budlar ham podshohlarga o'xshab butun koinotni o'zlarining mulklari qilib olishgan: Zevs – momaqaldiraq hamda bulutlar sultoni ma'budlar ma'budi; Poseydon – dengizlar hukmroni; Aid – oxirat hoqoni; Zevsning raviqasi Gera - osmon ma'budasi, ma'budlar malikasi xomilador xotinlar, kelin – kuyovlar raxnomasi. Zevsning bosh xotini Geradan va boshqa ma'budalardan ko'rgan bir qancha farzandlari ikkinchi darajali ma'budlar qatoriga kiradilar. Bular tubandagilardir: Geradan tug'ilgan birinchi o'g'li Gefest - otash ma'budi, temirchilar piri; ikkinchi o'g'li Ares – qonli urushlar ma'budi; Zulmat ma'budasi Latonadan tug'ilgan o'g'li Apollon - yorug'lik, san'at, she'riyat va qo'shiq ma'budi, ulug' kohin hamda buyuk yoyandoz, uning singlisi Artemida - qamar ma'budasi, o'rmonlar va o'rmonlarda yashovchi jonivorlar malikasi, charchashni bilmaydigan ajoyib sayyoda; Zevsning miyasidan bunyodga kelgan dono va ma'suma Afina – shaxarlar xomiysi; Olimp sultoning zebo qizi Afrodita va uning tirmizak o'g'li Erot - sevgi va go'zallik ma'budlari; parizod Mayyadan tug'ilgan ug'li Germes ma'budlar jarchisi, murdalar ruhini oxiratga kuzatib boruvchi, sayyohlar va savdogarlar himoyachisi, badantarbiya ishlarining raxnomasi; nihoyat har kuni yer yuzidan qorong'ulik ko'tarilishi bilan to'rt uchar ot qo'shilgan olov aravaga o'tirib fozoga parvoz etuvchi Gelios – quyosh ma'budi.

Olimpning ana shu mavjud hukmronlari bir qancha ma'bud va ma'budalarni voyaga yetishida katta rol uynagan. Hayotdagi guzallik ulug'vorlik va doimiy ravishda yashovchanlik odamlar hayotining hususiyatidir.

Masalan ma'budlar o'rtasida bir umr odamlarga yaxshilik ko'rsatuvchi ularning yukini yengillatuvchi ilohiy kuchlar ularni ezgulikka chorlaydi.

### **“Iliada”**

“Iliada” dostoni 15700 misradan iborat juda katta asar. Qadimgi olimlar, Yunon alifbosining soniga qarab, poemani 24 bobga – qo'shiqqa bo'lganlar.

Asar voqealari tavsifiga kirishdan oldin, shoir ilhom parisiga murojat qilib, o'z dostoning bosh mavzui - Axill g'azablarini kuylashda undan madat tilaydi. Poemaning birinchi qo'shig'i shu g'azabning sabablariga bag'ishlangan.

O'n yil bo'ladiki Troya urishi hali bir tomonli bo'lgan emas. Shu davr ichida Iliion aholisi Yunonlarga qarshi jiddiy kurashga o'tlanishdan cho'chib, faqat mudofaa yo'li bilan o'zini himoya qilib keladi, chunki Yunon lashkarlari orasida Fessaliya podshohi Peley va uning xotini - dengiz ma'budasi Fetidaning ug'li Axill ham bor. Yunon paxlavonlaridan birontasi bahodirlikda Axill bilan tenglasha olmaydi. Axill Troyaliklar yuragiga shunchalar vahima solib qo'yganki, shahar darvozasini ochib tashqariga chiqishga ular jur'at etolmaydilar. Troya shaxri ostonalarda lashkargoh qurgan Yunonlar tevarak atrofdagi aholini talash, qiz - juvonlarni asir tushirish bilan ovora. Shunday bosqinchlik paytlardan birida Yunonlar Apollon ibodatxonasining koxini Xrisning qizi Xriseidani asir olib bebaho o'ljani o'z sardorlari Agamemonga tuhfa qiladilar. Ko'p o'tmay Xriseidaning otasi behad – behisob sovg'alar bilan o'z qizini ajratib olish niyatida Yunonlar lashkargohiga keladi.

Axill jangga qatnashishdan bosh tortgach, butun omad birdan Troyaliklar tomoniga og'ib ketadi. Iliion podshoxi Priamning o'g'li Parisning akasi zabardast paxlavon Gektor boshchiligida Troya lashkarlari shahar darvozasini ochib tashqariga chiqadilar. Har ikkala

tomonning bahodirlar o`rtasida yakama –yakka jang boshlanadi. Birinchi bo`lib urishning bosh aybdorlari – Paris bilan Menelay maydonga chiqadilar. Bu jang urishni uzul – kesil bir yoqli qilish kerak; kimda – kim g`olib chiqsa, go`zal yelena hamda Paris o`g`irlab kelgan qimmatbaxo boyliklar o`shaniki bo`ladi. Raqibidan qasos olish alamida o`rtangan Menelayning nayzasi Parisning qalqonini parcha – parcha qilib yuboradi. Sparta podshoxi Troya shaxzodasini joniga qasd qilib, uni sudrab ketayotganida Parisning mexriboni Afrodita yetib keladi-da, o`z seviklisini qop – qora bulutlarga chulg`ab dast ko`targanicha Troya ichkarisiga, yelenaning yotog`iga qochirib keladi.

Biroq taqdirning amriga, Zevsning Fetidagi bergan va'dasiga ko`ra Yunonlarning yengilishi, troyaliklarning g`olib chiqishi lozim edi. Omad birdan Gektor tominiga og`ib, troyaliklarning qo`li balandlashib ketadi. Yunonlar orqaga chekinib, sarosima ichida o`z kemalari tomon qochadilar; troyaliklar gektor boshchiligida ularni izma – iz quvib boradilar, kech kirib qorong`u tushishigina Yunonlar joniga oro kiradi. Troroyaliklar g`alaba gashtini surib, butun tunni shod - xurramlikda o`tkazadilar. Yunon lashkargoxi axllarning kayfiyati aksincha, juda parishon, juda parishon bo`lgan.

Gomer ushbu dostonida kurashchan xalq va Axillning jang maydonida olib borgan kurashlarini tasvirlaydi. Dostonning yakunida jang qahramonlarining mardona vafot etishi bilan yakunlanadi.

### **Mavzu: Attika davri (eramizdan avvalgi V-IV asrlar)**

#### Reja:

1. Davrning ijtimoiy xarakteri
2. Tragediya janri
3. Mashhur vojjialanist shoirlar
4. Sahna asarlarining yashovchanligi

#### **Adabiyotlar:**

- 1.Sh.Normatova. Jahon adabiyoti. T., 2008.
- 2.Esxil. “Zanjirband Prometey”. M., 1990.
- 3.Sofokl. “Shoh Edip”. T., 1997.
- 4.F.Boynazarov. Jahon adabiyoti. T., 2006.
- 5.F.Boynazarov. Antik adabiyot. T. 1994.

Eramizdan oldingi V asrning dastlabki yillarida boshlangan qizg`in ishtimoiy va siyosiy voqealar - Yunon elining eski ibtidoiy tuzimidan asta-sekin sinfiy davlatga aylanib borishi, mamlakatda demokratik harakatning tobora mustaxkamlanishi, Eron - Yunon urushlari yillarida mislsiz milliy birdamlik va dushman ustiga g`alaba qozonish ishtiyoqi, nihoyat, urushdan keyingi ijtimoiy va madaniy ko`tarilish - o`z ifodasini hammadan ko`ra ko`proq Esxil ijodida topadi.

Barcha Yunon adiblar singari, Esxilning hayotiga doir ma'lumotlar ham tarixda juda oz saqlanib qolgan. Binobarin, ulug` drammaturgning hayoti haqida to`laroq mulohaza yuritishning imkoni yuq. Shoir taxminann 525 – 524 - yillarda Elivsin

shaxrida aszoda aristokrat oilasida tug`iladi, o`smirlik chog`larida yirik – yirik ijtimoiy va siyosiy hodisalarning shohidi bo`ladi, 15 yoshga yetar – yetmas afinaliklarni shiddatli kurashlar natijasida tiranlik saltanatining ag`darilishi, shundan keyin demokratlar bilan aristokratlar o`rtasida boshlangan keskin janglar va nihoyat, demokratik tuzimning tantana qozonganini shoir o`z ko`zi bilan ko`radi. Esxil Eroniyarga qarshi olib borilgan ulug` muxorabadan ham chetda qolmaydi: Marafon va Plateya shaharlaridagi, Salamin orolidagi qirg`in janglarda faol qatnashdi.

Esxil ijodining dastlabki mahsuli “Iltijogo`ylar” tragediyasidir. Asarning voqeasi podshox Danaining ellikta qizi haqidagi “Danaidalar” afsonasidan olingan. Danaidalar ellikta amakivachchalari, podshox Egiptning o`g`ilari ularni zo`rlik bilan xotinlikka olmoqchi bo`ladilar. Shaxzodalarning surbetligidan nafratlangan Danaidalar otalari Danay bilan birga panox axtarib Yunonistonning Argos shaxriga, podshoh Pelasg yurtiga kelishadi. Pelasg alamdiydalarga yordam ko`rsatishga tayyoru, ammo fuqarodan bemaslahat ish tutishga andisha qilib, ularning iltimosini Argos aholisiga havola etadi. Xalq danaidalarining iltimosini bajonidil qabul qiladi. Shu asnoda Egipt bolalari ham Argosga yetib kelib qizlarga elchi yuboradilar. Podshoh Pelasg dinaidalarini himoya etishga tayyor ekanligini aytgach elchi shaxar ustiga lashkar tortib kelishini pisanda qilib, dag` – dag`a bilan orqasiga qaytadi. Biroq xavf - xatar bartaraf qilingani bilan qilarning ko`nglidan dilgiriklik ko`tarilmaydi. Asarning oxirida kanizaklar xori Afroditaning ulug` qudrati madhini qilib “qizlar o`zlarining o`jarliklari bilan ma`budani ranjitib qo`ymasmikan”, degan mulohazani izhor etadi.

“Iltijogo`ylar” tragediyasi aslda uch qismdan iborat bo`lib uning keyingi qismlari bizga qadar yetib kelmagan. Ammo sarkash qizlar haqidagi afsonani intihosi ma`lum: yigitlar zo`r Bilan nihoyat danaidalarini xotinlikka olishga muyassar bo`ladilar, biroq alamzada qizlar nikox kechasi qasos olib, kuyovlarni o`ldiradilar. Faqat Gipermestra degan bir danaidagina bunday og`ir jinoyatga jur`at qilolmay, erini omon qoldiradi.

Nihoyat, mifning xotima qismida lafzidan qaytib, opa-singillariga xiyonat qilgan Gipermestra ustidan sud haqida gapiriladi; Gipermestrani o`z himoyasiga olgan Afrodita sevgi, nikoh haqida jo`shqin so`z aytib gunohkorni oqlaydi. Olimlar, Trilogiyaning bizga qadar yetib kelmagan qismlarining mazmuni shu miflarning mazmunidan iborat bo`lsa kerak, deb taxmin qiladilar.

“Eroniyalar” tragediyasi bizga qadar yetib kelgan shu janrdagi Yunon adabiyotining jamiki yodgorliklari orasida zamona mavzuida yozilgan yakka-yu yagona asardir. Yaqinginda bo`lib o`tgan va shoirning o`zi bevosita qatnashgan Eron – Yunon urushi tragediyaning asosiy mavzuyi.

Voqea Eron shoxi saroyida kechadi. Taxtning sadoqatli keksalaridan iborat xor to`dasi saltanatning ulug`ligi, podshox Kserks boshchiligida Yunon urushiga jo`nagan son – sanoqsiz Eron lashkarlarining qudrati haqida kuylaydi. Keksalarning so`zida shu bilan birga uzoq va notanish yurtga safar qilgan lashkarlarning taqdiridan tashvishlanish sadjolari ham eshitaladi buning ustiga podshoxning onasi Atossaning tahlikali tushlari qo`shilib, tashvishni yana ham kuchaytiradi. Xor malikaga murojaat qilib marxum eri podshox Doroning arvoxini chaqirishni va undan madad tilashni so`raydi. Xudi shu payt kserks lashkargoxidan bir chopar keladi-da, Salamin shahrida bo`lib o`tgan dahshatli janglar natijasida Eron flotining tor – mor etilganini, son – sanoqsiz lashkarlarning qirilganini xabar qiladi.

“Eroniyalar” tragediyasi - Eron - Yunon urushiga atab yozilgan, ammo bizga qadar to'la holda yetib kelmagan trilogiyaning ikkinchi qismidir. Qo'limizdagi tragediya mazmun jihatidan tamomila yaxlid va mustaqil asar bo'lsa kerak. Drammatik kurilish bobida “Eroniyalar” ham oldingi tragediya singari lirika bilan drama o'rtasida turadigan bir asarga o'xshaydi, chunki bu ham asosan lirik ohangdagi xor qo'shiqlaridan tarkib topgandur.

“Fivaning yetti dushmani” tragediyasi Edip haqidagi mifdan olinib yozilgan trilogiyaning uchinchi qismi bo'lib, oldingi ikkinchi qismi -“Lay”, “Edip” tragediyalari bizga qadar yetib kelmagan Fiva shahri afsonalarida hikoya qilinishicha, podshoh Lay, qohinlarning karomatidan qo'rqib, o'zining endigina tug'ilgan o'g'li Edipni xizmatkorga topshiradi va uni o'ldirib o'ligini yirtqich hayvonlarga tashlashni buyuradi. Ammo xizmatkor chaqaloqqa achinib, uni yashirincha boshqa yurt podshohiga eltib beradi. Trilogiyaning birinchi qismi - “Lay” tragediyasining mazmuni manna shu voqeadan iboratdur.

Evripid Gretsiyada quldorlik demokratiyasi davrining inqirozga yuz tutgan davrida ijod qildi. yevripidning o'zi yashagan davridagi tuzimga tendentsiuz davrining shoiri bo'lib tanildi. U antik dunyoning ayrim tizimlariga tanqidiy munosabatda bo'ldi. Evripid tragediyalarining asosiy xususiyatlari mifalogik syujetning kamayishi psixologik xususiyatlarining chuqurlashuvi inson ichki dunyosiga e'tiboran natijasida ommaviy ijrolarning kamayishi bilan xarakterlanadi. Evripid tragediyalari o'zining soddaligi va ravonligi bilan xalqning diliga yaqinligi bilan ajralib turadi.

U o'zidan oldingi mashhur tragediyanavislarning an'alarini davom ettirdi. Evripid, rivoyatlarning naql qilishiga ko'ra, eramizdan oldingi 480-yilda, xuddi Yunonlar eron ustidan g'alaba qozongan kuni Afina yaqinidagi Salamin orolida o'rta hol oitlada dunyoga keladi, yaxshigina bilim oladi. Shu davrning atoqli faylasuflari Sokrat, Anaksagor, Arxelay, sofistlardan Protagor hamda Prodik Evripedning yaqin do'stlari bo'lganlar. Zamondoshlarining aytishlariga qaraganda shoir, o'z davridagi kundalik ijtimoiy siyosiy harakatlarga qotishmasdan, ilm, fan, san'at, adabiyot va falsafa bilan shug'ullanib tinchgina umr kechirishni avzal ko'rgan. Biroq shoirning xilvatnishin tabiati zamonasining ilg'or g'oyalari bilan arobar qadam tashlashiga, asarlarida shu g'oyalarni yorqin aks ettirishiga va demokratiyaning mustahkamlash yulida qalam bilan astoydil kurashuviga xalaqit bergan emas. Evripedning tragediyalaridagi progressiv fikrlariga dramaturgiyalariga kiritgan yangiliklariga Afina jamiyatining konservativ guruxlari Tish, tirnoqlari bilan qarshilik ko'rsatdilar. V asr oxiridagi komediyanafislar shoirga ayniqsa ko'proq ta'na va malomatlar yog'diradilar, bexayolik bilan uni masxara qiladilar. Masalan Aristofan, Evripedning otasi chakana boqqol, onasi rezavorchi, xotini buzuq bo'lgan, deb shoirga dashnom bergan. Ehtimol, anna shu og'ir sharoitlarda Afinada yashashning ortiq iloji qolmaganligidandirki, Evripid o'lmasdan ilgari Makedoiniyaga ko'chib ketadi va 406 yilda shu yerda dunyoda dunyodan o'tadi. Keyingi vaqtlarda Evripidning tarjimaiy holini yozgan ba'zi kimsalar, marxumni go'rida ham tinch qo'ymasdan uning o'limi haqida tirikligidagidan ham battar bo'xdonlar tarqatadilar, shk toifa uydurmachilardan bir xillarining aytishicha shoirni guyo itlar talab o'ldirgan, ikkinchilarining ta'biriga qaraganda, Evripid o'z asarlarida xotin jinsini yomonlab ko'rsatgani uchun alamzadalar undan intiqom olib toshbo'ronda tilka – tilka qilib tashlashgan emish.

O'z ijodiy faoliyati davomida Evripid nihoyatda mashhur bo'lgan Esxel, Sofokl ham uning shuhrati darajasiga ega bo'lolmaydi. U jami 92 ta tragediya yozgan shulardan bizgacha 17 tasi yetib kelgan.

“Alkestida”, “Mediya”, “Geraklidlar”, “Ipollidlar”, “Gekuba”, “Gerakl”, “Iltijoguyalar”, “Troyalik ayollar”, “Elektra”, “Ion”, “Ifigeniya Tavridada”, “Yelena”, “Andromaxa”, “Finikiyali qizlar”, “Orest”, “Vakx qizlar” va boshqa asarlarni yaratdi.

Evripidning - “Medeya” tragediyasi Yunon sahnasida yangilik bo'ldi desak yangilishmagan bo'lamiz. Shoir bu asarni “Argonavtlar” afsonasidan olgan. Asar qahramonlari “Argo” nomli kemaga tushib uzoq Kolxida eliga jo'naydilar. Og'ir mashaqqatlar va son – sanoqsiz xavf – xatarlardan keyin ular nihoyat manzilga yetib keladilar. Bu yerda podshoh Etning qizi, quyosh ma'budi Geliosning nabirasi sehrgar Mediya Argonavtlar sardori Yazonni sevib qoladi. Malikaning yordami bilan Yazon bir qancha tilsimlarni ochib, mushkulotlarni yengib, necha bora o'limlardan qolib, oltin yapoqni qo'lga kiritadi. Medeyaning Yazonga bo'lgan muhabbati tufayli butun borlig'idan ota – onasi va qarindosh urug'laridan voz kechadi. U o'zining akasini o'ldiradi, Yunonistonga kelgach erini taxtga o'tkazish maqsadida mamlakat podshohi Yazonning amakisi Peleyni ham ayamaydi. Medeya xurlangan muhabbat va rashk fojeasidir. Bu asarda Medeyaning g'am va anduhlari nafrat va g'azablarida ko'rinadi. U nihoyatda qobiliyatli shaxs sifatida gavdalanadi. U sabod va matonat bilan o'zining baxt saodati uchun kurashadi. Evripid asar qahramoning sarguzashtlarini hikoya qilar ekan nohaq tahqirlangan dilning isyoni tarzida tasvir etadi. Medeyaning qalbida birinchi navbatda ona unin yuragida o'z farzandiga nisbatan doimo mehr jilovlanib turadi.

Aristofan komediya janrida mashhur bo'lgan ma'lumki komediyana vislar turli harakatlar bilan tomoshabinni kuldirib hayotda kam bo'lsa ham uchrab turadigan manfiy hodisalarni yuqotish uchun kurash olib boradi.

Aristofanning shaxsiy xayoti haqida biz deyarli hech narsa bildirmaymiz, ba'zi manbalarning aytishiga qaraganda shoir, taxminan, eramizdan oldingi 445-yilda Attika viloyati yaqinidagi Egina orolida tug'ilgan va Afina davlatining fuqarosi bo'lgan. Aristofan o'zining adabiy faoliyatini juda erta boshlaydi va 20 yoshga yetar-yetmas komidiyanavislar musobaqasida qatnashib ikkinchi o'rinni egallaydi. Qirq yilcha davom etgan adabiy faoliyati davrida shoir hammasi bo'lib taxminan 40 dan ortiq asar yozgan. Mazkur asarlardan bizga qadar to'la xolda 11 ta komediya yetib kelgan. Olimlarning taxminiga ko'ra, shoir 385-yilda dunyodan o'tadi.

Aristofanning bizga qadar yetib kelgan bizga qadar yetib kelgan dastlabki asarlaridan biri “Axarnliklar” komediyasidir. Endigina adabiyotga qadam qo'yan yigirma yoshlik shoir shu asarlaridayoq zamonasining eng aktual masalalaridan biri bo'lgan urush va tinchlik haqida bahs etadi. Peloponnes urushining boshlanganiga olti yil bo'lgan, shu yillar mobaynida Afinaliklarning ko'rgan talofatlarining hisobi yo'q. Son sanoqsiz odamlar o'lgan Attika viloyatining ekinzorlari bog'lar payxon qilingan mamlakatda ovqat tanqisligi vabo kasalliklari boshlangan.

“Tinchlik” komediyasi Peloponnes urushining o'ninchi yilida (421) yozilgandir. Uning syujeti unchalik murakkab emas: Trigej degan Attikalik oddiy bir dehqon urushni bartaraf qilish niyatida bir gungqo'ng'izni boqadida katta bo'lgach uni minib, Olimp tog'iga, ma'budlar huziriga arzga jo'naydi biroq bu yerda Germesdan o'zga bironta ma'bud yoki ma'budani topa olmaydi. Germesning aytishiga qaraganda, hamma ma'budlar odamlarning uzluksiz urushlaridan achchig'lanib osmonga uchub ketishgan emish, Olimp

tog`ida esa yakka yolg`iz hukmron bo`lib faqatgina muhoraba ma'budi Polemos qolibdi, u tinchlik ma'budasi Irinani g`orga qamab, g`or og`zini kattakon xarsang tosh bilan berkitib tashlabdi. Trigei chaqirib ularning ko`magida tinchlik ma'budasini tutqunlikdan qutqarishga moyassar bo`ladi, yer yuzida baxtiyor va shodiyona o`rnatiladi.

Aristofan ijodiga mansub asrlardan biri "Lisistrata" komediyasidir. Bu komediyada Peloponnes jangining 20-yili Yunon tuprog`ida yashovchi xalqning xalokat yoqasiga kelib qolgan davrida yaratiladi. Ayollarning hammasi Lisistrataning pand nasixatlariga kirib, Akropolga bekinib oladilar. Jangdagi ayollar qattiq qarshilik ko`rsatib nihoyat tinchlik o`rnatadilar.

Aristofan komediyalarining mazmuni, g`oyasi bir – biriga yaqin, asar qahramonlari sodda va xushyor dehqonlardir.

Asarda ishtirok etuvchi Dikeopal ham, trigei ham nihoyatda shijoatli va g`ayratli kishilar qilib ko`rsatiladi.

Shoirning Afina demokratik boshqaruv usuliga bag`ishlangan eng yaxshi asarlardan biri "Suvoriylar" dir. Bu asar Kleonga qarshi yoziladi. Aristofan Peloponnes urushining barcha kulfatlarini Kleondan kuradi. U haddan ziyoda ortib ketgan bo`lsada shoir uni yengil kulgu ostiga olishdan to`xtamaydi. Komediyaning voqeasi Demos nomli nihoyatda laqma, garang, keksalikdan zehni xitlashib qolgan bir cholning eshigi oldida kechadi. Hayotda uchrab turadigan hiyla nayranglar xushomadgo`ylik va til yog`lamalik yullari bilan bu cholni o`zlariga og`dirib oladilar. Demosning ikkita sodiq quli mavjud bo`ladi. Zolimlarning zulmini ko`p chekan ikkita qul o`z dushmanlarini yuqotish izmiga tushadilar, ular jangovor qushiqlar kuylab Kleonni ur kaltak qilishga da'vad etadilar shundan so`ng qazifurush bilan Ko`nchi o`rtasida janjal, jiqqillashshish, mushtlashish boshlanib ketadi. Yozuvchi g`animlarning daxanaki janglari orqali Kleonning siyosat bog`idagi jinoyatlarini ochib tashlaydi. Suvoriylar komediyasi haqqatdan ham Aristofan asarlari orasida eng yaxshilaridan biridir.

Aristofanning biz taxlil qilib o`tgan keyingi asarlari "Qurbaqalar", "Xalq majlisidagi ayolalar" shakl va mazmun jixatidan shoirning dastlabki asarlaridan allaqachon farq qiladi.

Qadimgi olimlar komediyaning yangi turini "O`rta" komediya deb ataganlar.

"O`rta" komediyaning avtorlari endi o`z asarlarida voqealarni murakkablashtirishga, afsonaviy mavzulardan qochib ko`proq kundalik tirikchilikda uchraydigan oddiy xodisalar chunonchi, manjalaqi, xotinlarning kirdikorlari, otabezor shalaq va isrofgar o`g`illarining qilmishlari haqida gapiradilar. Zamona kishilarning sirlarini ochib sharmanda qilish hamon davom etadi - yu biroq endigi odamlar Aristofanning dastlabki asarlaridagi Kleon singari zo`ravonlar, Sokrat singari mashxur zotlar emas, balki o`zlarining Biron qiliqlari bilan rvoza taratgan shaxslar, masalan, satang xotinlar, ishparast erkaklar, aldanchi tabiblar, xulosaxo`r oshpazlar va hokozi kabilar bo`lgan. Qadimgi komediyaning eng zarur qismlaridan biri hisoblangan xorning doirasi asta sekin torayib bora – bora butunlay yo`qolib ketadi.

"O`rta" komediya Peloponnes urushning oxirgi yillarida paydo bo`lib Makedoniyalik Aleksandr saltanati boshlangan (404-336) davrlarga qadar yashab keladi.

Bu vaqt ichida Yangi oqim komediyanavislikni benihoyatda ko`p vakillari ijod qiladilar shular orasida eng yiriklari Antefan, Aleksid degan shoirlar bo`lgan. Biroq ular yozgan asarlarning quriq nomlaridn va kichik - kichik parchalaridan tashqari bizga qadar bironta to`la komediya yetib kelgan emass.

“O`rta” komediyaning muxim mohiyati shundaki keyinchalik IV asrning oxirlari va ellinizm davrinig boshlanishida komediyanavislikning bu turi “Yangi” komediya deb atalgan boshqa bir oqimning paydo bo`lishiga kuchli ta'sir ko`rsatgandir.

### **Mavzu: Ellinizm va Rim hukmronligi davri Yunon adabiyoti. Rim adabiyoti.**

Reja:

1. Evripid ijodining sermahsulligi
2. Shoir asarlarining xarakterli xususiyatlari
3. “Medeya” tragediyasida aks ettirilgan voqealar
4. Aristofan komediyalari

#### **Adabiyotlar**

- 1.Sh.Normatova. Jahon adabiyoti. T., 2008.
- 2.F.Sulaymonova. “Sharq va G`arb”. T., 1997.
- 3.N.Komilov. Tafakkur karvonlari. T., 1997.
- 4.M.Sitseron. “Maktublar”. T., 1992.
- 5.F.Boynazarov. Jahon adabiyoti. T., 2006.

Eramizdan oddingi II asrning kirishidan boshlab, dastavval Yunonistonning Sitsiliyadagi mustamlakalari, keyinroq Yunon tuprog`ining o`zi Makedoniya davlati va, nihoyat, Sharqdagi barcha ellinizm mamlakatlari birin-ketin Rim imperiyasiga taslim bo`ladilar. Yunonistonni zabt etgan Rim istilochilari yavgi mustamlakaning iqtisodiy boyliklari bilan bir qatorda uning bemisl madaniy boyliklaridan ham bahramand bo`ladilar. Harbiy sohada mag`lubiyatga uchragan Yunonlar o`zlarining yuksak ilm-fanlari, falsafa sohasidagi ulug` ta`limotlari san`at va adabiyot bobidagi yutuqlari bilan g`oliblarni maftun etadilar. Vatan mustaqilligiga xotima qo`yilgandan keyin, Yunon madaniyatining birmuncha atoqli zotlari o`zlarining vayron bo`lgan yurtlarini tashlab, Rimga ko`chib ketadilar va lotin xalqining ma`naviy ongini oshirish, uning madaniyatini yaratish ishiga juda katta hissa qo`shadilar. Masalan, uzoq yillar davomida Rimdagi ritorika, grammatika va falsafa ta`limotlariga faqatgina Yunonlar rahbarlik qiladilar; Rim tarixining juda ko`p sohalarini oydinlashtirgan kishilar ham mashhur Yunon muarrihlari Polibiy, Appian, Dion, Kassiy, Plutarx va boshqalar bo`lgan. Rim madaniyati arboblarning o`zlari ham zo`r berib Yunon falsafasi va adabiyotini targ`ib qiladilar. Yunoniston ilm-fanining o`chog`i - Afina shahriga borib tahsil ko`rish - o`qimishli har bir Rim kishisining orzusiga aylanadi. Biroq Rim davlatiga qaram bo`lib qolgan Yunon xalqining ahvoli, aksincha, tamomila og`irlashib ketadi. Rimliklar, garchi, Yunonlarning ichki ishlariga unchalik aralashmagan, shahar davlatlarining mustaqilligiga ortiqcha dahl qilmagan bo`lsalar ham, yerli aholi, ayniqsa, uning bechorahol tabaqalari mag`lubiyatning mudhish oqibatlarini tez kunda og`ir his qila boshlaydilar. Rim davlati o`zining hamma mustamlakalari singari Yunonistonga ham, asosan, daromad manbai deb qarar edi. Shu sababli istilochilar tomonidan tayinlangan ma`murlar yerli xalqni shafqatsiz ezib, mamlakat boyliklarini istaganlaricha talaydilar. Bosqinchilarning jabru jafosini faqatgina jamiyatning quyi tabaqalari tortadi. Mustamlakachilarga hayrixohlik ko`zi bilan qaragan davlatmand guruhlar esa ular bilan birgalashib o`z xalqlariga zulm o`tkazadilar. Bundan



tashqari, eramizdan oldingi II asrning o'rtalarida Rim tuprog'ida boshlangan qonli ichki urushlar munosabati bilan Rim sarkardalari Yunon yoshlarini beto'xtov harbiy xizmatga safarbar qiladilar; Yunonistonning o'zida ham tez-tez qirg'in janglar bo'lib turadi.

Mustamlakachilarning zulmidan qutulish maqsadida Yunon xalqi Rim hukmronligiga qarshi necha bora qo'zg'olon ko'taradi, biroq bu qo'zg'olonlar har safar shafqatsiz ravishda bostiriladi, behad-behisob odamlar qatl etiladi, katta-katta obod shaharlar yer bilan; yakson qilinadi. Ketik ko'rinmagan urushlar natijasida son-sanoqsiz odamlarning qirilishi, og'ir soliqlar yuki ostida deeron xo'jaligining vayron bo'lishi-mamlakat iqtisodini tamomila tanazzul yoqasiga keltirib qo'yadi. Ro'zg'orlari barbod bo'lgan dehqonlar tirikchilik o'tkazish maqsadida gala-gala bo'lib shaharlar tomon yo'l oladilar va shahar aholisining asosiy qismini tashkil qilgan qullar to'ldasiga qo'shib, tasodifiy xayr-sadaqa bilan kun kechira boshlaydilar. Yunon elining mashhur zotlari-olimlar, shoirlar, faylasuflar, haykaltaroshlar va madaniyatning boshqa turli-tuman arboblari halokatli inqiroz talvasasida to'lg'anayotgan vatanlarini tashlab, Rimga ko'chib ketadilar, bir mahallarda jo'sh urib gurkiragan azim shaharlar xarobaga aylanib bo'm-bo'sh huvillab qoladilar. Bu musibatlarining barchasi, ya'ni iqtisodiy tanglik, mehnatkash ommaning og'ir ahvoli, eski demokratik tartiblarning tor-mor qilinishi, quldorlik sistemalarning tobora chirib borishi - Yunon jamiyatining hamma tabaqalarida parishonlik, umidsizlik va ertangi kunga ishonmaslik kayfiyatlarini avj oldiradi va bu tariqa ruhiy tushkunlik holatlari o'z navbatida taqvodorlik tuyg'ularini chuqurlashtirib, g'ayri-tabiiy hodisalarga, har xil karomat va mo'jizalarga e'tiqod bog'lash, ma'budlardan najot kutish hislarining kuchayishiga sabab bo'ladi. Bu davrning deyarli jamiki falsafiy ta'limotlariga mansub mutafakkirlar o'z asarlarida, va'z-nasihatlarida asosan oxirat haqida, inson peshanasining sho'rli haqida muhokama yuritib, odam bolasini sabr-qanoatga, taqdir qarshisida tiz cho'kishga chaqiradilar. Ma'budlar muruvvat qilmasa, musibatlardan qutulishning aslo iloji yo'q, degan tushuncha har bir kishining ongiga mahkam o'rnatilgan qoladi, ular betoqatlik bilan biron mo'jizaning yuz berishini kutadilar.

Yunon eli o'rtasida avj olib ketgan bu tariqa ma'naviy qashshoqlik madaniyatning barcha sohalariga bir tekisda ta'sir etadi. Ilm-fan ilgarigi jiddiy va chuqur tadqiqotchilik xususiyatlarini yo'qotib, o'tmishdagi bilimlarni takrorlovchi yuzaki mashg'ulotdan nariga o'tmaydi. Yunon adabiyoti esa bir mahallardagi dovrug'idan ayrilib, unchalik ahamiyati bo'lmagan viloyat adabiyotiga aylanib qoladi. Yunon kishilari endilikda faqat o'zlarining qadimgi yuksak san'at va adabiyotlari zavqi bilan yashaydilar. O'tmish adabiyotiga tahsin ko'zi bilan qarash, shu adabiyotning an'analarini qayta tiklashga intilish - davrning asosiy xususiyatidir.

## PLUTARX

Uzoq kechmishning ixlosmandi muhibi, Rim davri Yunon adabiyotining eng yirik vakillaridan biri Plutarxdir. Yozuvchi taxminan eramizdan keyingn 46- yilda Beotiya viloyatidagi Xeroney shaharchasida tug'iladi. Uning ota-bobolari shu yerning aslzoda xonadonlariga mansub o'qimishli odamlar bo'lgan. Plutarxning o'zi ham zamonasining ilmiy fan, san'at va adabiyot o'chog'i hisoblangan Afina hamda Iskandariya shaharlarida tahsil ko'rib, har tomonlama yuksak madaniyatli kishi bo'lib yetishadi; yumshoq tabiati, olihimmat xulqi tufayli hamshaharlari qoshida tobora martabasi ortib, yuksak lavozimlarga erishadi, mustamlaka ma'murlari ham unga chuqur ehtirom va

hurmat ko'rsatadilar, bir necha marta Rimga safar qilib, u yerning atoqli davlat arboblari, madaniyat ahllari bilai oshnolik bog'laydi. Biroq yozuvchi o'z hayotining asosiy qismini kitobxonlikka, qalamkashlikka bag'ishlab, tug'ilib o'sgan shahri Xeroneyda, yor-do'stlari, shogirdlari o'rtasida o'tkazib, 120-130-yillar orasida vafot etadi.

Qadimgilar Plutarx ijodining nihoyatda rango-rang va serunum bo'lganligini, yozuvchi 225 tadan ortiqroq asar qoldirganini xabar qiladilar. Ana shu salmoqdor adabiy merosdan bizga qadar 150 tasi yetib kelgandir. Olimlar mazkur asarlarni, asosan, ikki guruhga ajratib tahlil qiladilar. Bulardan birinchisi - axloqiy asarlar, ikkinchisi - hayotnomalardir. Birinchi guruhga kiradigan asarlarni «axloqiy» deb atash ularning mazmuniga unchalnk to'g'ri kelmaydi, chunki bularning ko'pchiligi falsafiy mavzularda, tarix hamda adabiyot masalalari haqida yozilgan katta-kichik maqolalardan iborat asarlar bo'lgan. Bu maqolalar orasida biz, shuningdek, siyosat, din, ta'lim-tarbiya, hifzi - sihat, musiqa va boshqa masalalarga doir asarlarni ham uchratamiz. Biroq, shu bilan birga, birinchi guruhga kiradigan asarlarning asosiy qismini, albatta, axloq masalalariga aloqador maqolalar tashkil qiladi. Bu toifa asarlarda yozuvchi odam bolasining kundalik hayot doirasidagi barcha vazifalari yuzasidan maslahatlar berib, mahmadonalik, tama'girlik, yasama uyatchanlik, badjahllik va shu kabi yaramas nuqsonlardan qutulish; yor-do'stlik, aka-ukalik, er-xotinlik munosabatlari va boshqa yaxshi xislatlarni mustahkamlash yo'llarini ko'rsatadi. Plutarxning tushunchasicha, yer yuzidagi yaxshilik va yomonliklarning hammasi odam bolasining fe'l-atvoridan tug'iladi. Binobarin, har bir inson doimo barkamollikka intilib, himmat va sahovatda beillat bo'lmog'i darkor. Bu boradi dilga davo, ehtiroslarga shifo beradigan birdan-bir malham - falsafadir. Plutarx falsafaning tarbiyaviy qudratiga juda katta e'tibor bergan bo'lsa ham, bu sohada uning o'zi muayyan bir ta'limot yaratgan ijodkor emas, uning asarlarida talqin etilgan falsafiy va, shuningdek, axloqiy masalalarga doir mulohazalarning hammasi turli-tuman mutafakkirlar, olimlar va, umuman, qalam ahllarining kitoblarini qunt bilan mutolaa qilish natijasida orttirilgan bilimlarning mevasidir. «Axloqiy asarlar» turkumiga kirgan maqolalarniig deyarli har birida yozuvchi ayrim masalalar yuzasidan qadimgi faylasuflarning fikrlarini bayon qilib, yo bo'lmasa ularning asarlaridan parchalar ko'chirib, shu yo'sin o'zining fikrlarini isbotlashga tirishadi. Plutarx yangi zamonda o'zining axloqiy asarlari bilan emas, balki **«Qo'shaloq hayotnomalar»** deb ataluvchi tarixiy asarlari bilan keng shuhrat-qozongan. «Qo'shaloq hayotnomalar» Yunon va Rim olamida o'tgan tarixiy shaxslar o'rtasidagi biron muhim o'xshashlik, mushtaraklik alomatlariga ko'ra juft-juft qilib yozilgan hayot qissalaridan iborat asarlardir, ya'ni yozuvchi har bir juft hayotnomaning bittasida - Rim, ikkinchisida - Yunon kishisi haqida hikoya yuritib (masalan. Tezey bilan Romul. Demosfen bilan Sitseron, Iskandar bilan Yuliy sezar va hokazolar), «muqoyasa» deb ataluvchi maxsus xotima qismida ularning o'rtalaridagi yaqin o'xshashliklarni bayon qiladi. Bu hayotnomalar garchi juft-juft yozilib, tarixiy shaxslarning xislatlari alohida boblarda umumlashtirilgan bo'lsa ham, har qaysi qissa o'z holicha. tugallangan yaxlit asardir.

Ana shunday qo'shaloq hayotnomalardan 23 tasi yoki toq-toq olinganda 46 tasi bizga qadar yetib kelgan. Bulardan tashqari, shu toifa asarlar Orasida yana to'rta atoqli arbobning juftlanmasdan yozilgan qissalari ham bor. Binobarin, bizga qadar yetib kelgan qissalarning soni hammasi bo'lib 50 taga boradi.

«Qo`shaloq hayotnomalar» tarixiy jihatdan g`oyat ahamiyatli asarlardir. Chunki yozuvchi mashhur zotlarning hayoti tasvirida eng qadimgi zamonlardan tortib to o`zi yashagan davrlarga qadar bo`lgan Rim va Yunon tarixining muhim paytlarini ham bayon qiladi. Shu bilan birga, Plutarxning asari mustaqil ilmiy tadqiqotning mahsuli bo`lmasdan, turli-tuman yozuvchilarning asarlaridagi ma`lumotlar asosida yozilgan asardir. Plutarx foydalangan ko`pchilik manbalar «Qo`shaloq hayotnomalar» kitobidan boshqa yerda hech qanday iz qoldirmasdan, nom-nishonsiz yo`qolib ketgan. Shu sababli bu asar o`shalar to`g`risida ham ma`lumot beradi. Biroq, shu narsani ham qayd etib o`tish kerakki, Plutarxning tavsifida ba`zi bir tarixiy voqealarni noto`g`ri talqin qilish hodisalariga ham duch kelamiz. Bu holat, asosan, kitobni yozishda ko`zda tutilgan maqsadlar iatijasida sodir bo`lgan kamchiliklardir. Chunki «Qo`shaloq hayotnomalar» muallifini ko`proq qiziqtiradigan narsa tarix emas, yana o`sha axloq masalalari bo`lgan. Yozuvchi tomonidan tasvir etilgan har bir qahramon yaxshilik yoki yomonlik iamonasi sifatida kitobxonga ma`naviy ta`sir ko`rsatishi lozim edi. Iskandar biografiyasining ilova qismida Plutarx o`zining tarixga qanday qaraganligini aytib, tubandagilarni yozadi: «Biz tarix emas, hayotnoma yozayotirmiz, ba`zan eng sharaflilar orqali ham xislatlar yoki nuqsonlarni aniqlab bo`lmagani qolda, qonli janglar, buyuk muhorabalar, qamal qilingan shaharlardan ko`ra, arzimagan ish bir og`iz gap, shunchaki aytilgan hazil-mutoyiba odamlarning xarakterini chuqurroq ochadi... Agar joiz ko`rilsa, ulug` ishlar va muhorabalar tavsifini boshqalarga havola qilib, ruhiy holatlarni chuqurroq ochishga va shular orqali har kimsaning hayotini tasvirlashga kirishamiz». Plutarx, darhaqiqat, tarixiy jihatdan muhim bo`lgan voqealarga butunlay e`tibor bermasdan yoki ularga xiyol to`xtalib, aksar vaqt qahramonning tavsifini kuchaytiradigan kichkina faktlarni, hatto kezi kelganda, latifaomuz rivoyatlarni, mish-mish gaplarni asarning to`qimasiga kiritib yuborishni afzal ko`radi. Xullas, sal-pal surtib ketilgan bo`yoqlar, mayda detallar yordami bilan qahramonning yorqin qiyofasini chizish va shu yo`sin uning ichki dunyosini, tabiatini ochish - Plutarx ijodining asosiy usulidir. Axloq talablari bilan taqozo etilgan bu usul ko`pincha yozuvchini odob prinsiplari to`g`risida uzoq mulohazalar yuritishga, qahramonlarning ibrat kuchini oshirish maqsadida ularni ideallashtirishga majbur etadi. Umuman olganda, Plutarx qadimgi zamonlarda o`tgan arboblarni barkamol, dov yurak, jonkuyar, kamsuqum, vatanparvar, erksevar qilib tasvirlashni yaxshi ko`radi. Yuqorida qayd etilgan kamchiliklarga qaramay, «Hayotnomalar» asari badiiy jihatdan ancha puxta ishlangan; uning obrazlari nafis, tili ravon, voqealari hayajonli va, binobarin, zavq bilan o`qiladigan asardir, Mana bu badiiy ko`rkamlik yangi zamon kishilarini ham maftui etadi, hatto jaholat botqog`iga cho`kib ketgan o`rta asrlarda ham Plutarx unutilgan emas. Uyg`onish davryning ulug` gumannslari (Rotterdamlik Erazm, Fransua Rable) Plutarxga chuqur hurmat bilan qaraganlar. «Hayotnomalar»dan olingan voqealar asosida Shekspir o`zining bir qancha mashhur asarlarini («Koriolan», «Yuliy sezar», «Antoniy va Kleopatra») yaratadi; atoqli fransuz tragediyanavislari Kornel hamda Rasin ko`pincha Plutarx ijodiga murojaat qilganlar: «Hayotnomalar»da talqin etilgan ozodlik va insonparvarlik g`oyalari fransuz ma`rifatchilarining (Russo) diqqatini ham o`ziga tortgan; xuddi ana shu g`oyalar Belinskiyni ham maftun etgan.

## LUKIAN

II asr Yunon adabiyoti tarixida Lukianning ijodi alohida o`rin tutadi. Chunki antik dunyo quldorlik jamiyatining kundan-kunga yemirilib borayotganligidan darak beruvchi juda ko`p hodsalar, masalan, falsafiy ta`limotlarning haddan ziyoda bachkanalashib ketganligi, adabiyotning tobora suyuqlashib borishi, bid`at va xurofoning avj odishi - bu yozuvchining asarlarida o`zining yorqin va ayovsiz satirik aksini topgan.

Na qadimgi dunyodan va na o`rta asrlardan Lukianning hayotiga doir biron ma`lumot bizga qadar yetib kelgan. Yozuvchining asarlarida o`zining shaxsiy hayoti haqida yo`lakay aytib ketilgan ba`zi bayonotlar asosida uning turmushini qisqacha gapirib o`tishimiz mumkin. Ana shu ma`lumotlarga qaraganda Lukian (taxminan 120-190 yillar) Suriyadagi Samosat shaharchasida bechorahol hunarmand oilasida tug`iladi. Lukianning ota-onalari o`z o`g`illariga ham hunar o`rgatish maqsadida uni o`ymakor-naqqosh amakisining qo`liga shogirdlikka beradilar. Oradan bir oz vaqt o`tar-o`tmas yosh bola bexosdan qimmatbaho bir marmar toshni sindirib qo`yadi va bu gunohi uchun ustadan kaltak yeb, ishxonani tashlab ketadi. Shundan so`ng Lukian notiqlik kasbiga havas bog`lab, hali o`spirin bo`lishiga qaramay, Yunon safarini ixtiyor qiladi. Bu yerda attika davri nasrining klassik namunalarini qunt bilan mutolaa qilish orqasida Yunon tilini to`la-to`kis o`rganadi va ancha mashhur notiq ham bo`lib yetishadi. Keyinchalik shu kasb bilan tirikchilik o`tkazib, Yunonistonning turli shaharlarini kezadi va hatto bir qancha vaqt Rimda ham istiqomat qiladi. Diroq Lukian davriga kelganda eski polis sistemalarining barbod etilishi va uning o`rniga imperatorlik tartiblarining o`rnatilishi orqasida notiqlik kasbi o`zining o`tmishdagi demokratik erkinliklarini va keskin siyosiy mazmunini yo`qotib, quruq bir safsataboqlikka aylanib qolgan edi. Hattoki ulug` notiqlar ham tinglovchini kuldirish va inchunin, zodagonlarni xushnud qilib, ularga manzur bo`lish maqsadida butun hunarlarini ishga solib bo`lmag`ur narsalar, masalan, ho`kiz, to`ti, tuman, to`zon va shuning kabi bachkana mavzularda madhiyalar to`tqir edilar. Hatto Lukianning o`zi ham davrning talablariga javoban «Pashshaning maqtovi» degan maxsus asar yozib, Homerdan, Aflotundan keltirilgan dalillar bilan bu jirkanch hasharotning vasfini qiladi. Notiqlikning shu tariqa suyuqlashib ketishi bora-bora Lukianni bu kasbdan sovitib, falsafiy ta`limotlarga murojaat qilishga majbur etadi. Ammo falsafa sohasidagi

faoliyat va izlanishlar ham yozuvchiga ma`naviy oziq berolmaydi. Chunki bu davrlarda falsafa ham notiqlik singari bemashaqqat hayot kechirish manbai bo`lib qolgan edi. Axloq va odob boralarida jamiyatga murabbiylik qilishni da`vat etgay faylasuflarning o`zlari aslida naqadar razil kishilar bo`lganliklarini ko`rsatib, «Baliqchi» asarida Lukian tubandagilarni yozadi: «Ularning hammalari aytadilarki, puldan va sha`n-shavkatda hazar qilmoq, faqatgina go`zallikni haqiqat deb tushunmoq, beozor bo`lmoq, zo`ravonlarning dabdabasidan nafratlanmoq, ular bilan tap tortmay so`zlashmoq darkor. Azbaroyi xudo, bularning hammasi darvoqe juda ham ajoyib, chindan ham dono va har narsadan ulug` gaplar. Biroq faylasuflar shu haqiqatlarni tekinga targ`ib qilmaydilar, badavlat kishilarga havaslari keladi, pulni ko`rganda anqayib qoladilar, o`zlari ham itdan battar sulloh, quyondan ham qo`rroq, shilqimlikda maymundan ham o`gib tushadilar, eshakdek shahvatparast, mushukdek daydi, ho`rozdek urish qoqdirlar».

Darhaqiqat, Lukianning jo`shqin aqli, nohaqliklarni hazm qilolmaydigan nozik dili zamonasining bachkanalashib ketgan falsafiy ta`limotlari va bema`ni va`zxonliklaridan qoniqmas edi. Yozuvchi odamlar o`rtasidagi adolatsizliklarni borgan sayin chuqurroq his qila boshlaydi, Rimga safar qilganida bu yerdagi bemisl ziddiyatlarni, ya`ni bir tomondan boyonlarning hashamatli hayoti, ikkinchi tomondan xalq ommasining tasvirga sig`maydigan miskin turmushini ko`rib, jamiyatdagi bema`ni tartiblardan yana qattiqroq nafratlanadi; bir o`rinda Lukian «Odamlar bir-birlarini talaydilar, bosqinchilik, tovlamachilik kiladilar», deb alam bilan gapiradi.

Avval notiqlikdan, keyin falsafadan ko`ngli sovgan yozuvchi, o`z ijodini tamomila satirik faoliyatga bag`ishlab, bundan buyon adabiyotdan faqatgina badiiy haqqoniylikni talab etadi va asarlarida yolg`iz hayotiy voqealarni ko`rsatishni o`z oldiga asosiy maqsad qilib qo`yadi.

Yangi mazmun uchun, shubhasiz, yangi shakl kerak. Balandparvoz notiqlik uslubi ortiq ish bermay qoladi; yozuvchi endigi asarlari uchun adabiyotning eng ixcham janri bo`lgan dialog usulini tanlaydi, chunki bu usul zaharxanda kinoyalarni, dushmanni zil ketkazadigan pichinglarni yedirib yuborishda juda qo`l kelar edi. Zamonasining qabohatlarini fosh etishga bel bog`lagan Lukian, shu ondan boshlab o`z satirasining zahrini, asosan, kechagi «do`stlari» notiqlik hamda falsafaga va, shular qatori, olimlar, shoirlar va o`zlarini jamiyat murabbiysi deb atagan, aslida xudbinlikdan boshqa narsani bilmagan barcha axloqfurushlarga sochadi va ularning butunlay razolat botqog`iga g`arq bo`lib ketayotganliklarini zamondoshlari oldida namoyish qiladi.

Insonni rasvo qiladigan ta`sirlar orasida eng yaramaslaridan biri bid`atdir. I—II asrlarda haddan tashqari keng yoyilgan har turli soxta falsafiy ta`limotlar ko`magida bo`lmag`ur diniy bid`at va aqidalar juda bolalab ketgan edi. Odamlarning fikrini zaharlovchi xurofotning bu tariqa avjlanishiga beparvo qarab turolmagan Lukian, jamiki diniy e`tiqodlarga qarshi alangali o`t yoqadi. Yozuvchi avvalo ilohiy tushunchalarning bema`niligini, bid`at va xurofotning johillik orqasida tug`iladigan hodisa ekanligini, ma`budlarni odamtaxlit tasavvur etishning nodonlikdan boshqa narsa emasligini ta`kidlaydi. Yunon afsonaviy rivoyatlariga qarshi yozilgan asarlar orasida «**Ma`budlar suhbati**», «**Dengiz suhbatlari**» va «**Oxirat suhbatlari**» deb, ataluvchi dialoglar ulug` satirik ijodining eng ajoyib mahsullari hisoblanadi. Olimp hukmronlariga berilgan zarbaning kuchi va yuksak badiiy mahorat nuqtai nazaridan «**Prometey yoki Kavkaz**», «**Ma`budlar kengashi**», «**Fosh etilgan Zevs**», «**Fojiaviy Zevs**» degan dialoglarni ham shular jumlasiga kiritish mumkin.

Yuqorida nomlari zikr etilgan hamma asarlarning mazmuni qadim zamon Yunon mifologiyasi voqealaridan olingandir. Yozuvchi ana shu voqealarni o`zgartmasdan, ularga o`zidan hech narsa qo`shmasdan, ma`budlar o`rtasidagi munosabatlarni xuddi odamlar o`rtasida bo`ladigan oddiy suhbatlar tarzida tasvirlab, Yunon kishisi tasavvurida ulug`vor, benuqson va mo`tabar hisoblanib kelingan ma`budlarning masxarasini chiqaradi. Natijada miflarning turgan-bitgani kulgili latifalarga aylanib, Olimp hukmronlari buzuq, pastkash, nochor, ishratparast, faxsh, aldanchi, qo`lga ilingan narsani o`g`irlab ketishdan ham toymaydigan oddiy odamlarga o`xshab qoladilar. Olimpda istiqomag qiluvchilar o`rtasida zino ayniqsa juda ham avj olib ketgan. Bu borada ularning birontasi Zevsga tenglasha olmaydi. Ma`budlar hoqoni qulay payt kelganida o`z rafiqasi Heraning ko`zini shamg`alat qilib boshqa ma`budalar bilan o`ynashadi, hatto turli qiyofada: goh buqaga, goh burgutga, goh oqqushga, goh oltin tomchiga aylanib, yer yuziga tushadi-da, diliga xush

keladigan chiroyli ayollar bilan ko'nglini chog'laydi. Bu xildagi razilliklar ma'budlar orasida har turli rashk, ta'na, ig'vo va raqobatlarini juda kuchaytirib yuborgan. Hera erining oshiqlik sarguzashtlaridan ranjib, unga qanchalar malomat yog'dirmasin, Zevs xotinining kunchiliklarini nazar-pisand qilmaydi, hatto o'zining ishratparastliklaridan uyalmaydi ham. Biroq oshiq-ma'shuqlik mojarolarining sharmandalik bilan tugalish hodisalari Olimp tog'ida siyrak uchraydigan hodisalardan emas. Rafiqasi go'zal Afroditaning muhoraba ma'budi Ares bilan o'ynashib yurganini sezib qolgan oqsoq Hefest, zino ustida ularni tuzoqqa ilintirib, barcha ma'budlar oldida sazoyi qiladi.

Ma'budlarning bundan boshqa nayranglari ham juda ko'p: Zevsning o'g'li Hermes dunyoga kelar-kelmas otasining hassasini, Afroditaning belbog'ini, Apollonning kamalagini, Aresning shamshirini, Hefestning omburini o'g'irlab qo'yadi. Xullas, ma'budlarning hayoti buzuqlik, g'irromlik, hasad, xusumat va gina-kudurat bilan to'lib-toshgandir. Bu borada Zevs Olimp hukmronlarining hammasidan oshib tushadi. Deyarli barcha ma'budlar Zevsning takabburligidan, dimog'dorligidan, badjahlligidan shikoyat qiladilar.

Qadimgi dunyoda o'tgan qalam ahllarining birontasi eski diniy an'analarni bunchalik masxaralab, chuvini chiqarmagan bo'lsa qerak. Lukianing istehzoli kulgisi, piching va kinoyalari chindan ham naqadar achchiq, naqadar zahar-zaqqum!

Lukian faqat qadimgi mifologik e'tiqodlarning bema'niligini fosh qilish bilan cheklanib qolmasdan, shu zamonlarda benihoyat ko'payib ketgan har xil «avliyo» va «anbiyo»larning firibgarliklariga, makr-hiylalariga ham qarshi keskin kurash ochadi. «**Aleksandr yoki soxta payg'ambar**» asarining qahramoni ana shunday firibgarlarning biridir. Aleksandr Kichik Osiyoning Abonotixa shahrida tug'ilib, II asrda yashagan chinakam tarixiy shaxs bo'lgan. Bu odam o'rgatilgan kattakon bir ilon to'g'risida tangri degan ovoza tarqatib, go'yo shu jonivor nomidan payg'ambarlik da'vo qiladi, mo'jizalar ko'rsatadi. Uning atrofidagi son-sanoqsiz sheriklari soxta payg'ambarning dovruc yoyishiga, avom xalqni talashiga ko'maklashadilar. Aleksandrning ovozasini darhaqiqat shunchalar keng tarqaladiki, hatto imperator Mark Avreliy uni pir tutib, firibgarga qo'l beradi; xotinlar zino yo'li bilan Aleksandrdan orttirgan bolalari bilan faxrlanadilar.

Yozuvchi bu bilan ham qanoatlanmasdan yangitdan tug'ilib kelayotgan xristian dinidan ham qattiq kuladi, «muqaddas» din targ'ibotchilarining sirlarini fosh qiladi. Lukian «Aleksandr» asarining bir-ikki o'rnida xristianlarni ham chalpi o'tgan edi. Ammo «**Peregrinning o'limi**» deb atalgan boshqa asari deyarli tamomila yangi din sohiblarining kirdikorlarini ochishga bag'ishlangandir. Peregrin ham Aleksandr singari tarixiy shaxs. Uning haqida zamondoshlari juda ko'p yozishgan. Barcha firibgarlar kabi bu ham xalqning nodonligi va bid'atparastligidan foydalanib davlat va shuhrat orttirishni ko'zda tutgan bir odamdir. O'taketgan faxsh, o'z otasining qoniga qo'lini bulg'agan bu padarkush, xristian dini qanoti ostida panoh topib, keyin shu dinning yirik targ'ibotchisi bo'lib taniladi, eski kitoblarga tafsir beradi, yangi kitoblar yozadi. Soddadil odamlar unga ixlos qo'yib, katta iloh darajasiga ko'taradilar. Peregrin keyinchalik yana bir qancha gunohlari uchun qamoqqa tushib qolgach, o'zini go'yo din yo'lida musibat chekayotgan jafokash vali ko'rsatib, laqma muxlislaridan behisob pullar undiradi. Nihoyat yana bir qancha nojo'ya ishlardan keyin bu shuhratparast tarixda nom qoldirishni o'ylab, eramizning 167-yilida Olimp tog'i etaklarida bo'ladigan tantanali bayramda o'zini o'tga yoqib o'ldiradi.

Bu asar xalqning soddadilligi va laqmaligidan foydalanib qalloblik yo'llari bilan hamyonini to'ldirishga intilgan firibgarlarga qarshi chuqur nafrat va g'azab tuyg'ulari bilan to'lib-toshgandir. Yozuvchi dastlabki xristian dinining ko'pdan-ko'p ustozlaridan birining nihoyatda qabih, nihoyatda razil va badbashara qiyofasini ko'rsatib, yangi dinning ham eski dinlardan hech qanaqa, farqi yo'qligini, har qanday diniy e'tiqodlar xalqni aldaydigan, firibgarlarning xudbin manfaatlariga xizmat qiluvchi qurol ekanligini kuchli dalillar bilan isbotlaydi-

Lukian asarlarida o'z aksini ko'rgan xristian dini peshvolari ulug' satirikning boshini silagan emaslar, albatta. Ular yozuvchining hayoti va oxirati haqida bo'lmag'ur bo'hton va latifanomuz ig'volar tarqatadilar: go'yo xudoniig amri bilan itlar bu; iblisni tilka-tilka qilib o'ldirishgan, vafotidan so'ng umrbod jahannam azobiga mahkum etilgan. Katolik cherkovi, hatto maxsus qaror chiqarib, «Peregrinning o'limi» asarini taqiqlangan kitoblar qatoriga kiritadi va «tangriga ma'qul bo'lmagan» bu asari o'qish qat'iy man qilinadi.

Fikrning ravshanligi, asar g'oyasining aniqligi, voqealarning bir tekisda rivojlanib borishi, bayonotning ixchamligi va rango-rangligi, ajoyib kinoyalar, qochiriq va pichinglar, favqulodda o'xshatishlar va, eng muhimi, kitobxonning dilini beto'xtov qitiqlab turish va uning ruhida jamiki diniy taassublarga qarshi jirkanch tuyg'u uyg'otish - Lukian asarlarining asosiy xususiyatidir.

O'rta asrlarda din ahllari tomonidai duoibad qilingan Lukianning hurmat va e'tibori faqat Uyg'onish davriga kelib tiklana boshlaydi. Mashhur gumanistlar Reyxlin, Gutten, Rotterdamluk Erazm ulug' satirikning asarlarini qunt bilan o'qiydilar, unga taqlid etadilar. Rotterdamluk Erazmning do'stlari ham, dushmanlari ham ulug' satiranavisni ikkinchi Lukian deb atar edilar. Angliyada Tomas Mor birinchi bo'lib Lukian asarlarini lotin tiliga tarjima qiladi, Yunon yozuvchisi Shekspir ijodiga ham anchagina barakali ta'sir ko'rsatgan. Ulug', fransuz satiranavisi Fransua Rable va XVIII asrning ma'rifatchilari Lukian asarlaridan keng miqyosda foydalanganlar. Rossiyada Lomonosov, Belinskiy, Gersen va boshqalar Lukianni chuqur hurmat bilan tilga olganlar.

## SITSERON

O'zining otashnafasligi bilan Demosfen darajasida turadigan va antik dunyoning ikkinchi ulug' so'z ustasi sifatida tanilgan notiq Mark Tulliy Sitserondir.

Sitseron eramizdan oldingi 103-yilda Rimdan uncha uzoq bo'lmagan Arpina shahrida tug'iladi. Uning ota-onasi shahar fuqarosining badavlat suvoriylar toifasiga mansub kishilar edi. Ular o'z bolalariga yaxshi bilim berish maqsadida Rimga ko'chib keladilar. Dastlabki tahsilni Yunon murabbiylari qo'lida olgan Sitseron ilk bolaligidayoq Yunon tilini to'la-to'kis o'rganadi, bu xalqning ulug' adabiyoti bilan tanishadi, unga muhabbat bog'laydi. So'z san'atini egallash bobida zamonasining atoqli notiqdari Sitseronga ustozlik qiladilar. Rim shahrida yashovchi ba'zi Yunon faylasuflari yordamida zamonasining yangi falsafiy oqimlari bilan tanishishga muyassar bo'ladi.

Sitseron o'z faoliyatini Sulla hukmronligining dahshatli yillarida (81) boshlaydi. U birinchi marta Publiy Kvinsiy degan oddiy bir dehqonning g'ayri qonuniy yo'l bilan tortib olingan yeri to'g'risidagi da'vo yuzasidan himoyachi sifatida so'zga chiqib, ishning muvaffaqiyatli tugallanishiga erishadi. Birinchi g'alabadan ruhlangan Sitseron ko'p o'tmay og'ir jinoiy ishda qoralangan aybdorni yoqlab chiqishga jur'at etadi. Bu

ishning tafsiloti tubandagicha bo'lgan: Rossiy degan badavlat odam noma'lum kishilar tomonidan o'ldiriladi. Marhumning qarindoshlari Sullaning yaqin amaldori Xrisogon yordamida Rossiyning nomini soxta yo'l bilan proskripsiya (o'zlari o'limga, mollari davlat foydasiga hukm qilingan odamlar) ro'yxatiga kiritib, shu yo'l bilan uning mol-dunyosiga ega bo'lishni ko'zlaydilar; buning ustiga marhumning chinakam merosxo'r o'g'lini qotillikda ayblab, unga qarshi jinoiy ish qo'zg'aydilar.

Rossiyning ishi shu qadar qaltis, shu qadar xavfli ediki, bu jinoyatda Xrisogonning ishtiroki borligini sezib, zamonasining atoqli notiqalaridan birontasi aybdorni mudofaa qilishga botinolmaydi. Sitseron dadillik bilan Xrisogonning hiyla-nayranglarini, yovuz niyatlarini ochib tashlaydi va bu xildagi qotillik faqatgina Rossiyning o'limidan foyda chiqarishni ko'zlagan odamlarning qo'lidan kelishi mumkin ekanligini isbotlaydi. Ayblanuvchi oqlanadi.

Sitseron Rossiyning ishi yuzasidan so'zlagan nutqida, garchi Sullaning nomini atamasa ham, uning siyosat va tartiblarini qattiq qoralab ketadi.

Zamonasining ko'pchilik so'z ustalari singari Sitseron ham o'z faoliyatining boshlang'ich davrida faqatgina Osiyo notqlik usulidan foydalanib, uslubning ko'tarinki, iboralarning jo'shqin, jumalarning nafis bo'lishiga katta e'tibor bergan.

Rossiyning sudidan keyin Rimda turishdan ancha xavotirlangan Sitseron, falsafa hamda notqlik san'atini chuqurroq o'rganish bahonasi bilan Yunoniston safariga jo' naydi va bu yerda o'tkazilgan ikki yillik sayohat davomida Afina bilan tanishadi, Kichik Osiyoning turli shaharlarida bo'ladi va, nihoyat, bir qancha vaqt Rodosda yashab, mashhur faylasuflardan, ulug' notiqalardan ta'lim oladi, ularning nutqlarini tinglaydi va shular ta'sirida o'zining ilgarigi notqlik uslubidan voz kechib, Osiyo hamda Attika usullari omixtasidan iborat yangi bir uslub kashf etadi.

Sitseronning ilm bobida erishgan yutuqlari, noyob notqlik salohiyati, katta muvaffaqiyat bilan boshlangan dastlabki ishlari - bundan buyon uning yuqori davlat lavozimlariga ko'tarilishda eng puxta zamin bo'lib xizmat qiladi. Rim taomiliga ko'ra Sitseron birinchi galda kvestorlik (moliya nazoratchiligi) mansabiga saylanib, bir yil (75) G'arbiy Sitsiliyada ishlaydi va o'zining halolligi, xushmuomalaligi bilan mahalliy aholi orasida katta e'tibor topadi. Bssh yildan keyin bu yerga proprektor, ya'ni hokim saylanib kelgan Verres, yurtni vahshiyona talab, xalqqa benihoyat og'ir zulmlar o'tkazganida, Sitseronning yaxshiliklarini unutmagan Sitsiliya aholisi unga maxsus vakil yuborib, zolimning zulmidan himoya qilishni o'tinib so'raydi. Verresning jinoyatlari haqida to'plangan hujjatlar shu kadar ko'p va dahshatli ediki, sud a'zolarining hammasi senatorlardan iborat bo'lishiga, shu davrning eng mashhur notig'i Gortensiy gunohkorni himoya qilishiga qaramay, Sitseronning birinchi sud kengashida gapirgan dastlabki nutqidan keyinoq aybdor Rim tabaasi huquqidan foydalanib, o'z ixtiyori bilan surgunga ketishga majbur bo'ladi.

Sitseron sud hay'atining birinchi majlisida so'zlagan ikkita nutqi bilan, ikkinchi majlisda so'zlash uchun tayyorlangan beshta nutqini birga qo'shib, «Verresga qarshi aytilgan nutqlar» nomi ostida alohida kitob qilib chiqaradn. Bu nutqlarning har biri viloyatlardagi vahshiylikning nechog'lik zo'rayib ketganligini, zo'ravonlar zulmining naqadar kuchayganligini, Rim a'yonlari, ayniqsa, senat aristokratlari doirasida o'g'rilik, sotqinlik, murosasozlik va boshqa yaramas nuqsonlarning qay darajada avj olganligini va bular natijasida, xalk ommasiniig ahvoli kundan-kunga og'irlashib borayotganligini yaqqol ko'rsatadigan



qimmatbaho tarixiy hujjatlardir. Shu bilan birga «**Verresga qarshi aytilgan nutqlar**» Sitseron dahosiining eng birinchi yirik adabiy yodgorligi ham hisoblanadi.

Verres ustidan qozonilgan g'alaba xalq o'rtasida snseronning mavqeini g'oyat darajada oshirib yuboradi va bundan buyon uning davlat mansablarida tobora yuqori ko'tarilishiga keng yo'l ochadi. Masalan, Verres sudining boshlanishi oldida uni edillik (jamoat ishlari noziri) vazifasiga va 66 yilda pretorlik (sud ishlari noziri) lavozimiga saylaydilar. Xuddi shu yili Kichik Osiyodagi urushga Pompeyni sarkarda saylash va unga favqulodda vakolat berish to'g'risida Sitseron birinchi marta xalq majlisida katta siyosiy nutq so'zlaydi. Sharq mustamlakalaridagi boylklarni ishga solib, daromad chiqarishni ko'zlagan sarmoyador suvoriylar guruhining foydasiga aytilgan bu nutq, Sitseron bilai senat aristokratlari o'rtasidagi ziddiyatning eng oxirgi ifodasidir.

Sitseron nihoyat 63-yilda eng oliy davlat lavozimi konsullikka saylanadi va shu kundan boshlab Rim jamiyati davlatmand doiralarning rahnamosiga, demokrat guruhlarning ashaddiy dushmaniga aylanadi. Yosh tribun Rull kashshoq dehqonlarni yerlarga joylashtirish, ularning qarzlarini bekor qilish haqida senat muhokamasiga maxsus loyiha kiritganida, Sitseron Rullning tashabbusiga qarshi keskin so'z aytib, uning loyihasini rad ettirishga muvaffaq bo'ladi. Sitseronning demokratlarga qarshi tutgan qonln siyosatini «**Katilina voqeasi**»da yaqqol ko'rish mumkin. Rim jamiyatidagi barcha mazlumlarning manfaatini ko'zlagan dsmokratlar rahbari Katilina o'z nomzodini Sitseron bilan bir qatorda konsullik lavozimiga qo'ygan edi. So'l demokratlar qanchalik urinmasin, optimatlar butun choralarni ishga solib, saylovda uni yiqitadilar. Alamzada demokratlar Katilina boshchiligida qo'zg'olon ko'tarib, Sitseronni o'ldirishga qasd qiladilar. Ularning niyatlaridan xabardor bo'lib qolgan Sitseron darhol kerakli choralarnn ko'rib, qo'zg'olonning oldini oladi. **Sitseron** o'zining Katilinaga qarshi gapirgan to'rtta nutqida, bu odam nihoyatda qo'rqinchli dushman, butun Rim aholisiga qarshi bosh ko'tarib, shaharga o'n ikki tomondan o't qo'ymoqchi, yaxshi odamlarni qilichdan o'tkazmoqchi, degan vahimali iboralarda Katilinani badnom qilib, barcha fuqaronnng yuragiga qo'rquv soladi; butun demokrat guruhlarni g'arazgo'ylar, fitnagarlar, yirtqichlar, qonxo'rlar deb haqoratlaydi va ularning adabini berib qo'yishga qodir ekanligini pisanda qiladi. Katilinaga to'nkalgan ayblar va yog'dirilgan malomatlarning sira chegarasi yo'q.

Katilina o'zining safdoshlari bilan birgalikda shaharni tashlab chiqib ketadi va ko'p o'tmay hukumat askarlari qurshovida qolib, jangda halok bo'ladi; demokratlarning rahbarlari qamoqqa olinib, g'ayri qonuniy suddan keyin snseronning amri bilai zindonlarda qatl qilinadilar. Qo'zg'olonni bostirishda ko'rsatgan xizmat va jasoratlarini taqdirlab, senat **Sitseronga** hatto «yurt otasi» degan sharafl unvon beradi, yuqori a'yonlar orasida obro'si ortadi. Biroq «yurt otasi»ning tantanasi uzoqqa cho'zilmaydi: bir ozdan keyin hukmronlik Pompey, sezar hamda Krassdan iborat triumvirat qo'liga o'tgach, Katilinaning ba'zi safdoshlarini nohaq o'ldirgailigi uchun xalq tribuni Klodiy talabi bilan 58-yilda Sitseron Rimdan badarg'a qilinadi, mol-mulki musodara etiladi. Ammo ko'p o'tmay, senatdagi yor-do'stlari harakati bilan yana Rimga qaytib keladi. O'zining ilgarigi siyosiy mavqeini boy berib qo'ygan mashhur notiq endilikda ko'prok vaqtini adabiy mashg'ulotda o'tkazadi. Faqat 51-yilda uni Kichik Osiyodagi Kilikiya viloyatiga prokonsul (hokim) qilib tayinlaydilar. Sitseron bu yerda ham, xuddi Sitsiliyada bo'lgani kabi o'z vazifasini halol va beg'araz bajarib, qo'shin

o`rtasida ancha shuhrat orttiradi. Bir necha tog`li qabilalar ustidan g`alaba qozonilgandan keyin, jangchilar Sitseronga hatto «imperator» (sarkarda) degan unvon ham beradilar.

50-yil oxirida sezar bilan Pompeyning o`rtalari buzilib, fuqarolar urushining boshlanishi muqarrar bo`lib qolgan tahlikali kunlarda Sitseron Rimga qaytib, raqiblarni totuvlashtirishga ancha urinadi, keyin bu harakatlarning befoyda ekanligini sezgach, optimatlar tomoniga o`tib, Yunonistonga, Pompey huzuriga jo`naydi. 48-yili Farsal shahri yaqinida bo`lgan jangda Pompey mag`lubiyatga uchraganidan so`ng, kurashni davom ettirish endi behuda ekanligini tushungan Sitseron, Rimga qaytib keladi. sezar uning gunohidai o`tadi-yu, ammo samimiyligiga shubhalanib, biron muhim mansabni tavsiya etishga ko`ngli chopmaydi. Siyosiy hayotdan chetlashtirilgan sobiq davlat arbobining bundan keyingi birdan-bir ovunchog`i qalamkashlik bo`lib qoladi. Sitseron ijodining so`nggi ikki yil ichida yetishtirgan adabiy mahsuloti chindan ham yuksak tahsinga sazovordir. Notiqlik nazariyasiga bag`ishlangan «Notiq» risolasi, turli-tuman falsafiy masalalar bayonidan iborat o`ndan ortiq yirik-yirik asarlar - oltmishdan oshgan **Sitseronning** qo`li bilan xuddi shu paytlarda yozilgan edi.

44-yilda, sezar o`ldirilganidan keyin, respublika tuzumining yangitdan tiklanishiga chuqur umid bog`lagan Sitseron yana siyosiy faoliyatga qaytib, oxirgi bir yarim yillik umrini jo`shqin kurashlar girdobida o`tkazadi. U endi senat aristokratlarining rahbari sifatida sezarning jiyani hamda asrandisi Oktavianni himoya qilib, marhumning o`rnini egallashga intilgan Antoniyga qarshi ayovsiz kurash boshlaydi; Antoniyga qarshi yozilgan va Demosfenga taqlidan «**Filippiklar**» deb atalmish o`n to`rtta maxsus nutqida yangidan bosh ko`tarib kelayotgan istibdod da`vogarining kirdikorlarini va yovuz niyatlarini fosh etadi. Jangovar harorat, ajoyib poetik ehtiros bilan yozilgan bu nutqlar, quldorlik respublika tuzumini saqlab qolishga uringan jangchining o`lim oldidagi eng oxirgi isyonkor hayqirig`i, alamli faryodi edi. Shu nutqlar uchun Sitseronning nomi proskripsiya ro`yxatiga kiritilib, eramizdan oldingi 43-yilda Antoniy odamlari tomonidan kallasi kesiladi.

Sitseron o`zining sal kam qirq yil davom etgan ijtimoiy va adabiy faoliyati mobaynida turli-tuman mavzularga bag`ishlab behad ko`p asarlar yozgan. Shulardan bir qanchalarining nom-nishonsiz yo`qolib ketganligiga qaramay, bizga qadar yetib kelganlarining o`zi ham antik dunyoda o`tgan har qanday yozuvchining asaridan ziyodroqdir. Sitseronning asosiy kasbi - notiqlik. Shuning uchun rasmiy yig`inlarda sud majlislarida so`zlagan nutqlari uning ijodida eng muhim o`rin tutadi. Ma`lumotlarga qaraganda, qadimgi zamonlarda Sitseronning 150 ga yaqin nutqi nashr etilgan bo`lsa, bizga qadar shulardan 58 tasi yetib kelgan. Bulardan tashqari falsafa mavzularida yozilgan 12 ta asar, notiqlik nazariyasi va tarixiga doir 7 ta risola va 800 ga yaqin maktub asrlar to`foniga chap berib omon qolgan. Shular asosida bu ulug` qalamkashning maqsad va g`oyalari, ijodining xususiyatlari, o`zining xislatlari, ayrim paytlardagi ruhiy holatlari, to`polon davrning ziddiyatlari haqida to`la fikr aytish mumkin.

O`z davrining eng fozil va ma`rifatparvar kishilaridan biri bo`lgan Sitseron zamondoshlarining ongini oshirish, ularni nlm-fan, falsafa va madaniyat samaralaridan bahramand qilish masalasiga katta e`tibor beradi va bu ishni o`zining muhim burchi deb tushunadi. «Modomiki, biron narsa qilish qo`limdan kelar ekan, -deb yozadi Sitseron, - o`zimning g`ayratim va mehnatim bilan vatandoshlarimning bilimni kengaytirish borasida ko`maklashishni asosiy vazifa

deb tushunaman». Binobarin, Sitseronning falsafa mavzularida yozilgan hamma asarlarining asosiy maqsadi - Rim kishisini Yunon mutafakkirlarining ta'limotlari bilan tanishtirishdan iborat bo'lgan. Yangidan shakllanib kelayotgan lotin tilida Yunon faylasuflarining ta'limotlarini bayon etish birmuncha qiyinchiliklar tug'dirganligi vajidai, Sitseron shu og'ir ishni o'z gardaniga olib, murakkab nazariy tushunchalarni faqatgina oddiy, o'ng'ay iboralarda emas, hatto go'zal bir shaklda o'zining ona tiliga ko'chirishga harakat qiladi va bu vazifani katta muvaffaqiyat bilan ado etadi. Sitseron hech qachon izchillik bilan muayyan bir falsafiy ta'limotga ergashgan emas; shuningdek uning asarlarida muallifning o'zi yaratgan mustaqil biron nazariyani axtarish ham noo'rindir. Rim ma'rifatparvarining falsafa sohasidagi butun faoliyatida eklektizm, ya'ni bir necha ta'limotlarni birga qo'shib, shular yordamida o'zining g'oyalarini talqin etish prinsipi asosiy o'rin tutadi. Shu bilan birga, Sitseron har qanday nazariyaga uning amaliy mohiyati nuqtai nazaridan yondashib, ayni vaqtdagi axloq va siyosat talablariga to'g'ri kelganlarini qabul qiladi, begonalarini rad etadi. Mazkur talablarga ko'ra ijtimoiy va siyosiy hayotdan chetda turuvchi va subyektivizm g'oyalarini targ'ib etuvchi Epikur falsafasi, Rim jamiyatining aktiv davlat arbobi bo'lgan Sitseronga yoqmaydi. Uning diqqatini ko'proq jalb etuvchi ta'limotlar orasida eng muhimlari — Polibiy va Panetiy falsafalaridir. Sitseron har ikkala mutafakkirning g'oyalarini targ'ib qilib yozgan bir qancha maxsus asarlarida Rim hayotidan va o'zini faoliyati tajribalaridan olingan ko'pgina misollar asosida, respublika tuzumi afzal, xususiy mulk muqaddas, dahlsiz; demokratlar tomonidan ko'tarilgan yer islohoti, qarzlarni bekor qilish masalalari esa aholi o'rtasida raqobatning kuchayishiga, mamlakatda osoyishtalikning yo'qolishiga sabab bo'ladigan qo'rqinchli hodisalar, deb isbotlashga urinadi. Xullas, falsafiy ta'limotlar Sitseronning siyosiy faoliyatida nazariy zamin vazifasini ado etuvchi bir vosita bo'lgandir.

Umuman aytganda, Sitseronning axloq masalalariga doir falsafiy asarlari, boshqa mutafakkirlarning ta'limotlari asosida yozilganligi vajidan, u qadar ahamiyatli bo'lmasa ham, tarixiy manba sifatida ularning mohiyati juda ham zo'rdir. Ma'lumki, ellinizm davrida o'tgan barcha faylasuflarning asarlari bizga qadar deyarli butunlay yetib kelgan emas. Shu sababli Sitseron asarlarida keltiriladigan mufassal bayonotlar asosida ko'pgina faylasuflarning ta'limotlari haqida mukammal tasavvur hosil qilishimiz mumkin Sitseron asarlarining badiiy shakli va tilining nafisligiga kelganimizda bu jihatdan ular, albatta, har qanday maqtovdan yuqoridir. Falsafa sohasida boshqalarning targ'ibotchisi darajasidan yuqori ko'tarila olmagan Sitseron, so'z san'atining ustoz sifatida tamomila yangi yo'ldan boradi va birinchi bo'lib Rim tuprog'ida notiqlik nazariyasining mustaqil poydevorini ko'taradi.

Yuqorida aytganimizdek, Sitseron so'z san'ati nazariyasiga atab anchagina asar yozgan. Shular orasida uchta - «**Notiq haqida**», «**Brut**» va «**Notiq**» mazmunda ham, shaklda ham eng qimmatbaho asarlar hisoblanadi. Sitserondan ilgari o'tgan va ayni zamonda yashayotgan bir qator notiqning tajribalari, muallifning qariyb qirq yil davom etgan faoliyati iatijasida orttirilgan bilim va xulosalari - ana shu risolalarda muayyan bir ilmiy nazariya darajasiga ko'tarilgandir. Mazkur asarlarning har birida Sitseron notiqlik san'atining eng yirik masalalaridan tortib mayda-chuyda qonun-qoidalariga qadar diqqat bilan birma-bir ko'zdan kechiradi. Sitseronning aytishicha, notiq shunchaki so'z zamol, sud ishlarining ikir-chikir qonunlarigacha biladigan qonunparast emas, balki bekamu ko'st davlat arbobi bo'lmog'i darkor. Shu sababli bu kasbga intilgan har bir odam faqatgina

ritorika ilmiga taalluqli ibtidoiy bilimlarni o`rganish va o`zining Tabiiy iste`dodiga ishonish bilan cheklanib qolmasdan, muttasil mutolaa qilmog`i, beto`xtov madaniyat cho`qqilariga intilmog`i lozim. Tinglovchilarning ruhiga chuqur ta`sir ko`rsatishning eng birinchi vositasi sifatida yozuvchi hammadan burun axloq, mantiq, psixologiya fanlarini har tomonlama mukammal o`rganishni va, umuman, mavjud falsafiy ta`limotlardan keng xabardor bo`lishni tavsiya etadi. «Odamlarning diliga, - deb yozadi Sitseron, - qo`rquv, g`azab va qayg`u sola bilish va, aksincha, bu xilda hayajonli holatlardan xalos qilib, ularning ruhida xotirjamlik, mehr-shafqat hislarini uyg`ota olish - notiqning asosiy xislatidir. Agarda notiq odamlarning turli-tuman xarakterlarini sezmasa, inson tabiatiga xos umumiy xususiyatlarni bilmasa va har bir kishini goh bezovta qiladigan, goh tinchlantiradigan sabablarni tushunmasa - hech qachon o`zining maqsadiga erisha olmaydi. Axir, bularning hammasi falsafaga aloqador sohalar emasmi?!» («Notiq haqida».) Bundan tashqari, so`z orasida keltiriladigan dalillarni monand misollar bilan isbotlash uchun har bir notiq tarix va adabiyot bilan ham oshna bo`lmog`i lozim.

Sitseron o`zining asarlarida nutqning uslubi masalalariga nihoyatda katta e`tibor beradi. Ma`lumki, muallifning zamonasida Osiyo uslubi tarafdorlari bilan attika uslubi tarafdorlari o`rtasida kuchli tortishuvlar borar edi. Uslubda barqarorlikni, doimiylikni talab etgan attikachilar, har qanday nutqning oddiy, sodda va aniq bo`lishini talab qilganlar. Sitseron «Brut» hamda «Notiq» risolalarida attikachilarning fikrlariga qarshi chiqib, tamomila qarama-qarshi da`volarni oldinga suradi. Uning aytishicha, har qanday notiqning ko`zda tutgan asosiy maqsadi - tinglovchining zavqini uyg`otib, o`ziga moyil qilishdan iboratdir. Modomiki shunday ekan, chinakam so`z san`atkori sharoitga qarab, mavjud uslublarning hammasidan bab-baravar foydalanishi zarur. Sitseron o`zining fikrlarini isbotlash uchun Demosfen ijodiga murojaat qilib, attika go`z san`atining ulug` namoyandasi faqat oddiy va sodda uslubninggina emas, shuningdek, jo`shqin va hayajonli nutqning ham beqiyos ustasi bo`lganligini misol keltiradi.

«...Xullas, ...kimki jo`n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida - o`rtamiyona, ulug` hodisalar haqida - shavq-zavq bilan gapirsa - shu odam so`z san`atining chinakam ustasidir». («Notiq».)

Umuman aytganda, Sitseron risolalarida notiqlarga beriladigan amaliy maslahatlar shu qadar ko`p, shu qadar rango-rang, shu qadar mazmundorki, bu kitobda ularning hammasini batafsil bayon etishning aslo iloji yo`q. Yozuvchi, ayniqsa, til qoidalarining katta-katta masalalaridan tortib kichkina detallarigacha shu qadar mufassal to`xtaladiki, kishi ularni o`qiganida lotin tilining bironta sohasi uning nazaridan chetda qolmagandek tuyuladi. Nasr tilining vazni va ohangdorligi, uzun va qisqa hijolarning, unli va undosh tovushlarning almashuvi, bir so`zning oxiri, ikkinchi so`zning boshida ikkita unlining qator kelishiga yo`l qo`ymaslik, so`zlarni to`g`ri talaffuz etish, grammatik qoidalarga katta e`tibor berish va shularga o`xshash yana birmuncha masalalar Sitseronning risolalarida to`la ifodasini topgan,

Sitseron o`zining nazariy xulosalarini uzoq yillik amaliy faoliyatida to`la-to`kis tatbiq etadi.

Notiqning sud tartiblariga kiritgan muhim yangiliklaridan biri shundaki, u hech qachon o`ziniig nutqlarini, eski notiqlar singari, muhokamaga quyilgan masalalar doirasi bilan chegaralab o`girmasdan, fikr va mulohazalarini kengroq ifodalash maqsadida, ba`zan yo`lakay, ba`zan batafsil, turli-tuman masalalarga taqalib o`tadi. Uning, deyarli hamma nutqlarida uchraydigan siyosiy masalalar haqidagi mulohazalar, jamiyatdagi

ahvollar, sudlardagi tartiblar, ayrim kishilarning kirdikorlari to'g'risida bayon qilinadigan fikrlar va, nihoyat, muallifning axloq, adabiyot, falsafa masalalariga doir muhokamalari - shu yangiliklarning ifodasidir. Masalan, Sitseron g'ayri qonuniy yo'l bilan Rim fuqarosi huquqini olgan shoir Arxiyni himoya qilib gapirganida, o'zining da'volarini yuridik dalillar bilan isbotlab o'tirmasdan, nazmning ahamiyati, ulug' shoirlarning vatan oldidagi xizmatlari to'g'risida anchagina maqtoqli so'zlar aytib, Arxiydek mo'tabar shoirga Rim fuqarosi huquqini berish - sud hay'ati uchun faxrli bir sharaf ekanligini ta'kidlaydi.

Sitseronning ritorik asarlarida tantanali ulug'vor nutqning ta'sirchanligi haqida anchagina so'z aytilganligini yuqorida qayd qilib o'tgan edik. Notiq bu uslubning qanchalik nodir ustasi ekanligini amaliy faoliyatida ravshan ko'rsatadi. Sitseron nutqlarining xotima qismlarida, ayniqsa, ko'proq ishlatiladigan tumtaroqli balandparvoz iboralar, a'zoyi badanni harakatga keltirib, ma'budlarga qarata aytiladigan xitob va nidolar, adolat va erkinlik sha'nga o'qiladigan tahsin va maqtoqlar - haqiqatan ham tinglovchilarda kuchli taassurot qoldirib, ishning notiq foydasiga hal qilinishini ta'min etardi. Biroq Sitseronning notqlik nafosati faqatgina tantanali so'zlar doirasi bilan chegaralanib qolmaydi. Uning nutqlarida ulug'vor uslub bilan birga oddiy iboralar, mo'tadil tasvirlar bab-baravar qadam tashlab boradi. Biz hatto yolg'iz bir nutq davomida salobatli so'zlarning hazil-mutoyiba bilan, ehtirosli qizg'in xitoblarning oddiy va beozor muloyimlik bilan galma-gal almashib turishini juda ko'p uchratamiz. Bir maromda oqqan so'z bilan tinglovchini toliqtirib qo'ymaslik uchun so'z davomida ko'tarinki uslubni bir parda pasaytirib, sud ishiga aloqador bo'lgan kishilarning goh salbiy, goh ijobiy xarakteristikasini berish, ilgari o'tgan mashhur zotlar haqidagi biron latifani eslatib ketish, lozim bo'lib qolsa ba'zi bir hayotiy manzaralarni, dramatik voqealarni tasvirlab o'tish, yo bo'lmasa, o'rniga qarab, qandaydir biron hikmatli so'z, maqol yoki qochiriq gapni qistirib ketish - Sitseronning eng sevgan usullaridandir. Bu xildagi ijobiy vositalar barobarida ba'zi bir zo'raki, yasama holatlarni, mubolag'ador gaplarni xam Sitseron nutqlarida uchratish mumkin. CHunonchi, Katilinaga qarshi aytilgan nutqida Sitseron bu odamning go'yo Rimga o'n ikki tomondan o't qo'ymoqchi bo'lganini, halol kishilarning bittasini ham tirik qoldirmaslikka qasd qilganini ko'pirtirib gapiradi. Ba'zi kezlarda aybdorning himoyasiga oxirgi so'zni aytayotganida behosdan to'xtalib, bamisoli sahnadagi artist singari yig'lamsirash, yo bo'lmasa gunohkorning qizchasi yoki o'g'ilchasini baland ko'targan holda xo'rsinib-xo'rsinib sudlardan bolaning otasiga rahm qilishni o'tinib so'rash hodisalari ham Sitseron faoliyatida onda-sonda uchrab turadigan holdir.

Sitseron o'zining har bir nutqini yozishga o'tirganida, bu nutqning faqatgina mazmundorligiga, jumalarning to'g'riligi, so'zlarning rango-rangligiga e'tibor qilish bilan kifoyalanmasdan, tilining ohangdor bo'lishiga ham katta ahamiyat bergan. Lotin nazmida birinchi marta vazn sistemasini qo'llab bu sohada ajoyib natijalarga erishgan kishi Sitserondir.

Nihoyat, Rim respublikasining so'nggi yillari, zamonasining atoqli davlat arboblari, muallifning yor-do'stlari, shaxsiy hayoti, tabiati, sevinch va tashvishlari haqida qimmatbaho ma'lumotlar beradigan manbalardan yana biri - Sitseronning maktublaridir. Shu bilan birga Sitseron uslubining boshqa asarlarda ko'rinmagan ba'zi bir nozik tomonlarini faqatgina uning maktublarida uchratish mumkin. Har bir xatning qanday odam nomiga yozilayotganligiga qarab, ularning ohangi ham turlicha bo'ladi. Masalan, sezar, Pompey yoki shularga o'xshash yirik davlat arboblari yozilgan maktublarda muallif o'zini odob, sadoqat va mutanosiblik doirasida ushlasa, qarindosh-urug'lari,

yoronlari va sirdosh kishilariga yuborgan xatlarida tamomila erkin turib, hazil-mutoyibalarni, qochiriq gaplarni, piching va kinoyalarni bemalol ishlataveradi. Yaqin kishilarga yozilgan maktublarining o'ynoqiligi, samimiyligi ularga allaqanday tabiiy husn bag'ishlaydi va Sitseronning naqadar noyob uslub sohibi ekanligini ko'rsatadi.

Sitseron o'zining tabiiy iste'dodi va zahmatkashligi orqasida, umuman, lotin tili va, xususan, lotin nasrining rivojiga kuchli ta'sir o'tkazadi, unga ajoyib badiiy sayqal berib, nozik tuyg'ular va murakkab fikrlarni ifoda eta oladigan qudratli madaniy vositaga aylantiradi. Binobarin, Yevropa madaniyatining rivoji va ravnaq topishi yo'lida ko'rsatgan xizmatlari jihatidan Rim yozuvchilarining biron-tasi Sitseronning oldiga tusholmaydi. Yangi zamon kishilari Sitseronga proza janrining beqiyos dahosi, notiqlik san'atining ulug' timsoli deb qaraydilar. Uning shuhrati hatto o'rta asrning mudhish yillarida ham so'nmaydi. Uyg'onish davriga kelganda Sitseronning dovrug'i, ayniqsa, juda ham ortib ketadi: ulug' gumanistlar o'zlarining falsafiy va adabiy faoliyatlarida laoin tilining benuqson namunasi sifatida, faqatgina, Sitseron uslubiga ergashadilar. XVIII asrning ma'rifatparvarlari Volter, Didro, Monteske, Mabli va boshqalarning ijodida ham Sitseronni kuchli ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Shu asrdagi burjua inqilobining yirik namoyandalari Mirabo hamda Robesper notiqlik san'ati bobida ko'proq Sitseron usullaridan foydalanganlar.

### **Mavzu: Avgust davri. Rim adabiyoti.**

Reja:

1. Goratsiya ijodining ilk bosqichi
2. "Qasidalar" shoir ijodining cho'qqisi
3. Ovidiy Nazon ijodining qismlarga bo'linishi

### **Adabiyotlar**

1. Alimuhamedov. Antik adabiyot tarixi. T. O'qituvchi 1985.
2. F. Boynazarov. Antik adabiyot. T. 1994.
3. N.Deratenin.Timofeyev.Xrestomatiya po antichnoy literaturo` M.1965.
4. M. Alekseyev i dr. Istoriya zarubejnoj literaturo`. M. 1978.

Goratsey o'z asarlarining g'oyasini tabiat quynidan odamlarning bir – biriga bo'lgan munosabatidan axtaradi. Uning ko'pgina asarlari didaktik xarakterga ega ekanligi Bilan ajralib turadi. Goratsey asarlarining qahramonlari ichki va tashqi urushlarga xotima berib bahodirlik davrlarini tiklashga harakat qiladilar Goratsey dab – dabali saroy bazmlaridan ba'zan tanholikni xush ko'radi.

Vergiliyning zamondoshi hamda do'sti, Avgust davrining ikkinchi ulug' shoiri Kvint Goratsiy Flakk eramizdan oldingi 65-yilda Italiyaning janubidagi kichkinagina Vinuziya shahrida tug'iladi. Uning otasi qullikdan ozod qilingan keyinchalik ozod qilingan va keyinchalik anchagina mablag' to'lab, tirikchiligini bemalol o'tkaza boshlagan bir kishi edi. Goratsiyning aytishicha bu odam o'zining savodsizligiga qaramay, ilmning nafini tushunib, o'g'lining taxsiliga, xususan, katta e'tibor bergan. Shu sababli Goratsiy avval Rimda, keyin Afinada badavlat xonadonlarning bolalari singari

porloq ilm oladi, o'tmishdagi ulug' shoirlarning asarlarini, buyuk faylasuflarning ta'limotlarini qunt bilan o'rganadi va hayotining so'ngi kunlariga qadar Yunon adabiyoti, Yunon falsafasi, ayniqsa, Epikur ta'limotining sodiq muxlisi, otashin tashviqotchisi bo'lib qoladi.

Goratsiyning asarlari bizga qadar to'la holda yetib kelgan.

Ular tubandagilardir:

“Epodlar” deb ataluvchi 17 she'rdan iborat bitta to'plam.

“Satiralar” deb ataluvchi 18 she'rdan iborat ikkita to'plam.

“Qasidalar” deb ataluvchi 103 she'rdan iborat to'rtta to'plam.

“Nomalar” deb ataluvchi 23 she'rdan iborat ikkita to'plam.

“Bayram gimni” deb ataluvchi aloxida bita she'r.

To'plamdagi she'rlarning barchasi shoir zamonasidagi siyosiy, ijtimoiy va hayotiy masalalarga bog'ishlangandir. Shu mavzular orasida urush va tingchlik, Rim davlatining istiqboli masalalari shoirning ayniqsa ko'proq bezota qiladi. Masalan, 7 – Epodda avtor qahru g'azabga to'lib – toshib uzluksiz ichki urushlarni qattiq qoralatsdi, fig'on chekadi. Uning ta'biricha, er yuzini, dengizlarni qonga belagan odamlarning vaxshiyiligini, hatto qoplonlar va bo'rilarning yirtqichligi bilan ham tenglashtirish mumkin emas.

Paydo bo'lib kelayotgan imperatorlik tuzimining siyosiy sharoitlar adabiyotda keskin tanqidiy mavzularning rivojiga yo'l qo'ymas, ko'zga ko'ringan davlat ahllarining kirdikorlarini fosh etishga imkoniyat bermas edi. Shu sababli Goratsiy o'zining hajviy mahoratidan keng suratda foydalana olmasdan, unchalik muhim ahamiyati bo'lmagan mayda – chuyda ahloqiy va maishiy masalalar, chunonchi, sehergarlik, fohishalik, takabburlik hamda shunga o'xshash nuqsonlarni qoralash bilan cheklanib qoladi.

Har ikala “Satiralar” majmuasiga kirgan barcha she'rlar gekzometr vaznida yozilgan bo'lib, shoirning o'zi ularni “suhbatlar” deb ataydi. Bu she'rlarning ba'zilari, darhaqiqat, hech qanday plan va sistemaga rioya qilinmasdan turli – tuman hayotiy va ahloqiy masalalar haqida yozilgan hazilnamo oddiy suhbatga o'xshaydi.

Goratsiy satiralarining tematikasi juda xilma – xildir. Avval Epikur so'ngra Stoya falsafalari muxlisi bo'lgan shoir, shu falsafiy ta'limotlar pozitsiyasida turib, hammadan burun odam bolasining eng yaramas ehtirosi – davlat orttirish hirsiga qarshi kurashadi. Uning aytishicha, jamiyki bulg'anch istaklarning onasi hisoblangan davlatmandlik ishtiyoqi o'z navbatida ochko'zlik, tamagirlik, shuxratparastlik, maishatbozlik, isrofgarchilik kayfiyatlarini tug'diradi, odamning tinchligiga, samimiyligiga putur yetkazadi.

Goratsiy ijodida favqulotda muhim o'rin tutadigan shoh asarlar shubhasiz, uning “Qasidalar” idir. To'rt majmuadan iborat bo'lgan qasialarning birinchi uch qismini shoir eramizdan oldingi 23-yilda, to'rtinchi qismini 13-yilda nashr qildiradi. Goratsiyning o'zi to'rttala to'plamga kirgan asarlarining hammasi “qushiqlar”, “she'rlar” deb atalgan bo'lsa ham, antik Dune kishilari o'rtasida ular “qasida” nomi bilan shuxrat topadilar va bu nom bizning davrimizga qadar adabiy iste'moldan mustahkam o'rnashib qoladi.

Goratsiyning qasidalarida ko'proq tarannum qilingan masala – Avgustning axloq va odob sohasidagi siyosati bo'lgan. Goratsiyning aytishicha, zeb - ziynat hirs ko'pincha boyonlarni razil xiyonatlarga, og'ir jinoyatlarga sudraydi: ular dehqonlarga qarashli yerlarni tortib olib, o'zlariga hashamatli binolar quradilar, takzorlarni buzib, mevasiz daraxtlardan, bog' – rog'lar qiladilar; ejkin yerlarini qisqartgan, dehqonni xonavayron etgan sabablar - shulardir.

Adabiyot tarixi, uning nazariy masalalari yuzasidan “Nomalar” majmuasi ikkinchi qismining benixoyat katta ahamiyati bor. Bu to`plamga hammasi bo`lib faqat uchta maktub kiradi shulardan birinchisi Avgustga, ikkinchisi Florga va uchinchisi Pizonlarga atalib yozilgandir. Pizonlarga bag`ishlangan uchinchi nomaning adabiyot nazariyasi tarixidagi qimmatiga qarab, antik dunyodayoq unga “she'riyat ilmi” deb nom berilgan. “She'riyat ilmi” ko`p jixatdan Arestotelning “Poetika” asariga o`xshaydi. Shu bilan birga adabiyotning nazariy va Amaliy masalalarning talqin qilishda antik dunyoning har ikkala ulug` zotlari bir birlaridan qat'iy farq qiladilar.

Goratsiy, avvalo, poeziyaga ilohiy ma'no berib ijodkorlik faoliyatini yozuvchining qonidagi iste'dod harorati bilan bog`laydi. Shoirlik kasbi benihoyat og`ir va murakkabdir, tomirida “ilohiy qudrat” bo`lmagan odamning yozuvchilikka urinishidan hech qanday foyda chiqmaydi.

Goratsey o`z zamondoshlari singari xayotlik vaqtidayoq antik dunyoda katta obru qozondi, u Rimning ulug` shoiri sifatida tanildi. Goratseyning ijodiga qiziqish keyingi asrlarda ham susaygan emas uyg`onish davrining donishmandlari uning obruyini yuqoriga ko`taradilar.

Rus adabiyotida uning ta'sirini sezilarli darajada anglash mumkin u xuddi shuningdek, sharq shoirlari ijodiga ham samarali ta'sir ko`rsatdi.

Dunyo kutobxonlari Rimning ulug` elegiyanavis shoirlaridan biri Ovidiydir. Uning poetik maxorati o`zi hayotlik davridayoq keng kulamda yoyilgan, uning barcha yozganlarini zamondoshlari havas bilan o`qigan. She'rlarini sahnalashtirib uylarining turli devorlariga bosib quyganlar.

Avgust zamonasi oxirgi ulug` shoiri, eleginavis shoirlarning eng so`nggi buyuk vakili Publiy Ovidiy Nazondir. Uning hayotiga doir ozmi- ko`pmi ma'lumotlarni biz faqat shoirning asarlaridan olamiz. Shu manba'larda ma'lum bo`lishicha, Ovidiy eramizdan oldingi 43 yilda Sulmon shahrida, qadimiy suvoriylar urug`iga mansub badavlat xonadonda tug`iladi. Ovidiy va uning akasi bolalik chog`larida Rimga kelib, davlat mansablariga tayyorlanish maqsadida barcha zadagonlarning farzandlari singari notiqlik ilmini o`rganishga kirishadilar. Biroq bu davrda Suz san'atining mohiyati tamomila o`zgarib ketgan edi. Respublika zamonlarida atoqli davlat arbobi senat kengashlari, sud yig`inlari, xalq majlislari minbaridan turib, o`zlarining maslak va g`oyalarini tashviq etgan bo`lsalar, Avgustning yakka hukmronlik siyosati sharoitlarida notiqlik hunari o`zining o`tmishdagi siyosiy va ijtimoiy qimmatini tamomila yo`qotib faqat maxsus maktablarda o`tkaziladigan oddiy bir mashqqa aylanib qolgan edi. Bu maktablarning talabalari falsafa, tarix, adabiyot va boshqa fanlar bilan bir qatorda muallim tomonidan tavsiya etilgan turli - tuman mavzularda so`z to`qishni ham o`rganganlar.

Ovidiyning adabiy faoliyati 3 qismdan iborat “Amores” (“Ishqiy elegiyalar”) to`plami bilan boshlanadi. Shu janrning taomillariga ko`ra, to`planning bir qancha she'rlari shoirning Korinna degan ma'shuqasiga bag`ishlangandir. Korinna kim, umuman, bunday ayol bo`lganmi, bo`lmaganmi - bu masalani aniqlashning aslo iloji yo`q. Ishqiy elegiyada o`rnashib qolgan taomiliga amal qilib, shoir o`zining xayolida shu obrazni yaratgan bo`lishi ham ehtimoldan uzoq emas. Ovidiy ham o`zining elegiyalarida asosan, sevgining Oam g`ussalari, qayg`u hasratlari, sevinch va shodliklar haqida gapirib, ko`p jihatdan Tibull hamda Propertsiyning mavzularini takrorlaydi. Biro, Ovidiyning, umuman sevgi ehtiroslariga, hayot voqealariga qarshi, shuningdek



adabiy usuli tamomila boshqachadir. Ma'lumki Ovidiydan oldin o'tgan ko'pchilik Rim shoirlari -Vergiley, Goratsiy, Katull, Tibull, Propertsiy va boshqalar o'z asarlarida yashab turgan davrlarni bir qator nuqsonlaridan (ichki urushlar, axloqiy buzuvchiliklar) norozi bo'lib, chinakkam baxt - saodatni Rim tarixining uzoq o'tmishlaridagi "Oltin davr" pallalarida axtarar, o'sha "Baxtiyor" kunlarning qaytib kelishini qumsab zamondoshlarinig tabiat bag'riga chiqarar, ozoda hayot makoni bo'lgan qishloq sharoitlarida umr kechirishga da'vad qilar edilar. Manna bu kayfiyatlar Ovidiy uchun tamomila begona. Shoir Rimning "baxtiyor o'tmish" tushunchalariga, Avgust tomonidan keng suratga targ'ib va tashviq qilinayotgan qadimgi patriarxal axloq va odob g'oyalari shubha va ishonchsizlik bilan qaraydi. "Oltin davr" paytlarini shonli yillar emas balki insoniyatning vahshiylik asri, deb ta'riflaydi va o'sha zamonlarda tug'ilmaganligi uchun o'zini baxtiyor xisoblaydi. Binobarin, Ovidiyning sevgi sarguzashtlari Tibullning muhabbati singari beg'ubor hayol osmonida, afsonalarda chulg'angan sokin tabiat bag'rida emas, aksincha Rimning kundalik hayoti olag'ovur shahar sharoitida kechadi. Shuningdek Ovidiyning elegiyalarida Tibull hamda Propertsiy asarlarida bo'lgani kabi chu'ur muhabbat tuyg'ularini, og'ir istirob alamlarini, sevgi yulida fidoiylik va samimiylkni axtarish ham befoyda. Shoirning o'z tili Bilan ayiganda, u faqat "Hurram muhabbatining xushchaqchaq kuychisi" bo'lgan. Ovidiyning oldingi shoirlardan Yana bir katta farqi shundaki bu adib Vergiliy ijodida boshlangan usulini davom ettirib, o'zining ijodida notiqlik san'ati qoidalaridan benihoyat keng foydalanadi va shu yusin Rim poeziyasining kelgusi taraqqiyoti yulida yangi davrni boshlaydi.

Ovidiy ijodining eng yuksak namunasi «Metamorfozalar» deb nomlanadi bu asar 15 bobdan iborat bhlib 12 ming mista she'rni o'z ichiga oladi. Yunon va Rim mifologiyasida juda ko'p uchraydigan ma'bud va ma'budalarning va odamlarning yashinlik olamiga va jonivorlarga munosabatlari hikoya qilinadi. Shoir bu asrda dunyoning yaratilishi, odamlarning ajoyib hayotlarining bayoning beradi, ishqiy elegiyalar to'plamida va oltin davr rivoitlarini tanqid ostiga oladi insoniyatning vahshiylik asri deb atalishiga sabab bo'lgan nuqtalarni ko'rsatib beradi.

Jahon shoirlari Ovidey xotirasiga bir qancha hazin va qizg'in she'rlar yozgan. Ovidiyning tutqinlikda yozgan she'rlariga ergashib o'zlarinig qismatini belgilaydigan asarlar bitganlar. So'nggi davrda Rim shoirining ijodiy faoliyatiga dillarni maftun etuvchi asarlariga yuksak baho berildi.

### **Mavzu: O`rta asrlar adabiyoti.**

#### **Reja:**

1. Qadimgi dunyoning yemirilishi va feodal munosabatlarning yuzaga kelishi.
2. Qahramonlik eposlari.
3. XII-XIII asrlar Ritsar- Kurtuaz adabiyotining o`ziga xos xususiyatlari.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.Sh.Normatova. Jahon adabiyoti. T., 2008.
- 2.O.Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1996.
- 3.F.Sulaymonova. "Sharq va G`arb". T., 1997.

Feodalizm negizida shakllangan o`rta asrlar adabiyoti antik, quldorlik jamiyatini o`z ichiga oladi. Bu davr IV-V asrlar mobaynida shaharlar o`z qiyofasini yo`qotib savdo-sotiq, shaharlar o`z qiyofasini yo`qotgan bir davrda paydo bo`ldi. Feodalizm ushbu asrlardan paydo bo`lib, XI-XV asrlarda o`zining yuqori bosqichiga ko`tariladi. XVI-XVII asrlarda inqirozga uchraydi. Ana shu davrda Italiya, Galya, Ispaniya lotin tilini qabul qiladi. Kelt qabilalarining ko`pchiligi xristiyanlik lotin tili rim madaniyati ta`siriga bo`y sundiriladi. O`rta asrlar adabiyotining shakllanishida xalq og`zaki ijodi, antik san`at va xristiyan dini katta ta`sir ko`rsatadi. Bu davrda antik adabiyotining ulug` shoirlari Ovidiy Nazon asarlari katta ahamiyat kasb etadi. A.Makidonskiy haqidagi ertaklar, V.Maronning “Eneida” poemasi “Ritsar” roman va qissalari paydo bo`ldi.

O`rta asrlar adabiyoti X asrni o`z ichiga oladi. Bunda qabila tuzumining inqirozi va feodalizmning barpo bo`lishi davri adabiyoti, rivojlangan feodalizm davri adabiyotini o`z ichiga oladi. Feodalizm taraqqiy etgan davri XI-XV asrlarda uch turdagi badiiy ijodi xalq adabiyoti, klerikal va feodal ritsar adabiyoti mavjud edi. O`rta asrlar adabiyotida adabiy meros va arxitektura sohasida noyob yodgorliklarni bizga hadya etdi. Bu davrni adabiyotshunoslar buyuk progressiv o`zgarish davri deb aytdilar. J.Bokkachcho, F.Rable, V.Shekspir va M.Servantes kabi ijod ahli yetishib chiqdi.

Bu davrda Fransuz adabiyotida jangovor yurish, maishiy hayot, diniy urf-odat va vatanparvarlik haqidagi qo`shiqlar yaratila boshlandi. Bu asarlarda ishtirok etuvchi qahramonlar mard-jasur, saxiy va odamlarga yordam beradigan kishilardir. Ana shunday qahramonlik eposining yuksak namunasi sanalgan asarlardan biri “Roland haqida qo`shiq” deb nomlanadi. Qo`shiqda franklar qiroli Karlning mavr-saratsinlar bilan olib borgan jangi tasvirlanadi. Xalq dushmanlar tomonidan o`ldirilgan Roland uchun qasd oladilar. Ispan mavrlarining bu jangda Karlning Pireney tog`laridan o`tib, ko`p yerlarni ishg`ol qilganligi tasvirlangan. Qo`shiqda Roland Oliver, Karlning betimsol kuchli ekanligi tasvirlangan.

Qirolning vassallari-katta yer egalari graf, gersok va boshqalar o`zlari mustaqil hukmronlik qila boshladilar. Provans feodal hukmronlar dunyoviy ritsar madaniyatini yuzaga keltiradilar. Bu adabiyot saroyga xos kurtuazcha nafislik, xonimlarga nisbatan odob tovoziy xushmuomila qilishni talab etgan. Ayollarga bunday munosabat provans shoirlari trubadurlar ijodida katta o`rin tutgan. Trubadur qo`shiqlari yaratgan janrlar kansona – sevgi qo`shig`i, sirventa asosan xarakteridagi qo`shiqlarda tensona sevgi, adabiy falsafiy mavzulardagi she`riy dialoglardan iborat bo`lgan.

### **Mavzu: Italiyada uyg`onish davri adabiyoti**

#### **Reja:**

1. Uyg`onish davrining asosiy xususiyatlari.
2. Dante Aligeri ijodi.
3. Petrarka va Bokkachcho ijodi.

#### **Adabiyotlar:**

1.Sh.Normatova. Jahon adabiyoti. T., 2008.

2.Dante A. "Ilohiy komediya". T., 2001.

3.O.Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1996.

Italiya Ovrupa Uyg'onishining ilk markazi xisoblanadi. XIV asrning ikkinchi choragidan boshlangan. Uyg'otish (Renessans) davri XVII asrgacha davom etadi. Italiyaliklar bu davrlarni «Chinkvechento» deb ataydilar.

XVI asrning ikkinchi choragidan boshlab butun Italiya bo'ylab manufaktura keng kurtak yoza boshladi, Buyuk geografik kashfiyotlar yuz berib Amerika va Hindistonga dengiz yo'llari ochildi, buyuk dehqonlar qo'zg'olonlari bo'lib, feodalizmga keskin zarba berila boshlandi. Natijada yangi burjuaziya tuzumining unsurlari tezlik bilan paydo bo'la boshladi. Diniy aqidalardan holi bo'lgan hayotiy adabiyot va madaniyat paydo bo'lib gurkirab rivojlana boshladi Feodal tartib qoidalarini inkor etuvchi yangi mazmundagi ilg'or g'oyaviy yunalishlar maydonga kela boshladi. Eng muximi insonni ulug'lash, o'z o'zini anglatish harakati keng quloch yozib, bu harakatning boshida o'sha davr eng ilgor va faol ziyolilarni birlashtirgan uzlarini gumanistlar deb e'lon qilgan buyuk kishilar turardi. Ular qadimgi (antik) va Yunon rim madaniyati hamda adabiyotiga suyangan holda ish ko'rib, o'zlarining insonparvarlik g'oyalari, buyuk asarlari va amaliy demokratik ishlari bilan jahonga keng tanildilar. Bular esa Uyg'onish davrini keltirib chiqargan eng muhim omillar edi.

Bu davrni biz; nemislar reformatsiya deb ataymiz, frantsuzlar-renessans deb italyanlar esa chinkvechento deb ataydilar, ammo uning mazmunini bu nomlarning birontasi ham tula ifoda qila olmaydi. Vizantiya yiqilgan paytda saqlanib qolgan qo'lyozmalar, rim harobalaridan qazib olingan antik haykallar xayratda qolgan g'arbning ko'zi oldida yangi dunyoni – qadimgi grek dunyosini gavdalandirdi, uning porlok obrazlari oldida urta asrning sharpalari ko'rinmay ketdi. Italiyada san'at mislsiz darajada yuksaldi, bu yuksalish guyo klassik qadim zamonning shu'lasi bo'ldi va keyinchalik unga erishish aslo mumkin bo'lmadi. Italiya, Fransiya va Germaniyada yangi, hozirgi zamon adabiyoti vujudga keldi. Shundan so'ng ko'p vaqt o'tmay Anliya va Ispaniya uz klassik adabiyoti davrini kechirdi.

Bu o'sha davrga qadar insoniyat boshidan kechirgan keskin o'zgarishlar ichida eng buyuk progressiv o'zgarish edi, titanlarga muxtoj bo'lgan hamda tafakkur kuchi, zavqu ehtirosi, xarakteri, har taraflama ma'lumotlilik va bilimdonligi jihatidan titanlarni vujudga keltirgan davr edi.

Uyg'onish davrida Italiyada sanoat keskin suratlar bilan rivojlana bordi. Venetsiya, Genuya, Florentsiya kabi shaharlarsavdo sanoat va bank ishlari keng taraqqiy etayotgan markazlarga aylandilar. Fan va madaniyat taraqqiyotida Italiya qanchalik ilgarilab ketganligini uyg'onish davrida bu mamlakatda 22 dorilfunun ochilganligidan ham yaqqol ko'rish mumkin. Bu oliy o'kuv yurtlarida grek va rim san'ati adabiyoti tarixi, matematika, fizika, astronomiya kabi fanlarning o'qitilishiga jiddiy e'tibor berildi, Uyg'onish davrida, arxetiktura, haykaltaroshlik, musavvirlik san'ati, badiiy adabiyot o'zining eng yuksak bosqichlariga ko'tarildi. Uyg'onish davrida eng buyuk yuksakliklarga ko'tarilgan Italiya ilg'or badiiy adabiyotining eng muhim vazifasi inson erkini, ozodligini kuylash, ulug'lash bo'ldi. Yana Uyg'onish davri adabiyoti insonning eski feodalizm tuzumiga bo'lgan isyonini, uni diniy cheklanganlik qobg'idan ozodlikka olib chiqishni, inson his tuyg'ularini qo'zg'atuvchi hayotiy cheksiz guzallikdan baxra olishga o'rgatishni o'z

oldiga maqsad qilib qo`ygan edi. Bu borada Dante, Petrarka, Bokkachcho, Politsiana, Makiavelli, Ariosto kabi badiiy adabiyotning ulkan zotlarining xizmati beqiyos bo`ldi.

Italiya Uyg`onish davri adabiyotining yirik vakillari insonni nuqsonlar bilan qoplangan gunohkor banda deb barcha o`quv tarbiya ishlarini ilohiyot ilmiga bo`ysundiradigan feodal tarbiya va o`qitish tartiblariga ham keskin qarshi chiqib, o`rta asr pedagogikasi juda ko`p nuqtalarini ochib tashladilar va insonga har tomonlama yetuk bilimlar berish kerakligini ko`tarib chiqdilar. Bu xayrli insonparvarlik ishlarining tepasida italyan adabiyotining buyuk vakillari turardilar.

Uyg`onish davri adabiyotini to`rt davrga bo`lib o`rganish mumkin.

1 davr XIII asrning oxiri va XIV asrning boshlarini o`z ichiga qamrab oladi. Bu davr adabiyotini olimlar Uyg`onish davri oldi adabiyoti ham deb ataydilar. Haqiqatan ham bu davrda tug`ilib kelayotgan Italiya Uyg`onish davri adabiyotigi tag zamin yaratila boshlangan edi.

2 davr XIV asrni o`z ichiga qamrab olib, bu davr adabiyoti «Ilk Uyg`onish davri adabiyoti» nomi bilan ataladi.

3 davr XV asr Italiya Uyg`onish davri adabiyoti XV asrning oxiri va XVI asrning boshlaridagi adabiyot bo`lib, bu davrlarda Uyg`onish cho`g`lari endi bir oz pasaya boshlab feodal katolik xurujlari yana kuchaya boshlagan edi.

Shu narsani alohida qayd etish kerakki, mashhur italyan shoiri Gvido Gvintselli (1230-1274) o`z ijodi jarayonida ilk bor yangi bir davrga intilganligi seziladi. Uning hayoti haqida bizgacha juda oz manba va ma`lumotlar yetib kelgan. Gvido Bolonya shahrida tug`ilgan. U xuddi otasidek xukukshunos bo`lib yetishgan va navqiron yoshligida hayot bilan xayrlashgan. Uning poeziyasida ya'ni hayot uchun kurash g`oyalari bor edi, uning poeziyasidagi kurashchanlik kayfiyati uning shogirdlari bo`lmish florentsiyalik shoirlar tomonidan davom ettirilgan edi. Gvintselli ilk bor antik dunyo adabiyoti vakillari ijodiga diqqat qilib; ular erishgan ijodiy tajriba va yutuqlardan foydalana boshlagan edi.

Gvintselli o`zining nazmida o`sha davrlarda ko`ylash rasm bo`lgan xonimlar va janoblarning oldi qochdi sevgi iztiroblarini emas, balki haqiqiy oshiq yuragining iztiroblarini kuylashga o`tadi. U o`zining «Toza qalblarda sevgi orom topadi» degan she'rida muxabbat nima?-degan savolga javob berib, u faqat yuksak qalbi insonlar qalbida turadigan eng oliy tuyg`ular ekanligini qayd etadi.

Italiya Uyg`onish oldi shoirlaridan yana biri, mashxur Gvido Kavalkanti (1260-1300) bo`lib, u poeziyadagi yangi uslubdagi shirin shakar yunalishga salmoqli hissa qo`shgan edi. U Florentsiyada tug`ilib kelayotgan yangi uslubdagi poeziyani asoschilaridan biri edi. Uning atrofida Djanni Alfani, Lapo Djanni, Chino da Pistoya, dano Freskobaldi kabi shoirlar bor edi. Dante o`zining «Yangi hayot» kitobida Gvido Kavalkantini «Mening birinchi do`stim» deb atagan edi.

Florentsiya shoirlari ikki guruhga «Oqlar» va «Qoralar» ga bo`linib ketadi. «Oqlar» boshida taraqqiyparvar shoir Gvido Kavalkantiturar edi, «Koralar» ni esa shoir Corso Dante boshqarar edi. Florentsiya hukmdorlari shahar osoyishtaligiga putur yetkazayotgan har ikki shoirni surgunga yuboradi. Lekin tezda Gvido oqlanadi, lekin surgundaligidayoq qattiq kasalga chalingan shoir vataniga qaytishi bilan 1300-yilda vafot etadi. Gvido Kavalkanti U xuddi Gvido Gvintselli kabi insoniy sevgani ulug`lagan. Bu hamda «Xonimning menga iltijolari» degan she'rigi guvohlik berib turadi. Gvido Dantiga murojaat tarzida yozilgan «O, agar sevgiga loyiq bo`lsaydim». Degan she'rida esa sevgini

xech bir la'natlamaydi, balki uning hukmiy salobatidan holi bo'lishga intilishi sezilib turiladi.

Chinoda Aistoyya (1265-1336) o'am Italiya ilk Uyg'onishining mashxur shoiri bo'lib, u siyosiy partiyalar kurashlarida ham ishtirok etadi. U Dante bilan do'st tutingan shoirdir. Chinoda shoir va huquqshunos va mutafakkir edi. U shoir bo'lish bilan birga nomdor huquqshunos ham bo'lib, bu fan sirlarida Bolonoya, Siena, Florentsiya, Perudji, Neapol shaharlaridagi universitetlarida muammoli ma'ruzalar o'qigan.

Chino ham o'zidan oldingi shoirlardek sevgi haqida yozgan. Uning ishqiy she'rlarining aksariyati o'zining sevgilisi Seldvadjaga bag'ishlangan. Bokkachcho Chinoda Pistoyyani Dante va Kavalkanti bilan bir safga qo'yadi.

Umuman, yuqorida qayd etilgan shoirlar ijodi tom ma'nodagi Italiya Uyg'onish davrining mashhur shoiri Petrarka poeziyasi uchun boy bir ma'naviy poetik olam yaratdi. Demak, XIII asrning oxiri XIV asrdan boshlab Italiyada adabiyot va san'at tez suratlar bilan taraqqiy eta boshladi. Gvido Gvinitelli va Gvido Kaval Kanti kabi mashhur shoirlardan adabiyot yalovini qabul qilib olgan Dante AligeriItaliya o'rta asr feodal davrining oxirgi va Uyg'onish davrining birinchi shoiri edi.

## DANTE IJODI

Dante 1225-yil may oyining ikkinchi yarmida Florentsiya eski dvoryan oilasida dunyoga keldi. Uning otasi dvoryan tabaqadan bo'lishiga qaramay xalqning quyi tabaqasi qo'llab quvvatlaydigan, o'z navbatida ularning manfaatlarini himoya qiladigan gvelflar partiyasining a'zosi edi. Dante Aligeri ham otasining siyosiy yulini davom ettirib savdo hunar partiyasi gvelflar partiyasiga a'zo bo'lib kiradi.

Dante Bolonyada huquqshunoslik maktabida o'qib bilim oladi, frantsuz, ingliz va qadimgi Yunon tillarini o'rganadi. Antik adabiyotga qiziqib, uni sevib o'rgana boshlaydi. Dante juda erta lirik she'rlar yozishga kirishadi.

Shu narsani aloxida qayd etish kerakki, Dante voyaga yetib kelayotgan davrda Italiyada Markazlashgan hokimiyatni yuzaga keltirish uchun kurashayotgan dvoryanlar partiyasi-gibellinlar bilan milliy davlat tuzishga intilayotgan, demokratik yunalishlarni qo'llab quvvatlayotgan savdo hunardmandlarga tayanadigan gvelflar partiyasining bir-biriga qarshi siyosiy kurashlari nihoyatda qizib ketgan edi. Ayniqsa, Dantening vatani bo'lmish Florentsiya bu siyosiy kurashlarning markaziga aylangan edi.

Dante siyosiy kurashlarga berilib ketib Florentsiya kommunasi tomonida bo'lib turib dvoryanlar partiyasining a'zolari gibellinchilarga qarshi keskin kurash olib bordi. Dante gvelflar partiyasining sul kanotini tashkil etadigan ok gvelflar tomonida turib mansabparast papa Bonifatsiy 8 tartib koidalarga qarshi kurashdi. Birok papa partiyasi g'alaba qozongach 1302-yilda Florentsiyadan quvilgan Dante darbadarlikda Verona, Mantuya va Parijda yashadi.U bir umr uz ona yurtiga qaytib kelish ishtiyoqida kuyib yondi, lekin uning bu niyati ushalmadi.Dante umrining so'nggi yillarini xam Lukka va Ravenada o'tkazib, vataniga qaytib kelmasdan xayotdan kuz yumdi.

Dante chet ellarda surgunda hayot kechirish jarayonida uning siyosiy ongi uzil kesil shakllandi.U bir umr Italiyada tinchlik va birlik urnatilishini orzu qildi, shoir o'zining bu ezgu orzusi papa hokimiyatiga imperator hokimiyati zarba bersagina amalga oshishi mumkin, degan xulosaga kelgan edi. Dantening birinchi lirik she'rlar to'plami «Yangi xayot» deb nomlangan edi. Bu lirik to'plamga Dante o'ttizta she'rini joylashtirgan. Shoir mazkur lirik she'rlarida go'zal ayol Beatriche Portinariga bo'lgan o'zining buyuk

muhabbatini hikoya qiladi. Beatriche Florentsiyalik yosh va nihoyatda go`zal ayol bo`lib, 1290-yilda 25 yoshga tular tulmas bevaqt vafot etgan edi. Bu go`zal ayol Simon dei Bardi degan kishiga turmushga chiqib, ular tezda ajralishgan edi. Dante «Yangi xayot» ni 1292-1293-yillar ichida yozgan. Bu davrlarda Italiya jamoatchiligi yangi bir hayotni qo`llab, uning busag`asida turar edi, san'at, poeziya, falsafa olamida ham yangi bir yunalishga intilish kuchayib borayotgan edi.

Dantening mazkur she'riy to`plami yaxlit bir kompozitsion qurilma asosiga birlashtirilgan bo`lib, bu to`plamni Beatriche dei Bardiga bo`lgan shoirning buyuk muhabbatini hikoya qiluvchi sevgi qissasi ham deb atash mumkin. Dante Biatrigheni pokiza va musaffo qiz deb ataydi. Beatriche shoirga bitmas tuganmas ilxom berib, ijodiy izlanishlarga qanoatlantirgan. Shoir aytadiki, kimki agar Biatrigheni ko`rishga muvaffak bo`lsa, undan ham uzoqlashadi. Umuman, «Yangi hayot» ni Dante qalbining nozik ruxiy kechinmalarini ifoda etuvchi muhabbatnoma deb ham atash mumkin. Asardagi Beatriche esa sevgi va poklik timsoliga aylangan.

Danteni sevgilisi Beatrichening o`limi larzaga soladi. Uning o`limi Dante tomonidan insoniyat boshiga tushgan bir samoviy falokatdek talqin etiladi. Shoir endi uzini ovutish uchun falsafa bilan shug`ullana boshlaydi va qiska bir muddat ichida shoirning «Ziyofat» (1307-1308) «Xalq nutqi xaqida». 1305, «Monarxiya haqida» 1313 kabi axloqiy-falsafiy risolalari maydonga keladi.

Agar Dante «Ziyorat» asarida ikki hokimiyatchilikni qoralab, dindan mustaqil bo`lgan dunyoviy tuzumni orzu qilgan bo`lsa, «Xalq nutqi haqida» gi risolasida esa roman tillarining kelib chiqishi haqida muloxazalar yuritib, yagona Italiya milliy tilini yaratish kerak, degan fikrni o`rtaga tashlaydi. Dantening «Ziyorat» va «Xalq nutqi haqida» gi asarlarini an'anaviy eski lotin tilida emas, balki jonli italyan tilida yozishi ham o`sha davr madaniy hayotida katta voqea bo`lgan edi.

Dantening «Monarxiya haqida» degan asari ham siyosiy-falsafiy yunalishda bo`lib, bu asarda muallif papa Bonifatsiy 8 ning siyosiy faoliyati, uning xokimiyatga intilishi kattik koralanadi. Uning bu asari ta'qiqlangan kitoblar qatoridan urin olgan edi.

Dante ijodining eng yuqori chuqqisi uning «Iloxiy komediya»sidir. Bu asar Dantening siyosiy, falsafiy va adabiy faoliyati kamolatining eng oliy mevasidir.

«Iloxiy komediya» Dantening 35 yoshlarda qorong`i o`rmonda adashib qolishi bilan boshlanadi. Komediyaning bunday boshlanishida katta bir ramziy ma'no bor. Qorongu o`rmon ramzida Dante o`zi hayot kechirayotgan tuzumga ishora qiladi. Qorongu o`rmonda adashib qolgan o`rmonga tutash bo`lgan balandlikdagi kuyosh shu'lasini tushib turgan katta bir maydonga chiqishga bor kuchini sarflab harakat qiladi. Bu maydon Dante asarida adolat maydoni va inson har tomonlama o`zini baxtiyor, ozod, xis qiladigan bir oliy manzilgox ramzida ham beriladiki, shoir o`zining bor kuchini tuplab unga chikib olish uchun olga intiladi. Lekin erkinlik maydoni Dantega juda yaqin tuyulsa ham unga erishish osonlik bilan kechmaydi. Bu yuq Dante uchun duzax orqali utadi. Shoir o`zining duzax oldidagi xolatini shunday ifoda etadi:

Kun qaytib borardi, qorayib osmon,  
Zamin jonzotlari kirdi uyquga,  
Faqat men turardim besaru osmon.  
O`zni chog`lar edim safar, qutquga,  
Xadikka solardi lekin mashaqqat,  
Chidarmanmi derdim azob, kayguga

(Shoir Abdulla Oripov tarjimasi, bundan keyingi «Duzax» dan keltiriladigan she'riy parchalarni ham A.Oripov tarjima qilgan).

Dantening qorong`u o`rmonda yulini to`shiga harakat qilgan epchil bars, och yulbars, yomon niyatli bo`rilar ham ramziy timsolga ega. Bars timsolida Dante o`sha davrda qora guruxlar boshqarayotgan davlat idora usullarining ramzini beradi. Lekin bars Dantening quyosh shu'lasini tushib turgan ozodlik timsoli bo`lgan tepalikka intilishiga unchalik tusik bo`la olmaydi.

Ana shunda uning oldini och yulbars va bir buri to`shib chiqadi. Sulbars bu konxur monarxlarning timsoli, zulm va haqsizlik timsoli sifatida ifoda etilgan. Buri esa o`ziga bino qo`yish va pastkashlikning timsoli. Bu fazilatlar ko`prok davlatpanox va cherkovga, ya'ni «semiz, yog`li kishilar» qatlamining ramzi ekanligi shundoqqina ko`rinib turadi. Dante hammasidan ham ko`ra och qashqir timsolidan qo`rqadi, chunki shu och suri shoirni o`rmondagi qorong`u burchakka siqib quyib, uning yuli zulmat orqali utishiga sababchi bo`lganligini ta'kidlaydi:

Kashkirning dastidan tortdim kup kulfat,  
Ta'qib etar ekan yovuz nazari-  
Yuksaklikdan hatto qaytgan edi shaxt.

Meni ham chulgagan edi gulgula.  
Ta'kib etar ekan izma-iz kashkir  
Zulmatda qolgandim endi bir yula.

Shunda dantega Beatriche yordamga keladi. U qorong`u urmonda adashib qolgan Dantening oldiga ustozini mashxur Rim shoiri Vergiliyni yuborib, unga ko`mak berishni iltimos qiladi:

Zulmat vodiysida edim betadbir,,  
Bir zot paydo buldi qarshimda nogox,  
Guyo tanho belutod, toliqqan, xaqir.

Vergiliyni Danteni himoya qilib, unga yul ko`rsatadi va Beatriche kutayotgan jannatga o`tishdan oldin uni duzaxda azob chekayotgan jonlarni kurishga undaydi:

Undadir qadimiy arvoxlar bari-  
Ular faryodiga solarsan quloq,  
Tinglarsan nechog` zo`r iltijolari.

Dante tuqqiz qavatdan iborat bo`lib, yerga voronka shaklida yotkizilgan duzaxga qadam tashlar ekan, uning yo`lagida qo`rzoqlar, sharafsizlar yotganligini ko`radi. Yozuvchi ularni hatto duzaxga kirishni ham o`ziga ep bilmaydi, ular hatto duzaxga ham kirishga noloyiq ekanligi shoir tomonidan ta'kidlanadi. Duzaxning ikkinchi qavatida Vavilonning afsonaviy malikasi Semiramida, Kadfen malikasi Didona, Misr malikasi Kleopatra, go`zal yelena, Paris va boshqa ko`plab kishilarning arvoxi muallak uchib yurganligining guvoxi bo`ladi.

Dante bu yerda Paolo jonli yigit bilan Francheska da Rimini degan go`zal qiz hikoyasini tinglar ekan, ularning begunox ekanligini, bir-birini jon dildan sevishganlar baxtiga zomin bo`lganlarni qoralaydi. Dante qizning muhabbat foijasi hikoyasini tinglar ekan bexush bo`lib yiqiladi, ularga xamdard bo`ladi, lekin nima uchun ularni Dante do`zaxga tashlashi masalasi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, Francheska paologa

turmushga chiqib nikoh uqitilgan edi. Ular ana shu muqaddas nikox aqidalarini buzadilar, lekin qiz bilan paolo nikoxdan oldin ham bir-birini qattiq sevishganlarini, qizni aldab Paologa emas, uning akasi Sinxor Djanchottoga qayliq tifatida uzatilishi, keyin fojia yuz berib Djanchotto qiz bilan yigitni jinoyat ustida qo`lga tushirib, qilich bilan tushirib, qilich bilan chopib tashlashini eshitib xushidan ketadi. Dantening Francheska bilan paologa xayrihoxhigi yozuvchining tug`ilib kelayotgan yangi Uyg`onish davri gumanizmiga xos bo`lgan oliy tushunchalarining belgisi edi. Duzaxning uchinchi qavatida yeb-tuymas, mechkaylar; turtinchisida isrovgar papa va kardinamar, beshinchisida zolim shohlar ,monarxlar; oltinchi kavatida daxriylar, sakkizinchi qavatida esa firibgar-aldoqchilar, o`z sha'nini sotganlar o`t ichida jazolanadilar.

Dante do`zaxning eng oxirig daxshatli 9-doirasiga eng ogir jinoyat qilganlar-xoinlik qilganlarni tashlaydi, ular qattiq muz ustida azob chekishga hukm qilingan. Bu yerda Dantening o`rtog`i graf Ugolino ham dahshatli azoblarni boshidan kechirmoqda. Graf Ugolino haqiqatan ham tarixiy shaxs bo`lib, u o`zi mansub bo`lgan oq gevelflar partiyasining sirlarini badkirdor arxiepiskop, gibellinlar partiyasining boshlig`i Rudjeriga ishonib aytib quygan edi. Gibellinlar yengib chiqqach Ugolinani qasddan ayblab uni ikki ug`li va ikki nabirasi bilan zindonga tashlagan edilar.Ochlikdan to`rta la farzand ham zindonda halok bo`ladi. Ugolina o`lib yotgan bolalari va nabiralarning jasadini g`ajishgacha borib, o`zi ham ochlikdan halok bo`ladi.Ugolina do`zaxda tinmasdan bolalarining suyaklarini g`ajishdan ovora. Shoir uning do`zaxdagi daxshatli holatlarini quyidagi satrlarda chizib beradi:

U makrux kalladan og`zini tortdi  
 Va konga belangan daxanu labni  
 Mahkumning g`ajilgan sochiga artdi.  
 Jim qoldi va birdan rostlab nafasin  
 Og`iz soldi ayanch kalla chanoqqa,  
 Xuddi it suyakka tashlangan yo`sin.

Vergeliy Danteni omon-eson «Do`zax» dan chiqarib olib yetti bosqichdan iborat «Atrof»ga olib chiqadi va u yerdan to`g`ri jannat eshigi oldida sabrsizlik bilan kutib turgan Beatriche huzuriga yetib oladilar. Beatriche Vergeliy sevgilisi Danteni jannatga olib kirib ketadi.

Umuman, Dantening «Iloxiy komediya»si realistlik asar ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Komediya-dagi Dante ijodiga xos bo`lgan qarama- qarshi ziddiyatlarning ifodalanishiga kelsak, ular shoirning tom ma'nodagi Uyg`onish davrining shoir emasligida, chunki uning ijodining ko`p eski qismi zamon tartib-aqidalari zaminida kechganligi bilan ham izohlanishi lozim.

Umuman, Dantening «Ilohiy komediya» si jahon adabiyoti tarixida ulkan bir yodgorlik bo`lib qoldi va pastkashlik va qora guruxlarni fosh etuvchi buyuk bir asar sifatida badiiy qimmatini xech qachon kamaymaydi. Dante umrining oxirigacha adolatparvar shoir sifatida qoldi. 1315-yilning may oyida Florentsiya hukumati Dantening gunohlaridan o`tish haqida amnistiya e'lon qildi, bu amnistiya binoan shoir o`z vataniga qaytib kelishi mumkin edi, lekin buning uchun Dantedan oldingi ilg`or dunyoqarashlaridan, yozgan falsafiy- siyosiy asarlaridan voz kechishi kerak edi. Lekin Danteday buyuk haqiqatguy, adolatchi, insonparvar bunday qilolmasdi. Shundan so`ng Dante ikkinchi bor sirdan o`lim jazosiga hukm qilinadi, bu sahar uning o`g`illari ham



sirtidan o'lim jazosiga hukm qilingan edi. Dante 14-sentabrga o'tar kechasi 1321- yilda vatanidan uzoqda vafot etdi.

## **FRANCHESKO PETRARKA**

(1304-1374) Italiya Uyg'onish davri gumanizmining buyuk vakili.

Italiya Uyg'onish davri gumanizmining buyuk vakili Franchesko Petrarka yetuk shoir; antik adabiyot olamini o'rganuvchi yetuk olim, mutafakkir, notiq sifatida olamga tanildi.

Franchesko Petrarka 1304-yil, 20-iyulda Aretstso degan shaharda notarius oilasida dunyoga keldi. Uning otasi asli Florentsiyalik bo'lib, Dantening sodiq do'stlaridan bo'lib, gvelflar partiyasining halokati munosabati bilan Florentsiyadan quvilib Aretstso shaharchasiga ko'chib kelib boshpana topgan edi. Petrarka Italiyaning Monpele va Bolonya shaharlarida huquqshunoslik sirlarini o'rganib, 1326-yilda ota-onasidan ajralgandan so'ng papa saltanati joylashgan Avinonga qaytib ruxoniylikni kabul kiladi. Lekin Petrarka ruxoniylik xukumatigak o'tgan bo'lsa ham cherkov mansabini sotish, aysh-ishratlar bo'lajak buyuk shoirning nafratini kuzatgan edi. U shoir sifatida dunyoviy muhabbatni kuylagan va insonparvarlik g'oyalarini Uyg'onish davrining eng oliy tuyg'usiga otlantirishga juda ulkan xizmatlar qilgan buyuk mutafakkirdir.

Petrarka ijodining daslabki bosqichlaridayoq go'zal ayol Lauraga bag'ishlangan ishqiyy she'rlari bilan olamga mashhur bo'lib ketgan edi.

Petrarka ijodini shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin. Shoir ijodini birinchi bosqichi 1318-1333-yillarga tug'ri keladi. Bu davrlarda Petrarkaning talabalik yillari kechgan bu davrlarda u dastlab lotin tilida she'rlar yozgan bulsa, keyinchalik jonli italyan tilida yozishga ko'chadi. Petrarka ijodidagi ikkinchi davr 1333-1363 yillarga tug'ri keladi. Bu davrda Petrarka o'zining asarlari orqali o'z zamonining siyosiy hayotiga chuqur kirib borib, Italiya milliy birligi uchun tinmasdan kurash olib bordi, gumanizmni ulug'ladi. Masalan, shoir 1347-yilda feodal tartiblariga qarshi Kola di Rientsi boshchiligidagi qo'zg'olonni qo'llab-quvvatlab «Oliy guruh» degan siyosiy kantsonasini kantsona-italyan va frantsuz poeziyasida lirik she'r turi yozgan edi. Bu davrda qahramonlik «Afrika» (1339-1341) poemasi, «Mashhur kishilar haqida» (1338-1356), «Sir» (1342-1343) kabi qator asarlarini yozgan edi. Petrarka bu davrda Fransiya, Germaniya kabi mamlakatlarga sayohat qiladi, antik adabiyot tarixiga oid obidalarini topib, ularni xalqqa yetkazishga harakat qiladi. Shoirning «Afrika» poemasi antik rim adabiyotining yirik vakili Vergeliyning «Eneida» dostoni ta'sirida yozilgan bo'lib, unda Afrikani zabt etgan Rim milliy qahramoni Stsipionning g'alabalari madh etiladi. Shuningdek, Petrarka Vergeliyning «Bukoliklar» Cho'ponlik poeziyasi asariga ergashib o'zining 12 ta cho'ponlik hayotiga oid she'rlarini ham yozgan edi.

Petrarka ijodining 1363-yildan to umrining so'ngi davrlarigacha bo'lgan uchinchi davri ham nihoyatda salmoqli bo'ldi.

Petrarkaning «Unitilmaydigan narsalar haqida» nomli tarixiy asarida, «Dunyoga nafrat bilan qarash haqida» kabi qator falsafiy asarlarida ham Uyg'onish davrining dolzarb muammolari o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, Petrarkaning ruhoniy Avgustin bilan munozarasi juda buyuklik kashf etadi: «Avgustin shoirdagi dunyoviy huzur halovatga intilish, she'riyat bilan band bo'lish, shon-shuhrat va sevgiga berilish kabi xislarning o'tkinchi narsalar ekanini aytib, uni bunday tuyg'ularni yengishga va faqat muqarrar o'lim

va «Narigi dunyo» haqida o'ylashga chaqiradi. Petrarka Avgustin bilan qizg'in munozara qiladi. U sevgi va shuhratga bo'lgan ehtirosidan voz kecha olmasligini, Lauraga nisbatan sevgisi o'zida ko'tarinki rux tug'dirajagini, u o'tkinchi narsani emas, balki o'lmas jonni sevajagini bildiradi». O.Qayumov, «Chet el adabiyoti tarixi», T., «O'qituvchi» 1979-104-bet.

Petrarka ijodida lirika eng salmoqli o'rinni egallaydi. Uning sevgilisi Laura haqidagi «Madonna Lauraning hayoti» va «Madonna Lauraning vafoti» degan ikki qismdan iborat she'rlari shoir ijodida alohida o'rin tutadi.

Shoir go'zal timsolida dunyoviy muhabbatni ulug'laydi. Ehtimol, Lauraning oshiqqa beilifot bo'lganligi sabablimi Petrarkaning ruhiy-ilohiy muhabbatni ulug'laydi.

Lauraning vafotiga bag'ishlangan she'rlarida endi u sevgilisidan zorlanmaydi, balki sevgi bobidagi o'zining qayg'u iztiroblarini jo'shib kuylaydi.

Umuman, Petrarka ijodi Italiya Uyg'onish davri adabiyotining gulojlaridan biri bo'lib, asarlarining badiiy va g'oyaviy qimmatini ham zarracha pasaygan emas.

## **JOVANNI BOKKACHCHO**

(1313-1375)

Italiya Uyg'onish davri adabiyoti Jovanni Bokkachcho ijodi misolida yanada balandrok chuqqiga ko'tarildi. Jovanni Bokkachcho, ayniqsa novellachilikda juda katta muvaffaqiyatlarga erishib, «Dekameron» asari bilan dunyoga tanildi. U Petrarkaning kichik zamondoshi edi. Bokkachcho Umum ovrupa gumanistik madaniyatining ham asoschisi sifatida ham yuksak qadrlanadi.

Bokkachcho Uyg'onish davri gumanizmida o'ziga xos bir tarzda kirib keldi. O'zining asarlarida Uyg'onish davri insonparvarligini hayot bilan mustahkam bog'lashga harakat qilganligi bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, Bokkachcho o'sha davr adabiyotida hali unchalik ko'zga tashlanmaydigan novella janriga mustahkam asos solib, yuqori bosqichga ko'tardi. Uyg'onish davri novellasining asoschisi sifatida jahonga tanildi.

Bokkachcho birinchi bo'lib o'zining mashhur «Dekameron» asarida Uyg'onish davri gumanizmining inqilobiy ruhiyatini jahonga taratdi.

Jovanni Bokkachcho 1313-yilda Florentsiyada savdogar Bokkachcho di Kellino oilasida dunyoga kelgan. Onasining vafotidan so'ng 1330-yilda Bokkachcho Neapolda o'sib ulg'aydi. U yoshlikdan badiiy adabiyotga qiziqadi. U ayniqsa, antik dunyo shoirlari ijodini berilib uqiydi.

Bokkachcho ilk ijodi davrlarida «Filokolo» romanini (1338), «Filostrato» poemasini (1338), «Ameto» cho'ponlik poeziyasini (1341), «Fezolan parilari» poemasini 1345-1346 «Fyametta» (1348) psixologik romanini yozdi. Lekin bu asarlarning hammasi Bokkachchoga uning eng muhim va eng oliy asari «Dekameron» (1352-1354) hikoyalar to'plamini yozishga badiiy mashqlar sifatida xizmat qildi. (Dekameronni 1348-1351-yillarda yozilganligi haqidagi manbalar ham uchraydi).

Bokkachchoning «Dekameron» asari Uyg'onish davri realizmining ulkan yutug'i edi, chunki u diniy asketizmga qattiq ayovsiz zarba bergan Uyg'onish davrining ilk asari bo'lib qoldi.

O'z dunyoqarashi buyicha respublikachilar tarafdori bo'lgan Bokkachcho «Dekameron» asarida xalq og'zaki ijodining eng yaxshi namunalaridan foydalangan holda, xalq madaniy an'alariga yaqin turuvchi marrada turadi. «Dekameron» so'zi grekcha bo'lib, o'n kunlik ma'noni beradi. Florentsiyada tarqalgan o'latdan omon qolish

istagida uning chekkasidagi bog`i Eramga kelgan yetti qiz va uch yigit bu yerda un turadilar va vaqtini hikoya aytish bilan, ya'ni aql-idrok bilan o`latni yengishga qaror qiladilar. «Dekameron» bu o`lat davridagi yigitqizlarning aysh-ishrati emas, balki eski dunyoning yemirilishi ramzini ham beradigan badiiy ko`rinishdir. Qolaversa, asarda 1348-yilda Florentsiyada o`lat bo`lib o`tganligi ham tarixdan ma'lum.

«Dekameron»dagi hikoyachi yigit va qizlar nihoyatda inoqlik va mustahkam ittifoqlikda bo`lib, o`z hayotlarini poeziya og`ushida, erkin va xursandchilik dunyosida o`tkazadilar. Ular o`rtasidagi bunday mustahkam ittifoqning bo`lishi esa shahardagi hayotning o`lat natijasida izdan chiqishi bilan izohlanadi, chunki insonlar boshiga og`ir kulfat ularni bir-biriga mahkam jipslashtirgan edi.

«Dekameron» hikoyalarida chin sevgini ulug`lash, ba'zi bir ruhoniylarning noto`g`ri hatti-harakatlarini qoralash, oddiy kishilarni yonini olish, kuchli jaranglaydi.

Bokkachcho chuqur insoniy tuyg`ularini ulug`lab, Uyg`onish davri gumanizmi bayrog`ini yanada balandga ko`tardi.

«Dekameron» burjua egoizmiga, boylikni intilish, maishatparastlik va ahloqsizliklarga keskin zarba beruvchi asar sifatida ham tarixda mangu qoldi.

### **Mavzu: Angliyada Uyg`onish adabiyoti.**

Reja:

1. Davr va adabiy muhit
2. Angliya adabiyotida dramaning rivojlanishi
3. Shekspirning buyuk tragediyalari
4. Shekspir dramalari o`zbek sahnasida

### **ADABIYOTLAR**

1. Sh.Normatova. Jahon adabiyoti. T., 2008.
- 2.U.Shekspir. Tanlangan asarlar. T., 2008.
- 3.O.Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1996.
- 4.Amerika dabiyoti asoslari. H Karomatov tarjimasini T. 2001.
- 5.Q.Do`stmuhammad. Nobel mukofatini olgan adiblar. T. Ma'naviyat 2004.

Angliyada Uyg`onish davri boshqa Ovrupa mamlakatlariga qaraganda bir oz kechroq yuz bera boshladi. XV asrning oxiri 16 asrning boshlarida paydo bo`lgan Angliya Uyg`onish davri XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida o`zining eng yuqori bosqichiga ko`tarildi.Lekin Angliya Uyg`onish davri bir oz kechroq boshlangan bo`lishiga qaramay, boshqa Ovrupa mamlakatlariga qaraganda Angliyada u o`zining keng qamrovli ko`rinishiga ega bo`ldi. O`zaro urushlar va tez-tez ko`tarilib turgan dehqonlar qo`zg`oloni natijasida eski feodal jamiyat yemirila boshladi, ishlab chiqarish munosabatlari keng rivojlanish pallasiga kirib, hunardmandchilik va savdo sotiq avj ola boshladi, qisqasi kapital to`plash davri boshlandi.

Genrix 8 Angliyani boshqara boshlagan davr 1509 dan boshlab, inglizlarning Rim papasiga qaramligi barham topadi. U tomonidan o`tkazilgan islohatlar Angliyada Uyg`onish davrining keng quloqchilik yoyishiga ko`maklashgan edi. Shuningdek, Angliya

Uyg`onish davrining tug`ilishiga bir oz Ovrupaning Uyg`onish davri oldinroq yuz bergan mamlakatlari gumanistlarining ta'siri ham katta bo`ldi, masalan, uzoq vaqt Angliyada yashagan Niderlandiya Uyg`onish davrining buyuk vakili Erazm Rotterdamskiyning ilg`or fikrlarining ta'siri beqiyos bo`lgan edi. Angliyada yuz bergan Uyg`onish davri jamiyatni tezkorlik bilan rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratdi, xalq o`zligin anglay boshladi. Madaniyat, jug`rofiy kashfiyotlar rivojlanishi va inson ongining o`rta asr diniy cherkov akidalaridan qutulishi borasida keng imkoniyatlar yuzaga kela boshladi. Mashhur materialist olim Frensis Bekon ilmiy tajribalariga suyangan holda ta'lim tarbiyani olib borish masalasini quyadi.

Angliya madaniyati va adabiyotining yirik vakillari gumanizm g`oyalarini baland ko`tarib, o`zlarining asarlarida mehnatkashlar manfaatini himoya qilib chiqdilar. Ular qadimgi Yunon va Rim madaniyati, adabiyotining yutuqlaridan foydalanib, ularning hayotbaxsh an'analarini oyoqqa turgazdilar.

XIV asrning oxiridan boshlab rivojlana boshlagan Angliya gumanizmi XVI asrda va XVII asrning boshlarida o`zining eng yuqori bosqichini boshidan kechirdi.

Angliya gumanizmining dastlabki yirik vakillaridan biri Djefri Choserdir 1340-1400. U savdogar oilasida tug`ilgan. U Italiya va Fransiya Uyg`onish davri vakillarining ijodidan keng bahramand bo`ladi, u qirol Eduard 3ga yaqin kishilardan bo`lib, u bilan birga harbiy yurishlarda va urushlarda ishtirok etadi.

Choser ijodining dastlabki katta muvaffaqiyati uning «Gertsoginya haqida kitob» 1369 degan poemasida ko`rinadi. Bu lirik poemada o`rta asr nazmida hukm surgan eskicha aqidalarga rioya qilinmaydi va mazkur asarda Uyg`onishga xos bo`lgan insonparvarlik tuyg`ulari porlay boshlagan edi. Shoir unda o`z malikasining bevaqt olamdan ko`z yumishi bilan undan ajralib kolgan ritsarning alamlarini jo`shib kuylaydi. Shoir tasvir jarayonida yuksak olam qahramonlari hayotiga ham tez-tez murojaat qiladiki, bu holat Uyg`onish davrining antik dunyo olamiga bo`lgan qiziqishini ham ma'lum darajada ifodalaydi.

Chosarning «Shuhrat uyi (1379-1384) «Qushlar kengashi» (1377-1382), «Troil va Krizeida» (1372-1384) kabi asarlarida ham usha davrining ruhi bo`rtib turadi. M.Gorkiy Choserga «Realizmga asos solgan» sa'natkor deb baho bergan edi. Choserning «Kanterberi hikoyalari» 1367 nazmiy yul bilan yozilgan bo`lib, unda «Dekameron»dagidek hikoyalar o`rin olgan. 29 kishidan iborat va turli toifadan bo`lgan odamlar Garri Beyli mehmonxonasiga to`planishib Kenterberidagi avliyo Tomas Beker qabrini ziyorat qilish uchun yulga chiqadilar. Manzil uzoq bo`lganligi uchun ham ular borish va qaytishda navbatma-navbat har biri to`rttadan hikoya aytishga kelishadilar. Yulovchilarning tarkibida ritsar, savdogar, monah, kosib, talaba, dehqon va turli toifa kishilari borligi uchun ham hikoyalar turli tabaqa kishilari hayotini aks ettiradilar.

Bir hikoyada hikoya qilinishicha uch do`st oltin topib oladi. Ulardan biri ovqat topib kelgani ketganda ikki «Do`st» oltinni teng ikkiga bo`lib olish niyatida uni o`ldirish rejasini tuzadi. Tamaddi topib olish uchun ketgan yigit esa topilgan oltinlarni bir o`ziga qolishini istab, olib kelayotgan ovqatiga zahar solib keladi, oltin esa ularga nasib etmaydi.

Xullas, Choser o`zining bu asarida ham kulgili, ham qayg`uli va qiziq hikoyalarni bayon etish bilan o`sha davr turli tabaqa kishilar haqida keng ma'lumot beradi, tug`ilib kelayotgan Uyg`onish davri adabiyotiga keng yo`l tushab beradi.

XIV-XV asrlarda ingliz xalq og`zaki ijodi yanada yuksaklikka ko`tarildi, masalan, birgina zolim feodallarga qarshi kurashib ezilganlarni hikoya qilgan Robin Gud haqidagi

son-sanoksiz balladalar, xalq hikoyalari to`kilgan. yengilmas Robin Gud timsolida xalq feodal urushlar, qushimcha soliqlar boylarning zulmiga bo`lgan nafratini ifodalagan edi.

Ingliz Uyg`onish davri gumanizmining yirik vakillaridan biri Tomas Mordir (1478-1535). U o`zining «Utopiya» (1516) asari bilan mashhurdir. Bu asarda Tomas Morning gumanistik qarashlari o`z ifodasini topgan. Agarda Angliyadagi ijtimoiy tuzum bilan «Utopiya» orasida baxt-saodatda yashayotgan insonlarning turmush tarzi taqqoslanadi. Dengizchi Rafael Gitlodey, Utopiya orolida ko`rganlarini muallifga hikoya qiladi. U yerda hech qanday xususiy mulk yuk, pul muomilasi yuq, davlat erkin demokratik asoslarida boshqariladi, hamma ehtiyojiga yarasha ta'minlangan, ishlab chiqarish oilaviy xunardmandchilik asosida ko`rilgan. Bunday erkin demokratik jamiyat Angliyadagi zulm va tekinox`rlik ustiga qurilgan tuzumga qarshi kuyiladi. Tomas Morning ushbu asari Angliya Uyg`onish davri va butun Ovrupadagi gumanistik xarakat uchun katta ma'naviy ozik bergan edi.

Tomas Mor Genrix 8 devonxonasi boshlig`i darajasiga ko`tariladi, lekin tezda undan iste'fo beradi. Genrix 8 bilan uning o`rtasida ixtilof chiqadi. Mor uzining goyalaridan hech chekinmaydi va 5 iyul 1535-yilda qirol uni qatl ettiradi.

Ingliz Uyg`onish harakatining yana bir lirik vakili Frensis Bekon (1561-1626) edi. O`z falsafiy qarashlari bilan materialist bo`lgan bu yirik olim va yozuvchidir. Uning «Fanning muvaffaqiyatlari haqida», «Haqiqat haqida», «Ulim haqida», «Sevgi haqida», «Go`zallik haqida», «Odat va tarbiya haqida» kabi ocherknoma asarlari va to`gallanmay qolgan «Yangi Atlantida» degan romanlari Uyg`onish davri adabiyotining yirik asarlari bo`lib hisoblanadi. Bekon o`zining romanida ilm-fanni rivojlantirib farovon turmushga erishsa bo`ladi, degan g`oyani ilgari suradi.

16 asrda Uyg`onish davri poeziyasi yuqori chuqqiga ko`tarildi.

T.Uayet (1503-1542), G.Serrey (1517-1547), F.Sidney (1554-1586), E.Spenser (1552-1599), Dj Lili (1554-1606), T.Dnlone (1543-1600) kabi Renessans shoirlarining nazmida insoniy tuygular ulug`lanadi, sevgi mhabbat yuksak pardalarda kuylanadi. Ular Italiya Uyg`onish davri poeziyasining yunalishlaridan ham ko`p bahramand bo`lib, eski usuldagi ingliz poeziyasiga barham berdilar.

Shahar madaniyatining gullab yashnay boshlashi turli xil teatr tomoshalariga bulgan ehtiyojni ham keltirib chikardi. Robin Gud xakidagi turli hil hikoyalar asosidagi teatr tomoshalar ko`rsatila boshlandi. 16 asrning ikkinchi yarmiga kelib esa Angliyada teatr va dramaturgiya tez suratlar bilan o`sa boshladi. Uyg`onish davri ingliz teatri asosan, kuchalarda turli hil tomoshalar ko`rsatib yuradigan sayyor guruhlardan boshlab takomillashib boraverdi. Angliya universitetlari huzurida talabalar tomonidan tashkil etilgan tomoshalar ham borib-borib haqiqiy saxnalarning yaratilishiga asos bo`ldi. Saroy va xususiy teatrlar ham maydonga kela boshladi. Teatr burjuaziya bilan monarxiyaning, bir-biri bilan to`qnashuv saxnalariga ham aylandi.

Qirol hokimiyatining necha bor ko`plab teatrlarni va ba'zi bir sahna asarlarini taqiqlab quyishlari ham bejiz emas edi. Teatr sahnalaridan Plovt, Terentsiy, Seneka kabi antik dunyo dramaturglarining asarlari ham mustahkam joy olgan edi. 16 asrda Londonda 9 ta teatr mavjud edi. Jon Lili, Kristofer Marlo, (1564-1593) o`zining «Ulug` Temur» (1587-1588), «Doktor Fadetning fojiali tarixi» (1588-1589), «Malta Yaxudiysi» (1592) kabi tragediyalarini yozib elga shuhrat qozongan edi.

XIV asrda dunyo miqyosida juda ko'p o'zgarishlar qilgan va ko'p yerlar aholisini o'ziga tobe qilgan A.Temur haqidagi pesasida Marlo Temurni har qanday qiyinchilik va to'siqlarin yengib o'tadigan, qudratli va o'z kuchiga ishongan shaxs sifatida tasvirlaydi.

Marloning bu asari o'zbekchaga tarjima qilinsa yaxshi bo'lardi.

Vilyam Shekspirning ijodi shakllangan XVI asrning oxiri XVII asrning boshlarida Uyg'onish davri Angliyada eng yuqori bosqichga ko'tarilayotgan bo'lib, inglizlar urtasida o'z o'zini chuqur anglash, milliy birlik uchun kurash avj olib ketib, madaniyat va adabiyot maydonida yangi bir ma'naviy ko'tarilishlar yuz bera boshlagan bir davr edi.

Xalq ichidan chiqqan V.Shekspir (1564-1616) o'zining katta iqtidori bilan birinchi asarlaridan boshlaboq katta shuhrat qozona boshlagan edi.

U Sretford degan kichik bir shaharchada tug'ilgan edi, uning otasi charm qulkop tayyorlovchi hunarmand bo'lgan. U 18 yoshida Anna Xentuey degan fermer qiziga uylanib Suzanna ismli qiz va Yudef hamda Gamlet ismli ug'illar ko'radi. 1587-yilda Londonga kelgan Shekspir teatrga ishga kiradi. Ishni suflyorlikdan boshlab, tezda butun olamga tanilgan yozuvchi bo'lib yetishadi.

Shekspir butun ijodi davomida 154 sonet, 37 pesa va ikki poema yozgan bo'lib, shekspirshunos olimlarining ijodini 3 davrga buladilar. 1590-1601-yillarni o'z ichiga olgan Shekspir ijodining 1-davrida «Adashishlar komediyasi», «Kiyik qizning quyilishi», «Veronikalik ikki yigit», «Sevgining behuda kuchayishi», «Yoz kechasidagi tush», «Vindzorlik masxaraboz ayollar», «Yuk narsadan bir talay gavgo», «Bu sizga yoqadimi?», «Un ikkinchi kecha», kabi komediyalarni va «Genrix 4», «Richarb 3», «Qirol Ioani», «Richard 2», «Genrix 4», «Genrix 5», «Romeo va Juletta», «Yuliy Sezar» kabi mashhur tragediyalarni yozgan.

1601-1608-yillarni kamrab oladigan ikkinchi davrda «Gamlet», «Otello», «Kirol Lir», «Makbet», «Antoniy va Kleopatra», «Koriolan», «Afinalik Timon» kabi buyuk gumanistik g'oyalarni ifoda etuvchi fojiali asarlarini yaratadi.

Shekspir ijodining uchinchi davri (1608-1612)da asosan «Simbelin», «Qishki ertak», «Buron» kabi tragikomediyalarni yozib, ularda ko'proq ertaksimom syujetlarga murojaat qilib, insoniyat kelajagiga ishonch bilan qaraydi.

V.Shekspir o'zining mazkur asarlari bilan faqatgina Angliya yoki Ovro'pa Uyg'onish davrigina emas, balki butun insoniyatni sevimli yozuvchisi bo'lib oldi. Uning asarlari dunyoning deyarli hamma sahnalarida o'ynalib kelinmoqda.

Shekspir ijodining dastlabki davrlarida xushchaqchaq, kulgili komediyalarning yaratilishiga asosiy sabab ingliz xalqining ispanlarning «Engilmas armada»si ustidan qilgan g'alabasidan so'ng farovon turmush kechirishga ishonch va orzulari bilan bog'lanib ketadi.

Lekin, oddiy xalq axvoli yaxshilanmadi, ingliz hayoti qarama-qarshiliklarga to'liq borar, dehqonlar va boshqa oddiy tabaqa vakillari xonavayron bo'la boshladi. Bular albatta Shekspir ijodiga ta'sir etmasdan qolmasdi. Shuning uchun ham Shekspir ijodining ikkinchi davrida hayot haqidagi chuqur falsafiy ruh bilan sug'orilgan fojiviy asarlarini yaratadi.

Shekspir ijodining oxirgi uchinchi davri Yakov I Styuartning Angliyada o'rnatgan feodal reaksion rejimi vaqtiga tug'ri keldi. Uning hukmronligi davrida teatrdan falsafiy ruhdagi, insonlarni o'yg'otuvchi, 176 psalar olib tashlandi, turli bahonalar bilan teatrlar yopib quyila boshlagan edi. Shekspir bu davrda ham adolatni tantana qilishiga ishonib yashadi va o'zining yozgan afsonaviy ertak tragikomediyalarida hayot chigalliklariga javob topishga harakat qildi.

Shekspirning «Venera va Adonis» va «Nomusi toptalgan Lukretsiya» poemalarining ham o`ziga xos qimmatli tomonlari bo`lib, ularda muallif hayot haqiqatlariga asoslanadi.

Shekspir sonetlarining asosiy bosh qaxramoni esa Uyg`onish davrining do`stlik, sevgi va san'atga intilgan yuksak madaniyatli kishisidir.

V.Shekspir o`z asarlarida doimo oddiy odamlar hayotini aks ettirishni hech qachon yodidan chiqarmadi. Hatto uning o`rta asr Angliya hayotidan yozib olingan «Richard 2», «Richard 3», kabi dramalarida asosan saroy hayoti qalamga olingan bo`lsa ham, lekin umumiy sahnalarda xunardmandlar, xizmatkorlar, askarlar, dehqonlar ishtirok etadilar. Shekspir ularning obrazini zur mehr-muhabbat bilan yaratadi.

Shekspir «Yuliy Sezar», «Antoni va Kleopatra», «Koriolan» kabi pesalarida qul va quldorlar o`rtasidagi kurashni va yakka hokimiyatchilik tarafdorlari bilan respublikachilar o`rtasidagi ziddiyatlarni ko`rsatish orqali antik dunyo bilan hozirgi Angliya hayoti o`rtasidagi o`ziga xoslik va uxshashlik tomonlarni qidirib topishga harakat qiladi.

Shekspirning «Romeo va Djuletta» tragediyasi sevgi bobidagi o`rta asr aqidalarini fosh etish va Uyg`onish davridagi erkin muhabbatni ulug`lashga qaratilgan. Asardagi Romeo va Djulettalarning haqiqiy muhabbatini ulug`lash va ularning sevgisi, hayotiga zomin bo`lgan o`rta asr jaxolatini qoralaydi. Shekspir bu pesasida insonni go`zalliligiga, bir-birini anglashga halaqit beradigan hamma aqidalarga qarshi kurashish g`oyasini ilgari suradi.

Shekspirning shox asarlaridan biri bo`lmish «Gamlet» tragediyasidagi shahzoda Gamlet Uyg`onish davrining eng muqobil farzandi. U faqat otasi uchun emas, balki butun adolatsizliklar va zulmni keltirib chiqaradigan illatlarni yuq qilish uchun kurash olib boradi.

«Otello» tragediyasida esa Uyg`onish davrining gumanistik g`oyalarini o`zida mujassamlashtirgan Otello va Dezdimalarga qarshi o`zida o`rta asrning butun feodal illatlarini mujassamlashtirgan Yagoning qarama qarshi quyilishi ham o`sha davr talablaridan kelib chiqan edi.

Shekspir «Kiro Lir» asarida qirolning hamma boylıklaridan mahrum etilib, xato boshpanasiz qolishini ko`rsatish orqali hukmdorlarning oddiy boshpanasiz insonlar taqdiri haqida ham o`ylab ko`rishi kerakligiga ishora qiladi.

Shekspir o`zining «Buron» pesasida ilmiy bilimlarga suyanish insoniyatga baxt, tinchlik berishi va u yordamida odamlar hamma tabiat sirlari ustidan g`alaba qozonishi mumkin, degan g`oyani ilgari suradi.

Umuman, Shekspir ijodi juda xalqchil va gumanizm bilan sug`orilgan, uning asarlari hech qachon eskirmaydi.

## **Mavzu: Fransiya va Ispaniyada Uyg`onish davri adabiyoti**

Reja:

1. Fransiyada reformatsiya harakati
2. Dastlabki gumanistik qarashlar
3. Fransua Rable ijodi

**Adabiyotlar:**

- 1.F.Boynazarov. Jahon adabiyoti. T., 2006.
- 2.Servantes. "Don Kixot". T., 1991.
- 3.O.Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1996.

XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrlarda Fransiyada Uyg'onish davri hukm surdi. Fransiya Uyg'onish davrining maydonga kelishida Italiyada yuz bergan Uyg'onish davri samarali ta'sir ko'rsatdi. Fransiya qiroli Karl 8 1494 va uning merosxo'rlari tomonidan Italiyaga qilingan harbiy yurishlari davrida frantsuzlar o'zlari uchun ko'p ma'naviy oziq oladilar. Natijada Italiya uslubida ko'plab qurilish inshootlari qurila boshlandi. Parij, Lion va Navrridagi qator shaharlar Frantsuz Uyg'onish davrining beshiklariga aylandi. Gilom Byude 1468-1540 tomonidan yangi universitet ochildi. Bu oliygoh XIII asrdan boshlab ishlab kelayotgan Sorbonni dorilfununidan o'zining yangicha o'qitish tuzumi bilan keskin farq qilardi. Ma'lumki, Uyg'onish davri o'zining gumanizmi bilan alohida ajralib turadi. Fransiya Uyg'onish davri gumanizmi ham o'ziga xos xususiyatlari bilan insonni ulug'lab, uning orzu umidlari uchun kurash olib bordi. Insonparvarlik g'oyasi katolik cherkovining notug'ri siyosatiga qarshi qaratilgan bo'lib, dinni isloh qilish uchun boshlagan Reformatsiya kurashining bayrog'ini baland ko'tardi. F.Engels «Roman xalqlarida arablardan o'tgan va yangidan kashf etilgan grek falsafasi bilan sug'orilgan quvnoq fikr erkinligi tobora ko'proq tomir yoya boshladi; bu erkinlik esa 18 asr materializmini hozirlab bordi», -deganda frantsuz gumanistlarining ham harakatini ko'zda tutgan edi. Xullas, frantsuz Uyg'onish davrining odimlashida antik dunyo adabiyoti va italiya hamda boshqa Ovro'pa mamlakatlarida sal oldinroq yuz bergan Renessans samarali ta'sir ko'rsatdi. XVI asrda o'zining yanada gullab yashnagan pallasiga kirgan frantsuz Uyg'onish davrining Rable, Maro, Margarita Navraskaya, Ronsar kabi qator yirik vakillari frantsuz adabiyoti va gumanizmini baland chuqqiga ko'tardilar. Margarita Angulemskaya frantsuz qiroli Frantsisk Ining singlisi bo'lib, birinchi eri vafot etgandan so'ng Navrra qiroli Genrix d Albrega turmushga chiqadi va Margarita Navraskaya (1492-1549) nomini oladi. U adabiy tugarak ochib, o'z atrofiga ko'plab adabiyot va madaniyat vakillarini to'playdi. U ko'pgina «Dinsizlikda» ayblangan protestantchilarga homiylik qiladi. Margarita turli adabiy janrlarda ijod qiladi. Uning «Xeptameron» degan Bokkachchoning «Dekameron» asarita'sirida yozgan ajoyib-g'aroyib hikoyalarini o'z ichiga olgan. Margarita hammasi bo'lib 72 hikoyani yozib ulgurgan, xolos. Bevaqt o'lim unga «Dekameron»dagidek 100 hikoya yozishga imkoniyat bermagan. Agar «Dekameron» da ko'prok ajoyib-g'aroyib, ba'zida esa ertaksimov voqealar aks etgan bo'lsa, «Xeptameron» da ko'proq oilaviy maishiy tomondagi hayotiy hikoyalar bayon etiladi. Margaritaning 5, 22, 31, 72 novellalarida monaxlar fosh etilsa, 2, 5, 6, 7, novellalarida xalq ichidan chiqqan jasoratli ayollar hayoti tasvirlanadi.

«Xeptameron» Kotre kurortiga dam olish uchun borgan bir qancha erkak va ayollar Fransiya qaytayotganida yul va ko'priklarni suv olib ketib, falokat yuz berishi voqealari bilan boshlanadi. Falokatdan qutilib olgan 5 erkak va 5 ayol Natr-Dam de Serrans abbatligida to'planishib hikoya aytish bilan kecha kunduzni o'tkazadilar. To yullar qurib, ko'priklar tuzatilguncha ular bu yerda qamalib o'tirishga majbur bo'lishadi. Umuman, bu hodisalar haqiqatan Margarita Navraskaya va uning qarindosh-urug'larining kurortdan qaytishida yuz berganligini adabiyotshunoslar ta'kidlashgan.

Margaritaning adabiy to'garagi a'zolaridan Kleman Maro (1496-1544), Bonaventura Depere (1510-1544) kabi a'zolari ham Uyg'onish davrining ko'zga ko'ringan ijodkorlari



sifatida tanildilar. Ular yaratgan «Lyuben og`a», «Tinchlik Kimvali» kabi asarlarida ham satira, ham yumoristik lavhalarida ba'zi bir monaxlarning hatti-harakati tanqid qilinib, adiblarning oddiy mehnatkashga xayrixohlik qilishi sezilib turiladi.

### **FRANSUA RABLE (1494-1553)**

Frantsuz Uyg`onish davri adabiyotining eng ulkan namoyondalaridan biridir. Fransua Rablening ijodi Uyg`onish davrining boshqa vakillari ijodidan tubdan farq qiladi. U o`zidan oldingi uzoq davrlar frantsuz adabiyoti va madaniyatining aloqa iplarini Uyg`onish davri madaniyati va adabiyoti taraqqiyoti bilan mahkam bog`langan san'atkordir. Rablening qudratli va sexrli qalamiga mansub bo`lgan yangi nasrning frantsuz adabiyotida tug`ilishi butun Ovro`pa adabiyotida romanchilik janrini boshlab berdi. Uyg`onish davrining va undan keyingi asarlarining ham yozuvchilari F.Rable ijodidan katta bahramand bo`ldilar.

Fransua Rable 1494-yil 4-fevralda Shinon yaqinida dunyoga kelgan. Uning asarlarida Shinon atrof-muhitining tabiati juda qiyomiga yetkazib tasvirlanishidan ham Rablening bolaligi Ven daryosining qirg`og`i bo`ylarida o`tganligiga kitobxon zarracha shubha qilmaydi.

Umuman, Rable tug`ilgan Luara vodiysidan yana Ransa, Dyu Belle, Obine kabi frantsuz Uyg`onish davrining yirik vakillari ham yetishib chiqqanligini hisobga olsak, bu vodiy frantsuz Renessansining beshigi bo`lganligiga zarracha shubha qilmasa ham bo`ladi. 1510-yilda Rable monastirga xizmatga kiradi va turli tillarini o`rganishga kirishadi. Rablening La Bomett i Fontan le Kont bilan hamkorlikda tashkil etgan adabiy to`garagiga Tirako, Amori Bushar kabi huquqshunos va faylasuvlar ham kelib qo`shiladi. Ular bu to`garakda Fransiya Uyg`onish davri gumanizmi yo`nalishlariga asos solgan edilar. 1530-yildan boshlab Tibbiyot ilmini chuqur o`rgana boshlagan Rable ko`p odamlarning hayotini vrach sifatida qutqarib qoladi, kasalxonalarda ishlaydi, tibbiyot doktori degan darajani oladi. Rable juda ko`p mamlakatlarda bo`lib, turli toifadagi insonlar hayotini chuqur o`rganadi. Rable bir necha yil Parijda yashab frantsuz qiroli Frantsisk huzurida xizmat qiladi, lekin tezda bu yerdan ketdi, u hayotining keyingi pallalarida ruhoniylikdan voz kechib ijod bilan shug`ullanadi, diniy tortishuvlarning avj olib ketishi va insonparvar kishilarning ko`plari Fransiyadan quvg`in qilina boshlaganida Rable ham vatanidan ketishga va vaqtincha chet ellarda istiqomat qilishga tug`ri keladi.

Rablening nomini jahonga mashhur qilgan eng buyuk asari «Gargantyua va Pantagryual» romanidir.

Roman besh kitobdan iborat bo`lib, uning birinchisi 1533-yilda, ikkinchisi 1534-yilda, uchinchi kitobi 1546-yilda, to`rtinchi qismi-1552 yilda va romanning so`ngi kitobi 1564-yilda yozuvchi vafotidan so`ng nashr qilingan.

«Kitobimni ochingiz va unda bayon qilingan voqealar haqida yaxshilab o`ylab ko`ringiz, -deb yozgan edi F.Rable. Shunday qilsangiz, tushunasiz asarning sarlavhasini o`qish bilan unda be'mani narsalar bayon etilar ekan, degan xayolga kelish mumkin, lekin aslo bunday emas, siz mutloq ishona berishingiz mumkinki, uni o`qish natijasida ham jasoratli, ham dono bo`lasiz, chunki mening kitobimda butunlay boshqacha yo`sindagi rux va qandaydir faqat yuksak didli kishilarga tushunarli bo`ladigan ta'limotni ko`rasizki, bu esa sizga bizning din, xuddi shu kabi siyosatimiz ro`zg`orshunoslikka doir o`ta maxfiy va dahshatli sirlarni ochib beradi. O.Qayumov tarjimasida Haqiqatan ham Rablening mazkur romani qattiq hazil, kulgi mutoyibalar, nozik kinoyalarga juda boy. Xalq uslubida yozilgan

mazkur asarning maydonga kelishida Lionda nashr etilgan «Buyuk va ulkan pahlavon Gergantyura haqida ulug` va qimmatli xronikalar» xalq kitobining ahamiyati katta bo`lgan.

Rable asarining bosh qahramoni Utopiya mamlakatining bahaybat pahlavoni Granguzening ug`li bahodir pahlavon Gargantyuadir. Gargantyuaning ilk o`qituvchisi Tubal Olofern quruq sxolastik diniy o`qitishning ramzi sifatida beriladi. Gargantyu birgina o`qituvchisi boshchiligida bir qo`llanmani rosa un uch yilu olti oy va ikki xaftada o`qib chiqishga muvaffaq bo`ladi va Olofern vafot etadi. Uning ikkinchi o`qituvchisi Jobelen Bride ham aljigan chol bo`lib chiqadi va o`g`lining aqlli bo`lishi o`rniga kundankunga tentaklashib boroyotganligidan norozi bo`lgan ota o`qituvchini haydab yuboradi. Bu bilan Rable o`rta asr ta`lim-tarbiya usulini, quruq yodlash uslubiyatlari ustidan kuladi.

Nihoyat Garantyuaga muallim sifatida gumanist, taraqqiyparvar bilimli inson Ponokrat tarbiya bera boshlaydi. Uning tarbiyasi natijasida Gorgantyu har tomonlama bilimga ega bo`lgan, uddaburon va nihoyatda sog`lom bahodir bo`lib yetishadi. Bu bilan Rable Uyg`onish davrining yangi aqidalarini yoqlaydi, eskicha maktab va hayot bilan xayrlashish taraqqiyot zamini ekanligini ta`kidlaydi.

Romanning keyingi qismida otasining yurti bo`lmish Utopiya yurtiga o`zboshimchalik bilan bostirib kelgan qushni mamlakat qiroli Pikroxol qo`shinlari ustidan Gargantyuaning g`alaba qozonishi tasvirlanadi. Romanning keyingi kitobida Gargantyuaning Pantagryuel degan bahodir o`g`lining tug`ilishi va u bilan bog`liq bo`lgan qahramonona sarguzashtlar hikoya qilinadi.

Gargantyuaning 524 yoshida Pantagryuel o`g`li dunyoga kelgan. Romanda Gargantyu yoqtirib qolgan va doimo o`z yonida olib yuradigan Panurg obrazi ham yaxshi ishlangan. Panurg Gargantyu huzurida xizmat qilishga o`tishgacha boshidan ko`p sarguzashtlarni kechirgan. U oddiy shahar bolasi bo`lib «pul topishning oltmish uch yo`lini bilgan, ularning eng to`g`risi, eng oddiysi sezdirmasdan o`g`irlash edi». Romanning keyingi qismlarida ham Panurgning olimlar bilan tortishuvlari hikoya qilinadi. Shuningdek, kitobning oxirgi qismida Pantagryuel va Panurgning «Ovoz chiqaruvchi orol»ga borib qolishi va u yerda tekin tomoq, yeb semirib ketgan qushlar dunyosiga tushib qolishi hikoya qilinadi.

Umuman, Rablening «Gargantyu va Pantagryuel» romani o`rta asr jaholatiga, eskicha turmush tarziga, eskicha ta`lim-tarbiyaga qarshi yozilgan, ularni keskin fosh etuvchi buyuk asardir.

Yuqorida bayon etilganlardan F.Rablening mazkur asarida ertaksimon voqealar tasvirlanar ekan-da, degan xulosa chiqmasligi lozim, chunki unda yozuvchi o`zi yashab turgan frantsuz hayotining keng manzarasini ham chizadi. U o`zining mazkur asarida katta bir mehr va tushunish bilan frantsuz dehqonlari hayotini tasvirlaydi. Rable shahar hayotida kun kechirayotgan turli tabaqa vakillarining hayotini ham haqqoniy tasvirlaydi, kitobni o`qir ekanmiz ko`z oldimizdan hunarmand, savdogar, non yopuvchi, daydi va hatto o`g`rilar hayoti jonlanadi. Shuningdek, shahar ziyolisi, doktiri, masxarabozlari, turli toifadagi folchilarning kun kechirish tartibi qalamga olinadi.

Yozuvchi asar vokealarini goh saroy dabdabalariga, goh ibodatxonaga, goh esa huvillab yotgan qal`aga, goh dorilfunun ma`ruzaxonalari ko`chiradi.

Rable o`rta asr xayotining turli urush va tinchlik kunlarini, yarmarkalar qizib turib, masxarabozlar «Hunar» ko`rsatayotgan lavhalarini, qurg`oqchilik bo`lib hosil kam bo`lgan damlardagi holatlarni ham haqqoniy tasvirlaydi. Rable o`zining asarida barcha gumanitar

fanlarning rivojiga katta mehr-muhabbat bilan qaraydi. Umuman, Rablening «Gargantuya va Pantagryuel» asari umum Ovrupa Uyg'onish davri erishgan barcha ijodiy muvaffaqiyatlar va holatlarning o'zida mujassamlantirgan ekanligini mamnuniyat bilan qayd etib frantsuzchaga tarjima kiladi. Shundan so'ng novellaga qiziqish yanada kuchayib ketadi. XVI asrning 30-yillarida Nikola de Trua, Bonavantur Depare, 40-yillarida Margarita Navarrskaya, Noel Dyu Fayl, Jak Tayurolar ko'plab novellalar ijod qildilar. XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa lirik nazm va Uyg'onish dramaturgiyasi keng quloq yoza boshladi. Masalan, usha davrda Eten Jodelning (1532-1573) «Asira Kleopatra» degan fojiasi katta shuhrat qozongan edi.

Dramada hikoya qilinishicha, urushda Oktavian Kleopatroning eri Antoniyni yengadi. Asir tushgan Kleopatra undan rahm shafqat qilishni so'raydi. Oktavian Rimdagi g'alabani nishonlash bayramiga Kleopatroning ham chiqishini aytadi, lekin buni o'ziga or bilgan Kleopatira o'zini o'ldiradi.

Jan Greven Myurenin ham 1560-yilda yozgan «Yuliy Sezar» dramasi bilan mashhur bo'lgan edi. Rim tarixidan olib yozilgan dramatik asarlari bilan mashhur bo'lgan Robert Garne (1534-1590) ning «Korneliya», «Mark Antoniy», «Antigona», «Antoniy» kabi pesalari bilan mashhur bo'ladi.

Fransiya Uyg'onish davri gumanizmi uchun kurashlar avj oldirib yuborilgan bir davrda «Pleyada» shoirlari deb atalgan bir guruh adolat va insongarchilik uchun kurash olib borgan: U Jan Dora, Per Ronsar, Dyu Belle, Jan Antuan Eten, Jodel, Bello, Pontyus de Tiar kabi shoirlar maydonga chiqdilar. Ularning adabiy to'garagi boshida Per Ronsar 1524-1585 turardi. Ular saroy poeziyasiga zarba berdilar, Uyg'onish davri gumanizmi g'oyalarini yanada chuqurlashtirish uchun kurash olib bordilar, ular she'riy vaznlarni isloh qilishni yoqlab chiqdilar, o'z nazmlarida muhabbatni ulug'ladilar.

Ispaniyada XV asrning ikkinchi yarmida savdo sotiq, hunarmandchilik va sanoatning keng rivojlanish davriga kirib kapitalistik munosabatlar tomon yul tutila boshlandi. XV asrning ikkinchi yarmida tashkil topgan Ispaniyadagi absolyut hokimiyat XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib Filipp 2 (1556-1598) hukmronlik qilgan davrda siyosiy va iqtisodiy tushkunlikka uchradi. Ispaniya nazorati ostida bo'lgan Niderlandiya qo'ldan ketdi, Angliya ustiga yuborilgan «Engilmas Armada» tor-mor etildi. Mamlakatdan yaxudiylar va utroqlashib qolgan mavr (arablar) ning haydalashi ham mamlakat ho'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun ham XVI-XVII asrlarda Ispaniyada ko'plab dehqon quzg'olonlari bo'lib o'tdi. Xullas, ana shunday alg'ov-dalg'ovli davrlarda Ispaniya va unga qaram bo'lgan Portugaliyada gumanistik g'oyalar keng tarqala boshladi va Uyg'onish tomon yo'l tutildi. Ispaniya Uyg'onish davri adabiyoti tarixini quyidagicha davrlarga bo'lish mumkin:

Uyg'onish davrining Ispaniya Kataloniyasida tug'ilishi va tarakkiyotini o'z ichiga olgan davrlar. (1400-1475).

Umum Ispaniya miqyosida yuz bergan Uyg'onishning ilk davrlari. (1475-1500) .

Ispaniya Uyg'onish davrining gullab yashnagan va so'nggi davrlari (550-yildan XVII asrning 30-yillarigacha)

XVI asrda Ispaniyaning Kataloniya viloyatining dengiz buyi shaharlarida sanoat rivojlana boshlab, savdo-sotiq avj ola boshladi. Oliy ilmgohlar ochilib, ular qadimgi Yunon va rim madaniyatini o'rganish uchog'iga aylana boshladi. Italiya Uyg'onish davri madaniyatining ham kuchli ta'siri sezila boshladi. Kataloniyada Petrarka poeziyasi ta'sirida italyan nazmi maktabining ochilishi ham bunga guvoxlik beradi.

Italiya Uyg`onish davrining ikkinchi davriga kelib, ya'ni XV asrning oxirlari yagona ispan davlati tashkil topdi. Granada yarim orolidagi mavrlarning oxirgi tayanchi ham barbod bo`ldi. Bu davrda Amrikoning zabt etilishi Ispaniyani oltin bilan to`ldirib yubordi, ishlab chiqarish tez sur'atlar bilan rivojlana boshlandi. Portugaliyalarning Afrika orqali Hindistonga yul ochishi ham savdo-sotiqni yanada tez rivojlantirdi. Shu narsani kayd etish kerakki, Ispaniyaga Uyg`onish davriga, uning gumanistik g`oyalariga hukumat tomonidan keskin qarshiliklar ko`rsatildi. Lekin shunga qaramasdan Italiya Uyg`onish davrlarida lirik va liro epik she'rlar yozilib; ularda vatanparvarlik g`oyalari, erksevarlik g`oyalari yangradi, adabiyot xalqchilik kasb eta boshladi. Ijodi XV asrga to`g`ri kelgan Ine Lopets Santilyana Ispaniya ilk Uyg`onish davri adabiyotining yirik vakillaridan biri bo`lib, u xalq og`zaki ijodiga suyangan holda qator sonetlar, poemalar, maqollar ijod qildi. Uning vazmi insonparvarlik g`oyalari bilan sug`orilgan. U o`z asarlarida Kastiliya qiroli Xuana 2ga qarshi turadi. Uning «Portugallik Pedroga maktub», «ponus haqida kichik komediya», «Sevishganlar jahannami» kabi asarlarida va qator sonet hamda qushiqlarida gumanizm ulug`landi, folklor an'analari davom ettirildi. Santilyana Ispaniya nazmida birinchi bo`lib qishloq qizining go`zalliligini eng yuqori quyib kuylagan shoirdir.

Xorxe Manreke (1440-1478) va Gorsilaso dn la Vegasya kabi Uyg`onish davrining shoirlari ham Santilyani an'alarini davom ettirdi. Ularning asarlarida ham Ispaniya ilk Uyg`onish davriga xos bo`lgan xalq ijodiga qiziqish kuchli edi. Xorxe Manrekening otasining o`limiga bag`ishlangan «Stanlari» shoirga katta shuxrat keltirdi.

Ispaniya Uyg`onish davrining ilk davrlaridan boshlab roman janri taraqqiy eta boshladi. Ular o`rta asr ritsar romanlarining boshqacharoq bir qurinishi bo`lib, bu romanlarda ko`proq juxrofiy kashfiyotlar bilan bog`liq bo`lgan, sarguzasht qidiruvchi insonlarning boshidan kechirgan sarguzashtlari hikoya qilindi, ayniqsa, Amadiy Uelskiy haqidagi romanlarkeng shuhrat qozondi.

Xuan Rodrigues de la Kamera (1450 yilda ulgan) o`zining «Sevgining erkin kuli» romanida inson sevgisi tabiat go`zalligini his qilish jarayoni bilan bog`lab tasvirlanadi.

Muallifi noma'lum bo`lgan «Tormaslik Dasariloning hayoti» degan romanda og`ir hayotiy sharoitga tushib qolgan yosh bolaning achchiq taqdiri hikoya qilinadi.

Uyg`onish davrida ispan dramaturgiyasi ham shakllana boshladi.

Xuan del Ensina (1469-1533) Jil Visente (1470-1536) Lo le de Rueda (1510-1565). Masalan, Lole de Rueda ispan teatrining asoschisi bo`lib qoldi, u o`zi yozgan dramatik asarlarda bosh rollarni ijro etgan va o`z asarlarida oddiy insonlar hayotini tasvirlashga katta o`rin bergan. Uning «Oliva» pesasi bunga yorqin misol bo`la oladi.

Ispaniya Uyg`onish davrining yuksaklikka ko`tarilgan davrlarida ispaniya va unga qaram bo`lgan Portugaliyada gumanistlar bilan qora kuchlar o`rtasida kurash yanada keskin avj oldi. Bu kurash Uyg`onish davri gumanizmi adabiyoti va madaniyatini hamma jabhalarida o`z ifodasini topdi.

Bu davrlarda bahodir dengizchilarning adabiyotda jasorati, buyuk jufg`oriy kashfiyotlar ham ko`ylandi. Masalan, Portugal-gumanist shoiri Luis Kamoeno (1525-1580) «Luziada» degan poemasini yozib, unda Hindistonni ixtiro qilgan dengizchi Vaska da Gamni (1469-1524) ulug`langan edi. Poemada Vasko Gam va uning atrofidagi bahodir dengizchilar troyalik mashhur dengizchi Luening hozirgi avlodlari deb ulug`lanadi.

Ispaniya Uyg`onish davri adabiyoti epik janrining ustalaridan yana biri Alonos Ersili (1533-1594) bo`lib, uning «Araukanlar» poemasida ispanlar bilan Amrikodagi hindular

(hozirgi chililiklar) avlodi bilan janglar tasvirlanadi. Shoir hindularning araukanlar qabilasi va uning dohiysining janglarda ko`rsatgan qahramonliklarini ulug`laydi.

### **MIGEL DE SERVANTES SAAVEDRA (1547-1616)**

Faqatgina Ispaniya Uyg`onish davrining eng yuksak chuqqisi emas, balki umumjahon adabiyotining buyuk yozuvchisidir. «Don Kixot» asari Shekspir asarlari bilan qamoxanglikda umumjahon Uyg`onish davrining eng buyuk asarlari hisoblanadi. Umuman, Servantes ijodi insoniyat aqliy zakovatining yangi davrga qo`ygan ulkan qadami edi.

V.Belinskiy Servantesning «Don Kixot» romani bilan badiiy adabiyot, umuman jahon adabiyoti tarixida yangi zamon boshlanganligini aytib, «U romanning ideal yo`nalishiga qat'iy zarba berdi va uni boqelik tomon burdi» deb o`rta asr oldi-qochdi ritsar romanlaridan «Don Kixot» o`zining hayotni haqqoniy tasvirlashi bilan ajralib turishini ko`rsatgan edi.

Servantes Alkala de Enarss shaharchasida tabib oilasida dunyoga kelgan, 1561-yilda ularning oilasi madridga kuchdi va u yerda o`qishini davom ettirib, dorilfunni tamomlaydi. Servantes harbiy xizmat chog`ida Lepanto yaqinidagi turklarga qarshi urushda qatnashib uch yeridan o`q yeydi. U harbiydan bo`shagandan so`ng, adabiy faoliyat bilan shug`ullanadi va Filipp 2 ning xotini vafotigacha bag`ishlangan sonetlarini yozish bilan ijodini boshlaydi.

1575-yilning sentyabrda u ukasi Rodriga bilan qaroqchilar qo`liga tushib qolib jazoirga olib ketiladi va uning ota-onasi 1580-yil 19-sentyabrdagina uni asirlikdan qutqarib olishga muvaffaq bo`ladi. Shundan sung u Portugaliyaga boradi, lekin u yerda ham omadi kelmay 1584-yilda Madridga qaytib kelib Katalina ismli qizga o`ylanadi, va otasi o`lgach (1585) oila boshlig`i bo`lib qoladi. U soliq yiguvchi bo`lib ishlab yurganda tuhmat natijasida boshqa bir jinoyatchining o`rniga qamoqqa tushadi, u to`plangan g`allani notug`ri sarflashda ayblangan edi. Shunday qilib, u ust-ustiga 1592, 1597, 1602 yillarda ehtiyotsizligi va boshqalarning aybi bilan uch marta qamaladi. Lekin tezda u uchinchi bor qamoqqa olinganida ozodlikka chiqib, 1604-yilda qirolikning yangi poytaxti Valyadolidga ko`chib keladi. Shekspir boshiga ana shunday alg`ov-dalg`ov musibatlar tushganida o`zining mashxur romani «Don Kixot» ning birinchi kismi bosmadan chikdi. Servantesning «Ibratli novellalar» (1613) hikoyalar to`plami, «Parnasga sayohat» (1614) poemasi, 1615-yilda esa «Sakkiz komediya va sakkiz intermediya» nomli pesalar tuplami ham nashr qilinadi.

Servantesning «Don Kixot» romani va yuqorida qayd etilgan boshqa poema, hikoyalari yozuvchining harbiy hizmat davrida, tutqinlikda, qamoqda va ko`p muhtojliklarni boshidan kechirgan kishining to`plagan hayoti tajribalari asosida maydonga kelganligi uchun ham nihoyatda hayotiy va badiiy jihatdan pishiq asarlar bo`lib qolgan.

Servantesning «Don Kixot» romani o`rta asr oldi-qochdi ritsar romanlariga qarshi parodiya shaklida yozilgan. Servantes bu asari bilan ritsar romanchiligining «Qulay deb turgan iste`qomini ag`darish»ni maqsad qilib qo`ygan edi. Roman ancha murakkab syujetga ega bo`lib, unda faqatgina o`rta asr ritsarlik hayoti fosh qilibgina qolmay, balki yozuvchi o`zi yashab turgan davrning ham birga yaramas illatlarini ham achchiq satira ostiga oladi, umuman olganda asarda feodal urf-odatlariga qaqshatqich zarba berilgan. Umuman, Don Kixot obrazi hayotdan, halqdan ajralib qolgan va o`z atrofida yuz berayotgan voqealarga odilona baho bera olmaslik, uni sezishdan mahrumlikning ramzi

sifatida qaralib, uning kulgili behuda hatti-harakatlari turmushdan ajralib qolishi esa kitobxonni hayot haqida o'ylashga majbur qiladi.

Romanning bosh qahramoni bo'lmish, Lamanch qishlog'ida istiqomat qiluvchi, yoshi elliklarga borib qolgan, ozg'in, novcha kambag'allashgan va ovni xush ko'radigan Kexonadir. U eski ritsar romanlarini o'qiyverib, uyqusizlikdan va ulardagi oldi-qochdi sarguzashtlardan ta'sirlanib miyasi aynib qoladi va uzicha ritsar bulib qahramonliklar ko'rsatishga shaylanadi. Uning miyasiga ritsar romanlarida tasvirlanagan va hayot haqiqatlariga mos kelmaydigan voqealar qattiq o'rnashib qolganligidan u tez-tez vasvasaga va jazavaga tushadigan bo'lib qoladi. Kexona o'z avlodlaridan qolgan eski qurol-yarog'qlarni tuzatgan bo'lib, hatto o'ziga temir qalpoq ham topib oladi. Oqsoq, oriq otiga egar jabduqni urib va o'ziga «Lamanchlik Don Kixot» deb jarangdor nom quyib, ko'rsatish uchun yulga chiqadi. Ritsar romanlaridan ma'lumki, jahongashta ritsarning sevgilisi bo'lishi albatta shart edi. Shuning uchun ham Don Kixot o'ziga Toboso qishlog'ida cho'chqaboqar bo'lib ig'lovchi Aldonso Lorensoni qayliq qilib tanlaydi va bu qizga o'zicha dabdabali malikalarga hos bo'lgan Dulsineya Toboso deb nom quyadi. Shunday qilib yoz oyida o'zining tulpori Rosinatga minib, yarog' aslahalarini bo'yniga taqib olib, qahramonlik safariga o'tlanadi. Umuman, Don Kixot o'zi yaratgan afsonaviy hayoliy olamda yashaydi. U ilk bor «Dushman» bilan karvon saroy yonida tuqnashadi, shundan so'ng yana yulda Toledo savdogarlari bilan to'qnashib, ularni jahongashta ritsarlar deb bilibularga hujum qiladi va Dulsineyani dunyodagi hamma malikalardan ko'ra go'zalroq deb ularning tan olishiga majbur qiladi. Don Kixotning ko'ziga yuldagi shamol tegirmoni dushman, devlar bo'lib ko'rinadi va hokazolar.

Umuman, ritsar romanlariga berilish Don Kixotni tentaksimon-telbaga aylantirib quygan edi. Shuning uchun ham Don Kixot safardan qaytib qattiq shikastlanib yotganda uni ko'rgani kelgan o'rtoqlari uning kutubxonasini bosib ketgan son-sanoqsiz ritsar romanlarini kuchaga uloqtirmoqchi buladilar. Bu esa yozuvchining ham ritsar romanlariga bo'lgan kuchli nafratining ifodasi ham edi.

Shu narsani alohida qayd etish kerakki, Don Kixot pok qalbli insonlarni hurmat qiladi. Uning jonajon do'sti hayotda yashashdan birdan-bir maqsadi biror viloyatga gubernator bo'lish bo'lgan Sancho Pansaning pokligiga va kuchiga ishonadi.

Don Kixot asta-sekinlik bilan o'ziga kela boshlaydi, lekin ritsar saro'zashtlari haqida gap ketdiki, tamom yana uning jazavasi tutib, jahongashta ritsar qiyofasiga tushib, og'ir ahvolda qoladi.

Lekin Don Kixot asta-sekinlik bilan o'zining bu illatidan qutula boradi va o'zini yo'ldan toydirgan hayoliy vasvasalaridan butunlay qutulishga harakat qila boshlaydi. «Mening aqlim ravshanlashdi, endi u jaholat o'rab olgan qorong'ilikdan holidirki, badbaxt va qabih, ritsar romanlarini tinmay o'qish uni zulmat botqog'iga botirgan edi. Men endi ularning butunlay ba'mani va qalbakiligini ko'rsatmoqdaman, meni birdan-bir qayg'urtirayotgan narsa shuki, bu xushyorlik menga juda kech keldi, shuning uchun xatoni tuzatish va jonga mash'al bo'ladigan boshqa kitoblarni o'qish uchun kirishishga endi menda vaqt yuq» deydi hayotining so'nggida Don Kixot va u yana oddiy Aldonso Kixanoga aylanadi. Qisqasi, Servantesning tili bilan aytganda Don Kixot tentakday yashadi va donishmanday o'ldi. Umuman, romanda Servantesning feodal targibotlariga qarama-qarshi bo'lgan g'oyalari ifodalanib, jamiyatni insonparvarlik nuqtai-nazardan qayta ko'rish kerakligi ta'kidlanadi. Yozuvchi Don Kixotning ezilganlarga yordam

berishga shoshilishini ko'rsatish orqali Uyg'onish davrida tug'ilib kelayotgan buyuk gumanistik harakatlarni ulug'laydi.

### **Mavzu: XVII asr klassitsizm adabiyoti.**

#### **Reja:**

1. Klassitsizmning kelib chiqishi va asosiy prinsiplari.
2. Nikola Bualo klassitsizm adabiy oqimining nazariyotchisi sifatida.
3. Moler ijodining ahamiyati.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.Sh.Normatova. Jahon adabiyoti. T., 2008.
- 2.F.Sulaymonova. "Sharq va G'arb". T., 1997.
- 3.F.Boynazarov. Jahon adabiyoti. T., 2006.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida XVII asrning o'rtalariga kelib bir muncha susayish kuzatila boshlandi. Niderlandiya, Angliyadagi inqiloblar feodal tizimining yemirilishiga ta'sir ko'rsatdi. Dunyodagi eng katta kashfiyotlar yirik ixtirolar yangi savdo bozorlarining ochilishi, inson faoliyatida keng imkoniyatlar yaratdi. Bu oqim uyg'onish davri adabiy an'alarini davom ettirdi. Lopi Divega yaratgan komediyalarda barokko ijodkorlarining ruhiy tushkinlikdagi asarlariga xushchaqchaq hayotni qarshi qo'yadi. Shuningdek, Sharl, Soril ham Fransuzlarning haqqoniy va kulguli hayot tasvirlangan romanlarida o'z quvonchlarini ifodalaydilar. Mamlakatdagi mavjud ijodiy jarayonlar ma'lum qoidaga bo'y sundiriladi. Kardinal Risheli tashkil qilingan akademiya orqali adabiyotni o'z nazoratiga oladi. Ana shu yo'nalishda qonundan chetga chiqish, san'atda bosh boshdoqlikka olib boriladigan yo'llarga kiriladi. Bu oqimga kirmagan Ko'rnil va "Sid" tragediyasi katta qarshilikka uchraydi.

Klassizmning asosiy qonuniyatlaridan biri, tabiatga taqlid qilish turmushni real tasvirlashdan iborat. Bu oqimning yirik nazariyotchisi Bualo "Poeziya san'ati" degan asarida yaramas tabiatga voqelikni qupol tomonlarga emas, faqat go'zal tabiatga taqlid qilishga chaqiradi. Klassizm nazariyasi bo'yicha adabiy janrlar yuksak tragediya, epos qasida va tuban komediya, satira, epigramma kabi turlarga bo'linadi.

XVII asr G'arbiy Yevropa adabiyotida Jon Milton, Kornil, Rasin, Moler, Lope de Vega, Kaldiron kabi yozuvchilarni yetishtirdi. Jon Milton Londonda dunyoga kelgan. Miltonning "Komus" nomli lirik asari his-tuyg'u bilan aql-idrok o'rtasida uyg'unlik bo'lishi kerakligi haqidagi fikr yotadi. Milton "Yo'qotilgan jannat", "Topilgan jannat", "Samson-kurashchi" kabi tragediyalarini yaratdi.

"Samson-kurashchi" asarida kurash va qasos olish ishtiyoqi bilan yashagan qahramonlar tasvirlangan. Yozuvchi bu tragediyasida Filistemlyan shahrida yuz bergan voqealarni Samsonning makr-hiylaga uchib o'zini sirlarini aytib qo'rganligi sababli afsuslanganligi tasvirlangan. Samson ruhan azob chekadi. Qahramonning o'zi ham halok bo'ladi. Tragediyaning boshdi Samson azob ichida yashaganligi tasvirlangan. Poemada voqealar chuqur va dadil xulosalar chiqarishga ko'tarilmasa ham restavratsiya davrida chuqur mulohazalarga boyligi bilan ajralib turadi.

## Mavzu: Angliya va Germaniyada ma'rifatchilik adabiyoti

Reja:

1. Davrning xarakterli xususiyatlari
2. Yevropa mamlakatlarida ma'rifatchilik g'oyasining targ'ib etilishi
3. Nemis-frantsuz-ingliz ma'rifatchilari

### Adabiyotlar

- 1.Sh.Normatova. Jahon adabiyoti. T., 2008.
- 2.D.Defo. "Robinzon Kruzo". T., 1991.
- 3.Q.Azizov, O.Qayumov. Chet el adabiyoti tarixi. T., 1994.
- 4.F.Boynazarov, A.Xolmurodov. Jahon adabiyoti. Jizzax. 2008.
- 5.Amerika adabiyoti asoslari. H Karomatov tarjimasini T. 2001.
- 6.Q.Do'stmuhammad. Nobel mukofatini olgan adiblar.T.,Ma'naviyat, 2004.

Jahon tarixida XXVIII asr yangi davrni boshlab berdi, eski tartiblarni yemirib tashladi. Davlatlarning taraqqiyot bosqichida yangi davr boshlandi. Yaratilayotgan jamiyki asarlarda ma'rifatchilik g'oyalari keng targ'ib qilindi. Ma'rifat so'zi keng ma'noda xalqni bilimli, ma'rifatli qilish ma'nosida qo'llansa, tor ma'noda esa, iste'bdod tuzumining zulmiga qarshi olib borilgan aqliy harakatni ifoda etadi.

Bu adabiyotning estetik qarashlari shu bilan qadrlidi ediki ular san'atning tarbiyaviy ahamiyatini jamiyatni qayta qurish maanfaatlariga bo'y sundirdi. XVIII asr ma'rifatchilari yangi ruhdagi falsafiy roman, fa'lsafiy povest va drammatik turdagi asarlar yaratdilar.

Ma'rifatchilik harakati G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ma'lum bir tizim asosida ko'rinmasa ham ular ma'naviy yuksaklik taraqqiyparvar adabiyot uchun mushtarak tomonlari mavjudki u uning taraqqiyparvar xarakterida ko'rinadi. Bu adabiyotning Anglyadagi buyuk nomoyondalari yetishib chiqdi. Robert Berns, Daniel Defo, Jonatan Swift, Semyul Richerdson, Genri Filding va boshqalar.

Frantsuz adabiyotida ma'rifatchilik g'oyalarini targ'ib qilgan shoirlardan Fransua Volter, Deni Didro, Jan, Jak Russo, Per Ogyusten Bomarshe kabi falsafiy adabiy faoliyati Bilan mashhur adiblar yetishib chiqdi. Nemis ma'rifatchiligida esa Efraim Lessing, Fridrix Shiller, Iogani Volfgang Gyoti singari buyuk lim va jamoyat arboblari yetishib chiqdi.

Angliya ma'rifatchilik adabiyotida yorqin iz qoldirgan adiblardan biri Daniel Defodir (1660 - 1731).

Defo Londonda savdogar oilasida tug'iladi. Bo'lajak yozuvchi savdo ishlariga qiziqadi, tijorat ishlari bilan Yevropaning Portugaliya, Ispaniya, Italiya, Fransiya kabi mamlakatlariga boradi.

"Robinzon Kruzo" romani 1719-yil yaratiladi. Romanning yaratilishiga oid aniq dalillar bor.

1713-yili ingliz yozuvchisi Richard Stil "Angliyalik" nomli jarnalda Aleksandr Selkirk to'g'risidagi ocherki bilan chiqadi. Aleksandr Selkirk Shotlandiya matrosi bo'lib, kema kapitani bilan janjallashib qoladi. Uni Janubiy Amerikaning Chili qirg'oqlaridagi Xuan Fernandes orollaridan biriga tushirib ketadilar. Selkirk kimsasiz orolda kimsasiz 4 yilu 4 oy hayot kechiradi. U deyarli yovvoyilashib qoladi. 1709-yili



sobiq matrosni uchratgan ingliz kemasi Angliyaga olib ketadi. Aleksand Selkirkning ko'rgan kechirganlari katta shov – shuvlarga sabab bo'ladi.

Robinzon Kruzo yoshlik yillarida hayotning ko'p azoblarini boshidan o'tkazadi, ota – onasining aytgan nasihatlariga quloq solmay Londondagi savdo kemasining kapitani bilan tanishadi. Dunyoning ko'p mamlakatlariga tijorat tufayli dunyoning ko'p mamlakatlariga borib turadi. Robinzon Kruzo kimsasiz orolda yashay boshlaydi bu yerda 25 yil yashagandan so'ng bir yigitni odamxurlardan ajratib oladi va unga Jumaboy deb ism beradi. Robinzon va uning sheriklarini Angliyaga eltib qo'yadi.

Asarda tasvirlangan bu obraz kuch qudratli tadbirkor kishi iroda va g'ayrati tuganmaydi. Odam oyog'i tegmagan yerda yashagan Robinzo Jamaboy Bilan dustlashadi va uni o'ziga yaqin tutadi. O'zining insoniy qiyofasini yo'qotmaydi. Robinzon Kruzo yaratilganida buyon 250-yildan ortiq vaqt o'tib bormoqda. Robinzon Kruzo Dune tillarining ko'pchiligiga tarjima qilingan u ma'rifaatparvarlik ruhida yaratilgan asar bo'lib yozuvchining katta iste'dod sohibi ekanligini ko'rsatadi.

## **Mavzu: Romantizm adabiyoti**

### **Reja:**

1. Bayron ijodi.
2. Shoir asarlaridagi romantik ruh.
3. Viktor Gyugo ijodi.
4. V. Gyugoning jamiyat haqidagi qarashlari. “Xo'rlanganlar” asarining ahamiyati.

### **Adabiyotlar:**

1. Jahon adabiyoti. Jurnal. T., 2007. № 6-8.
2. F. Boynazarov, A. Xolmurodov. Jahon adabiyoti. Jizzax. 2008.
3. Sh. Normatova. Jahon adabiyoti. T., 2008.
4. F. Sulaymonova. “Sharq va G'arb”. T., 1997.

Yevropa romantizm adabiyoti. XIX asrning boshlarida paydo bo'ldi. Feodal tartiblariga o'rniga taraqqiyparvar romantiklar mehnat ahlining manfaatlarini himoya qilib chiqdilar. Romantizm vakillaridan Angliyada Bayron, Shelli, Valter Skott Fransiyada Gyugo, Jorj San, Polshada Adam Mitskevich, Yuli us, Slovatskiy va boshqalar ijod qila boshladilar. Romantizm nemis adabiyotida A. Shamisso, A. Gofman, aka-uka Grimlar hisoblanadi. Ingliz adabiyotida esa, Bayron, Shelli, Kolresh, Kits, Lem, Xezlit va boshqalar bu yo'nalishda ijod qildilar. Bayron 1788-1824-yillarda ijod qildi.

Bayronning yoshligi Shotlandiyada o'tgan. 10 yoshiga to'lganda, Lord unvoni olgan. U ikki yil o'rta yer dengizi bo'ylab, sayohatga chiqadi. Ispaniya, Malta, Albaniya, Turkiya, Portugaliya hamda Gretsiyani aylanadi. Ana shu sayohatlar natijasida “Chayld Garoldning ziyorati” nomli lirik-epik doston yaratadi. Dostonda asar qahramoni shoirning o'zi bo'ladi. U Portugaliya, Ispaniya, Albaniya va Gretsiyada bo'ladi.

Bayron ijodida “Sharq dostonlari” alohida o'ringa ega. Bayron “Gyaur” dostonida Leyla ismli ayolni sevadi. Leylaning rashkchi eri Hasan o'z xotinining Gyaur bilan sevishganidan xabar topib uni o'ldiradi. Bu xol Gyaurda Leyla uchun Hasandan qasd

olishga chorlaydi. Asar oxirida Leylanning ishqida azob chekib Hasan ham vafot etadi. “Korsor” dostonida esa, asar qahramoni Konrod bo`ladi. Shoirning “Don Juan” she`riy romani uni dunyoga mashhur qiladi.

Viktor Gyugo 1802-1885-yillar ijod qildi. Gyugo, Ernana, “Marion Delorm” dramalarini yaratdi. Yozuvchining “Parij Bibi Maryam ibodatxonasi” romanida “Ananke” yozuvi taqdir qismat degan ma`nolarni anglatishi bitib qo`yilgan. Asar qahramoni Klod Frullo, Kvazimoda, Fib Esmiralda kabilar asarda asosiy o`rinni egallaydi.

V.Gyugoning “Xo`rlanganlar” romanida xor-zorlikka tubanlikka tushgan zo`rlangan kishilar qismatining ayanchli ekanligini ko`rsatadi. Ammo yozuvchi ushbu qahramonlarning hayot xavfidan qanday qutilish kerakligini bilolmaydilar. U jamiyat a`zolarini axloqiy jihatdan tarbiyalab adolat o`rnatish mumkin deb hisoblaydilar. Asar qahramoni Jan Baljan obrazi misolida insof-saxiylik, yomonlikka yaxshilik qilish, gunohni kechirish mumkin deb hisoblaydi.

### **Mavzu: Fransuz, ingliz va nemis tanqidiy realizm adabiyoti.**

#### **Reja:**

- 1.Frederik Stendal asarning siyosiy ahamiyati.
- 2.Onore de Balzak, Gyustav Flober ijodi.
- 3.Dikkens tanqidiy realizmning yirik vakili.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.F.Stendal. “Qizil va qora”. T., 1992.
- 2.O.Balzak. “Gorio ota”. T., 2004.
- 3.F.Boynazarov. Jahon adabiyoti. T., 2006.

Angliya va Fransiyada XIX asrning birinchi yarmiga, Amerika Qo`shma Shtatlari va Slavyan mamlakatlarida tanqidiy realizm rivojlana boshlandi. Roman janrida Balzak va Dikkens barakali ijod qildi. Frederik Stendal 1783-1842-yillar yashab ijod qildi. Stendal Fransuz armiyasi safida Italiya, Germaniya va Rossiyada bo`ladi. Stendalning “Napolyon hayoti” Napolyon haqida xotiralar shuningdek, Rim “Neapol”, “Florensiya” kabi yo`l xotiralarini yozdi. Stendalning “Qizil va qora” romanida erkinlik, respublika tushunchalari anglanadi. Qorada esa reaksion kuchlarni anglatadi. Roman qahramoni Jyulen Sorel shuhratparast yigit, Jyulen Sorel Verer, Bezanson, Parij shaharlari bilan tanish bo`ladi.

Jyulen Sorel uy bekasi Renal xonimning sevgisini qozonadi. Bu yerdan ketgan qahramon Markez de Iya Molning qizi Mateldaning diqqatini o`ziga tortadi. Bundan xabar topgan otasi kambag`al yigitga qizini berishga rozi bo`lmaydi. Qahramon o`zining tamomila dushman doiralarida orasida kuch uning dushmanlari tomonidan ekanini yaxshi biladi.

Onore de Balzak 1799-1850-yillar yashab ijod etdi. Uning “Shuanlar”, “Gobsek”, “Sag`ri teri tilsimi”, “Noma`lum navodir”, “Gorio ota” kabi asarlarni yaratdi. Balzak “Inson komediyasi degan” umumiy nom ostida “Xulq haqida etyudlar”, “Falsafiy etyudlar”, “Analitik etyudlar” yaratdi. “Inson komediyasi” yozuvchi rejasi bo`yicha 143

roman va novelladan tashkil topishi kerak edi. Shulardan 96 yozib tugallangan. “Gorio ota” romani 1834-yilda yozilgan.

Gyustav Flober 1821-1880-yillar yashab ijod qilgan. U Ruan shahrida vrach oilasida dunyoga kelgan. Floberning “Bovari xonim”, “Salambo”, “Sezgilar tarbiyasi”, “Avliyo Antoniyning aldanishi” kabi asarlarni yaratdi. Flober dastlabki “Bovari xonim”da hayotiy haqiqatni romantik xayolparastlikka qarshi quyadi.

## **Mavzu: XIX asr oxiri va XX asr boshlari adabiyoti**

### **Reja:**

1. Tanqidiy realizm va adabiy oqimlar.
2. Emil Zolya va Gi de Mopassan ijodi.
3. XIX asrning oxirgi choragi Parij Kommunasining olamshumul shuhrati bilan boshlanganligi.

### **Adabiyotlar:**

- 1.F.Boynazarov. Jahon adabiyoti. T., 2006.
- 2.E.Zolya. “Hamal”. T., 2003.
- 3.Gi de Mopassan. “Azizim”, “Hayot”. T., 1993.
- 4.Sh.Normatova. Jahon adabiyoti. T., 2008.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida sinfiy ziddiyatlar kuchaya boshlandi. Eng yangi davr chet el adabiyotidagi adabiy oqim – tanqidiy realizm sanaladi. Bu oqim Stendal, Balzak, Dikkens va boshqa adiblarning asarlarida o`z aksini topdi. Zolya, Mopassan va Frans (Fransiya), Gardi, Shou, Uells, (Angliya), G.Mann, T.Mann (Germaniya), M.Tven va J.London (Amerika Qo`shma Shtatlari) dandir.

Emil Zolya 1840-1902-yillarda yashab ijod etdi. Yozuvchi “Ninon ertaklari”, “Klotning tavbasi”, “Marsel sirlari” va boshqa romanlarni yaratdi. “Tereza Raken” asarining muqaddimasida Zolya o`zining ilmiy romanlarida xarakterlarni emas, balki tiperamentlarni o`rganish haqida so`z yuritadi. Naturalizm adabiyoti Zolyaning eksperimental roman “Romanist naturalistlar”, “Natlurizm teatri” maqolalarida to`la bayon qilingan.

Zolya hayotining so`nggi yillarida yangi seriyadagi romanlari “Uch shahar” trilogiyasi va “To`rt injil” shaklidagi asarlarni yaratdi. Yozuvchining “Rugon Makkarlar” romani 20 ta qismdan iborat. “Bir oila misolida qon va muhit masalalarini tekshirish”, “Davlat tuntarishidan boshlab, hozirgi kungacha bo`lgan butun imperiya hayotini tasvirlash” masalalarini qo`ydi. Zolya “Rugonlar mansabi” romanida bir kichik shahardagi hayot misolida ikkinchi imperiya tartiblariga qarshi kurashlarni aks ettiradi.

Gi de Mopassan 1856-1893-yillar yashab ijod etdi. Mopassan Normandiyada kambag`allashib qolgan eski dvoryan urug`iga mansub oilada tug`ilgan. Mopassan juda yoshligidan she`r va hikoyalar yozishga kirishgan. Nozik ditli onasi ulug` yozuvchi Flover uning ijodi bilan qiziqqan. Mopassan ilk asarlarini nashr qildirishga shoshilmagan. Uning “Do`ndiq” hikoyasi Mopassan ijodining ikkinchi davri boshlanganligini ko`rsatadi.

Mopassanning “Hayot”, “Azizim” romanlari yozuvchi ijodining ma’rifatchilik g’oyalari tasvirlanganligi bilan xarakterlanadi. Mopassan ijodiga Turgenev, Tolstoy, Chexov va boshqa yozuvchilar yuksak baho berganlar.

Fransuz ishchilar sinfining adabiyotda inqilobiy ruhda aks etishi yuzaga keldi. Parij kommunasi o’z ichidan proletariatning istak orzularini ifodalagan Ejen Pote, Luiza Mishel, Lion Kladel kabi shoir va yozuvchilarni yetkazib chiqardi. Parij kommunasi adabiyotida sharaflari o’rinni egallagan san’atkorlardan biri Ejen Potedir. 1816-1887-yillar Fransiyada yashab ijod etgan. “Internatsional” qo’shig’i Yevropaning barcha tillariga va boshqa tillarga tarjima qilingan.

### **Mavzu: XX asr boshlarida Amerika adabiyoti.**

#### **Reja:**

1. Amerika adabiyotida davr ziddiyatlarining aks etishi.
2. Mark Tven, Jek London ijodi.
3. Teodor Drayzer va Ernest Heminguey ijodining ahamiyati.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.F.Boynazarov. Jahon adabiyoti. T., 2006.
- 2.J.London. “Marten Iden”. T., 2003.
- 3.E.Heminguey. “Chol va dengiz”. T., 2006.
- 4.Sh.Normatova. Jahon adabiyoti. T., 2008.

XX asr boshlariga kelib, Amerika ijtimoiy hayotida katta o’zgarishlar ro’y berdi. Amerikaning o’ziga xos taraqqiyot yo’li bor. U yerda hamma uchun borabar imkoniyatlar mavjud. Adabiy taxallusi Mark Tven bo’lgan Semyuel Lengxorn Klemens Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili bo’lgan. Mark Tven Missisipi daryosida kemada ishlaydi. Ushbu laqabni olishi ham shu davrga to’g’ri keladi (ikki dengiz o’lchovi-yo’l yaxshi, degan ma’noni bildirar edi). Yozuvchining “Xitoylikning xati”, “Kalaverasidan chiqqan mashhur sakrab yuruvchi qurbaqa”, “Tennesiyada jurnalistika” kabi yumoristik hikoyalar yaratgan. Mark Tven tarixiy mavzudagi romanlardan biri “Shahzoda va gado” yaratdi. Yozuvchining “Qirol Artur saroyidagi Konnektikutlik Yanki” tarixiy fantastik roman yozdi.

Amerika realistik hayotining mashhur vakillaridan biri Jek Londondir. J.London 1876-1916-yillar yashab ijod etdi. J.London ijodi shimol hayotidan olib yozilgan “Yo’ldagilar sharaflari uchun”, “Oq sukunat”, “Bo’rivachcha”, “Qirq mil narida” va boshqa hikoyalarni yaratdi. J.London “Martin Iden” romanida xalq ichidan chiqqan qahramonning aqliy va jismoniy jihatdan kuchli bo’lgan matros yigit Martin Iden tasvirlanadi. Martin Iden badavlat Morzlar saroyida tasodifan bo’lgan vaqtda dastlab shoshib qoladi. Iden Morzning xotini tamagir bir ayol ekanligining shohidi bo’ladi.

Teodor Drayzer 1871-1945-yillar XX asrning birinchi yarmi Amerika adabiyotining yirik yozuvchisi bo’ldi. Drayzer “Baxti qaro Kerri” romanining qahramoni kambag’al fermer qizi Korolina Miberni bo’lgan. Yozuvchining “Jenni Gerxard”, “Istak trilogiyasi” va boshqa asarlari jahon tillariga tarjima qilingan.

Ernest Heminguey ijodining ahamiyati. Ernest Xeminguey 1899-1961-yillarda yashab ijod etdi. Amerikaning Ouk-park shahrida tug’ilgan. Yozuvchi “Bizning zamonda”

kitobida Nik Adamsning yoshligi, sevgisi va oilasi haqida hikoya qilsa, qonli urush voqealarini unga qarshi qo'yadi. "Alvido, qurol" romani yozuvchi ijodida alohida ajralib turadi. Asarda yozuvchi urush qabohatlariga shaxsiy hayotni qarshi qo'yadi. Genri Ketrin Barkliga bo'lgan urush dahshatlaridan ham qutulishga intiladi.

"Chol va dengiz" 1952-yil yozilgan. Asar qahramoni Santyago baliq oviga boradi. Lekin to'riga hech qanday baliq tushmaydi. Cholga bir to'da baliq xujum qiladi. Lekin Santyago sarosimaga tushmay baliqlar bilan kurashini davom ettiradi. Chol bir akulani o'ldirgandan so'ng ikkinchisi unga tashlanadi. Uning pichog'i sinib qoladi. Qiyinchilik bilan unga qarshi kurashadi. Chol Santyago qirg'oqqa borganda kurashgan baliqlarining faqatgina suyagi qolgan bo'ladi. Bu orqali yozuvchi chol Santyagoning yolg'iz emasligi va uning irodasini bukib bo'lmasligiga ishora qilyapti.

### **Mavzu: Ekzistensializm adabiyoti. XX asr Lotin Amerikasi adabiyoti.**

#### **Reja:**

1. Ekzistensializm adabiyotining yuzaga kelishi.
2. Pablo Neruda «Ispaniya yuragimda» she'riy to'plamining tahlili.
3. G.Markes ijodida ramziylik.

#### **Adabiyotlar:**

1. G.Markes. "Tanholikdagi yuz yil". T., 1992.
2. P.Neruda. Priznayus ya jil. T., 1997.
3. F.Boynazarov. Jahon adabiyoti. T., 2006.
4. Sh.Normatova. Jahon adabiyoti. T., 2008.

Yevropa adabiyotida hayotni turlicha tasvirlash prinsiplari mavjud bo'lib, bu yozuvchidan borliqni o'ziga xos usulda tasvirlashni taqozo etadi. Ekzistensialist yozuvchilar makon va zamonga bog'liq bo'lmagan turli voqea-hodisalarni tasvirlash jarayonida inson qalbidagi ezgulik g'oyalarini o'z asarlarida talqin qiladilar.

XX asr Lotin Amerikasi adabiyotida ijtimoiy hayot, tarixiy voqelik an'anaviy yo'sinda boshqa xalqlar adabiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Nikolas Gilen, Xose Mansisi, Pablo Neruda, Jorju Amadu kabi shoir, yozuvchilarning ijodlari xarakterli.

Pablo Neruda 1904-1973-yillar Janubiy Amerikaning Parral shaharchasida tug'iladi. Pablo Neruda mamlakatida ta'qib etilayotganligini sezib yevropaga ketadi. O'zbekistonda G'afur G'ulom bilan do'stlashadi. Shoirning "Qalbdagi Ispaniya" kitobini yaratadi. "Bashariyat qo'shig'i" Amerikaning eng qadimgi davridan tortib hozirgi kungacha bo'lgan tarixi tasvirlangan. Nerudaning "Qochoq", "Qo'shiq mavjlari", "Qayg'uli vatanga yangi yil gemni", "Buyuk okean" kabi kitobining so'nggi boblarida shoirning turli mamlakatlardagi darbadar hayoti tasvirlangan. Nerudaning "Tokzorlar va shamollarni" Yevropa va Osiyoda yashovchi ishchi va dehqonlar, siyosiy arboblarning hayoti tasvirlangan. Neruda bu asarida Italiyaning shahar va daryolari, Pragadagi ko'priklar, Polshadagi qurilishlar, Vengriya o'rmonlari haqida yozilgan.

Gabreel Garsiya Markes Janubiy Amerikaning Kolumbiya shahrida tug`ilgan. Yozuvchining “Tanholikning yuz yili”, “Oshkora qotillik qissasi”, “Buzrukning kuzi” asarlari dunyo kitobxonlarining qalbidan o`rin olgan.

### **Mavzu: Nobel mukofotini olgan adiblar va “Jahon adabiyoti» jurnali**

#### **Reja:**

1. Nufuzli mukofot sohibi bo`lgan adiblar.
2. “Jahon adabiyoti” jurnali tarjima sohasida ko`prik vazifasini o`taydi.
3. E.Xeminguey, G.Markes, M.Shoxolov asarlarining jahonshumul ahamiyati.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.O.Sharafiddinov. Nobel mukofotini olgan adiblar. T., 2001.
- 2.Sh.Normatova. Jahon adabiyoti. T., 2008.
- 3.F.Boynazarov. Jahon adabiyoti. T., 2006.

Jahonda eng yaxshi yozilgan asarlar uchun Alfred Nobel mukofoti ta`sis etilgan. Dunyoda bundan yuqori adabiy asarlar uchun mukofot yo`q. O`tgan XX asr adabiy jarayonida bir necha yozuvchilar ana shunday yuksak mukofotga sazovor bo`ldilar. Bir asr davomida yuzdan ortiq shoir yozuvchilar va tinchlik arboblari ana shunday mukofotga sazovor bo`ldilar. Ijtimoiy ma`daniy hayotda misli ko`rilmagan chuqur o`zgarishlar bo`lmoqda. Mamlakatimizda ham xuddi ana shunday jahon adabiyotining hamda MDH xalqlari adabiyotining yuksak namunalari yaratildi.

Alber Kamyu, Sartr, M.SHoloxov, Boris Pasternak, G.G.Markes, A.Soljenitsey, E.Xemenguey kabi shoir va yozuvchilar ana shunday mukofot sohibi bo`ldilar. Xalqlar o`rtasidagi do`stlik aloqalari va madaniy hamkorlik borasida “Jahon adabiyoti” jurnali ko`prik vazifasini o`tamoqda. Respublikamizda tarjima qilish uchun to`g`ri yo`l tanlangan. Shoir va yozuvchilar jahonning eng yaxshi asarlarini o`zbek tiliga tarjima qildilar.

F.Shillerning “Makr va muhabbat” asarini Komil Yashin “Qaroqchilar” asarini, A.Muxtor Danil Defoning “Robinzon Kruzo” asarini, Yo`ldosh Shamsharov o`zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. S.Salimov Gyotening “Mag`ribu-mashriq” devonini o`zbek tiliga tarjima qildi. Bu borada, Mirzakalon Ismoilining xizmatlari katta bo`ldi. Voynichning “So`na” romanini, V.Ro`zimatov A.Zegersning “Tinchlik” ruhidagi hikoyalar to`plamini o`zbek tiliga tarjima qildi. Adabiyotshunos olim va mutarjim I.G`afurov Ernest Xemengueyning “Chol va dengiz”, “Alvido qurol” asarlarini, Q.Mirmuhammedov esa, Jek Londonning “Martin Iden” romanini mahorat bilan o`zbek tiliga tarjima qildilar.

E.Vohidov Gyotening “Faust” asarini o`zbek tiliga o`girdi. O`zbekiston Xalq shoiri J.Kamol Shekspirning tragediyalarini ingliz tilidan o`zbek tiliga tarjima qildi. Tarjima sohasida F.Attorning “Ilohiynoma”, Emil Zolyaning “Hamal” romanini M.Yahyoyev mahorat bilan o`zbek tiliga tarjima qildi.

Shuningdek, Mopassan, Merime, J.London kabi jahon adiblarining asarlari dunyo kitobxonlarining sevimli asariga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, “Sharq yulduzi”, “Jahon adabiyoti” jurnallarining tarjima asarlari bilan boyib borishi ma`naviy dunyomizni yuqori pog`onaga ko`tarmoqda. “Jahon

Aim.uz

adabiyoti” jurnali G`arb adabiyoti va Sharq xalqlari asarlarini noyob durdona sifatida keng xalq ommasiga yetkazmoqda.

